

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Mirzaev Murod Ahmadjonovich
Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna**

T U R I Z M A S O S L A R I

(O‘quv qo‘llanma)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi o‘quv metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan Oliy ta‘limning 810000 - «Xizmat ko‘rsatish» ta‘lim sohasining 5340200 - «Menejment» (turizm), 5810100 - «Turizm» bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

Toshkent-2007

Ma'sul muharrir: prof. A.M. Abduvohidov
Taqrizchilar: O.A. Ahmedjanov, prof. A.K. Aliyev.

M.A. Mirzayev, M.T. Aliyeva. Turizm asoslari: O'quv qo'llanma. – T.:TDIU, 2007. – 320 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada bozor munosabatlari sharoiti asosida turizmni rivojlantirishning asosiy tamoyillari va turizm to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar berilgan. Mahalliy, milliy va hududiy turizmni rivojlantirishning tamoyillari va metodlarini qo'llash orqali sezilarli darajada iqtisodiy daromad olishga alohida e'tibor berilgan. O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy mutahassisliklari bo'yicha bilim olayotgan talabalar, tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar, turizm kasb-hunar kolejlari o'quvchilari hamda turizm sohasi bilan shug'ullanayotgan barcha xodimlarga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma ayrim kamchiliklardan holi bo'lmasligi mumkin. Kitobxonlarning bu boradagi barcha fikr-mulohazalari va takliflari mualliflar tomonidan minnatdorchilik bilan qabul qilinadi.

Ответственный редактор: А.М. Абдувахидов
Рецензенты: О.А.Ахмаджанов, проф. А.К. Алиев

М.А. Мирзаев, М.Т. Алиева. Основы туризма: Учебное пособие. – Т.: ТГЭУ, 2007.- 320 с.

В данном учебном пособии рассмотрены основные принципы развития туризма и нормативные документы по туризму в условиях рыночных отношений. Основное внимание уделено особой роли принципов и методов развития местного, национального и регионального туризма в увеличении прибыли. Учебное пособие предназначено для всех студентов высших учебных заведений по экономическому направлению, соискателям, учителям, профессорам, ученикам средних специальных колледжей туризма, а также всем работникам, занимающимся в туристской отрасли.

В учебном пособии могут быть допущены несколько ошибок. По этому поводу со стороны авторов с благодарностью принимаются рассуждения и предложения читателей.

Responsible editor: prof. A.M. Abduvahidov
Reviewers: O.A. Ahmedjonov, prof. A.K. Aliyev

M.A. Mirzayev, M.T. Aliyeva. Basis of tourism. - Tashkent, TSEU, 2007. – 320 p.

The manual is about main principles of tourism development and touristic documents in market economy. Attention is given to significant role of principles and methods of developing local, national and regional tourism in context of maximization of profit. The manual is intended for all students of high education who study in an economic direction, to competitors, teachers, professors, pupils of average special colleges of tourism, and also all workers, engaged in tourist branch.

The manual can be admitted some mistakes. In this occasion from authors with gratitude reasoning and offers of readers are accepted.

©Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, 2007
©Ташкентский Государственный Экономический Университет, 2007
©Tashkent State University of Economics, 2007

MUNDARIJA

1 - bob. "Turizm asoslari" fanining maqsadi va vazifalari	11
1.1. "Turizm asoslari" fanining maqsad va vazifalari	11
1.2. Fanning boshqa bilimlar tizimida tutgan o`rni	14
1.3. O`zbekiston Respublikasining turizm to`g`risidagi davlat siyosati (me'yoriy hujjatlar asosida)	24
2 - bob. Turizm tushunchasi	61
2.1. Ilk sayohatlar va sayohatchilar tarixi	61
2.2. Turizm tushunchasi, uning boshlanishi, shakllanishi va tarixi	72
3 - bob. Turizm maqsadlari	83
3.1. Turizm maqsadlari haqida ma'lumot	83
3.2. Dam olish va davolanish maqsadlari	85
3.3. Turistik resurslardan foydalanish maqsadi	86
3.4. Ijtimoiy maqsadlar va siyosat	86
4 - bob. Turizmning tashkiliy shakllari va asosiy kategoriyalari	95
4.1. Ichki va xalqaro turizm tushunchalari haqida ma'lumot	95
4.2. Ichki va xalqaro turizmning rivojlanishidagi ayrim muammolar va ko`rsatkichlar	98
5 - bob. Turizm turlari va asosiy ko`rinishlari	103
5.1. Aktiv (faol) va passiv (nafaol) turizm haqida tushuncha	103
5.2. Turizm turlarining ko`rinishlari	107
5.3. Maxsus va ijtimoiy turizmning o`ziga xos xususiyatlari	122
6 - bob. Turist tushunchasining mohiyati	132
6.1. Turist tushunchasining ta'rifi	132
6.2. Turistning maqsadlari	135
6.3. Turistning huquqi va majburiyatlari	139
6.4. Turistning irqi, millati, jinsi, yoshi, tili, dini	141
7 - bob. Turistik industriya (sanoat)	148
7.1. Turistik industriya (sanoat) haqida tushuncha	148
7.2. Turoperatorlar va turagentliklar	150
7.3. Tashish va joylashtirish industriyasi	153
7.4. Ovqatlantirishni tashkil etish	156
8 - bob. Turizm infratuzilmasi	161
8.1. Turizm infratuzilmasi haqida tushuncha	161
8.2. O`zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora - tadbirlari	165
9 - bob. Turistik xizmatlar	172
9.1. Turistik xizmatlar haqida tushuncha	172
9.2. Turistik xizmatlar tarkibi	175
10 - bob. Turistik tovarlar	183
10.1. Turistik tovarlar haqida tushuncha	183

10.2. Davlat boji olinmaydigan tovarlar	184
11 - bob. Turistik mahsulotlar	188
11.1. Turistik mahsulotlar haqida tushuncha	188
11.2. Xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish	190
11.3. Tur va turist yo`nalishi (marshruti)	191
12 - bob. Turistik resurslar	196
12.1. Turistik qiziqish ob'ektlari	196
12.2. Turistik resurslar	199
13 - bob. Ekologiya va turizm	258
13.1. Ekologiya va turizmning o`zaro aloqadorligi	258
13.2. Turizm ekologiyasi va ekologik turizmning o`ziga xos xususiyatlari	259
13.3. Milliy park va zahiralarning ekoturizmga tutgan o`rni	261
14 - bob. Milliy park va rezervatsiyalar	265
14.1. Milliy park haqida tushuncha	265
14.2. Milliy park va rezervatsiyalarning o`ziga xos xususiyatlari va ularning turizmga dahldorligi	268
15 - bob. Turistik sayohatlar xavfsizligini ta'minlash	280
15.1. Sayohat davomida turistlarning hayotiga ta'sir etuvchi omillar	280
15.2. Turistik sayohatlar xavfsizligini ta'minlash chora – tadbirlari	286
16 - bob. Turistik sug`urta	290
16.1. Sug`urta haqida tushuncha	290
16.2. Turistik sug`urta va uning turlari	293
17 - bob. Turistik hujjatlar	297
17.1. Turistik firmadagi uslubiy ta'minot	297
17.2. Asosiy turistik hujjatlar majmuasi	298

СОДЕРЖАНИЕ

Раздел 1. Цели и задачи предмета "Основы туризма"	11
1.1. Цели и задачи предмета "Основы туризма"	11
1.2. Место предмета среди других наук	14
1.3. Государственная политика по туризму Республики Узбекистан (на основе нормативных документов)	24
Раздел 2. Понятие о туризме	61
2.1. История о первых путешествий и путешественников	61
2.2. Понятие о туризме, история ее формирования	72
Раздел 3. Цели туризма	83
3.1. Информация о целях туризма	83
3.2. Цели отдыха и лечения	85
3.3. Цель использования туристических ресурсов	86
3.4. Социальные цели и политика	86
Раздел 4. Организационные формы и основные категории туризма	95
4.1. Информация о внутренним и внешним туризме	95
4.2. Некоторые проблемы и показатели развития внутреннего и внешнего туризма	98
Раздел 5. Основные виды туризма	103
5.1. Понятие об активным и пассивным туризме	103
5.2. Виды туризма	107
5.3. Особенности специального и социального видов туризма	122
Раздел 6. Сущность понятия о туристе	132
6.1. Определение понятия о туристе	132
6.2. Цели туриста	135
6.3. Права и обязанности туриста	139
6.4. Национальность, раса, пол, возраст, язык, религия туриста	141
Раздел 7. Индустрия туризма	148
7.1. Понятие об индустрии туризма	148
7.2. Туроператоры и турагентства	150
7.3. Индустрия перевозок и размещения	153
7.4. Организация питания	156
Раздел 8. Инфраструктура туризма	161
8.1. Понятие об инфраструктуре туризма	161
8.2. Меры по развитию инфраструктуры туризма в Республики Узбекистан	165
Раздел 9. Туристические услуги	172
9.1. Понятие о туристических услугах	172
9.2. Структура туристических услуг	175

Раздел 10. Туристические товары	183
10.1. Понятие о туристических товаров	183
10.2. Товары не облагаемые государственной пошлиной	184
Раздел 11. Туристические продукты	188
11.1. Понятие о туристических продуктов	188
11.2. Стандартизация и сертификация услуг	190
11.3. Тур и туристический маршрут	191
Раздел 12. Туристические ресурсы	196
12.1. Туристические объекты интереса	196
12.2. Туристические ресурсы	199
Раздел 13. Экология и туризм	258
13.1. Взаимосвязь экологии и туризма	258
13.2. Экология туризма и особенности экотуризма	259
13.3. Роль национальных парков в экотуризме	261
Раздел 14. Национальные парки и резервации	265
14.1. Понятие о национальном парке	265
14.2. Особенности национальных парков и резерваций и их причастность туризму	268
Раздел 15. Обеспечение безопасности туристических путешествий	280
15.1. Факторы влияющие на самочувствие туристов	280
15.2. Меры по обеспечению безопасности туристических путешествий	286
Раздел 16. Страхование туризма	290
16.1. Понятие о страховании	290
16.2. Страхование туризма и её виды	293
Раздел 17. Туристические документы	297
17.1. Методическое обеспечение в туристической фирме	297
17.2. Основные туристические документы	298

CONTENTS

Chapter 1. Aims of the subject “Basis of tourism”	11
1.1. Aims of the subject “Basis of tourism”	11
1.2. Relations of the subject “Basis of tourism” with another sciences	14
1.3. The tourism policy of the government of Uzbekistan	24
Chapter 2. Definition of tourism	61
2.1. History of ancient travels and travellers	61
2.2. History of tourism’s definition	72
Chapter 3. Goals of tourism	83
3.1. Information of tourism’s goals	83
3.2. Goals of recreations	85
3.3. Utilization’s goals of touristic resources	86
3.4. Social goals and policy	86
Chapter 4. Main forms and categories of tourism	95
4.1. Information of domestic and international tourisms’ definition	95
4.2. Some problems and indicators of domestic and international tourisms’ development	98
Chapter 5. Main kinds of tourism	103
5.1. Definition of active and passive tourism	103
5.2. Kinds of tourism	107
5.3. Specific features of special and social tourism development	122
Chapter 6. Essence of tourist’s definition	132
6.1. Definition of tourist	132
6.2. Targets of tourist	135
6.3. Rights and duties of tourist	139
6.4. Race, nationality, sex, age, language and religion of tourist	141
Chapter 7. Tourism industry	148
7.1. Definition of tourism industry	148
7.2. Tour operators and tour agents	150
7.3. Transport and hospitality industries	153
7.4. Arrangements of nourishment	156
Chapter 8. Infrastructure of tourism	161
8.1. Definition of tourism’s infrastructure	161
8.2. The development actions of tourism’s infrastructure of Uzbekistan	165
Chapter 9. Touristic services	172
9.1. Definition of touristic services	172
9.2. Contents of touristic services	175
Chapter 10. Touristic goods	183
10.1. Definition of touristic goods	183
10.2. Duty free touristic goods	184

Chapter 11. Touristic products	188
11.1. Definition of touristic products	188
11.2. Standardization and certification of services	190
11.3. Tour and tourist's itinerary	191
Chapter 12. Touristic resources	196
12.1. Attraction objects of tourism	196
12.2. Touristic resources	199
Chapter 13. Ecology and tourism	258
13.1. Relations of ecology and tourism	258
13.2. Ecology of tourism and specific features of ecological tourism	259
13.3. The role of national parks in ecotourism	261
Chapter 14. National parks and reservations	265
14.1. Definition of national park	265
14.2. Specific features of national parks and reservations and their role in tourism	268
Chapter 15. Security arrangements of travels	280
15.1. Influence factors on tourists' security	280
15.2. Security arrangements' actions of travels	286
Chapter 16. Tourism insurance	290
16.1. Definition of insurance	290
16.2. Kinds of tourism insurance	293
Chapter 17. Touristic documents	297
17.1. Methodical arrangements in touristic firms	297
17.2. Main touristic documents	298

KIRISH

Mustaqillik iqtisodiyot ta'limi tizimini misli ko`rilmagan darajada modernizatsiyalashtirib yubordi. Yangi -yangi yo`nalishlar va ixtisosliklar zamon talabiga moslashtirilmokda. Turizm faoliyatini tashkil etuvchi mutaxassislar shular jumlasidandir. Bo`lajak kadrlar esa sohani mukammal egallashlari uchun muhim adabiyotlar bilan ta'minlanmoqdalar. Xususan, "Turizm asoslari" fani fikrimizning dalili bo`lib, u O`zbekistonda hali o`rganilmagan, yangi va kelajagi porloq fanlardan biri hisoblanadi. Uni bakalavriyatning dastlabki bosqich o`quv dasturlariga kiritilishi ham fikrimizning yorqin dalilidir. Studentlar boshqa ijtimoiy fanlar bilan bir qatorda mutaxassislik fani sifatida "Turizm asoslari"ni ilk kurslardanoq o`rgana boshlaydilar.

"Turizm asoslari" o`quv qo`llanmasida respublikamizda ushbu sohaga bo`layotgan e'tiborning ortayotganligi, turizm faoliyatining iqtisodiyot tizimidagi ahamiyati muhimligi dalillar asosida ko`rsatib o`tildi. Qo`llanmani tayyorlash jarayonida amaliy ish faoliyatidagi yutuq va kamchiliklardan foydalanilib, turizmga oid turli me'yoriy - huquqiy hujjatlar jamlandi, atamalar sharhlandi. Xususan, respublikamiz hukumatining turizm sohasidagi qator hujjatlari tahlil etildi, tarixiy - madaniy yodgorliklar va turizm tarixi, turizm maqsadlari, tashkiliy shakllari va asosiy kategoriyalari, turlari, infratuzilmasi, turist tushunchasi, turistik xizmatlar, mahsulotlar va tovarlar, turistik industriya, turistik resurslar o`rganildi.

"Turizm asoslari" fanini boshlang`ich kurslarda mashg`ulot olib borilishiga asosiy sabab shuki, u o`rta maktab ta'limi dasturlariga yaqin turadi. Fanni tayyorlash jarayonida murakkab mavzular va o`ta qiyin tushunchalar berilishidan chetga chiqilgan. Shuningdek, u maktab o`quv dasturlaridagi tarix, geografiya va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadadir.

Ma'lumki, turizm soxasini xalqaro miqyosda ko`rib chiqadigan bo`lsak, u dunyoning turli mintaqalari va mamlakatlarida turlicha rivojlanmoqda hamda o`sha davlatlarning iqtisodiyotiga o`zining ijobiy ta'sirini ko`rsatmoqda. Shu bois, "Turizm asoslari" fanini yoritish jarayonida mazkur mamlakatlardagi turizm faoliyati imkoni

qadar o`rganildi, ijobiy jihatlari va salbiy tomonlarini ochib berilishiga harakat qilindi, respublikamizda kelajakda turizm soxasida qilinishi lozim bo`lgan ishlar haqida fikr bildirildi.

"Turizm asoslari" o`quv qo`llanmasini ishlab chiqishda xorijiy mamlakatlar olimlari va mutaxassislari tomonidan ixtisoslikka oid yaratilgan adabiyotlar o`rganildi, tahlil etildi hamda kerakli o`rinlarda ularning tarjima matnlaridan to`liq foydalanib, respublikamiz sharoitiga moslashtirildi.

"Turizm asoslari" mutaxassislik fanlari ichida o`z o`rniga ega bo`lib, uning mavzulari keyingi kurslarda ta'lim beriladigan turizm yo`nalishidagi fanlarning o`zagini tashkil etadi.

Eng muhimi - o`ziga xos, mutaxassislar ancha yillardan buyon orziqib kutayotgan, turizm ta'limi soxasida yangi ixtisoslik adabiyoti o`zbek tilida yuzaga keldi. Bu ishning debochasidir. Har bir ijod namunasida muallif e'tiboridan chetda qoladigan ayrim kamchiliklar bo`lishi tabiiy. Ushbu o`quv qo`llanma ham undan mustasno emas. Kelajakda soxamizning ilmiy tadqiqotchilari mazkur qo`llanmadan unumli foydalanadilar va uni yangi ma'lumotlar bilan boyitadilar, - degan umiddamiz.

1 - bob. "Turizm asoslari" fanining maqsad va vazifalari

1. 1. "Turizm asoslari" fanining maqsad va vazifalari
1. 2. Fanning boshqa bilimlar tizimida tutgan o`rni
1. 3. O`zbekiston Respublikasining turizm to`g`risidagi davlat siyosati (me'yoriy hujjatlar asosida)

1.1. "Turizm asoslari" fanining maqsad va vazifalari

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishni o`zining asosiy maqsadi qilib belgilab oldi. Bu ishda turizm sohasi ham etakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turizm nafaqat o`tmishni o`rganish, o`zga xalqlar va elatlar bilan tanishish, ularning madaniy yodgorliklaridan bahramand bo`lish, shuningdek, u katta biznes hamdir. Mazkur faoliyatni yo`lga qo`yish esa mutaxassislariga bog`liq. Buning uchun malakali kadrlarni tayyorlash hozirgi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "Xalqaro turizm" fakulteti va Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, qolaversa, qator Turizm kasb - xunar kollejlari bu ishga o`z hissalarini qo`shib kelmoqdalar. Bu o`quv maskanlarida qator fanlar, jumladan, mutaxassislik fanlari ham bo`lib, ularda kasb ilmiga taa`lluqli muammolar o`z echimini topadi. Shunday fanlar ichida "Turizm asoslari" o`z o`rniga ega yangi o`kuv fanlaridan biri bo`lib, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "Xalqaro turizm" fakultetida 2002 - 2003 o`quv yilidan e'tiboran mashg`ulotlar olib borilmoqda.

Tajribalar shuni ko`rsatadiki, turizm tarixi, uning asosiy yo`nalishlari, turlari, kategoriyalari, turistik xizmatlar, umuman turizm ilmi bilan bog`liq barcha masalalar haqida bilim berish, hatto turizmga oid tushuncha va atamalarning har birini ta'riflash muhim ahamiyatga ega bo`lib, bu alohida predmet darajasidagi masala hisoblanadi. Shularni e'tiborga olgan holda, ta'bir joiz bo`lsa aytish mumkinki, "Turizm asoslari" turizmga oid barcha mutaxassislik fanlarining alifbosi sifatida

tashkil etildi. Ma'lumki, turizm yo`nalishidagi fanlarining hammasida ham o`rganiladigan masalaga to`g`ridan - to`g`ri yondashiladi, ya'ni sohaning ibtidosini o`rgatiladigan, uning "ob - havo"sini belgilab beradigan fan kerak edi. "Turizm asoslari" esa aynan shunday predmet hisoblanadi. Uni puxta egallamay turib, mutaxassislikka oid boshqa fanlarni o`zlashtirib olish juda qiyin kechadi.

Ho`sh, "Turizm asoslari" fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat? - degan haqli savol tug`ilishi tabiiy. Masalaga oydinlik kiritish uchun ularni quyidagi tarzda belgilab oldik.

Fanning maqsadlari sifatida:

- turizmning asl mohiyatini ochib berish;
- turizmning taraqqiyot yo`li, tajribasi, hozirgi kundagi muammolarini aniqlab olish;
- turizmning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini yoritib berish;
- sohaga oid tushuncha va atamalarni ta'riflash;
- O`zbekiston va jahon turizm biznesining ildizlarini o`rganishga asosiy e'tibor qaratildi.

Fanning vazifalarida esa:

- turizm va turist tushunchalarini ta'riflash, ularning ilk ko`rinishlari, taraqqiyoti, shakllanishi haqida ilmiy va daliliy manbalar keltirish;
- O`zbekiston Respublikasining turizm to`g`risidagi Davlat siyosati haqida (me'yoriy hujjatlar asosida) ma'lumotlar berish;
- jahon turizm tajribasining ilg`or namunalari bilan o`rtoqlashish;
- turizm va turistning maqsadlarini aniqlab olish;
- turizmning tashkiliy tuzilishi va asosiy kategoriyalarini bilib olish;
- turistik industriya va unga bo`lgan talablarni o`rganish;
- turizm infratuzilmasi haqida ma'lumot olish;
- turizm turlari va uning asosiy ko`rinishlarini belgilab chiqish;
- turistik resurslarni tushuntirib berish;

- turistik tovarlar va mahsulotlar haqidagi tushunchalarni egallash;
- turistik xizmatlar va servis darajasini takomillashtirish sirlarini ochib berish;
- turizm marshrutlari va maxsus marshrutlar haqidagi bilimlarga ega bo'lish;
- turizm da soliq, sug'urta va moliyaviy masalalarni o'rganish dolzarb masala, - deb bilindi.

Mazkur fanni puxta egallash va kelajakda etuk mutaxassis bo'lish uchun studentlar birinchi navbatda O'zbekiston va jahon tarixi, geografiyasi, ularning tabiiy - iqlimiy resurslari, arxeologik va me'moriy yodgorliklari, muzey va madaniyat koshonalari, ayniqsa, iqtisodiyot fanlarining - marketing, menejment, servis, buxgalteriya, soliq, boj yo'nalishlari haqida ma'lum tushunchalarga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, "Buyuk ipak yo'li", savdogarlik tarixi, diniy bilimlar bo'yicha ham etarli fikr - mulohazalar talab etiladi. O'quv qo'llanmani tayyorlash jarayonida ushbu masalalar ham chetda qolgani yo'q.

"Turizm asoslari" mutaxassislik fanlari ichida "Xalqaro turizm", "Turistik marshrutlarni tashkil etish", "Turizm iqtisodi", "Ekskursiyalarni tashkil etish" kabi va boshqa fanlar bilan uzviy aloqada hisoblanadi.

Fanni o'zlashtirish jarayoni - o'qitishda turistik ekskursiya, ekspeditsiya va maxsus turlar tashkil etish; turizm bozori (Xalqaro Toshkent turizm yarmarkasi)da ishtirok etish; mehmonxonalar faoliyatini, turistik firmalar ishini, restoran xizmatini amaliy tarzda namoyish etish; ekologik, tarixiy - madaniy yodgorliklarni aks ettiruvchi video kassetalar, bukletlar, tarixiy xaritalar ishlab chiqish; internet aloqa tizimidan turli ma'lumotlar olish muhim ahamiyatga ega.

"Turizm asoslari" fanidan o'quv mashg'ulotlarini "Turizm menejmenti", "Xalqaro turizm" yo'nalishlari 1 - va 2 - bosqich bakalavrlari uchun olib boriladi. Unda xorijiy davlatlar va respublikamizda nashr etilgan turizm sohasiga oid ilmiy, o'quv, uslubiy qo'llanmalardan hamda jurnal va gazetalardagi maqolalardan, turistik firmalarning namunaviy marshrutlari, bukletlari va yo'l ko'rsatkichlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

1.2. Fanning boshqa bilimlar tizimida tutgan o`rni

Turizm inson hayoti va faoliyatining ko`p sohalarini qamrab oladi. Shuning uchun turizmni o`rganish psixologiya, antropologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, geografiya, informatika, huquq kabi fanlar bilan uzviy bog`liq. Turistik resurslar er sharining deyarli barcha burchaklarida, qit'alarida va mamlakatlarida mavjud. Turizm tashkilotchilari turizm yo`nalishi (marshruti) va turizm turini erkin tanlash sharoitida turistik oqimlarni bilishi, istiqbollashi va hatto ularni boshqarishi kerak. Buning uchun esa quyidagi fanlarni bilish juda - juda zarur.

Psixologiya

Sayohat qilish uchun turist qaysi yo`nalishni tanlaydi? Ushbu mavsumda qaysi mamlakat ko`proq afzallikka ega bo`ladi va turizmning qaysi turlari eng mashhur bo`ladi? Turizm bozorida kanday tur mahsulotni taklif qilish foydali? O`z turistik mahsulotini harakatini qaerga yo`naltirish kerak? Mijoz xohishlarini eng yaxshi qondiruvchi turni qanday qilib tuzish kerak? Bu savollarning ko`pchiligiga inson psixologiyasini o`rganmasdan javob berish mumkin emas. Mijoz (turist) xohishi sabablarini o`rganmasdan va tushunmasdan turib, turni to`g`ri tuzish va uni bozorda iste'molchiga taklif qilish mumkin emas. Kichkinagina uzilish yoki xatolik ham puxta tayyorlangan va tahlil qilingan sayohatdagi ijobiy taassurotni yo`qotishga etarli bo`ladi.

Sayohatni amalga oshirish - turistlarning yoshi, intellekt darajasi, moliyaviy ahvoli va ko`pgina boshqa omillarga bog`liq. Dam olish, dunyoqarashni kengaytirish, notanish narsalarni bilish, ko`ngil ochish, diniy, davolanish, qarindoshlar va do`stlarni ko`rish va boshqa maqsadlar tufayli kishilar sayoxatni amalga oshiradilar.

Sayohatni tanlashda maqsadlarning o`zgarishi iste'molchi bozorida turistik mahsulotni taklif qiluvchi turistik firma uchun salbiy oqibatlariga olib keladi. Kayfiyat, moda, umumiy siyosiy - iqtisodiy holat va ko`pgina boshqa omillarga e'tiborsizlik tufayli mijozlar yo`qotiladi, natijada, turistik faoliyatda iqtisodiy

qiyinchiliklarga sabab bo`ladi. Masalan, so`nggi yillarda katta shaharlar va sanoat markazlari aholisi ekologik toza tabiat saqlangan joylardagi ekoturizmni afzal ko`rishmoqda.

Turistik mahsulotni loyihalashtirish uni turistik ko`rgazma va yarmarkalarda ulgurji savdoga taklif qilishdan taxminan ikki yil oldin boshlanadi. Shu bois, turistik talabni istiqbollashda psixologik jihatdan chuqur tajriba, sezgirlik va professional bilimga ega bo`lish kerak.

Antropologiya

Antropologiya - odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi (rivojlanishi), jismoniy tuzilishi va irq, millatlarning paydo bo`lishi haqidagi fan. Turizm ilmidan esa u - insonning atrof - muhitga ta'siri va madaniyatini o`rganadi. Maqsadi - inson hayotining murakkab xarakterini, ularning o`zaro aloqadorlik tizimini va jamiyatdagi xulqini tadqiq qilishdir. Shuningdek, u sayohat qilishga undovchi sabablarni keltirib chiqaruvchi omillarni; sayohat zaruriyatini taqozo qiluvchi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy sharoitlarni; turistlarning atrof - muhitga ta'sirini, turli holatlarda mahalliy aholi bilan o`zaro aloqasini, mahalliy madaniyat va millatlararo aloqalar rivojlanishining turizmga ta'sirini o`rganadi. Aynan antropologiyani o`rganish turistik ob'ektlar va markazlar chegarasini aniqlashga yordam beradi va turistik oqimni to`g`ri taqsimlash va yo`naltirish imkoni tug`iladi.

Pirovard natijada quyidagi savollarga javob olinadi: ma'lum bir ob'ektga ob'ektning o`zi va turistlarga zarar qilmagan holda nechta turist tashrif buyurishi mumkin? Turistlar tomonidan axborot (informatsiya) va atrofni o`rganish, ushbu resurslardan maqsadli foydalanishni ta'minlash mumkinmi? Bu ma'lumotlar turizmni turli darajada rejalashtirish imkonini beradi.

Sotsiologiya

Sotsiologiya - jamiyatshunoslik haqidagi fan. Turizm ilmidan esa u - insonni boshqa joyga borishga yordam beruvchi ijtimoiy (sotsial) sharoitlarni o`rganuvchi fan bo`lib gavydalanadi. Inson hayotida turizmni amalga oshirish uchun kamida

(minimum) ikkita muhim shart bajarilishi kerak: turistik sayohatni amalga oshirish uchun bo'sh vaqt va mablag`. Shuningdek, tinch siyosiy holat va mijoz xohishi mavjud bo'lgan paytda bo'lishi kerak.

Turizm iqtisodiy munosabatlarda paydo bo'ladigan har qanday nomutanosibliklardan ta'sirlanadi. Jahon ijtimoiy hayotida katta voqea yoki iqtisodiy tizimda muhim o'zgarishlar sodir bo'lishi bilan darhol turizm rivojlanishi holati va dinamikasida aks etadi. Masalan, 1998 - yilgi Rossiya moliyaviy inqirozi jamiyatni larzaga keltirdi. Osiyo krizisi ushbu hudud turistik bozoriga yomon ta'sir qildi va bundan turizm 10 % ga qisqardi. Biror mamlakatdagi moliyaviy tizimning krizisi turistik xizmatlarning to'loviga bo'lgan talabini deyarli tugatadi. Natijada, tashqariga chiqadigan va ichki turizm sohasida turistlar soni yuz martalab kamayadi, haftalab davomida turistik faoliyat deyarli mavjud bo'lmaydi.

Doimiy taraqqiyotda turizm ijtimoiy (sotsial) hodisa sifatida qaraladi. Insonlarning xulqi ularning yoshi, millati, ijtimoiy holati, ma'lumoti, yashash joyi, madaniy qarashlarga bog'liq holda o'rganiladi. Sotsiologiya psixologiya va antropologiya usullaridan foydalanib, insonlar guruhining xulqini tadqiq qiladi.

Hozirgi kunda sotsiologik tadqiqotlarga katta e'tibor berilmoqda. Deyarli har bir katta tadbir yoki ko'rgazmada turistlar va tashrif buyuruvchilardan turli ma'lumotlarni to'plash maqsadida anketalash o'tkazilmoqda. Bu anketalash hozirgi va kelajakdagi sayohatlar darajasini baholash uchun muhim ma'lumotlar olish imkonini beradi. Turizm xizmatchilari ham turistlar ham faol ravishda anketada qatnashmoqdalar.

Sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlari ma'lum bir iste'molchi bozorida turistik mahsulotning harakat qilish siyosati shakllanishida, bashorat va ko'rsatmalar ishlab chiqishda hamda bojxona va migratsion munosabatlar va qoidalar sohasida muhim siyosiy - iqtisodiy qarorlar qabul qilishda asos bo'lish uchun dastlabki baza hisoblanadi.

Iqtisodiyot

Turizm - ko'p jihatdan iqtisodiy formatsiya va kategoriyadir. U turizm tashkilotchilari uchun ham, turizm iste'molchilari - turistlar uchun ham ko'p qirrali iqtisodiy faoliyat. Jahon va milliy turizm rivojlanishining har bir bosqichi - barcha ishtirokchilarning faoliyati, o'ziga xos xarakteristikasi va ko'rsatkichi bilan xarakterlanadi.

Har bir turistik hudud, har bir mamlakat, har bir shahar va joy iqtisodiy foyda va daromad olish uchun mavjud turistik resurslaridan oqilona foydalanishga harakat qiladi. Xohish juda zo'r bo'lsa ham bunga erishish oson emas. Har bir mamlakatda o'zining siyosiy qarashlari, iqtisodiyoti rivojlanishining yo'nalishlari, jamiyat an'analariining ko'p qirralari majud. Turistlarni jalb qilish uchun hatto juda qiziqarli bo'lgan ob'ektlar va hodisalar uchun ham xizmat ko'rsatishning mos darajasini, xavfsizlikni ta'minlovchi turistik qiziqish va ehtiyojni uyg'unlashtirib qondiruvchi turistik industriya (sanoat) va infratuzilma zarur.

Turistik oqimlarni ko'proq jalb qilish uchun - turistik resurslar va ularning potentsial imkoniyatlari, ayniqsa, turistik sanoat ob'ektlari batafsil o'rganiladi va baholanadi.

Xorij turistlarini qabul qilishga qodir bo'lgan mahalliy aholi muammosini ham unutmaslik kerak. Bunda ko'pchilik muammolar mahalliy norma (me'yor) lar bilan xorijliklarning o'zini tutish odatlari bir - biriga moslanishidan kelib chiqadi. Agar muhitga mos kelmaydiganlari bo'lsa, farqi ko'p bo'lsa, turizm amalga oshmasligi mumkin. Masalan, Birlashgan Arab Amirliklariga qarashli Sharjada turistlarga qo'yilgan talablar - islom qoidolari ta'sirida juda qattiq bo'lganligi uchun (spirtli ichimliklar iste'mol qilish, ayollarning maxsus kiyimi va xulqida mahalliy qonunlarni buzganligi uchun evropaliklarga tayoqlar bilan tana jazolari va hokazolar) bu turistik markazga turistik oqimlar miqdori kamaygan, ba'zi davrlarda esa umuman to'xtatilgan. Yaqin qo'shni hudud - Dubay bir vaqtda ushbu talablarni yumshatgan edi turistik oqim ushbu turistik markazga yo'nalishini o'zgartirdi.

Turizmni "tilla tuxum qo'yuvchi tovuq"ga o'xshatishadi. Lekin, ushbu tovuq boqilmasa, u tuxum qo'yishni to'xtatishi, tuxumlar hajmi va sifati buzilishi yoki tovuqning o'zi o'lib ham qolishi mumkin. Shunga ko'ra, turistik markazlar va hududlar nafaqat turizmdan pul ishlab qolishadi, balki turistik sanoatni barqaror rivojlantirishga, turistik mahsulotni ichki va tashqi bozorlarda harakat qildirishga juda katta miqdorda mablag'lar ajratishadi. Turizmni rivojlantirishga ajratilgan mablag'lar birinchi qarashda astronomik raqamlarda bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu harajatlar o'zlarini oqlaydi va davlatga turizmdan undan ham katta hajmdagi daromadlarni keltiradi.

Barcha davlatlarda ham turizmga bo'lgan siyosat bir xil tuzilmagan. Masalan, Yaponiya uzoq davr mobaynida keluvchi turistlarga e'tibor bermagan. Hatto, mehmonxona sanoati ham xorij turistlarini qabul qilishga yo'naltirilmagan, otellar past tabaqali aholi joylashishiga mo'ljallangan va inshoot gabariti va ship balandligi bo'yicha Evropa standartlariga javob bermaydigan normalar bo'yicha qurilgan. Lekin, uzoq davr mobaynida turizmsiz ham rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyoti hayotiy kuch oqimining yangi manbasini talab qildi. Yapon hukumati mamlakatga kiruvchi turizm kontseptsiyalarini yangitdan ko'rib chiqdi va boshqa hududlardan mamlakatga turistik oqimlarni jalb etish maqsadida jahon turistik bozoriga milliy turistik mahsulotni chiqarish faoliyatiga 2 mlrd.dollarini ajratdi.

Yuqorida ifoda etilgan faoliyat Xitoyda juda qiziqarli. Chiquvchi turistik oqim bu mamlakatda juda past, chunki davlatda ta'tilni har yili to'lash uchun huquqiy institut shakllanmagan va qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholining ko'p qismi xorijda sayohat qilish uchun mablag'ga ega emas. Tashqariga chiquvchi turizm yiliga 5 mln. kishidan ortmaydi. Bu ko'rsatkich umumiy aholisi 1 mlrd. 250 mlnga teng bo'lgan mamlakat uchun juda past darajada. Lekin, keluvchi turizm rivojlanmoqda. Jahon turizm iqtisodiyotida Xitoy hozirgi kunda turizmning eng jozibador hududi hisoblanadi. U erda turistik qiziqish ob'ektlari mavjudligi, turizm sanoati rivojlanganligi va davlat siyosatining turizmga ijobiy munosabatda ekanligi sabab

bo'lmoqda. Xitoy Turizm Tashkiloti ekspertlari baholariga ko'ra, keyingi yillarda Xitoy jahondagi eng ko'p turistlar keluvchi mamlakatga aylanadi. 1998 - yilda Xitoyga 65 mln. turistlar kelib ketishgan. 2010 - yilda Xitoyga 125 mln. xorij turistlari kelishi rejalashtirilmokda. Bu esa juda katta raqam.

Geografiya

Hudud resurslarining turistik salohiyatini baholash geografik va unga bo'lgan omillarga bog'liq. Geografiya - tabiiy - iqlimiy, demografik (demografiya - aholishunoslik) ma'lumotlar, ularning o'zgarish tendentsiyalari va istiqbollari, turizmning hududlararo va hudud ichida rivojlanishini batafsil rejalashtirish, ob'ektlar, turistik sanoat, turizm sohasini investitsiyalashni rivojlantirishni rejalashtirish, turistik oqimlarni, aholi bandligini va turizmdan tushuvchi daromadni rejalashtirish uchun juda zarur hisoblanadi.

Informatika

Rivojlanishning hozirgi bosqichida xo'jalikning har qanday tarmog'i kuchli axborot ko'magisiz ishlay olmaydi. Turli fan sohalari bo'yicha ma'lumotlardan turizm maqsadlarida ham foydalaniladi. Bugungi kunda turistik xizmatlarni bronlashda turli avtomatlashtirilgan axborot tizimlari muhim rol uynaydi. Turistik resurslar, turistik mahsulotlar ma'lumotlarining axborotlari turli xil - kitoblar, spravochniklar, kataloglar, prospektlar, yo'l ko'rsatkichlar, jadvallar ko'rinishlarida aks etadi. Ko'pchilik turistik kompaniyalar o'z tarkibida nafaqat xususiy turistik agentligi, balki quvvatli axborot markazlari va nashriyotlariga ham egadirlar. Masalan, Buyuk Britaniyaning "Reed Travel Group" turistik agentligi bunga misoldir. Ta'kidlab o'tish kerakki, yo'l ko'rsatuvchi kitoblar turizmning o'zi rivojlanishidan ancha oldin ishlab chiqilgan. Tomas Kuk birinchi bo'lib turistik sayohatni tashkil qilgan paytda, Londondan Parijga sayohat qilishni amalga oshirish uchun yo'l ko'rsatuvchi kitoblar bor edi. Ko'pchilik yo'l ko'rsatkichlar 100 yillik tarixga ega.

Bugungi kunda ko`pgina axborot oqimlari SD - disklarda jamlangan. 1990 - yil kompyuter bilan ta'minlashdagi texnik inqilob turizm maqsadlari uchun kuchli avtomatlashtirilgan tizimni vujudga keltirdi.

Jahon Global kompyuter tizimlari axborot tashuvlarini birinchi navbatda havo transporti hamda mehmonxona va boshqa xizmatlarni bronlashni tashkil qilishda keng tarqalgan.

Turistik axborotni rivojlantirishda yana bir juda katta turtki internet global tarmog`i bo`ldi. Bugungi kunda deyarli barcha turistik firmalar e-mail elektron pochta orqali ushbu tarmoqqa chiqish imkoniyatiga ega. Tarmoqdan foydalanuvchilarning barchasi turistik xizmatlar haqida keng axborot olishda ulardan foydalanadilar.

Turizmga javob beruvchi davlat tashkilotlari, xususiy kompaniyalar, turistik firmalar, otellar, turistik assotsiatsiyalar, tashuvchilar, attraktsiya xizmatini taklif etuvchi firmalarda katta axborot tizimlari mavjud. Axborotni internet tarmog`iga joylashtirish umumiy holda kitob yoki buklet chiqarishdan arzon, axborot oson va tez ko`rinishini o`zgartiradi, yuqori sifatli rangli illyustratsion ma'lumotni ham uzatish mumkin. Axborot rivojlangan mamlakatlardagi foydalanuvchilarning keng doirasiga etib boradi.

Huquq

Turizm ko`pchilik mamlakatlar iqtisodiyotining muhim qismi sifatida, xalqaro aloqalarning tarkibi sifatida alohida huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Shuning uchun o`ziga xos tarmoq - turistik huquq tarkib topgan.

Milliy huquq

Ko`pchilik mamlakatlarda rezident va norezident kompaniyalar uchun turistik faoliyat normalari va rivojlanish tamoyillarining asosiy kontseptsiyalari turizm xaqida milliy qonunlar bilan mustahkamlangan.

Norezidentlar faoliyati uchun odatda ma'lum cheklashlar mavjud. Turizm tashkilotchilari va turist - mijozlar munosabatlari tartibga solingan.

O'zbekiston Respublikasida bu masalaga qanday qaraladi? Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, mustaqillik turizm sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Iqtisodiyotning mazkur yo'nalishida ham chuqur islohotlar boshlab yuborildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 - yil 27 - iyuldagi "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk Ipak yo'li"ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora -tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 -yil 20 - avgustda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining va boshqa mutasaddi davlat tashkilotlarining turizmga oid qator qarorlari, tartiblari, klassifikatsiyalari, yo'l - yo'riqlarida turistik faoliyat olib borilishi uchun zarur bo'lgan me'yorlar, nizomlar, qoidalar belgilab berildi. Turistik faoliyatni litsenziya (ruxsatnoma) lashtirish, turistik xizmat va mehmonxona xizmatini sertifikat (guvohnoma) lashtirish, turistik faoliyatni olib boruvchi tashkilotlarni soliqqa tortish masalalari - imtiyozlari, sug'urta, buxgalteriya hisobini tartibga solish, imtiyozli kreditlar, xalqaro turizm maqsadlari uchun chegaradan o'tishdagi rasmiyatchiliklar, bojxona rasmiyatchiliklari, turistlarni kirish va chiqish "viza"lari haqidagi tartiblar - qoidalar, shartnomalar va kelishuvlar ham mazkur hujjatlarda atroflicha keltirib o'tilgan. Turistik faoliyatni endi boshlovchi sub'ektlar va mehmonxona biznesi bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan yuridik shaxslar ushbu hujjatlardan albatta xabardor bo'lmoqlari kerak.

Shu bois, turizmga oid me'yoriy xujjatlardan xabardor bo'lishni istovchilarga 2003 - yil "Talqin" nashriyoti tomonidan chop etilgan "Turizm huquqi" kitobini (mualliflar G. Nazarova, M. Mirzaev va boshqalar) o'qishni tavsiya etardik. U asosan Turizm kasb - hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma sifatida nashr etilgan.

Turizmga oid me'yoriy hujjatlarning ahamiyatini hisobga olib, biz mavzuimizning 3 - bo'limini unga bag'ishlaganmiz.

Xalqaro turistik huquq

Xalqaro turizm ko'pgina konventsiyalar, xalqaro shartnomalar va bitimlar bilan tartibga solinadi. Dastlab turizm rivojlanishiga asos bo'lgan, dam olish va bo'sh vaqtning asosiy huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi bitimga erishildi. 1948 - yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan inson huquqlari Umumjahon Dekleratsiyasining 24 - moddasida shunday deyiladi: "Har bir inson ish vaqtini oqilona chegaralanishi va har yilga pullik ta'tilni olishi, dam olishi va bo'sh vaqt huquqiga egadir". 1966 - yil BMT Bosh Assambleyasi bu shiorni tasdiqladi va kengaytirdi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt (bitim)ga imzo chekkan davlatlar har bir insonning "dam olish, bo'sh vaqt, ish vaqtini oqilona cheklash, davriy pullik ta'til hamda bayram kunlari uchun to'lov" huquqini ta'minlash majburiyatini bo'yniga olganlar.

Bu nizomlar turizm rivojlanishiga, xususan, xalqaro turizm rivojlanishiga turtki berdi. Xalqaro turizmning jadal rivojlanishi turistik faoliyatni tartibga soluvchi me'yorlar o'rnatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Xalqaro turistik huquq tashkil topishining eng asosiy yo'nalishlaridan biri terminologiya va ta'riflar to'g'risidagi bitim tuzish edi. Turistik terminologiya ustida ishlash bilan Millatlar Ligasi statistika qo'mitasi shug'ullanadi va 1937 -yil Xalqaro turizm atamasiga birinchi marta ta'rif beriladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ushbu masalani ishlab chiqish bilan Rasmiy Turistik Tashkilotlarning Xalqaro Ittifoqi shug'ullanadi (International Union of Official Travel Organizations - IUOTO). 1950 - yil atamalarga ekskursant, tranzit turist tushunchalari kiritildi. 1954 - yil esa BMT komissiyasi tomonidan turistga yangi ta'rif berildi. Keyinchalik bu ta'rif 1963 - yil BMTning xalqaro turizm va sayohat bo'yicha Konferentsiyasi (Turizm ta'riflari bo'yicha Rim Konferentsiyasi)da to'la aniqlandi. 1976 - yil BMT tomonidan birinchi marta turistik atamalar ta'riflari ro'yxati nashr qilindi. Unda turistik statistika qoidalari uchun mo'ljallangan deyarli barcha

muhim atamalar mavjud (Provisional Guidelinos on International Tourism. UNCTAD).

Xalqaro hamjamiyatda turizmning rivojlanishi to'g'risidagi muhim hujjat 1975 - yil 1 - avgustda imzolangan Xelsenki bitimidir. Unda Evropa xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Majlisining so'nggi AKTi imzolanib, BMT qoshida Jahon Turistik Tashkiloti - JTT tashkil etildi. Ushbu tashkilotning asosiy maqsadi etib - xalqaro hamjamiyatda turistik ayirboshlashni engillashtiruvchi me'yor va qoidalarni ishlab chiqish bo'ldi. 1985 - yil Jahon Turistik Tashkiloti (bundan buyon - JTT) Bosh Assambleyasining 6 - sessiyasida "Turizm xartiyasi va turist Kodeksi" qabul qilindi. JTT me'yoriy hujjatlarining katta qismi asosiy etakchi tillarda chop etiladi (ingliz, nemis, frantsuz, ispan, so'nggi paytlarda xitoy va rus tillarida ham).

Bugungi kunda xalqaro turizm o'z faoliyatini asosiy xalqaro kelishuvlarga binoan olib boradi: Gaaga (1989 - yil, Gaaga, Niderlandiya) va Manila (1980 - yil, Manila, Filippin) bitimlari, turizm vazirliklarining Osaka konferentsiyalari yo'riqnomalari (1994 - yil, Osaka, Yaponiya).

Hududiy qonunlar va me'yoriy aktlarni ham ta'kidlab o'tish muhim. Evropa iqtisodiy hamjamiyati ushbu ittifoqqa kiruvchi mamlakatlar turistik faoliyatini tartibga solish bo'yicha bir qator qonunlar va me'yoriy aktlar qabul qilgan. Masalan, yagona vizali hudud, turistik xizmatlar to'g'risidagi Shengen shartnomasi (EI Direktivasi № 90 G` 134 13 - may 1995 - yil. "Turistik agentlik va mijoz o`rtasida imzolanishi kerak bo'lgan namunaviy shartnoma", "Sayohat qilish shartnomasi bo'yicha Xalqaro Konventsiya", 1970 - yil 22 - oktyabrda FUAHV (FUAHV - turistik agentliklar uyushmasi Butunjahon Federatsiyasi) ning Bosh Assambleyasida qabul qilingan "Mehmonxona egalari va turistik agentliklar o`rtasida bitimlar tuzishga tegishli Xalqaro mehmonxona Konventsiyasi", 1979 - yil 15 - iyunda MGA FUAHV tomonidan qabul qilingan "Bojxona bojlarisiz savdo qiluvchi magazinlar faoliyatini tartibga soluvchi me'yorlar" va hokazo.

Yo'lovchilar va ularning yuklarini xalqaro havo, avtomobil va dengiz transportida tashish alohida tartibga solingan. Havo transporti Varshava Konventsiyasi bilan (1929 - yil Varshavada qabul qilingan), avtomobilda passajirlar va yuklarni tashish Berlin Konventsiyasi bilan (1975 - yil, Berlin), dengiz transportida yo'lovchilarni tashish esa Afina Konventsiyasi bilan boshqariladi.

1. 3. O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risidagi davlat siyosati (me'yoriy hujjatlar asosida)

Mamlakatimizda turizm ishiga Mustaqillikning dastlabki vaqtlaridanoq asosiy davlat siyosati darajasida qaraldi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy - huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu ish hozirda ham davom etmoqda. Mamlakatimizda turizmning ravnaqi, uni yangi pog'onalarga ko'tarish, yurtimizni jahon turizm markazlaridan biriga aylantirish uchun avvalo huquqiy zamin yaratish lozim edi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mazkur yo'nalishga taalluqli qonun va kodekslari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmga oid qator Farmonlari, qarorlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Adliya vazirligining va boshqa mutasaddi davlat idoralarining yo'riqnoma, ko'rsatma va tartiblari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Shulardan kelib chiqqan holda, mazkur hujjatlarni o'rganish va tahlil qilishni quyidagi tematikalar bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir, - deb o'ylaymiz:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining turizmga oid qonun va kodekslari

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 - yil 24 - aprelda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi" va unda turizm sohasiga oid imtiyozlar.

Ushbu Kodeks 11 bo'lim, 41 bob va 134 moddadan iborat bo'lib, uning asosiy vazifasi - O'zbekistonda soliq tizimining huquqiy asoslarini, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlarini belgilaydi, soliq ishlarini yuritish tartibotini va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni tartibga solib turadi. Kodeksda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i,

qo`shilgan qiymat solig`i, aktsiya solig`i, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig`i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol - mulk solig`i, er solig`i, reklama solig`i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq, shuningdek, turli yig`imlar haqida ham fikr yuritiladi. Kodeksda soliq to`lash bilan bir qatorda faoliyatning ayrim turlari (xususan, turizm faoliyati)ga soliq to`lashda imtiyozlar ham berilgan. Jumladan, 8 - bob "Daromad (foyda) solig`i bo`yicha imtiyozlar", - deb nomlanib, uning 31 - moddasi 12 - qismida: "Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida yangi tashkil etilgan, turizm faoliyati bilan shug`ullanadigan yuridik shaxslar tuzilgan paytdan boshlab birinchi daromad orttirgunga qadar, lekin uzog`i bilan ro`yxatdan o`tgan vaqtdan e'tiboran uch yilgacha. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida turistik faoliyat bilan shug`ullanuvchi yuridik shaxslar foyda olgan birinchi yili 50 %, ikkinchi yili 75%, uchinchi yildan boshlab 100 % miqdorida soliq to`laydi",- deyiladi.

Kodeksning 21 - bobi "Qo`shilgan qiymat solig`i bo`yicha imtiyozlar", - deb nomlanib, uning 71 - moddasi 21 - qismida "turistik - ekskursiya xizmatlari" qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilinganligi bayon qilingan. Shuningdek, 28 - bobi "Mol - mulk solig`i stavkalari va imtiyozlar", - deb nomlanib, uning 92 - moddasida: "Samarand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida yangi tashkil etilgan, turizm faoliyati bilan shug`ullanayotgan yuridik shaxslarning mol - mulkiga, tashkil etilgan vaqtdan e'tiboran dastlabki foyda olgunga qadar, lekin ular ro`yxatdan o`tgan vaqtdan e'tiboran uch yildan ortiq bo`lmagan muddatga. Ana shu yuridik shaxslar belgilangan imtiyozli davrdan keyin bir yil o`tgunga qadar tugatilgan taqdirda soliq summasi ularning butun faoliyati davri uchun to`liq miqdorda undirib olinadi", - deyiladi.

Kodeksning 31 - moddasi "Er solig`i stavkalari va imtiyozlar", - deb nomlanib, uning 101 - moddasida soliq solinmaydigan er uchastkalariga: "tarixiy - madaniy ahamiyatga molik erlar (tarixiy - madaniy qo`riqxonalar, xotira bog`lari, sag`analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan erlar) kiritilgan. Shuningdek, davlat qo`riqxonalar, milliy va dendrologiya bog`lari, botanika bog`lari,

ixota daraxtzorlari egallagan erlar; sport inshootlari, stadionlar, suzish havzalari, onalar va bolalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanatoriy -kurort muassasalari, dam olish uylari egallagan erlar ham soliq to'lashdan ozod etiladi.

Kodeksning 102 - moddasi "Er solig'i to'lashdan ozod qilingan soliq to'lovchilar", - deb nomlanib, uning 7 -qismida: "Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida yangi tashkil etilgan turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar - tashkil etilgan paytdan e'tiboran birinchi foyda olgunga qadar, biroq bu muddat ular ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran uch yildan oshmasligi lozim", - deyiladi. Keyingi yillarda kodeksning ba'zi moddalariga o'zgartirishlar va yangiliklar ham kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 - yil 20 - iyunda qabul qilgan "Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida"gi farmonida ham soliq masalasiga e'tibor qaratilib, 2005 - yilning 1 - iyulidan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lash o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etildi. Shunga muvofiq, turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik sub'ektlar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 13 % etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 - yil 26 - dekabrda qabul qilgan "Bojxona Kodeksi".

Ushbu kodeks 11 bo'lim, 19 bob va 198 moddadan iborat bo'lib, jumladan, uning 1 - bo'limi - umumiy qoidalar (bojxona ishi, hududi, qonun hujjatlarining amal qilish tartibi, asosiy tushunchalar va boshqalar), 2 - bo'limi - tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib o'tish tartibi, 3 - bo'limi - bojxona nazorati, rasmiylashtirilishi va to'lovlari, 6 - bo'limi - dastlabki operatsiyalar, 7 - bo'limi - boj imtiyozlari, 8 - bo'limi - nazorat ostida tovarlar etkazib berish tartibi, 9 - bo'limi - bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik, 10 - bo'limi - bunday ishlarni yuritish, 11 - bo'limi - jazo berish

to'g'risidagi qarorlarni ijro etish, - deb nomlanib, har bir ko'rsatib o'tilgan bo'limlarda turizm faoliyatida to'qnash kelishi mumkin bo'lgan qoidalar bayon etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustda qabul qilgan "Turizm to'g'risida"gi Qonuni.

1 - modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

2 - modda. Turizm to'g'risidagi qonun hujjatlari

O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risidagi Qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3 - modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- turizm - jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy - amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi);

- turist - O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo'nab ketgan) jismoniy shaxs;

- turistik faoliyat - ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq sayohatlarni va ular bilan bog'liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyat;

- ekskursiya faoliyati - turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa ob'ektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo`nalishlar bo`yicha ekskursiya etakchisi hamrohligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi;

- turistik resurslar - tegishli hududning tabiiy - iqlim, sog`lomlashtirish, tarixiy - madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy - maishiy ob'ektlari majmui;

- turistik faoliyat sub'ektlari - belgilangan tartibda ro`yxatga olingan va turistik xizmatlar ko`rsatish bilan bog`liq faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyasi bo`lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar;

- turistik industriya - turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko`rsatishni taminlovchi turli subektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport kor-xonalari, madaniyat, sport muassasalari va boshqalar) majmui;

- tur - muayyan yo`nalish bo`yicha turistik xizmatlar majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta'minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat;

- turistik xizmatlar - turistik faoliyat sub'ektlarining joylash-tirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko`rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar;

- turistik guruh rahbari - turistik faoliyat sub'ektlarining vakili bo`lgan va uning nomidan ish ko`rib, turistlarga xizmat ko`rsatish shartnomasi shartlarining bajarilishini ta'minlovchi jismoniy shaxs;

- gid (ekskursiya etakchisi) - tur qatnashchilariga turistik xizmatlar ko`rsatish shartnomasi doirasida ekskursiya -axborot, tashkiliy yo`sindagi xizmatlar va malakali yordam ko`rsatuvchi jismoniy shaxs;

- turistik faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya - turistik faoliyatni amalga oshirishga bo`lgan huquqni tasdiqlovchi maxsus ruxsatnoma;

- sertifikat - turistik xizmatlar sifatini va ularning muayyan standartga yoki boshqa normativ hujjatga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.

4 - modda. Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo`nalishlari

Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

- turizm va turistik industriyani rivojlantirish;
- fuqarolarning sayohat qilish paytidagi dam olish, erkin harakatlanish va boshqa huquqlarini ta'minlash;
- turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash;
- turizm sohasidagi normativ bazani takomillashtirish;
- bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining kam ta'minlangan qatlamlari turizmi (ekskursiyalari) uchun sharoit yaratish;
- turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish;
- tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish;
- turistlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, qonuniy manfaatlari va mulki muhofaza qilinishini ta'minlash;
- turizm sohasining ilmiy ta'minotini tashkil etish va rivojlantirish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- chet mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

5 - modda. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining turizm sohasidagi vakolatlari

Turizm sohasida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- turizmni rivojlantirish davlat dasturini tasdiqlaydi;
- turistik faoliyatni litsenziyalash tartibini belgilaydi;
- turistlarning borishi taqiqlanadigan ob'ektlar va hududlarni belgilaydi;
- turistlarning ayrim toifalariga imtiyozlar berish tartibini belgilaydi;
- hukumatlararo shartnomalar tuzadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal qiladi.

6 - modda. Vakolatli davlat organlarining turizm sohasidagi vakolatlari

Turizm sohasida Vakolatli davlat organi:

- turizmni rivojlantirish davlat dasturlari amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- turistik xizmatlar infratuzilmasini shakllantiradi;
- tarixiy - madaniy merosni targ'ib qilishni, turistik salohiyatni saqlash va rivojlantirishni tashkil etadi;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bajarilishini ta'minlaydi;
- xalqaro turistik tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalaydi;
- turistik faoliyat sub'ektlariga ularning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalarda uslubiy va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal qiladi.

7 - modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining turizm sohasidagi Vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari turizm sohasida turizmni rivojlantirishning mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal qiladilar.

8 - modda. Turistik faoliyatni litsenziyalash

Turistik faoliyat litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Turistik faoliyatni litsenziyalash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

9 - modda. Turistik faoliyatni moliyalash manbalari

Turistik faoliyat:

- turistik faoliyat sub'ektlarining o'z mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning pul badallari;
- zayom mablag'lari (obligatsiya zayomlari va boshqa zayomlar, bank kreditlari va boshqa kreditlar);

chet el investitsiyalari;
qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

10 - modda. Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish

Turistik xizmatlar majburiy sertifikatlashtirilishi lozim.

Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va sertifikat berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Turistik faoliyat sub'ektlarining turistik xizmatlarni majburiy sertifikatlashtirishdan bosh tortishi, turistik xizmatlarni sertifikatlashtirishning natijasi salbiy bo'lishi, shuningdek, sertifikatning amal qilishini bekor qilish turistik faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilishini to'xtatib qo'yishga yoki litsenziyadan mahrum qilishga sabab bo'ladi.

11 - modda. Turistik sayohat va turistik xizmatlar majmui

Turistik sayohat yakka tartibda yoki turistlar guruhi tarkibida amalga oshiriladi.

Turistik xizmatlar majmui transport xizmati ko'rsatishni, yashash, ovqatlantirish, ekskursiya xizmati ko'rsatish, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish va boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi.

12 - modda. Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi

Turistik xizmatlar shartnoma asosida ko'rsatiladi.

Shartnoma ko'rsatiladigan xizmatlarning ko'lamini va sifatini, taraflarning huquqlari hamda majburiyatlarini, haq to'lash va hisob - kitoblar tartibini, shartnomaning amal qilish muddatini va uni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikni, shuningdek, taraflarning kelishuviga ko'ra boshqa shartlarni belgilaydi

13 - modda. Turistik yo'llanma (vaucher)

Turistik yo'llanma (vaucher) - turistning yoki turistlar guruhining tur tarkibiga kiruvchi turistik xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va bunday xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Turistik yo'llanmag (vaucher) ning shakli turizm sohasidagi Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

14 - modda. Turistning huquqlari

Turist:

shartnomada nazarda tutilgan turistik xizmatlar majmuidan to'la foydalanish;

sayohatga ta'luqli to'liq va ishonchli axborot olish;

shaxsiy xavfsizlik, o'z huquqlarining himoya qilinishi, shuningdek, o'z mol - mulkining asralishi;

shoshilinch tibbiy yordam olish;

shartnoma bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda moddiy zararning to'lanishi, shuningdek, ma'naviy ziyonning o'rnini qoplanishi;

agar turning umumiy qiymati oshishi uning shartlashilgan qiymatidan ortib ketsa, shuningdek, fors - major holatlari ro'y bergan taqdirda turistik faoliyat sub'ektiga etkazilgan zararning o'rnini qoplamasdan shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

Turist qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

15 - modda. Turistning majburiyatlari

Turist:

shartnoma shartlariga;

bojxona va chegara nazorati qoidalariga;

borilgan mamlakatning qonun hujjatlari talablariga rioya etishi shart.

Turist qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.

16 - modda. Turistik faoliyat sub'ektlarining huquqlari

Turistik faoliyat sub'ekti O'zbekiston Respublikasi hududida turistlarga xizmatlar ko'rsatish paytida:

turning muddati va yo'nalishini, xizmat ko'rsatish darajasini, transport xizmati ko'rsatish turini, turistning xavfsizligini ta'minlash va uning mol - mulkini qo'riqlash usulini turistning roziligi va xohishi bilangina o'zgartirish;

turistning roziligi bilan hamda bu xususda tur boshlanishidan kamida yigirma kun oldin turistni xabardor qilish sharti bilan turning shartlashilgan qiymatini oshirish;

xizmatlar ko`rsatish mumkin bo`lmagan fors - major holatlari ro`y berganda, shuningdek, guruhni tuzish uchun zarur miqdorda turistlar yig`ilmagan taqdirda turistlarni bu haqda tur boshlanishidan kamida yigirma kun oldin xabardor qilgan holda turistik xizmatlar ko`rsatish shartnomasini bekor qilish;

turistlar yoki turistlarga xizmat ko`rsatishni tashkil etish bo`yicha sheriklar tomonidan etkazilgan zararining o`rni qoplanishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

Turistik faoliyat sub'ekti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo`ladi.

17 - modda. Turistik faoliyat sub'ektlarining majburiyatlari.

Turistik faoliyat sub'ekti:

turistlarga shartnomada shartlashilgan xizmatlarni ko`rsatishi;

turistik xizmatlar ko`rsatilmagan yoki to`la hajmda yoxud lozim darajada sifatli ko`rsatilmagan taqdirda turistlarga etkazilgan zararining o`rnini qoplashi;

turistlarga turni tashkil qilish, ularning huquqlari va majburiyatlari to`g`risida to`liq axborot berishi;

turistik resurslar, ko`rsatiladigan ob'ektlarning (tarixiy - arxitektura yodgorliklari, tabiat ob'ektlari va boshqalarning) saqlanishiga ko`maklashishi;

turistlarning borilgan joy (mamlakat) qonun hujjatlariga rioya etishlari ustidan nazoratni amalga oshirishi shart.

Turistik faoliyat sub'ekti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo`ladi.

18 - modda. Turistlarning xavfsizligi kafolati

O`zbekiston Respublikasi hududida turistlarning xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi.

Turizm sohasidagi Vakolatli davlat organi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda turistlarning himoya qilinishini hamda xavfsizligini ta'minlash dasturini ishlab chiqadi va uning bajarilishini tashkil etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari turizm sohasida barcha turistik yo`nalishlar bo'yicha turistlarning himoya qilinishini va xavfsizligini ta'minlash mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqadilar va ularning bajarilishini tashkil etadilar.

Turistik faoliyat sub'ektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash, ular jaroxatlanganda, kasallanganda va boshqa hollarda tibbiy va o'zga xil yordam ko'rsatish yuzasidan aniq chora - tadbirlar ishlab chiqadilar.

19 - modda. Turistlarning xavfsizligini ta'minlash chora - tadbirlari

Turistik faoliyat sub'ektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida:

turistlarning safarda xavf - xatardan holi bo'lishlari uchun shart - sharoitni, safar, sayr, ekskursiya yo'llari, musobaqalar o'tkaziladigan joylarning obodligini ta'minlashlari;

turistlarga jaroxatlanish va baxtsiz hodisalardan saqlanish hamda ularning oldini olish usullarini o'rgatishlari, birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish yuzasidan yo'l - yo'riq berishlari, shuningdek, belgilangan yo`nalishning xususiyati va turistlarning xatti - harakatiga bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf manbalari haqida ularni o'zini xabardor qilishlari;

turistlarning sayohatlar, safarlar, musobaqalar, boshqa turistik tadbirlarga tayyorgarligi ustidan nazoratni amalga oshirishlari;

falokatga uchragan turistlarga tezkor yordam ko'rsatishlari;

avtomobil, tog`, chang`i, velosiped, suv, mototsikl, piyoda safar, g`or turizmi va turizmning boshqa maxsus turlarini tashkil etish va o'tkazishda xavfsizlikning alohida talablarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari shart.

Turistik sayohatlarni turistlar harakatlanishining faol shakllaridan foydalangan holda tashkil etishga ixtisoslashgan turistik faoliyat sub'ektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash, ekstremal vaziyatlarda ularga yordam ko'rsatish va ularni

himoya qilish maqsadida xizmat ko`rsatishni ko`zlab qidiruv - qutqaruv xizmatlari bilan shartnomalar tuzadilar. Qidiruv - qutqaruv xizmatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

20 - modda. Turistlarni sug`urta qilish

Turistlarni sug`urta qilish majburiydir va u turistik faoliyat sub'ektlari tomonidan sug`urta faoliyati olib borish huquqiga ega bo`lgan tegishli sug`urta tashkilotlari bilan tuzilgan bitimlar asosida amalga ohiriladi.

21 - modda. Nizolarni hal etish

Turizm sohasida yuzaga kelgan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

22 - modda. Turizm to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Turizm to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo`ladilar.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 - yil 30 - avgustda qabul qilgan "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to`g`risida"gi Qonuni.

36 moddadan iborat bo`lgan mazkur Qonunning asosiy maqsadi - O`zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo`lmish madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning turizm bilan bog`liq o`ta muhim 3 - moddasi "Asosiy tushunchalar", - deb nomlanib, unda madaniy merosning quyidagi asosiy tushunchalariga ta'rif beriladi: madaniy meros ob'ektlari, yodgorliklar, ansambllar. Shuningdek, Qonunda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Madaniyat ishlari vazirligining, Bosh Arxiv boshqarmasining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi Vakolatlari, madaniy meros ob'ektlarining pasporti, tarixiy - madaniy ekspertiza, madaniy meros ob'ektlarining Umumjahon madaniy meros ro`yxatiga kiritish, madaniy meros

ob'ektlaridan foydalanish, tarixiy - madaniy qo'riqxonalar, tarixiy manzilgohlar haqida ham muhim ma'lumotlar mujassam.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Respublika Vazirlar Mahkamasining turizm sohasiga oid farmon va qarorlari

Turizm sohasiga oid ishlab chiqilgan ilk me'yoriy hujjat bu - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 - yil 27 - iyuldagi "O'zbekturizm" MKni tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yil 20 - oktyabrdagi "O'zbekturizm" MK faoliyatini tashkil etish masalalari haqida"gi qaroridir. Mamlakatimizda jahon andozalariga javob beradigan turizm tizimini barpo etish, ushbu soha boshqaruvini takomillashtirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, shuningdek, mamlakatimizda mavjud bo'lib kelgan va sobiq ittifoqqa bo'ysingan turistik tashkilotlar va muassasalarni respublika ixtiyoriga o'tkazish ushbu farmon va qarorning bosh maqsadi qilib olindi hamda "O'zbekturizm" MK ning asosiy vazifa va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilab berildi:

birinchidan, turizm sohasi bo'yicha yagona respublika siyosatini amalga oshirish;

ikkinchidan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish;

uchinchidan, turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asos va shart -sharoitlarni shakllantirish;

to'rtinchidan, xorijiy sarmoyadorlarni jalb etgan holda turistik markazlardan oqilona foydalanish, zamonaviy turistik majmualarni qurish;

beshinchidan, ekskursiyalarni ko'ngildagidek o'tkazish uchun tarixiy - me'moriy inshootlarni ta'mirlash;

oltinchidan, yirik xorijiy firma va kompaniyalar bilan birgalikda qo'shma turistik xizmatlar va tashkilotlarni tuzish;

ettinchidan, jahon bozorida talab qilinadigan yangi turistik yo'nalishlari va xizmatlarini keng yoyish;

sakkizinchidan, turizm sohasi uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

to'qqizinchidan, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatayotgan korxona, muassasa va tashkilotlarga turizm sohasida shug'ullanish huquqiga sertifikatlar berish va ularning faoliyatini nazorat ostiga olish;

o'ninchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

o'n birinchidan, xususiy ishlab chiqarish va savdo - sotiq tizimini tashkil etish;

o'n ikkinchidan, Respublikamizning turizm sohasidagi keng imkoniyatlarini xorijiy xususiy Vakolatxonalar va byurolar orqali reklama qilish.

"O'zbekturizm" MKni ta'sis etish, respublikamizda turizm sohasini takomillashtirish va uni yangi bosqichga ko'tarishdagi ilk huquqiy xujjatlar shulardir.

Keyingi yillarda ishlab chiqilgan muhim hujjatlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 -yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo'li"ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasi ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora - tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda mazkur farmonni amalga oshirish maqsadida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yil 3 - iyundagi "O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini barpo etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi qarorini kiritish mumkin.

Ikki og'iz so'z "Buyuk ipak yo'li" haqida. Ma'lumki, O'zbekiston tarixi uzoq, ajdodlari buyuk, madaniy merosi sarmazmun ko'hna yurtlardan biridir. Ayniqsa, mamlakatimizni sharq va g'arbni bog'lab turuvchi "Buyuk ipak yo'li"dagi belbog' sifatida yaxshi bilamiz. "Buyuk ipak yo'li" qariyb ikki ming yillik tarixga ega. Bunday nom berilishiga sabab, ipak mahsulotlari karvonlar orqali tashib o'tilgan, Shuningdek, bronza, chinni, jun xom ashyolari va ulardan tayyorlangan buyumlar ham olib o'tilgan. "Buyuk ipak yo'li"da nafaqat savdo - sotiq, shu bilan birga madaniyat, san'at, ilm - fan, ma'naviyat, ma'rifat, odobu - ahloq, tinchlik, turizm, targ'ibot - tashviqot (reklama), talab va taklif (marketing) ham muttasil shakllangan,

yuqori darajaga etgan. "Buyuk ipak yo`li"da ko`hna Turkiston hududi etakchi mavqega, Samarqand, Buxoro, Xeva, Termiz, Xo`jand, Chorjuy kabi shaharlar esa muhim ahamiyatga ega bo`lgan. Hozirgi O`zbekiston hududi bu yo`lning qoq markazida joylashgan. Sohibqiron Amir Temur davrida bu yo`l rivojlangan. Shularni e'tiborga olib, qabul qilingan ushbu hujjatlar g`oyat muhim xalqaro turizm yo`nalishi - "Buyuk ipak yo`li"ni qayta tiklash, bunga xorijiy turistlarni keng jalb etish, shuningdek, mamlakatimizda zamonaviy turizm siyosatini vujudga keltirishga asosiy maqsadni qaratdi. Buning uchun esa: "Buyuk ipak yo`li"dagi shaharlar - Samarqand, Buxoro, Xeva va Toshkentda xalqaro turizm bo`yicha maxsus ochiq iqtisodiy mintaqalar tashkil etish, mazkur shaharlarning aeroportlari va temir yo`l vokzallarida xorijiy turistlar uchun bojxona rasm - rusumlarining xalqaro me'yorlarga mos soddalashtirilgan tartibi, tranzit turistlar uchun maxsus bojxona zonalari, turistik tashkilotlar uchun soliq imtiyozlari joriy qilish, imtiyozli kredit berish ko`zda tutildi.

Farmon va qarorning muhim jihatlaridan biri shu bo`ldiki, unda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida turizm bo`yicha Idoralararo Kengash tuzilib, ushbu Kengash faoliyatining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berildi: a) turizm sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish; b) jahon andozalari darajasida kichik va o`rta mehmonxonalar, motellar va kempinglar tarmog`i shakllantirilishini muvofiqlashtirish; v) sayr - tomoshalar zamonaiy industriasini, madaniy va sport - sog`lomlashtirish markazlarini barpo etishga ko`maklashish; g) noyob turizm imkoniyatlari va tarixiy - madaniy meros keng ko`lamda targ`ib qilinishi va saqlanishini tashkil etish; d) turizm tizimida muvofiqlashtirilgan ilmiy - texnikaviy va investitsiya siyosatini o`tkazish; e) turizm sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni ta'minlash.

Yurtimizda turizm ishini yanada rivojlantirish va uni tashkil etishni takomillashtirish, turizm xizmatlari bozorida kichik va o`rta turistik tashkilotlarining qatnashishini faollashtirish, xorijiy sarmoyadorlarni turizm sohasidagi faoliyatga keng jalb qilish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1998 - yil 8 -

avgustda "Turizm tashkilotlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida" qaror qabul qildi.

Qarorda Xususiy sayyohlik tashkilotlari uyushmasi (bundan buyon - XSTU) ni tashkil etish va uni "O'zbekturizm" MK tarkibiga a'zo sifatida kirishi belgilab berildi. Shuningdek, "O'zbekturizm" MK XSTUga turistik tashkilotlar faoliyatini tashkil etish, marketing, malakali kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash hamda turizm faoliyati sohasida qonun hujjatlariga rioya etish bilan bog'liq masalalarda uslubiy va huquqiy yordam ko'rsatishni ma'lumot uchun qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, "O'zbekturizm" MK tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar ro'yxatiga, boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 55 nafardan iborat bo'lgan (xizmat ko'rsatuvchi xodimlarsiz) ijro etuvchi apparat tuzilmasiga, XSTU ning namunaviy tashkiliy tuzilmasiga va uning boshqaruvini ijro etuvchi apparatining namunaviy tuzilmasiga ilovalarga muvofiq rozilik berildi. XSTU boshqaruvi raisi lavozimiga ko'ra "O'zbekturizm" MK raisining o'rinbosari hisoblanadigan bo'ldi. XSTU faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- "Buyuk ipak yo'li" ni tiklashda, respublikada turizmning zamonaviy infratuzilmasini rivojlantirishda faol qatnashish;
- uyushma a'zolari bo'lgan xususiy turizm tashkilotlariga ko'maklashish va ular faoliyatini muvofiqlashtirish;
- turizm sohasida marketing tadqiqotlari o'tkazish;
- xususiy turizm tashkilotlarini rivojlantirishga xorijiy sarmoyadorlarni va mamlakatimizdagi yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb qilish;
- "O'zbekturizm" MK da, davlat organlarida va jamoat tashkilotlarida uyushma a'zolari bo'lgan xususiy sayyohlik tashkilotlarining manfaatlarini ifodlash;
- uyushma a'zolariga axborot, maslahat va uslubiy yordam ko'rsatish;
- turizm biznesi sohasida xodimlarning kasb tayyorgarligiga va ularni qayta tayyorlashga ko'maklashish.

O'zbekistonda turizm sohasini yangi bosqichga ko'tarishda Respublika Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni alohida ahamiyatga egadir. Ushbu Farmon millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashga ko'maklashish hamda xalqaro turizm bozoriga uzviy qo'shilish, O'zbekistonning madaniy - tarixiy va ma'naviy merosini jahon hamjamiyatiga targ'ib qilish, shuningdek, turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko'tarish maqsadida qabul qilinib, 2005 - yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi va uni amalga oshirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengash turkibi tasdiqlandi. Farmonda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, turistik tashkilotlar xorijdan keltiriladigan texnologiya va mehmonxona uskunalari, turizm maqsadlariga mo'ljallangan transport vositalari uchun bojxona poshlinalari to'lashdan uch yil muddatga ozod qilinishi ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, "O'zbekturizm" MK tizimidagi korxonalarga xorijiy turistlarga erkin ayirboshlanadigan valyuta hisobidan turistik xizmat va qo'shimcha xizmat ko'rsatish huquqi berilib, buning uchun maxsus kassalar ochilishiga ruhsat berildi. "Umid" jamg'armasi har yili talabalarni turizm industriyasi mutaxassisliklari bo'yicha etakchi xorijiy mamlakatlarga ta'lim olish uchun yuborishni ko'zda tutishi ko'rsatib o'tildi. O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar, Moliya va Madaniyat ishlari vazirliklarining va "O'zbekturizm" MKning O'zbekiston Respublikasining AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya va Italiyadagi elchixonalarida madaniyat va turizm masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi birliklarini joriy etishlariga ijozat berildi.

Ushbu dastur olti bo'limdan iborat bo'lib, 1 - bo'lim: "Turizmning me'yoriy - huquqiy bazasini shakllantirish", - deb nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunini tayyorlash, fuqarolarimizning xorijga chiqishi va O'zbekistonga xorijiy fuqarolarning kirishi haqidagi takliflarni o'rgangan holda, xorijiy turistlar uchun boj, viza va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish Nizomiga

o'zgartirishlar kiritish; Madaniy meros yodgorliklarining to'liq ro'yxatini tuzish va nashr etish; yodgorliklarni noqonuniy tarzda olib chiqib ketgan va ularga ziyon etkazilgan hollarda davlat, jamoat tashkilotlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarliklari haqidagi tartibni tayyorlash vazifalari belgilab berildi. Mazkur bo'limda belgilab berilgan "Turizm to'g'risida"gi Qonun 1999 - yil 20 - avgustda qabul qilindi, boj va viza hujjatlarini rasmiylashtirish Nizomiga o'zgartirishlar kiritildi, xullas barcha vazifalar to'liq amalga oshirildi.

2 - bo'lim: "O'zbekturizm" MKning 1999 - 2005 yillardagi investitsiya siyosati", - deb nomlanib, unda Samarqand shahrida "Prezident - otel" mehmonxonasi qurilishi (mablag'ning 85 % xorij investitsiyasi, 15 % "O'zbekturizm" MK hisobidan), shahardagi "Samarqand" mehmonxonasini qayta tiklash (8 mln AQSh dollari. Xorijiy va mahalliy sarmoya); Xivada yangi mehmonxona qurilishi (bu ham 85 % ga 15 %), Urganchda "Xorazm" mehmonxonasini qayta tiklash (7,5 mln AQSh dollari, Hindiston krediti); Toshkent shahridagi "O'zbekiston" mehmonxonasini qayta tiklash (31,5 mln AQSh dollari, xorijiy sarmoya). Shuningdek, 50 - 60 o'rinli 2 - 3 yulduzli mehmonxona qurilishi (20 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya); Toshkent viloyati Chorvoq suv ombori hududida dam olish zonasi va golf klubi qurilishi (100 mln AQSh dollari, xorijiy sarmoya); Buxorodagi "Buxoro" mehmonxonasini qayta tiklash (8 mln AQSh dollari, xorijiy sarmoya); Andijondagi 60 o'rinli yangi mehmonxona qurilishi (12 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya), shahardagi "Oltin Vodiy" mehmonxonasini qayta tiklash (8 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya); Jizzaxdagi "O'zbekiston" mehmonxonasini qayta tiklash (10 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya); Termizdagi mehmonxonani qayta tiklash (6 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya); Shahrisabzdagi "Shahrisabz" mehmonxonasini qayta tiklash (6 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya) kabi juda katta mablag' talab etiladigan vazifalar belgilab olindi. Shuningdek, Avtobus - avtomobil parkini modernizatsiyalashtirish (zamonaviylashtirish) uchun 12 mln AQSh dollari, kichik xususiy mehmonxonalar va

otellar qurilishi uchun 30 mln AQSh dollari miqdorida sarmoya talab qilinishi belgilab berildi. Ushbu bo`limda belgilab berilgan vazifalardan asosiylari ham amalga oshirildi. Toshkent shahrining o`zida "O`zbekiston", "Toshkent", "Rossiya", "Do`stlik", "Turon" kabi mehmonxonalarni modernizatsiyalashtirilganligiga yoki Samarqand shahridagi "Prezident - otel", Toshkent shahridagi "Poytaxt" mehmonxonasini bunyod etilganligiga bugun guvohmiz. Yoki, keyingi yillarda tadbirkorlar tomonidan kichik mehmonxonalarni ishga tushurilishi fikrimizning dalilidir. Shuningdek, boshqa viloyatlardagi vazifalar ham amalga oshirildi.

3 - bo`lim: "Marketing tadbirlari", - deb nomlanib, unda O`zbekistonning diqqatga sazovor joylari haqida turistlarga informatsiya berish va turmahsulotlarni taklif qilish maqsadida internet, E-mail xalqaro informatsiya tarmoqlaridan foydalanishni rivojlantirish; Gid - ekskursovodlar uchun respublika tarixi, siyosiy hayoti, madaniy -tarixiy merosi, turizm imkoniyatlari, asosiy qonunlari, ijtimoiy fan va madaniyat sohasidagi yutuqlari haqidagi barcha axborotlarni o`zida mujassamlashtirgan informatsion - uslubiy ma'lumotnoma (spravochnik) ishlab chiqish; har yili Toshkent shahrida xalqaro "Buyuk ipak yo`li" turistik yarmarkasini o`tkazish, shuningdek, yirik xalqaro turistik yarmarkalarda ishtirok etish; Yangi va maxsus turistik turlarni ishlab chiqish (tarixiy, ekologik, ekzotik va sport); "Turizm - revyu" teleko`rsatuvini doimiy ravishda tashkil etish, O`zbekistonning tarixiy va madaniy yodgorliklariga oid kinofilmlar ishlab chiqarish, reklama ma'lumotnoma (prospekt)larini va xususiy "Buyuk ipak yo`li" axborot - reklama haftalik gazetasini nashr ettirish; Informatsiya olish va almashish maqsadida xalqaro tashkilotlar (JTT, YuNESKO, YuNID, PROON) bilan hamkorlikni faollashtirish. Rivojlangan davlatlar turizm tashkilotlari bilan tajriba almashish asosiy vazifa sifatida qaraldi. Bu bo`limda ham belgilangan internet va E-mail xalqaro informatsiya tarmoqlaridan foydalanish, gidlar uchun spravochniklar ishlab chiqish, har yilgi turistik yarmarkani o`tkazish, xalqaro turistik tashkilotlar bilan hamkorlikni yo`lga qo`yish kabi va boshqa vazifalar amalga oshib kelmokda.

4 - bo`lim: "Turistlarga xizmat ko`rsatishni xalqaro andozalar darajasiga ko`tarish, turizm infratuzilmasini har tomonlama rivojlantirish", - deb nomlanib, unda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi turistlarni ijaraga avtomobil vositalari bilan ta'minlash; Markaziy Osiyo respublikalari uchun mutaxassislarni tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida JTTning malaka oshirish institutini tashkil etish; JTT orqali turizm bo'yicha xalqaro markazlarda (Amerika, Evropa va Osiyo mamlakatlari) "O'zbekturizm" MK xodimlarini, turizm va gid - tarjimonlik bo'yicha mutaxassislarni o'qitish, tayyorlash va qayta tayyorlash; Madaniy - tarixiy inshootlarda xalq ijodi va xunarmandlik mahsulotlari sotish uchun kiosklar tashkil etish, xalq urf - odatlari, an'analarni namoyish etuvchi videoroliklar chiqarish va ularning savdosini tashkil etish; Muzey kolleksiyalari va arxeologik topilmalar nusxalaridan tayyorlangan yodgorliklar ishlab chiqarishni tashkil etish; Turizm ob'ektlarida milliy urf - odatlar va an'analarni namoyish etish; Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar turizm tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning rahbarlarini attestatsiyadan o'tkazish; turistik xizmat ko`rsatish andozalariga muvofiqlikni nazorat qilib borish masalalariga asosiy e'tibor qaratildi. Mazkur bo`limda belgilab berilgan vazifalar ham amalga oshib bormoqda.

5 - bo`lim: "Jahon merosi, madaniyati va tarixiga kiruvchi qo`riqxonalar, yodgorlik shaharlarini muhofaza etish va ulardan maqsadli foydalanish bo'yicha tadbirlar", - deb nomlanib, unda quyidagi yo`nalishlarga e'tibor qaratildi: xalqaro ilmiy - amaliy turistik ekspeditsiyalarni tashkil etish yordamida xorijdagi vatanimiz madaniyati, tarixi, fani va san'ati yodgorliklarining qimmatini o`rganish; milliy bog`lar, an'anaviy choyxonalar, xalq amaliy san'ati va ko`rgazmalarini tashkil etish va ularni turizm marshrutlariga kiritish; turizm ob'ektlarini, mamlakatimiz tarixi bilan bog`liq tarixiy va madaniy yodgorliklarni doimiy ravishda qayta tiklash.

6 - bo`lim: "Ichki turizmni tashkil etish bo'yicha tadbirlar", - deb nomlanib, unda Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari turizm markazlarida piyoda yuruvchi turistlar uchun maxsus yo`llar tashkil etish; Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva

shaharlari va Farg`ona vodiysiga ma'naviy - ma'rifiy va tarixiy ekskursiyalarni tashkil etish; o`quvchi yoshlarimizni o`tmish merosimizga hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida muzeylarda doimiy ravishda ochiq eshiklar kunini o`tkazish; bolalar uylari tarbiyalanuvchilari va kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun bepul ekskursiyalar tashkil etish; O`zbekiston fuqarolari uchun Imom Buxoriy, al Farg`oniy, Bahovuddin Naqshband, al Xorazmiy, al Termiziy, Shayx Najmiddin Kubro va boshqa o`tmish allomalarimizning memorial majmualariga ekskursiyalar tashkil etish vazifalari belgilab berildi.

Navbatdagi hujjatlar - O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 - yil 21 - noyabrda "Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo`lmagan shaxslarning O`zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu erda bo`lishlari va tranzit o`tishlari tartibi to`g`risida"gi Qarori va unga Respublika Vazirlar Mahkamasining 1999 - yil 16 - apreldagi Qarori bilan o`zgartirishlar va qo`shimchalarning kiritilishi bo`ldi.

Ushbu qarorlarda "Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo`lmagan shaxslarning O`zbekiston Respublikasiga kelishlari hamda O`zbekiston Respublikasidan ketishlari tartibi" tasdiqlandi. Tartibning birinchi bo`limi - "Umumiy qoidalar", - deb nomlanib, unda respublikamizga kelish va ketishga haqli deb - xususiy hamda xizmat ishlari bo`yicha, turizm, dam olish, o`qish, ishlash, davolanish va doimiy yashash uchun borayotgan shaxslar va boshqa masalalar belgilab berilgan. Ikkinchi bo`lim - "O`zbekiston Respublikasiga kelish "viza"larini rasmiylashtirish tartibi", - deb nomlanib, uning 12 - bandida ayniqsa to`liq ma'lumotlar mujassam. Uchinchi bo`lim - "O`zbekiston Respublikasidan ketish "viza"larini rasmiylashtirish tartibi, to`rtinchi bo`lim - "O`zbekiston Respublikasiga kelish va undan ketish huquqidagi cheklashlar", beshinchi bo`lim - "Chet elga ketish huquqi rad etilganligi ustidan shikoyat qilish tartibi", - deb nomlangan.

Shuningdek, ushbu qarorlarda "Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo`lmagan shaxslarning O`zbekiston Respublikasida bo`lishlari qoidalari" tasdiqlangan. Bu

qoidaning birinchi bo'limi - "Umumiy qoidalar", ikkinchi bo'limi - "O'zbekiston Respublikasida vaqtincha bo'luvchi xorijiy fuqarolarni ro'yxatga olish", - deb nomlangan. Qoidaning 13 - bandida: ... Mehmonxonalar, davolash muassasalari, sanatoriylar, dam olish uylarining mas'ul shaxslari tomonidan kelib joylashgan shaxslarning hisobi yuritiladi. 19 - bandida: Mehmonxonalar ma'muriyati O'zbekiston Respublikasiga kelish "viza"siga ega bo'lmagan, shuningdek, boshqa qoida buzishlarga yo'l qo'ygan xorijiy fuqarolar to'g'risida hududiy ichki ishlar organlariga zudlik bilan xabar qilishga majburdir. Bunday shaxslarni mehmonxonalarda rasmiylashtirish va mehmonxonalarga joylashgan xorijiy fuqarolarning bo'lish muddatini uzaytirish qabul qiluvchi tashkilotlarning yozma iltimosnomasida (turistlar uchun turning amal qilish muddatida) ko'rsatilgan, lekin "viza" ning amal qilish muddati darajasida oshiriladi", - deyiladi. Uchinchi bo'lim - "Xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash uchun ruhsatnomlar berish", to'rtinchi bo'lim - "Xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida yurishlari", beshinchi bo'lim - "O'zbekiston Respublikasida bo'lish muddatini qisqartirish va undan chiqarib yuborish", - deb nomlangan.

Vazirlar Mahkamasining mazkur qarorlarida, shuningdek, "Xorijiy fuqarolarning, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o'tishlari qoidalari" ham tasdiqlangan.

Respublikamizda turizm sohasi bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 30 - iyundagi "O'zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to'g'risida"gi Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yil 2 - iyuldagi "O'zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlarga muvofiq, 1999 - 2000 o'quv yilidan boshlab turizm sohasi bo'yicha oliy

ma'lumotli kadrlar tayyorlash Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida mujassamlashtirilishi bayon etildi. Shu maqsadda Universitetda Xalqaro turizm fakulteti va unga qarashli "Turizm menejmenti", "Turizm servisi", "Turizm marketingi" kabi mutaxassislik (va boshqa nomutaxassislik) kafedralari tashkil etildi. Universitetda "Turizm menejmenti" ta'limi yo`nalishi bo'yicha magistratura ham faoliyat ko`rsatmokda.

Ushbu hujjatlarga muvofiq, Toshkent shahar mehmonxona xo`jaligi va turizm litseym negizida Toshkent turizm kasb - xunar kolleji tashkil etish va qayta ixtisoslashish, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg`ona, Termiz va Shaxrisabz sha - harlarida Turizm kasb - xunar qollejlari ochilishini bosqichma - bosqich amalga oshirish vazifasi belgilab berildi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 - yil 11 - noyabrdagi "Turizm faoliyatini litsenziyalash to`g`risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorida esa turizm faoliyati bilan shug`ullanishni istagan yuridik sub'ektlar qay tarzda litsenziyani olishlari mumkinligi ko`rsatib o`tildi. "Turizm faoliyatini litsenziyalash to`g`risidagi NIZOM"da - I. Umumiy qoidalar, II. Litsenziya talablari va shartlari, III. Litsenziya olish uchun zarur bo`lgan xujjatlar, IV. Arizani ko`rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to`g`risida qaror qabul qilish, V. Litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish, ularning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikat berish, VI. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish, VII. Litsenziyaning amal qilishini to`xtatib turish, to`xtatish, litsenziyani bekor qilish, VIII. Litsenziyalar reestri, IX. Litsenziya berilganligi uchun davlat boji haqida aniq ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, qarorda Vazirlar Maxkamasining turizm faoliyatini litsenziyalash komissiyasi TARKIBI ham tasdiqlab qo'yildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 - yil 21 - sentyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun ruxsatnoma turlarini qisqartirish va ularni berish tartib - qoidalarini soddalashtirish to`g`risida"gi qarorida esa turizm faoliyati bilan shug`ullanuvchi yuridik shaxslarga beriladigan litsenziyalar muddati cheksizligi ko`rsatib o`tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 - yil 9 - dekabrda "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonini bajarish yuzasidan va turizm sohasida boshqaruvning samarali tizimini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2004 - yil 28 - iyulda "O'zbekturizm" MK faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilinganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Qarorga muvofiq quyidagilar "O'zbekturizm" MKning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- turizm sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishini ta'minlash, turistik xizmatlar infratuzilmasini shakllantirishga kumaklashish;

- turizmni rivojlantirish davlat dasturini, turistlarning muhofaza qilinishini va xavfsizligini ta'minlash dasturlarini amalga oshirish, turistik faoliyatni tarmoqlararo va mintaqalararo muvofiqlashtirish;

- turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish;

- turizm sohasida reklama - axborot siyosatini amalga oshirish;

- turizmni rivojlantirish sohasidagi xorijiy kreditlar va investitsiyalarni jalb etish, xorijiy mamlakatlar, shuningdek, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikning uzoq muddatli dasturlarini rivojlantirish;

- turizm sohasi uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish chora - tadbirlari kompleksini amalga oshirish, turizm tarmoq fanini rivojlantirishga ko'maklashish.

Qarorda "O'zbekturizm" MKning tashkiliy tuzilmasi va markaziy apparat xodimlarining cheklangan umumiy soni 45 nafar, shu jumladan boshqaruv xodimlari 30 nafar bo'lgan markaziy apparati tuzilmasi ham tasdiqlandi.

"O'zbekturizm" MKning tashkiliy tuzilmasi:

Mintaqaviy bo'limlar uchta viloyatda saqlanib qoldi: Samarqand mintaqaviy bo'limi, Xorazm mintaqaviy bo'limi, Buxoro mintaqaviy bo'limi.

Hududiy sayohat va ekskursiya byurolari davlat korxonalari (bundan keyin SEB dk) esa ettita viloyatda tashkil etildi: Surxondaryo SEB dk, Qashqadaryo SEB

dk, Navoiy SEB dk, Qoraqalpog'iston SEB dk, Jizzax SEB dk, Namangan SEB dk, Farg'ona SEB dk.

"O'zbekturizm" MK tizimida quyidagi mehmonxona komplekslari saqlanib qoldi: "Afrosiyob - Palas" mehmonxona kompleksi davlat korxonasi, "Buxoro - Palas" mehmonxona kompleksi davlat korxonasi, "Xiva" turizm ekskursiya kompleksi davlat korxonasi, "Jayxun" mehmonxona kompleksi davlat korxonasi, "Xorazm" mehmonxona kompleksi davlat korxonasi, "O'zolmonxotelz" qo'shma korxonasi.

Xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalardan "Dispetcherlashtirish va xizmat ko'rsatish markaziy boshqarmasi" davlat korxonasi, "Respublika ilmiy - o'quv konsalting markazi" davlat korxonasi, "Qurilayotgan ob'ektlar direktsiyasi" davlat korxonasi ham milliy kompaniya tizimida saqlanib qoldi.

"O'zbekturizm" MK markaziy apparatining tuzilmasi:

Rais - 1 kishi.

Rais yordamchisi - 1 kishi.

Raisning birinchi o'rinbosari - 1 kishi bo'lib, unga - Turistik xizmatlar va investitsiyalar marketingi bo'limi - 3 kishi, Xalqaro aloqalar bo'limi - 4 kishi, Litsenziyalash bo'limi - 2 kishi, shuningdek, mutasaddiliq qilinadigan tashkilotlardan - Respublika ilmiy - o'quv konsalting markazi, Kurilayotgan ob'ektlar direktsiyasi, Dispetcherlashtirish va xizmat ko'rsatish markaziy boshqarmasi qaraydigan bo'ldi.

Rais o'rinbosari - 1 kishi bo'lib, unga - Mintaqaviy va xususiy turizmni rivojlantirishni qo'llab - quvvatlash bo'limi - 3 kishi, Moliya - iqtisodiyot boshqarmasi - 5 kishi, Kadrlar va mutaxassislarni qayta tayyorlashni tashkil etish bo'limi - 2 kishi, shuningdek, mutasaddiliq qilinadigan tashkilotlardan - Samarqand, Buxoro, Xorazm mintaqaviy bo'limlari, hududiy sayohat va ekskursiya byurolari qaraydigan bo'ldi.

Kompaniyada, shuningdek:

Yuridik maslahatchi - 1 kishi.

Maxsus xizmat bo'limi - 3 kishi.

Umumiy bo`lim - 2 kishi.

Ishlar boshqaruvchisi - 1 kishi xizmat faoliyatlarini olib boradigan bo`ldilar.

Kompaniyada 5 ta mehmonxona kompleksi va "O`zolmonxotelz" qo`shma korxonasi saqlanib qoldi.

Qarorda Kompaniyaning nizomi ham tasdiqlandi.

"O`zbekturizm" Milliy Kompaniyasi to`g`risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. "O`zbekturizm" MK (keyingi o`rinlarda Kompaniya deb ataladi) turizm sohasidagi Vakolatli davlat organi hisoblanadi va o`z faoliyati to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

2. Kompaniya tizimiga quyidagilar kiradi:

Samarqand, Buxoro, Xorazm mintaqaviy bo`limlari;

O`zbekiston Respublikasi viloyatlari markazlaridagi Sayohat va ekskursiya byurolari davlat korxonalari;

"Respublika ilmiy - o`quv konsalting markazi" davlat korxonasi;

"Dispetcherlashtirish va xizmat ko`rsatish markaziy boshqarmasi" davlat korxonasi;

tasarrufidagi boshqa tashkilotlar.

3. Kompaniya o`z faoliyatida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlariga va boshqa hujjatlariga, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va farmoyishlariga, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Kompaniya o'z faoliyatini davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Markaziy apparat va mintaqaviy bo'limlar ta'minotiga harajatlar litsenziyalar berish to'g'risidagi arizalar ko'rib chiqilganligi uchun yig'implardan, sertifikatlashtirishga doir xizmatlar ko'rsatishdan tushumlar hamda qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga mablag' bilan ta'minlanadi.

6. Kompaniya va uning mintaqaviy bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadilar, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladilar.

II. Kompaniyaning vazifalari va funktsiyalari

7. Quyidagilar Kompaniyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

turizm sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishini ta'minlash, turistik xizmatlar infratuzilmalarini shakllantirishga ko'maklashish;

turizmni rivojlantirish davlat dasturlarini, turistlarning muhofaza qilinishi va xavfsizligini ta'minlash dasturlarini amalga oshirish;

turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish;

turizm sohasida reklama - axborot siyosatini amalga oshirish;

turizmni rivojlantirish sohasiga xorijiy kreditlar va investitsiyalarni jalb etish, xorijiy mamlakatlar, shuningdek, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikning uzoq muddatli dasturlarini rivojlantirish;

turizm sohasi uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish chora - tadbirlari kompleksini amalga oshirish, turizm tarmoq fanini rivojlantirishga ko'maklashish;

8. Kompaniya o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlarini ishlab chiqadi;

turizmni rivojlantirish bo'yicha normativ - huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi;

turistik faoliyatni litsenziyalash bo'yicha ishchi organ funktsiyasini amalga oshiradi;

"Turizm to'g'risida"gi Qonunga muvofiq turistik xizmatlarni sertifikatlashtirishni amalga oshiradi;

turizm sohasida statistik hisobot tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

turizm sohasida marketing tadqiqotlarini tashkil qiladi;

tahliliy ishlarni amalga oshiradi va respublikada turizmni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari va prognozlarini belgilaydi;

turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi hamda maqsadli tarmoq va mintaqaviy dasturlar bajarilishini muvofiqlashtirishni tashkil qiladi;

turistik xizmatlarning amalga oshirilishini reklama - axborot bilan ta'minlash faoliyatini amalga oshiradi;

xorijiy davlatlarning milliy turistik ma'muriyatlari va ularning O'zbekiston Respublikasidagi Vakolatxonalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

Jahon turizm tashkiloti hamda turizm bilan bog'liq boshqa xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi, ularda respublika manfaatlarini ifodalaydi;

turizm industriasini rivojlantirishga investitsiyalar jalb etish ishlarida qatnashadi;

turizm infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi investitsiya loyihalarini ishlab chiqadi;

tashqi bozorda O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga rioya etilishini tahlil qiladi hamda uning asosida turizm sohasidagi salbiy holatlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha xalqaro dasturlarni amalga oshiradi.

9. Kompaniya o'ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bevosita, shuningdek, mintaqaviy bo'limlar, tasarrufidagi boshqa tashkilotlar orqali bajaradi.

III. Kompaniyaning huquqlari va javobgarligi

10. Kompaniya o'ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

tegishli vazirliklar va idoralardan turizm faoliyati masalalari bo'yicha axborotlarni so'rash va olish;

xorijiy davlatlarning Vakolatli organlari bilan belgilangan tartibda axborotlar ayirboshlashni amalga oshiradi;

o'z Vakolatlari doirasida konferentsiyalar, yig'ilishlar, seminarlar, simpoziumlar o'tkazish, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish, shuningdek, boshqa tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan shu kabi tadbirlarda qatnashish;

turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarni birgalikda ishlab chiqish, tajriba almashish maqsadida xalqaro, xorijiy va respublika tashkilotlari bilan amaliy aloqalar o'rnatish;

xalqaro normalar asosida otellar, mehmonxonalar, kempinglar, shuningdek, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi boshqa ob'ektlar klassifikatsiyasini ishlab chiqishda qatnashish;

11. Kompaniya o'ziga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishi uchun javob beradi.

IV. Kompaniya faoliyatini tashkil etish

12. Kompaniyani qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan rais boshqaradi.

Raisning ikki nafar, shu jumladan bir nafar birinchi o`rinbosari bo`ladi.

Rais maqomiga ko`ra vazirga, rais o`rinbosarlari - vazir o`rinbosarlariga tenglashtiriladi.

13. Kompaniya raisi:

Kompaniya faoliyatiga yakkaboshchilik asosida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;

Kompaniya Vakolatiga kiradigan masalalar bo`yicha qarorlar qabul qiladi hamda Kompaniyaga yuklangan vazifalar va funktsiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

O`z o`rinbosarlirining Vakolatlarini belgilaydi, ular o`rtasida vazifalarni taqsimlaydi. Kompaniya tizimidagi boshqa mansabdor shaxslarning Vakolatlarini, o`z o`rinbosarlarining va boshqa mansabdor shaxslarning Kompaniya faoliyatining alohida uchastkalariga rahbarligi hamda tasarrufidagi tashkilotlar ishlar uchun javobgarlik darajasini belgilaydi;

Kompaniya tizimi xodimlarining bajarishi majburiy bo`lgan buyruqlar chiqaradi va ko`rsatmalar beradi;

Kompaniya markaziy apparati tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida o`zgartirishlar kiritadi, shtat jadvalini, shuningdek, Kompaniya markaziy apparati, tasarrufidagi tashkilotlar harajatlari smetalarini tasdiqlaydi;

Kompaniyaning tarkibiy bo`linmalari va mintaqaviy bo`limlari to`g`risidagi nizomlarni, o`z tizimiga kiradigan tasarrufidagi boshqa tashkilotlarning ustavlarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

Kompaniya markaziy apparati xodimlarini, mintaqaviy bo`limlarning, Kompaniya tizimiga kiruvchi tasarrufidagi boshqa tashkilotlarning rahbarlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.

Rais qonun hujjatlariga muvofiq boshqa Vakolatlarni amalga oshiradi.

14. Kompaniyada tarkibiga Kompaniya raisi (xay'at raisi), rais o`rinbosarlari (lavozimiga ko`ra), shuningdek, mintaqaviy bo`limlar va tasarrufidagi boshqa tashkilotlar rahbarlari kiradigan 7 kishidan iborat xay'at tashkil etiladi.

Xay'atning shaxsiy tarkibi raisning taqdimnomasiga binoan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Kompaniya xay'ati Kompaniya faoliyatining asosiy masalalarini ko`rib chiqadi, tarkibiy bo`linmalar, mintaqaviy bo`limlar va tasarrufidagi boshqa tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi, kompaniyaning muhim buyruqlari va boshqa hujjatlari loyihalarini muhokama qiladi.

Xay'at qarorlari raisning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Rais bilan xay'at o`rtasida kelishmovchilik paydo bo`lgan taqdirda rais o`z qarorini amalga oshiradi. Rais paydo bo`lgan kelishmovchiliklar to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini xabardor qiladi.

15. Mintaqaviy bo`limlar o`z faoliyatini tegishli viloyatlarning xokimlari bilan kelishgan holda Kompaniya tomonidan tasdiqlangan nizomlarga muvofiq amalga oshiradilar.

Kompaniyaning mintaqaviy bo`limlari rahbarlari lavozimga tegishli viloyatlar xokimlarining taqdimnomasiga binoan rais tomonidan tayinlanadi.

Qarorda kompaniya mintaqaviy bo`limining namunaviy tuzilmasi ham tasdiqlangan. Unga ko`ra, mintaqaviy bo`limga boshqaruvchi ( 1 kishi) rahbarlikni amalga oshiradi. Shuningdek, turizmni rivojlantirish bo`limi (1 - 2 kishi), xususiy turistik firmalar bilan ishlash va litsenziyalash masalalari bo`limi (2 kishi), buxgalter - kassir (1 kishi) ishlashlari belgilab berildi.

Barcha mintaqaviy bo`limlar xodimlarining cheklangan umumiy soni - 24 kishi, shu jumladan, boshqaruv xodimlari - 16 kishi, ulardan: Samarqand mintaqaviy bo`limi - 6 kishi, Buxoro mintaqaviy bo`limi - 5 kishi, Xorazm mintaqaviy bo`limi - 5 kishi qilib belgilandi.

"O'zbekturizm" MK raisiga zarurat bo'lganda kompaniya markaziy apparati tuzilmasiga xodimlarning belgilangan cheklangan umumiy soni doirasida o'zgartirishlar kiritishga ruhsat berildi.

Qarorga ko'ra, professional boshqaruvchi kompaniyalarga ishonchli boshqaruvga berilgunga yoki to'liq sotilgungacha davlat ulushlarini boshqarish "O'zbekturizm" MK da saqlab qolinadigan korxonalar ro'yxati tasdiqlandi:

Korxonalar ro'yxati fondidagi davlat tulushi (%)	Ustav
1. "Otel O'zbekiston" qo'shma korxonasi yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati	58
2. "Shodlik" davlat korxonasi aktsiyadorlik jamiyati	16
3. "Varaxsha" davlat korxonasi mas'uliyati cheklangan jamiyati	25
4. "Samarqand" davlat korxonasi aktsiyadorlik jamiyati	25
5. "Chorsu" davlat korxonasi mas'uliyati cheklangan jamiyati	30
6. "Jizzax sayohat" davlat korxonasi aktsiyadorlik jamiyati	9

Qarorda "O'zbekturizm" MK ga quyidagi vazifalar ham topshirildi:

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimliklari, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 2010 - yilgacha bo'lgan davrda turizmni rivojlantirish davlat dasturini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

- manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda turistlarning O'zbekiston Respublikasiga kelishi va ketishi tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash.

Qarorning ahamiyatli tomoni yana shunda bo'ldiki, unga muvofiq, "O'zbekturizm" MK, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining byudjetdan tashqari Turizmni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish, turistlarga xizmat ko'rsatilganligi uchun turistik firmalar va mehmonxona xo'jaliklaridan undiriladigan turistik yig'imni jamg'armani shakllantirish manbalari etib belgilash haqidagi taklifga roziliq berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 - yil 17 - apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006 - 2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis soxasini rivojlantirishni jadallashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi qarorida esa mamlakatimizda servis soxasidagi qoloqlikni oldini olish uchun muhim vazifalar belgilab berilib, unga muvofiq mamlakatimizda xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60 - 80 % ni tashkil etishi, xizmat ko'rsatish soxasida iqtisodiyotda band bo'lgan aholining qariyb 70 % mehnat qilishi, aholining iste'mol xarajatlari tarkibida esa mazkur soxa 50 - 60 % ni tashkil etishi ko'rsatib o'tildi. Qarorda savdo va umumiy ovqatlanish, transport, aloqa va axborotlashtirish, moliyaviy, bank, kommunal va maishiy, avtomobil va boshqa texnika vositalari xizmatlari bilan bir qatorda turistik - ekskursiya (2,5 barobar) va mehmonxona xizmatlari (2,7 barobar) soxasida 2006 - 2010 yillarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan dastur ishlab chiqildi. Masalan, turizm xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha - Toshkent viloyatidagi "Kumushkon" AJ turbazasini qayta qurishni 2007 - 2008 yillarda amalga oshirib, yillik daromad olishni 180 mln so'mga etkazish; turistlarga xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilash maqsadida turistik klassdagi 100 ta transport vositalariga ega bo'lib, ulardan olinadigan daromadni 5,5 mlrd so'mga olib chiqish; yangi turistik - ekskursiya yo'nalishlarini ishlab chiqish; ilmiy, madaniy - ko'ngilochar va sport turizmni ichki va xalqaro darajada tashkil etish (shuningdek, baliqchilik, ovchilik, alpinizm turlari). Yoki, mehmonxona xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha - Buxoro shahridagi "Shahriston" mehmonxonasi ikkinchi qismini 2006 - yil 1V chorakda ishga tushirib, xorijiy turistlar qabul qilishni 4 mingtagacha etkazish.

Ulardan olinadigan yillik daromad miqdorini 300 ming AQSh dollariga olib chiqish hamda 100 ta yangi ishchi o`rinlari tashkil etish; Buxoro shahridagi "Buxoro" mehmonxonasini 2007 - yilda qayta qurib, xorijiy turistlar qabul qilishni 6 minggaacha etkazish. Ulardan olinadigan yillik daromad miqdorini 400 ming AQSh dollariga olib chiqish; Shahrisabz shahridagi "Shahrisabz" mehmonxonasi qurilishini 2007 - yili amalga oshirib, xorijiy turistlar qabul qilishni 5 mingtagacha etkazish. Ulardan olinadigan yillik daromadni 350 ming AQSh dollariga olib chiqish hamda 120 ta yangi ishchi o`rinlari tashkil etish; Farg`ona shahridagi "Ziyorat" mehmonxonasini qayta qurishni 2008 - yilda amalga oshirib, xorijiy turistlar qabul qilishni 3 mingtagacha etkazish. Ulardan olinadigan yillik daromadni 200 ming AQSh dollariga olib chiqish ko`zda tutildi.

Turizmga oid boshqa me'yoriy hujjatlar

O`zbek davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazining 1998 - yil 31 - dekabrda ro`yxatdan o`tkazgan "Mehmonxonalar klassifikatsiyasi"

Ushbu klassifikatsiya "O`zbekturizm" MK tomonidan vazirliklar, korxonalar, tashkilotlarning taklif va mulohazalarini inobatga olgan holda ishlab chiqildi va O`zbek Davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markaziga kiritildi. Mazkur standart kamida 10 nomerga ega bo`lgan mehmonxonalar, motellar, kempinglar, turistik bazalar, shuningdek, O`zbekiston Respublikasiga kelayotgan turistlar va fuqarolarning boshqa vaqtincha yashab turish joylarining klassifikatsiyasini belgilaydi. Unda, shuningdek, ishlatiladigan asosiy atamalarning sharhi, mehmonxonalarga qo`yiladigan umumiy talablar, ularning javobgarligi, turli toifadagi mehmonxonalarga qo`yiladigan talablar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, turli toifadagi mehmonxonalarga qo`yiladigan talablarda: bino va unga tegishli hudud, texnik jihozlar, nomerlar fondi, texnik ta'minot, mebel va boshqa jihozlar ta'minoti, jihozlash va nomerlardagi sanitariya - gigiena buyumlari, umumiy foydalanish sanitariya ob'ektlari, jamoat joylari, ovqatlanish xizmatlari ko`rsatish

joylari, xizmatlar, ovqatlanish xizmatlari, xizmatchilar va ularni tayyorlashga bo`lgan talablar haqida 1 - 5 yulduzli mehmonxonalarga xos konkret vazifalar berilgan.

Turizm bo`yicha Samarqand deklaratsiyasi

1994 - yil 5 - oktyabrda Samarqand shaxrida JTTning Yaxshi niyatli kishilar majlisida ushbu deklaratsiya qabul qilindi. Unda butun dunyoga chaqiruv e`lon qilinib, turizmni rivojlantirish masalalariga e`tibor berildi. Ayniqsa, "Buyuk ipak yo`li"ning markazini tashkil etgan O`zbekistonga turizm ishida keng ahamiyat berilishi xususida, yurtimizdagi mavjud turistik resurslardan unumli foydalanish uchun imkoniyatlarni izlab topish haqida fikr -mulohazalar bildirildi.

YuNESKO bo`yicha ma'lumotlar:

Ma'lumki, O`zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarga boy mamlakat. Mana shu bebaho merosimizning ko`pgina qismi insoniyat mulkiga aylanganligiga ko`p vaqt bo`lgan. YuNESKOning Jahon merosi ro`yxatiga Xivadagi Ichon Qal'a 1990 - yil, Buxoroning tarixiy markazi 1993 - yil, Shahrisabzning tarixiy markazi 2000 - yil kiritilgan. 2001 - yil 12 - 16 dekabr kunlari Finlyandiyaning Xelsinki shahrida YuNESKO Jahon merosi Qo`mitasining navbatdagi yig`ilishi bo`lib, unda Samarqand shahri ham YuNESKOning Jahon merosi ro`yxatiga kiritildi. Demak, endiliqda mazkur to`rttala tarixiy maskan xalqaro hamjamiyat muhofazasida bo`ladi. Hozirgacha dunyodagi 721 ta madaniy va tarixiy yodgorliklar YuNESKOning Jahon merosi ro`yxatiga kiritilgan.

Mazkur mavzuni yoritishda 1 - mavzuda berilgan Xalqaro turistik huquq paragrifiga ham qaralsin.

Xulosa

"Turizm asoslari" kursi mashg`ulotlari jarayonida studentlar turizmning asl mohiyatini o`rganadilar hamda turizmning tarixi, taraqqiyot bosqichlari, tajribasi, hozirgi kundagi muammolari, turlari, kategoriyalari, industriyasi, yo`nalishlari, xizmatlari, resurslari haqida ma'lum bilimlarga ega bo`ladilar. Turizm tushunchalari va atamalarining har biriga ta'rif beriladi. Kurs davomida turizmning iqtisodiy,

siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini, O'zbekiston va jahon turizm biznesining ildizlarini o'rganadilar, kursning boshqa bilimlar tizimida tutgan o'rnini biladilar. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risidagi davlat siyosati haqida ma'lumot beriladi va jahon turizm tajribasining ilg'or namunalaridan misollar keltiriladi.

Tayanch iboralar

- Turizm asoslari
- turizm tarixi
- Turizm siyosati
- Fanning maqsadlari
- Fanning vazifalari

Nazorat va mulohaza savollari

1. "Turizm asoslari" fani nimani o'rgatadi?
2. Fanning maqsadi nimalardan iborat?
3. Fanning vazifasini so'zlab bering?
4. Fanning boshqa bilimlar tizimida tutgan o'rnini qanday?
5. Nima uchun mazkur fanni turizmga oid fanlarning alifbosi deyiladi?
6. O'zbekistonda turizm to'g'risidagi davlat siyosati nimalardan iborat?
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmga oid farmonlaridan qaysilarini bilasiz?
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining turizm bilan bog'liq qarorlaridan namunalar keltiring?
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining turizm bilan bog'liq qonun va kodekslaridan qaysilarini bilasiz?
10. Turizm bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi haqidagi fikringiz qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 - yil 27 - iyuldagi "O`zbekturizm" MKni tashkil etish to`g`risida"gi Farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo`li"ni qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora - tadbirlar to`g`risida"gi Farmoni.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to`g`risida"gi Farmoni.
4. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustdagi "Turizm to`g`risida"gi Qonuni.
5. "Основы туристской деятельности" (Учеб.пособие) . Составитель Ильина Е.Н. -М.: Советский спорт, 2000 .
6. Биржаков М.Б. "Введение в туризм". Санкт - Петербург, 2000 .
7. Бгатов А.П. Туристские формальности. Учебное пособие. 2004.
8. Маринин М.М. Туристские формальности и безопасность в туризме. 2004.

2 - bob. Turizm tushunchasi

2. 1. Ilk sayohatlar va sayohatchilar tarixi

2. 2. Turizm tushunchasi, uning boshlanishi, shakllanishi va tarixi

2.1. Ilk sayohatlar va sayohatchilar tarixi

Sayohat va turizm (travel and tourism) - bir - biri bilan o`zaro bog`liq tushunchalar bo`lib, ular inson hayoti faoliyatining ma'lum bir tarzini ifodalaydi. Bu - dam olish, aktiv (faol) yoki passiv (nafaol) ko`ngilocharlik, sport, atrof - muhitni anglash, savdo, fan, davolanish va boshqa ko`plab narsalarni qamrab oladi. Biroq, bunda har safar sayohatni boshqa faoliyat turlaridan ajratib turuvchi o`ziga xos harakat - insonning vaqtinchalik boshqa joyga, mamlakatga, qit'aga borishi, uning doimiy yashash joyidan uzoqlashishi - mavjud bo`ladi. Shuningdek, sayohat - odamlarning turmush tarzi, ishi, dam olishi bo`lishi mumkin. Rossiyalik mashhur "Sayohatchilar klubi" teledasturi boshlovchisi Yuriy Senkevich o`zining ko`plab sayohatalarida turist hisoblanmaydi, chunki bu uning ishi bo`lganidan tashqari, turmush tarzi hamdir. Ayrim xalqlar uchun sayohat bu asrlar davomida yashash joyining tabiiy - iqlim sharoitlari ta'sirida shakllangan turmush tarzidir. Masalan, mavsumiy qishloq xo`jaligi tufayli meksikaliklar har yili AQSHning shimoliy qismiga daladan hosil yiqqani boradilar.

Sayohat

Sayohat umumiy tushuncha ma'nosiga ega atama bo`lib, odamlarning maqsadlaridan qat'iy ko`chib yurishlarini anglatadi. Ko`p asrlik tarix guvohki, kishilar savdoni rivojlantirish, yangi erlarni ochish va o`zlashtirish, resurslar va yangi transport yo`llarini izlab topish maqsadida jahon bo`ylab sayohat qilish imkoniyatiga ega bo`lganlar. Sivilizatsiyamizning rivojlanishi unchalik katta davr bo`lmay, besh ming yilga yaqin hisoblanadi, biroq faqat yaqin o`tmishdagi sayohatlar haqidagi hikoya va tasvirlargina saqlanib qolgan. Tarixdan bizga yangi qit'a va erlarni, xalqlar

va tabiiy xodisalarni ochgan, o`ziga xos geografik tizimlarni asoslab bergan buyuk sayohatchilarning nomlari ma'lum.

"O`zbek tilining izohli lug`ati"da: "Sayohat- arabcha so`z bo`lib, dam olish, xordiq chiqarish yoki dunyoni ko`rish, o`rganish maqsadida qilingan safardir", - deyiladi. Safar tushunchasining o`zi ham arabchadan olingan va u xizmat yoki sayohat maqsadida biror erga borishdir.

Moziyga murojaat qilib, shularni aytish mumkinki, ilk sayohatchilar deyilganda ko`z oldimizda ko`hna davrlardagi - bir erdan ikkinchi erga ko`chib yurgan ko`chmanchi qabilalar, diniy e'tiqoddagi ziyoratchilar, davlatlararo yurgan va "Buyuk ipak yo`li" bo`ylab safarga chiqqan savdogarlar, keyinroq esa mamlakatlar manfaatini himoya qiluvchi davlat elchilari, ilmni maqsad qilib olgan olimlar, allomalar va mutasavvuflar, harbiy jabhalarda o`zga hududlarga kirgan jangchilar gavdalanadi. Shukurlar bo`lsinkim, bularning aksariyati safarlari davomida o`zga hududlar tarixi, geografiyasi, zahmatkash xalqi, millatlarning urf - odatlari, an'ana va marosimlari, boy madaniy merosi bilan yaqindan tanishganlar hamda ular haqida ajoyib asarlar, xotira va esdaliklar yozib qoldirishgan. Masalan, tarix fanining otasi - Gerodot (eramizdan avvalgi 5 - asr) Evropa, Osiyo va Misr bo`ylab sayohat qilgan. Uning "Tarix" nomli asarida Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlari - ko`chmanchi qabilalari: agrippiylar, issedonlar, massagetlar, daylar, saklar hayoti, odat va marosimlari, qo`shni mamlakatlar (masalan, Eron) bilan aloqalari bayon etiladi. Gerodot massagetlarni hunarmand ekanliklari: mis va oltindan yasalgan qurol - aslahalar, ot anjomlari, turli idishlar, zeb - ziynatlar, bosh kiyimlar, belbog`, zardo`zlik ustalari bo`lganliklarini yozib qoldirgan. Yoki, frantsuz tadqiqotchisi va geografi Pifey (eramizdan avvalgi 320 - yil) esa o`sha vaqtlarda aql bovar qilmaydigan tarzda butun Evropa bo`ylab sayohat qilgan. U Britaniya orollarini aylanib o`tib, Norvegiya va Islandiyagacha borgan. Uning "Okean haqida" deb nomlangan ajoyib asarida ko`plab geografik ixtirolar tasvirlab berilgan. Keling, ularning ayrimlari haqida (garchi

yurtimizga tashrif buyurgan va tashrif buyurmagan bo'lsalarda) fikr bildiraylik. Aslida esa ular juda ko'p va xilma - xildir.

Marhum tarixchi olim, akademik Bo'riboy Ahmedovning "O'zbekiston tarixi manbalari" kitobida biz tadqiq etmoqchi bo'lgan ushbu masalaga alohida e'tibor bilan qaralgan. Asarning ilk sayohatchilar tarixini o'rganishdagi ahamiyati cheksizdir. Ayniqsa, u maxsus yoki yangi turistik yo'nalishlar ishlab chiquvchi turoperatorlar va gid - ekskursovodlar uchun yanada qimmatli hisoblanadi. Shu sababli, uni va boshqa tarixiy asarlarni mutolaa qilib, sayohat va ilk sayohatchilik tarixi nuqtai - nazaridan o'rganib, o'ta muhim tarixiy ma'lumotlar olishga muvaffaq bo'ldik. Ushbu manbalarda keltirilishicha sayohatchilarning ibtidosi hisoblangan - ko'chmanchi qabilalar (sayyohlar) dastlab chorvachilik bilan hayot kechirganlar va ular bir hududdan ikkinchi bir hududga tabiiy - iqlim sharoitlari, jangu - jadallar tufayli ko'chib yurishgan va o'zlarining sayohatchi ekanliklarini sezishmagan. Ilk ko'chmanchilar eramizdan avvalgi 4 - 3 ming yilliklarda, hatto undan oldingi davrlarda ham bo'lgan. Osiyo, Shimoliy Afrika va Janubiy Evropa hududlarida ularning dastlabki jamoalarini kuzatamiz (masalan - aborijenlar, indeyslar).

Eramizdan avvalgi 2 - ming yillikning oxiri va 1 - ming yillikda Markaziy Osiyo hududida ham chorvador podachi jamoalarining moddiy madaniyat yodgorliklari qadimiy Xorazm (Tozabogen)da, Zarafshon vodiysi (Urgut, Kattaqo'rg'on)da, Farg'ona vodiysi (Vodil va Karomko'l)da, Toshkent vohasi (Achiko'l) da ham mavjud bo'lgan. O'lkamizdagi ko'chmanchi qabilalar haqida "Avesto"da, yunon tarixchilari asarlarida muhim manbaalar mujassam. Eramizdan avvalgi VI - IV asrlarda yozilgan va otashparastlik (zoroastrizm) dinining mazkur kitobida Eron va Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati (e'tiqodi, tili, adabiyoti), tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar mujassam.

Ko'chmanchilarni sahroyi, dashtlik, tog'lik kabi nomlar bilan atashgan. Eramizdan avvalgi 3 - asr va eramizning 4 - asrlarida Sirdaryo bo'ylarida tashkil topgan Qang' davlati jabg'ulari (mulkka ega qabilalari) o'z chorva mollarini Talas

yaylovlaridan Sarisu va Chu daryolari (Qirg'iziston va Qozog'iston hududlaridan oqib o'tuvchi daryolar) etaklari tomon haydasa, qishda Ohangaron vodiysi tomon olib borishgan.

Ko'chmanchilar qatoriga lo'lilar, qochoqlar va zo'rlab ko'chirib yuborilganlarni kiritish mumkin. Zo'rlab ko'chirib yuborish voqealarini tasdiqlovchi tarixiy manbalar ham mavjud. Masalan, qadimdan Shimoliy Xitoyda yashagan xunlar eramizdan avvalgi 2 - asr oxirlarida xitoylar tazyiqi ostida g'arbg'a qarab chekinishga majbur bo'lganlar va Sharqiy Turkistonga hamda Ettisuv (Qozog'iston) vohasida ko'chib yurgan skif va usun qabilalarini surib chiqarganlar. Natijada, skif va usunlar So'g'diyona (Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzasidagi hudud) va Baqtriya (O'zbekiston va Tojikistonning janubiy, Afg'onistonning shimoliy qismlari) hududiga ko'chib o'tib, bu erda saklar bilan birga qo'shilib ketganlar.

Shuningdek, indeyslarni majburiy ko'chirish hollari yuz berganligini, Amerikaga ko'plab aholining o'zga hududlardan borganligini, ba'zi davlatlarda lo'lilar jamoalari borligini, Afg'oniston va Iroq kabi mamlakatlar aholisining boshka davlatlarga boshpana istab ketib qolganliklarini, O'zbekistonda yashagan (yashayotgan) greklar, koreyslar, turklar, ruslar avvalo qaysidir bir sabablar bilan ko'chmanchi bo'lganliklarini bilish kiyin emas. Shu boisdan, ko'chmanchilikni hozirgi kunga kelib butunlay yo'q bo'lib ketdi, - deya olmaymiz. Masalan, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrikadagi ko'chmanchilar (mo'g'ullar, arablar, balujlar, kurdlar) haligacha mavjud. Lekin, transport vositalarining paydo bo'lishi bilan ko'chmanchilarda o'troqlashuv jarayoni ham kuchaydi. Ko'rinib turibdiki, ko'chmanchik keyingi davrlarda ham qaysidir shakllarda mavjud bo'ldi. Lekin, ularni ilk sayyohlar deb bo'lmaydi, chunki, ular yashagan davr yaqin o'tmishimizdir.

O'tmish tariximiz haqida xabar beruvchi manbalariga e'tiborimizni qaratsak, qadimgi davrlardagi diniy e'tiqoddagi ziyoratchilarni ham ilk sayohatchilar qatoriga qo'shishimiz mumkin. Barcha din vakillarining muqaddas deb bilgan o'z qadamjolari - ziyoratgoxlari mavjud. O'tmish davrlarini tasavvur qilsak, kishilar nimalargadir

e'tiqod qilishgan, sig'inishgan. Kerak bulsa, shu yo`lda qurbonlik ham amalga oshirishgan. E'tiqod qilish yoki sig'inish maqsadida bir hududdan ikkinchi bir hududga borishgan va diniy amallarini bajarishgan. Odamlarning e'tiqod qiluvchi kitoblari Olloh tomonidan bandalariga yuborib turilgan. Ushbu kitoblarga muvofiq e'tiqod qilingan. Masalan, musulmonlar Xaj ziyorati tufayli farz amallaridan birini ado etishgan, ta'bir joiz bo`lsa, sayohat qilishgan. Demak, kishilar diniy - ziyorat maqsadida borib, sayohatchilar toifasiga qo`shilganlar. Shuningdek, buddizm va xristian dinlari vakillarining muqaddas deb bilgan joylariga uyushtirgan qadim ziyoratlari ham sayohatlardir. Shu bois, necha ming yillar avval bo`lib o`tgan bunday ziyoratlarni ilk sayohatlar, ularning ishtirokchilarini esa ilk sayohatchilar qatoriga kiritamiz. Shuningdek, yurtimizda mavjud imom Buxoriy, imom Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Zangi ota qadamjolarini ham ziyoratgoxlar, - deb bilamiz. Hozirda ko`plab musulmon davlatlaridagi turoperatorlar diniy turizm bilan shug`ullanib, ularni tashkillashtirib, Xaj va umra ziyoratlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Bularni diniy - ziyorat turizmi turiga kiritamiz.

Savdogarlar masalasiga kelsak, ular ham savdogarlik maqsadida bir hududdan ikkinchi bir hududga borganlar va sayohatchi bo`lganlar. Eramizdan avvalgi X - VIII asrlarda yaratilgan "Mahabxarata" ("Bharata avlodlari jangnomasi") dostonida Hindistonga saklar, toxarlar va qanhaliklar savdogarlik tufayli borganliklari quyidagi tarzda bayon etilgan: "Uning (podshoh Yudxishtxiraning) eshigi oldida boshqa xalqlar bilan birga saklar, toxarlar va qanhaliklar ham navbat kutib turardilar. Paxmoq soqol, peshonalari shoxlar bilan bezatilgan, qo`llarida turli - tuman sovg`alar, jun, rangu, ipak va patta (oq qayinning biri turi) daraxti tolasidan, shuningdek, kamyob matolardan, paxtadan to`qilgan gazlamalar, mayin, nafis terilar, uzun va o`tkir qilichlar, shamshirlar, temir nayzalar, har - xil boltalar, ichimliklar, xushbo`y narsalar, turli - tuman qimmatbaho toshlar...".

Eramizdan avvalgi V - IV asrlarda (Doro I davrida) sopolga o`yib yozilgan bitikda Eronning qadimgi Suza shahridagi saroyning qurilishi uchun oltinlar

Baqtriyadan, qimmatbaxo toshlar So`g`diyonadan, feruzalar Xorazmdan olib kelinganligi bayon qilinadi. Tosh - tasviriy suratlarda Eron ahamoniylariga qaram mamlakatlardan o`lpon olib kelinganligi tasvirlangan manbalar - suratlar ham mavjud. Masalan, baqtriyaliklardan turli - tuman mato, teri, qo`ylar; saklardan chakmon va otlar; parfiyaliklardan idishlar, tuyalar; xorazmliklardan qurol - aslahalar, otlar olib kelinganligi tasvirlanadi.

Tarix fanlari doktori, professor G.A. Hidoyatov o`zining " Mening jonajon tarixim" kitobida: "O`rta Osiyoga kelgan birinchi xitoy elchisi (sayyohi) Chjan - Szyan eramizdan avvalgi 140 - yilda Xivaga borganligini ta'kidlab o`tgan. Albatta, sayyohning ko`rgan - bilganlari haqidagi ma'lumotlar ham anchagina.

Shuningdek, eramizdan avvalgi II asrdan eramizning XV asrigacha davom etgan, qadimda va o`rta asrlarda sharq va g`arb mamlakatlarini o`zaro bog`lagan karvon yo`li - "Buyuk ipak yo`li" orqali ham ajdodlarimiz savdogarlik maqsadida o`z sayohatlarini amalga oshirganlar. Savdogarlar karvonlari uchun bunyod etilgan karvonsaroylarda ularga barcha shart - sharoitlar mujassam qilingan. Karvonlar turishi uchun joy, em - xashak, savdogarlar uchun ko`nalg`a joy (mehmonxona), oziq - ovqat oldindan hozirlab qo`yilgan va boshqa xizmat ko`rsatish (servis) shahobchalari tunu - kun o`z mijozlarini kutib olib, mehmonnavozlikni amalga oshirganlar. Albatta, savdogarlik mahalliy tojirlar tomonidan o`lkamizaro ham amalga oshirilgan. Demak, o`tmishda mamlakatlararo, xalqlararo iqtisodiy, madaniy aloqalar bo`lgan va bu aloqalarni sayyohlikning ilk ko`rinishlaridan, deb aytish mumkin.

Madaniy - maishiy turmush tarzimiz shu darajada rivojlangan ediki, hatto bundan uch ming yil avvalgi ichimlik suvi va chiqindi suvlar oqadigan sopol quvurlar qoldiqlarini arxeolog olimlarimiz topishga muvaffaq bo`lganlar.

Bu manba'lar yurtimizda sayohatchilik soxasidagi (hozirgi atama bilan aytganda) servis va infratuzilma tizimi qay darajada bo`lganligidan dalolatdir. Shu o`rinda karvonsaroylarga alohida to`xtalib o`tishni joiz, deb bilamiz. O`zbekiston milliy entsiklopediyasida karvon va karvonsaroy haqida: karvon - forsha so`z bo`lib,

uning 1 - ma'nosi: uzoq joylarga yuk va odam tashuvchi, qator bo`lib ketayotgan hayvonlar (tuya, eshak, xachir, otlar), aravalar va ularni boshqaruvchi shaxslar guruhi, qatori. Karvon uzilib qolmasligi uchun eng oldingi va oxirgi hayvonga qo`ng`iroq osib qo`yilgan, - deyilsa; 2 - ma'nosi: o`zaro yordam va xavfsizlikni ta'minlash uchun birga qo`shilib yo`lga chiqqan yo`lovchilar, sayyohlar yoki elchilar guruhi. Karvonni karvonboshi boshqargan, - deyiladi. Karvonsaroy - karvonlar tunab o`tadigan rabot, saroy. Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Kavkaz orti shaharlari savdo yo`lida barpo etilgan. Karvonsaroylar odatda, o`rtada katta hovli, atrofi bir - ikki qavatli hujralar bilan o`ralgan, minorali qal'aband istehkom shaklida bo`lib, savdo manzillarida va shahardagi bozor (tim, toq) lar qatoriga qurilgan. 9 - 18 - asrlarda shaharlarning o`sishi va karvon savdosining kuchayishi natijasida karvonsaroylar ko`plab bunyod etilgan. Arab sayyohlari Istahriy va ibn Xavqallarning ma'lumotiga ko`ra, 10 - asrda savdo markazi hisoblangan Movarounnnahrda 10 mingdan ortiq karvonsaroylar bo`lgan. Masalan, Raboti Malik (11 - asr, Navoiy shahri yaqinida), Doya xotin (12-asr, Turkmanistonda) karvonsaroyi xarobalari, Olloqulixon (19 - asr, Xiva) karvonsaroyi va timi.

Yaqin o`tmishimizda bo`lib o`tgan shunday ma'lumotlar ham borki, davr nuqtai - nazaridan ularni ilk sayohatlar qatoriga kiritmasdan, oddiy sayyohlik darajasida o`rganamiz. Masalan, o`zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriyning "O`tgan kunlar" romanida Otabekning Toshkent - Marg`ilon - Toshkent yo`nalishida sevgilisi Kumush izidan bir necha marotaba safar - sayohatga chiqqanligini olaylik. Mana shunday sayohatlar bo`lganligiga ham tarix guvoh. Balki bunday safarlarni sevishganlar sayohati, deb o`rganarmiz. Garchi o`z hududimiz doirasida bo`lgan bo`lsada. Otabekning Toshkentning Chuqur qishloq degan joyida qozoqlar tomonidan ochilgan bo`zaxonada bir necha marotaba tunab qolganligi, otni otxonaga joylashtirish, ozuqa berishdan tortib Otabekka ko`rsatilgan boshqa xizmatlar - turli taomlar (bo`zaxo`rlik), hatto kechasiligiga qaramay mashshoqning bo`lishi va unga

dutor bilan kuy chalib berishi - bularning bari garchi uni mehmonxona deyilmasada, servisning joy - joyiga qo'yilganligi emasmi?

Elchilarni ham sayohatchilar deyish mumkin. Tarixga murojaat qilinsa, V - VII asrlarga oid Samarqand tarixida Afrosiyob saroyi mehmonxonasidagi rasmlar ajoyib bo'lib, unda oq kiyim kiygan Chag'aniyon (eramizdan avvalgi VI asrdan - eramizning XVI asrigacha hozirgi Surxondaryo viloyatidagi Sho'rchi, Denov, Sariosiyo, qisman Jarqo'rg'on tumanlari xududlaridagi viloyat, shahar) elchisining surati tasvirlangan. Ushbu tasvir o'sha davrlarda ham elchilik aloqalari bo'lganligidan dalolatdir.

X asrda yashagan arab sayyohi va olimi Ahmad ibn Fadlan Bag'doddan Bulg'orga Buxoro, Xorazm orqali elchilar bilan birga tashrif buyurgan va o'z xotiralarida muhim tarixiy, geografik ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Yoki, Sohibqiron Amir Temur saltanatiga Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III ning elchisi Lui Gonzales de Klavixo tashrif buyurib, yurtimiz ichki turmushi, shaharlari, qishloqlari, Amir Temur saroyidagi odatlar, Temurbekning xotinlari, Shahrisabz va Samarqand haqida qimmatli ma'lumotlarni yozadi. (Shuningdek, bavariyalik ritsar Iogann Shiltberger ham Temur va uning avlodlari xizmatida bo'lgan). Shohruh Mirzo esa 1442 - yili Janubiy Hindistonga Vijayanagar davlatiga Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligidagi elchilarni jo'natgan. Ular Hirot, Eronzamin, Fors qo'ltig'idan o'tib, kemalar orqali Janubiy Hindistonga borganlar. 1444 - yili esa yana Hirotga qaytganlar. Uch yillik elchilik xotiralari kundaligini yozib qoldirganlar. Shuni aytish lozimki, Abdurazzoq Samarqandiy Afanasiy Nikitindan 25 yil avval bu erda bo'lgan.

Hofiz Ko'hakiy (16 - asr) - Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy tarixchi, huquqshunos, tarjimon bo'lib, Mirzo Ulug'bekning sevimli shogirdi Aliqushchining nabirasidir. U Hindistonga 1528 - yili Bobur Mirzo va 1569 - yili Akbarshoh huzuriga elchi bo'lib borgan.

XVII asrda rus elchilaridan I.D. Xoxlov, V.A. Daudov, M.Yu. Qosimov (tatar millatiga mansub), aka - uka Pazuxinlar Buxoro va Xiva shaharlarida elchilik qildilar.

Petr I (1682 - 1725) Xiva va Buxoroni qo`lga kiritish maqsadida avval Bekovich - Cherkasskiyni, so`ng Florio Benevinini elchi qilib yuboradi.

Shuningdek, XVIII asrda sayyoh Mitropolit Xrisanf, savdogar Filipp Nazarov, harbiy Nikolay Muravyov, poruchik Dmitriy Gladishev va er o`lchovchi Ivan Muravinlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo`qon, Marg`ilon va Namangan shaharlari haqida ajoyib esdaliklarni yozib qoldirishgan.

Ilk sayohatchilarni umumiy ma'noda ko`chmanchilar, ziyoratchilar, savdogarlar, - deb oldik. Shuningdek, ayrim shaxslar hayoti va faoliyatini o`rganib, ularni ham ilk sayohatchilar qatoriga kiritamiz, asarlarini esa ilk sayohatchilik ilmini yangi, original manbaalar bilan boyitgan dastlabki fundamental tadqiqotlar qatoriga kiritamiz. Ular o`zga hududlardagi hayotni, agar ta'bir joiz bo`lsa, xuddi biz kutgandek sayohatchilik nuqtai - nazaridan yoritib berishgan. Qadimgi Eron, hind, yunon, rim, turk, xitoy, so`g`d, mo`g`ul, arab, fors, eski o`zbek va fors - tojik tilidagi manbaalarda bularni ko`ramiz.

Gerodotdan tashqari yunon sayohatchi - olimlaridan Diodor (er. av. 90 - 21 y.) - skiflar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar haqida; Pompey Trog (er. av. I asr - er. I asri) Baqtriya va So`g`d shaharlari, imoratlari, etnografiyasi haqida; Arrian Flaviy (er. 95 - 175 y) va Kvint Kurtsiy Ruf (er. I asri) ning Iskandar Zulqarnaynning hayoti, bosqinchilik yurishlari, xususan, uning Markaziy Osiyoni istilo qilishi, Spitamen boshliq qo`zg`olon haqida; Polibiy (er. av. 201 - 120 y.), Strabon (er. av. 63 - er. 23 y.), Gay Pliniy Sekund (er. 24 - 79 y.), Ptolemey Klavdiy (er. 90 - 160 y.) lar o`lkamizg tarixi, skiflar, Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo), Baqtriya va uning tabiiy boyliklari haqida qimmatli ma'lumotlar berishgan.

Abulqosim Firdavsiy tomonidan yozilgan "Shohnoma" (X asr) kitobida Eron va Markaziy Osiyoda zardushtiylikning paydo bo`lishidan to arablar xalifaligigacha bo`lgan davrdagi (er. av. VI - er. VI asrlar) siyosiy vaziyat, diniy aqidalar bayon etilgan.

Arab sayyohi va geograf olimi Abu Dalaf (X asr) Buxoroga kelgan va o`z asarlari orqali muhim tarixiy, geografik ma'lumotlarni keltirgan.

Italiyalik savdogar - sayyoh Marko Polo (XIII asr) Xitoyga safar uyushtirib, u erda 17 yil yashagan va noyob manbaalar bitib ketgan. Uning Samarqandda bo`lganligi esa biz uchun yanada qimmatli. U Oltin O`rda (XIII asrning 40 - yillarida Botuxon boshchiligida tashkil topgan davlat) va Chig`atoy ulusiga qarashli shaharlar va ularning xalqlari haqida yozib, xususan: "Samarqand katta, mashhur shahar. Unda sarasinlar bilan birga xristianlar ham istiqomat qiladilar", - deydi.

Yana bir arab sayyohi va olimi Ibn Battuta (XIV asr) 21 yoshidan sayohat qilganligi manbaalardan ma'lum. U shimoliy Afrika mamlakatlari, Xitoy va Hindistonda bo`lib, mamlakat va savdo yo`llarining geografik nomlarini, xalqlarning urf - odatlarini yozib qoldirgan. Shuningdek, uning Samarqandga sayohati va temuriyzodalar xilxonasi (xususan, Shohizinda)da bo`lishi biz turizm mutaxassislariga ta'luqli muhim tarixiy ma'lumotdir.

Buyuk sayohatchi - olimlar, kashfiyotchilar katoriga XV - XVI asrlarda yashagan Fernan Magellan, Vasko da Gama, Xristofor Kolumblarni ham kiritish mumkin. Jumladan, Kolumb 1492 - 1493 yillarda uchta karavellada Atlantika okeanini bosib o`tib, Amerika qit'asini kashf etgan.

Eng qadimgi rus sayyohlaridan Igumen Daniil 1065 - yilda Afon va muqaddas Erga ziyorat qilgan va safar davomida ko`rgan xalqlari va erlari haqida batafsil ma'lumotlar yozib qoldirgan. "Uch dengiz osha sayohat" nomli ajoyib asar muallifi bo`lgan Afanasiy Nikitin esa XV asrda Eron va Hindistonga sayohat qilgan. Sovet davrida shu nomli badiiy film ham yaratigan edi. Keyinchalik, Bering (XVII - XVIII asr), Mikluxo - Maklay, Prjevalskiy (XIX asr) lar mashhur sayohatchilar sifatida o`z nomlarini tarixda qoldirganlar. Yaqin o`tmishimizda esa "Sayohatchilar klubi" teledasturining muallifi bo`lgan Yuriy Senkevichdan tashqari, Artur Chillingarov, Dmitriy Shparolarning nomlari sayohatchilik bilan shug`ullanuvchilarga yaxshi tanish. Zamondoshimiz kapitan Kustoning dunyo bo`ylab sayohatlarini bilmagan

kishilar kam topilsa kerak. O`zbekiston mustaqillikka erishgach esa vatandoshimiz Murod Qosimovning bir qator davlatlarni kezib chiqqanligini mutaxassislar yaxshi bilishadi.

Allomalar

Bulardan tashqari, VIII - XX asrlarda yashab o`tgan allomai zamonlardan - Abu Yusuf Ya'kub, Madoiniy, Al - Ya'qubiy, Balazuriy, Ibn al - Faqih, Ibn Xurdadbeh, Tabariy, Al - Mas'udiy, Abulfaraj Kudama, Istaxriy, Ibn Havqal, Al -Muqaddasiy, Utbiy, As - Saolibiy, Al - Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Miskavayx, Mahmud Koshg`ariy, Al - Idrisiy, Sam'oniyy, Ibn al - Asir, Ibn Xallicon, Shihobuddin Muhammad Nisoviy, Jamol Qarshiy, Ibn Arabshohlarning arab tilidagi;

Narshahiy, Nizomulmuluk, Nizomi Aruzi Samarqandiy, Gardiziy, Najmuddin Abu Xafs Nasafiy, Faxruddin Muborakshoh Marvarrudiy, Abulfazl Bayhaqiy, Avfiy, Juvayniy, Rashiduddin, Hamdulloh Qazvinii, Banokatiy, Nizomuddin Shomiy, Mu'inuddin Natanzii, Hofizi Abru, Sharafuddin Ali Yazdiy, Mirzo Ulug`bek, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxondlarning fors tilidagi;

Abdulla Nasrullohiy, Muhammad Solih, Abulg`ozixon, Munis, Ogahiy, Mirza Olim Toshkandiy, Muhammad Yusuf ibn Bobojonbek Bayoniylarning eski o`zbek tilidagi;

Mulla Shodiy, Kamoliddin Binoiy, Fazlulloh ibn Ruzbehon, Xondamir, Mirzo Muhammad Haydar, Hasanbek Rumlu, Hofiz Tanish Buxoriy, Abulfazl Allomiy, Muhammadyor ibn Arab Kattagon, Amir Ahmad Roziy, Iskandarbek munshiy, Mahmud ibn Vali, Xoja Samandar Termiziy, Muhammad Yusuf munshiy, Mir Muhammad Amini Buxoriy, Mulla Sharafuddin A'lam, Abdurrahmon Davlat, Xoji Mir Muhammad Salim, Muhammad Kozim, Muhammad Vafoyi Karminagiy, Mulla Ibodulla, Mulla Muhammad Sharif, Mir Olim Buxoriy, Hakimxon to`ra, Ahmad Donish, Mirzo Abduazim Somiy Bo`stoniy, Mirza Salimbek, Muhammad Solih Toshkandiy, Niyoz Muhammad Xo`qandiylarning fors - tojik tilidagi asarlarida sayohatshunoslik tarixiga oid muhim ilmiy manbaalar mujassam.

Shuningdek, geografiya va kosmografiyaga ta'luqli - Kitobi Mullazoda, Majmu' al - g'aroyib, Ajoyib ut - tabaqot, Dili g'aroyib; o'zbek xalqining shakllanishiga oid - Tarixi Abulxayrxoniy, Nasabnomayi o'zbek, Asomiyi navadu du firqayi o'zbek asarlari; Davlatshoh Samarqandiy, Xoja Bahouddin Hasan Nisoriy, Mutribiy, Maleho Samarqandiy, Tazkirayi Bug'roxoniy, Manoqibi Xoja Yusuf Hamadoniy, Risolayi shayx Najmiddin Kubro, Manoqibi Amir Kulol, Xoja Muhammad Porso, Maqomati xoja Ahror, Rashaxotu ayn ul - hayot, Jomi' ul - maqomati Mahdumi A'zam Kosoniy - biografik asarlari; Bobur, Zayniddin Vosifiy, Fasih Ahmad Xavofiy, Seydi Ali Reislarning - memuar asarlari o'z qimmatiga ko'ra ko'hna tarix, el - ulus, uning osori - atiqalari, qadamjolari, geografiyasi, etnografiyasi, madaniy merosiga ta'luqli yangiliklar bilan yanada qiziqarli. Bir so'z bilan aytganda respublikamiz va unga tutash hududlarga oid ilmiy - tarixiy manbaalar mujassam.

2.2. Turizm tushunchasi, uning boshlanishi, shakllanishi va tarixi

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunida turizm tushunchasiga quyidagi tarzda ta'rif berilgan: "turizm - jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy - amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi)".

Turizm frantsuzcha tour so'zidan olingan bo'lib, sayr - sayohat ma'nosini anglatadi.

Endi turizmning taraqqiyot jarayoniga nazar tashlab o'tamiz. Zamonaviy texnika vositalari harakatlanish xarakterini tubdan o'zgartirib yuborib, xohlangan vaqtda sayohat qilish imkonini berdi. Manbalarda 1815 - yilda Frantsiya - Angliya o'rtasida maxsus turlar tashkil qilinganligi yoziladi. Yozuvchi va sayohatchi **D. Galinyany** keng omma uchun Parijdan Londonga uyushtiriluvchi bunday turlarning tashabbuskori bo'lgan. 1829 - yilga kelib sayohatchilar uchun maxsus tayyorlangan dastlabki yo'l ko'rsatkich **K. Baedeker** tomonidan tayyorlangan va nashr qilingan.

bo`lib, U hozirgi kunda ham chop etilib, Evropa bo`ylab sayohat qiluvchi turistlar o`rtasida keng tarqalgan. Texnika taraqqiyoti ommaviy turizmning rivojlanishiga katta turtki bo`ldi. 1830 - yilda jahonda birinchi temir yo`l Manchester va Liverpool o`rtasida ishga tushib, u amalda sayohat uyushtirishning vaqt chegaralarini o`zgartirib yubordi. Ilgari haftalab davom etgan sayohatlarni endiliqda arzimagan haq to`lab amalga oshirish har bir kishining qo`lidan keladigan bo`lib qoldi. Temir yo`llar barcha mamlakatlarda misli ko`rilmagan suratlarda qurila boshladi. 1833 - yilda Rossiyada Cherepanovning birinchi parovozi qurildi. 1842 - yilga kelib Angliyada temir yo`l orqali yo`lovchi tashish ko`rsatkichi 23 million kishiga etdi. AQSh da 1850 - yilga kelib 15 ming chaqirim masofali temir yo`llar qurib bitkazilgan. Toshkentda esa birinchi temir yul 1899 - yil Krasnovodsk - Toshkent va keyinchalik 1905 - yili Toshkent - Orenburg yo`nalishida ishga tushirildi.

Bugungi kunda zamonaviy turizm asoschisi deb tan olingan baptist ruxoniysi - Tomas Kuk birinchilardan bo`lib sayohatchilarning ommaviy safar uyushtirishining foydaliligini anglab etdi hamda 1843 - yilda o`z qavmi uchun dastlabki temir yo`l orqali turni tashkillashtirdi va muvaffaqiyatga erishdi. Kuk 1851 - yili mamlakatning barcha burchagidan kelgan inglizlarning Parijdagi ko`rgazmada ishtirok etishini tashkillashtirib, 165 ming kishini olib kelishga musharraf bo`ldi. Ko`rgazma turlari katta foyda keltirganligi sababli, Kuk Angliyalik turistlarning 1865 - yilda Parijga Butunjahon ko`rgazmasiga ommaviy ravishda tashrif buyurishi tashkilotchisi bo`ldi. 1856 - yildan boshlab Evropa bo`ylab turlar odatiy holga aylandi, Kukning turistik agentligi va joylarda uning filiallari tuzildi. Turistik kompaniyaning misli ko`rilmagan muvaffaqiyatga erishganligini Kuk turistlarga taklif etgan katalogdan 8 mingdan ortiq mehmonxonalarning o`rin olganligi ham tasdiqlaydi. 1870 - yilda “Tomas Kuk” turistik firmasi mijozlari soni 500 ming kishiga etdi.

Evropa va Amerika qit'alari o`rtasida muntazam kema qatnovi 1832 - yilda yo`lga ko`yilgan bo`lib, 1866 - yilda Kuk AQShga turistlarning dastlabki ikki guruhini jo`natadi. Turlar uzoq muddatli bo`lib, besh oygacha davom etgan. Tomas

Kuk xizmatlaridan foydalangan Amerikalik taniqli turistlardan biri Mark Tven bo`lib, u oltmish kishidan iborat guruh tarkibida ishtirok etgan va keyinchalik bu sayohatni qalamga olgan. Tomas Kuk 1872 - yilda birinchi bo`lib sanoat asosida jahon bo`ylab sayohat uyushtirishni taklif qilgan. Dastlabki 20 sayohatchi butun jahon bo`ylab 220 kun davomida sayohat qilganlar. Tomas Kuk 1892 - yilda vafot etdi va uning ishlarini o`g`illari va sheriklari davom ettirishgan. Kompaniya o`z faoliyat sohasini kengaytirib, yirik moliyaviy institutga aylangan va sayohatchilar uchun yo`l cheklari chiqara boshlagan. Bu esa o`z mohiyatiga ko`ra asr ixtirosi - xavfsiz pullar edi. Bugungi kunda “Tomas Kuk” kompaniyasi butun dunyoda 12000 dan ortiq turistik agentliklarga ega bo`lib, yiliga 20 milliondan ortiq turistga xizmat ko`rsatadi.

Zamonaviy samolyotlarning ixtiro kilinishi bilan bir xududidan ikkinchi bir xududga er aylanishi tezligidan tezroq etib borish imkonini berdi. Natijada sayohatchilar boshqa soat mintaqalariga tashrif buyura oldilar. Kosmik sayohatlarda vaqt samarasi yanada yaqqol ko`zga tashlanadi.

Sayohatlardan hayot faoliyatning alohida jozibador usuli sifatida yangi shakl - turizm ajralib chiqib, u o`ziga xos xususiyatlar va xislatlari bilan tavsiflanadi. Turizmni sayohatlardan ajratib turuvchi asosiy jihati bu uning tashkiliy jihatdan yo`lga qo`yilganligida, maqsadli va ommaviyligidadir.

Boshqa odamlar orasidan alohida ajralib turish, birinchi bo`lish istagi sayohatchilar orasida yaqqol ajralib turadi. Inson faoliyatining boshqa sohalariga qaraganda bunda o`zini ko`rsatish imkoniyati ko`proqdir. Kim eng yuqoriga chiqadi va uzoqroqqa boradi, kim kishilar hayoliga kelmagan, ularni hayron qoldiradigan ishlarni qiladi - rekordchi - sayohatchilarning fantaziyasi chegaralanmagan bo`lib, Ginnesning rekordlar kitobida bunday yutuqlarga alohida bo`lim ajratilgan.

1913 - yilda velosipedda butun dunyoni aylanib chiqib, bunda 50 ming km yo`l bosgan va 52 ta pokrishka, 36 ta kamera, 9 ta zanjir, 9 ta pedal, 4 ta egar, 2 ta rul va hokazolarni almashtirgan hamda «Brilliant Yulduz» belgisi bilan mukofotlangan Anisim Pankratovni turistlar toifasiga emas, balki aynan sayohatchilar qatoriga

kiritish mumkin. Shuningdek, uch yil (1928 - 1931) ichida sobiq SSSR chegaralari bo`ylab velosipedda aylanib chiqqan Gleb Travinni ham sayohatchilar qatoriga kiritish mumkin. Bir necha yil mobaynida «Tatra» avtomobillarida sayyoramizning barcha qit'alari bo`ylab sayohat uyushtirgan Chexoslovkiyalik sayohatchilar Irji Ganzelka va Stanislav Zigmudlarni turistlar toifasiga kiritish yanada qiyin. Ularning qit'alararo yo`nalishi «Tatra» kontserni tomonidan moliyaviy va texnik ta'minlangan bo`lib, u firmaning reklama maqsadlariga xizmat qilgan. Amalda bu texnika sinovchilarining normal va haq to`lanuvchi xizmati bo`lgan.

GINNESNING REKORDLAR KITOBIDA BOSHQALARNI HAYRON QOLDIRISH NIYATIDA uyushtirilgan sayohat va jasoratlarga katta joy ajratilgan. Jessi Rosdayl ismli bir shaxs dunyodagi ko`p mamlakalarda bo`lish va o`z hujjatlariga barcha mamlakatlar chegara xizmatlari shtampini qo`ydirishni maqsad qilib olgan, buning uchun u 2.627.766 km masofani bosib o`tgan va 215 ta mamlakat chegarasini kesib o`tgan hamda buning uchun Ginnes diplomiga sazovor bo`lgan. Biroq buning uchun unga Illinoys (AQSh shtati) maktabidagi o`qituvchilik o`rnini tashlashga to`g`ri kelgan. Missioner Alfred Uoldern (AQSh) otda sayohat qilishni maqsad qilib qo`ygan va 424.850 km masofani (bitta yoki bir nechta ekanligi noma'lum) otda bosib o`tgan. Bunda u 16 mingdan ortiq ma'ruza o`qigan. Piyoda, chang`ida, velosipedda, avtomobilda, temir yo`l, avia va dengiz transportida sayohat qilish bo`yicha ham rekordlar o`rnatilgan. Biroq, ularning aksariyat qismi insonning mukammalligini isbotlash va qo`yilgan maqsadga erishish yo`lida barcha qiyinchiliklarni engib o`tish uchun og`ir mehnatlardan iborat bo`lgan.

Hattoki, kosmosda - oyga qo`nuvchi, er orbitasi atrofida parvoz qiluvchi kosmonavtlar (ularni ham sayyohlar qatoriga kiritish mumkin) ham rekord o`rnatishga intiladilar. Kosmosga birinchi bo`lib parvoz qilgan odam, birinchi kosmonavt ayol, parvoz uzunligi, balandligi va uzoqligi, oy sathida Lunoxodda sayr qilish uzunligi va boshqa bir qator faktlar rekord qayd etishga asos bo`ladi.

Sayohatlar va turizmning bir - biridan farqlarini ko`rib chiqishda ushbu faoliyatning maqsadlari va moddiy ta'minotiga to`xtalib o`tish joiz. Sayohat va

ekspeditsiyalarning aksariyat qismi ma'lum bir maqsadlar (savdo, fan, yangi erlarni ochish, mahsulot reklamasi va hokazo)ga xizmat qilib, manfaatdor shaxslar, tashkilotlar, davlat va xususiy jamg'armalar tomonidan moliyalashtiriladi. Masalan, Afrikani zabt etib, Zambezi daryosidagi Viktoriya sharsharasini ochgan buyuk David Livingston missionerlik jamg'armalari hisobiga sayohat qilib, asosan mahalliy aholini xristian diniga jalb qilish bilan shug'ullangan va ahyon - ahyonda geografik ixtirolar qilib turgan.

Sayohatchi - bu birinchi navbatda agar ta'bir joiz bo'lsa kasb bo'lib, odamlarning kun ko'rish manbai yoki sayohatda ishtirok etuvchilarning turmush tarziga aylanishi mumkin. Bu esa faoliyatning maqsadi bo'lib, turizm maqsadlaridan farq qiladi. Shunday sayohatlar ham borki, ularni kasb ham deb bo'lmaydi. Bunday sayohatlar e'tiqod bilan bog'liq. Masalan, Imom Buxoriyni olaylik. U payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislarini to'plash maqsadida Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jidda, Basra, Kufa, Bag'dod, Shom, Misr, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol shaharlarida bo'lib, o'ta mashaqqatli tarzda fidoyilik ko'rsatgan. Bunday misollarni Imom Termiziydan ham topish mumkin. Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo va boshqa ko'plab sarkarda, alloma, ahli donishlarimizning o'zga yurtlarga o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun borganliklarini ham sayohatlar qatoriga kiritishimiz mumkin. Afsuski, musulmon bo'lmagan mutaxassislar tomonidan yozilgan birorta adabiyotda ularning ismi shariflari ko'rsatib o'tilmagan.

Vaqt insonning imkoniyatlarini sezilarli darajada o'zgartirib yuborgan. Bugungi kunda bo'sh vaqt va etarli mablag'ga ega bo'lgan deyarli har bir shaxs jahon bo'ylab havo sharida yoki boshqa transoprt vositalarida sayr qilishi, dunyoning inson oyog'i etmagan nuqtalariga tashrif buyurishi mumkin. Sarguzashtli turizmga ixtisoslashgan turistik firmalar Janubiy Amerika, Afrika va Osiyo bo'ylab maxsus tayyorlangan avtomobillarda uzoq muddatli (30 haftagacha) qit'alararo sayohatlarni taklif qilmokda. Buyuk yangi er ochuvchilarning yo'nalishlarini takrorlovchi, narxi 50

ming AQSh dollariga teng bo'lgan 190 kunlik dengiz sayohatlari ham taklif etilmokda.

Shulardan kelib chikib aytish mumkinki, turizm - bu sayohatlarning bir turi bo'lsada, (biz yuqorida aytib o'tgan tavsifnomaga asosan) odamlarning turli hududlarga tashrif buyurishi bo'lib, unda ishtirok etuvchi shaxs maqsadlari, yo'nalishi va harakatlanish vositalaridan qat'iy nazar turist deb ataladi. Sayohatlardan farqli ravishda, turizm iqtisodiyot va siyosatning kuchli ta'siriga uchrovchi toifadir.

Turizmning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turistni dengizchi, kosmonavt, biznesmen, naturalist va hokazo deb atash mumkin. Statistika da sayohat qiluvchi shaxs visitor deb ataladi. Tashrif buyuruvchilar tunovchi, ya'ni, vaqtinchalik bo'luvchi joylarda hech bo'lmasa bir kecha yotib qoluvchilar va bir kunlik (24 soatgacha bo'luvchi) turistlarga bo'linadi.

Turizm bu:

a) turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega omaviy sayohatlar turi, ya'ni turistning faoliyatidir;

b) bunday sayohatlarni uyushtirish va amalga oshirish bo'yicha turistik faoliyatdir. Bunday faoliyat turli xil turistik sanoat korxonalari va ular bilan bog'liq tarmoqlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ho'sh, turizm qadimda ham mavjud bo'lganmi? - degan haqli savol tug'ilishi, tabiiy. Bu savolga javob juda oddiy: maqsadi va amalga oshirishning tashkiliy shakliga ko'ra turizm sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan sayohatlarni qadimdan bilish mumkin. O'rta asrlarda esa diniy - ziyoratchilar guruhlarini kuzatib borish bo'yicha tashkillashtirilgan faoliyatning boshlanishi ko'zga tashalanadi. Bu jarayonlarni detalli ravishda ko'rib chiqqanda ularni turizmga, yanayam to'g'rirog'i, turizm ibtidosiga borib taqash mumkin. Hozirgacha Tomas Kuk turizmni tashkillashtirganligi uchungina bu faoliyatning asoschisi sifatida tan olinadi. Nima, xaj va umra ziyoratini tashkillashtirgan tashabbuskorlar o'sha vaqtlarda bo'lgan emasmi? Albatta bo'lgan. Bunday ziyoratlarga ham odamlar guruh - guruh bo'lib

borishgan. Ota - bobolarimiz ularni uyushtirishgan. Kimlardir shunday ishlarga bosh bo'lgan. Yoki, savdogarlikni olaylik, ayniqsa, "Buyuk ipak yo'li" tarixida bunday ishlarni tashkil etgan, savdogarlarning omon - eson manzillariga etib borishlarini tashkillashtirib bergan kishilar bo'lmaganmi? Bo'lgan, albatta. Balki, ularni mingboshi, yuzboshi, ellikboshi tarzida atalgandir. Mana shular tufayli ushbu sayohatlar, ta'bir joiz bo'lsa, turizm faoliyati amalga oshirilgan. Bizning galdagi vazifamiz shunday zahmatkash kishilarni, sayohat (turizm) ishi tashkilotchilarini eski manbaalardan izlab topish va uni xalqimizga etkazishdir.

Turizm XIX asrning oxiriga borib shakllangan bo'lsada, faqat XX asrga kelib u jadal suratlarda rivojlandi hamda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyat munosabatlarining yuksalishi natijasida u «XX asr fenomeni» nomini oldi. Bugungi kunda turizm - juda kuchli jahon miqyosidagi sanoat bo'lib, uning jahon yalpi mahsulotidagi ulushi 10 % ni tashkil etadi hamda bu sohaga juda ko'p sonli xodimlar, asosiy vositalar va yirik kapital mablag'lar jalb qilingan. Turizm - yirik biznes, katta mablag' va global miqyosdagi jiddiy siyosatdir.

Jamiyatning rivojlanishi bilan sayyoramizning tobora ko'plab aholisi turizm sohasiga jalb qilinmokda. 1995 - 97 yillar mobaynida sayohat qiluvchilar sonining barqaror o'sish tendentsiyasi yiliga o'rtacha 4 % kuzatilib, 1998 - yil Osiyodagi moliyaviy inqiroz sababli bu sohadagi faollikning biroz susayganligini qayd qilish mumkin. JTT ma'lumotiga ko'ra, 1996 - yilda turistlarning kelishi soni 594 mln., 1997 - yilda esa - 616 mln. kishini tashkil qilgan. Turizmdan olinuvchi daromad 1997 - yilda 448 mlrd. AQSh dollariga (1996 - yilga nisbatan 7,9 % ko'p) etgan. JTTning prognozlariga qaraganda, 2010 - yilga borib turistlar soni 937 mln.ga, turizm orqali olinuvchi daromad esa 1,1 trln. AQSh dollariga etadi. Dunyoning juda ham ajoyib, jozibador turistik resurslariga ega bo'lgan barcha burchaklari hali yaxshi o'zlashtirilmaganligi va keng turistlar ommasi uchun ochiq emasligi shubhasiz, albatta. Bunda tabiiy - iqlim sharoitlari va siyosiy - iqtisodiy omillar, mintaqadagi tinchlik, turizm sanoatining rivojlanishi kabilar muhim rol o'ynaydi.

Turizm infratuzilmasi va sanoati turizmga qo'shni tarmoqlarni o'ziga yanada ko'proq tortib, ko'plab kishilarni ish bilan ta'minlamokda. Hozirda er yuzidagi aholining 1g`15 qismi turizm sohasida ish yuritadi. Turizm sohasiga ko'proq ishchilar jalb qilinmokda, natijada ko'p sonli ish joylari paydo bo'lishiga olib kelmokda, bu esa juda muxim masala bo'lib, jamiyatga foydali bo'lgan hollar ichida birinchi o'rinda turadi. Turizmda band bo'lgan ishchilarning kategoriyasini aniqlash maqsadida talaygina usullar qo'llanilmokda. Yirik turistik markazlarda har o'nta turist ikki kishini doimiy ish joyi bilan ta'minlaydi. Masalan, Petropavlovskka kruiz laynerining kelishining o'zi aholi hayotida katta bir ayyomdir. 50 - 60 kishi ish bilan ta'minlansa, uch kun mobaynida yo'lboshchilik, gitlik vazifasini o'tayotgan o'qituvchilar esa o'z oylik maoshlariga teng bo'lgan qiymatda mukofot oladilar.

Turizmdan tushadigan foydani tahlil etish qiziq taqqoslarga olib keladi. Rossiyaliklarga qaraganda AQSh aholisining har biriga ikki barobar ko'p turist to'g'ri kelsa, bu tarmoqdan tushadigan foyda esa besh barobar ko'pdir. Sankt - Peterburg kurortining 250 ming aholisidan 60 ming nafari turizm sohasida band bo'lib, har yili 5 mlrd turistga xizmat ko'rsatishadi. Andorrada esa ahvol yanada keskinroq. Bu erda 50 - 60 ming kishi 12 mln. turistlarga xizmat kilib, ularga mahsulot sotishadi. Andorra soliqsiz savdo hududidir. Demak, bu holat ishni yanada avj oldirish uchun muhim. Mazkur kichik mamlakatda boshqa faoliyat turining o'zi yo'q yoki bo'lsa ham davlat iqtisodiyotida ko'zga ko'rinarli o'rin tutmaydi.

Maqsadlariga ko'ra, turistik sayohatlar muddati bo'yicha quyidagi kunlarga bo'linadi:

- 1 - 2 kunlik (dam olish kunlari);
- 3 - 7 kunlik;
- 8 - 28 kunlik;
- 29 - 91kunlik;
- 92 va undan ortiq kunlik.

Turist albatta o'z mamlakatini sayohat qilish maqsadida boshqa qismiga boradi yoki o'zga mamlakatni borib ko'radi. Er aholisining aksariyat qismi o'troq hayot kechirishmoqda, - degan fikrga qo'shilishimiz kerak. Turist o'z turistik sayohatini amalga oshirayotgan joyda uzoq qolmasligi va sayohat yakunida bu joyni tark etishi lozim. Demak, turist - bir erdan ikkinchi bir erga vaqtinchalik boruvchi kishi (musofir) dir.

Turizm bo'lishi uchun ikki shart kerak: bush vaqt va mablag`. Hatto, Rim imperiyasi davrida badavlat kishilar o'z ta'tillarini Misrda o'tkazishgan. Uzoq vaqt davomida turizm faqat badavlat kishilar qatlamini bo'lgan. Hozirda ham bu holat afsuski saqlanib turibdi.

Xulosa

Ushbu mavzuda sayohat va turizm tushunchasi xamda ularning tarixiga oid ma'lumotlar berishga xarakat qildik. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ilk sayohat va sayohatchilar uzoq o'tmishga borib taqaladi, shu bois, xorijiy davlatlardagi ilk sayohatchilik tarixi va unda ishtirok etgan sayohatchilar, yurtimiz tarixida vatandoshlarimiz tomonidan olib borilgan sayohatlarga asosiy e'tiborni qaratdik. Kelgusidagi ishlarimizda ulkamizdan etishib chiqqan ilk sayohatchilar va ularning faoliyati haqida yanada yangi ilmiy ma'lumotlar tuplashimiz kerak buladi. Shuningdek, xorijga chiqqan va xorijdan kelgan sayyoxlar, safar davomida ularning orttirgan tajribalari, ma'naviy yutuqlari haqida faktik ma'lumotlarni o'rganishimiz va o'rgatishimiz lozim.

Turizm haqida gapirganda bizda shunday bir fikr mujassam: Nima uchun Tomas Kukni turizmni asoschisi demoqdamiz? Kukning qilgan ishi sayohatni tashkiliy jihatdan boshqarganidir. Ho'sh, bizda o'tmishda ota - bobolarimiz sayohatni tashkiliy jihatdan boshqargan emaslarmi? Muborak Xaj ziyoratlari yoki "Buyuk ipak yo'li"da ishtirok etishni hohlagan savdogarlarni boshini qovushtirgan, barcha masalalarning tashkiliy tomonlarini o'z zimmalariga olgan boshchilar bo'lmaganmi?

Boʻlgan, albatta. Endigi vazifa ana shu vatandoshlarimizni izlab topish, ularning nomlarini sayohatchilik ilmida qoldirishdir.

Tayanch iboralar

- Sayohat
- Ilk sayohatchilar
- Turizm tarixi
- Tomas Kuk

Nazorat va mulohaza savollari

1. Sayohat deganda nimani tushunasiz?
2. Ilk sayohatchilar kimlar?
3. Koʻchmanchilarni sayohatchilar deyilishiga sabab nimada?
4. Ziyoratchilar qanday maqsadda sayohat qilishgan?
5. Savdogarlar sayohati haqida nimalarni bilasiz?
6. Nima uchun Tomas Kukni turizmning asoschisi deyiladi?
7. Turizmning ta'rifini aytib bering?
8. Turizmning sayohatdan farqi nimada?
9. Vatandoshlarimizdan kimlarni ilk sayohatchilar qatoriga qoʻshishimiz mumkin?
10. Turizmning rivojlanishiga sabab boʻlgan voqealar qaysilar?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 - yil 27 - iyuldagi "Oʻzbekturizm" Milliy Kompaniyasini tashkil etish toʻgʻrisida"gi Farmoni.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yoʻli"ni qayta tiklashda Oʻzbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora -tadbirlar toʻgʻrisida"gi Farmoni.

3. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustdagi "Turizm to`g`risida"gi Qonuni.
4. Основы туристской деятельности (Учеб.пособие). Составитель Ильина Е.Н. - М.: Советский спорт, 2000 г.
5. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Санкт - Петербург, 2000 г.
6. Воронкова Л.П. История туризма и гостеприимства. Учебное пособие. ГРИФ. 2004.
7. Tourism and Poverty Alleviation-Recommendations for Action.WTO. 2004.
8. Rural Tourism in Europe: Experiences, Development and Perspectives. WTO. 2004.

3 - bob. Turizm maqsadlari

- 3. 1. Turizm maqsadlari haqida ma'lumot
- 3. 2. Dam olish va davolanish maqsadlari
- 3. 3. Turistik resurslardan foydalanish maqsadi
- 3. 4. Ijtimoiy maqsadlar va siyosat

3. 1. Turizm maqsadlari haqida ma'lumot

Har bir sayohat yoki tur zamirida unga sabab bo'luvchi asosiy maqsad yotadi. Bu maqsadning yo'qotilishi yoki unga erisha olmaslik ushbu sayohatni turizm tarkibiga kiritmaslikka asos bo'ladi yoki turist qoniqish olmaydi. Shunday qilib, har qanday sayohat yoki turistik safardan asosiy maqsad bor bo'lib, unga ko'ra bu sayohatdan turizmning biror turiga mansubligi aniqlanadi, turist va uning turi statistikaning u yoki bu turiga kiritiladi, unga turli xil imtiyozlar beriladi.

Har bir turist biror mamlakatga borganda biron narsani, masalan, sovg'a yoki foydalanish uchun biror predmetni sotib olishni maqsad qilib qo'yadi. Biroq, ba'zi turistlar turistik safarga borishda mayda tovar partiyalarini harid qilish va keyinchalik sotish uchun o'z mamlakatiga olib kelishni maqsad qilib oladi. Garchi mahalliy bozorlarda rejalashtirilgan tovarlarning barchasini sotib olgandan so'ng, turistlar mahalliy restoran yoki plyajlarda bir necha kun dam olsada, tovar olib - sotish ularning asosiy maqsadiga aylanadi. Bunday turistlar shopping - turistlar toifasiga mansub bo'lib, ular uchun maxsus shop - turlar tashkil qilinadi. Rossiyada bunday turistlar «chelnoklar», - deb nomlanadi.

Turizm tamoyillarining buzilishi, ya'ni turizmdan mazkur mamlakat qonunchiligida belgilab ko'yilgandan o'zga maqsadlarda, yanada aniqroq aytganda imtiyozli rejimlardan foydalanilishi mamlakat hukumatining g'ashiga tegadi va bundan bevosita yoki bilvosita turistik faoliyat nazoratiga ta'luqli bo'lgan emigratsiya

va boshqa xizmatlarning qarshiligiga sabab bo`ladi. Masalan, agar turistik firma mamlakatga turistlar o`rniga foxishalarni mehmon bo`lib kelishini o`z oldiga maqsad qilgan bo`lib, shu maqsadda turistlarni, emigrantlarni, ish qidirib kelganlarni yoki o`qish uchun kelganlarni olib kiradigan bo`lsa, bu holda firma mazkur mamlakat elchixonasining konsullik bo`limida o`z akkreditatsiyalaridan mahrum etiladi va xalqaro turizmga barham beriladi.

Turizm - boshqa mamlakatga ayg`oqchi yuborish hamda iqtisodiy va boshqa turdagi ma'lumotlarni to`plash va tahlil qilish bilan shug`ullanuvchi ba'zi - bir mahkama va idoralar uchun bunday ma'lumotlarni olishning samarali usulidir. Davlatlarning konsullik xizmatlari mamlakatga kiritmaslik shart bo`lgan shaxslar toifasidan iborat «qora ro`yxat»ni, shuningdek, turizm qoidalarini suiste'mol qiluvchi firmalar ro`yxatini tuzishda faollik ko`rsatadilar.

Turizmning eng asosiy iqtisodiy tamoyilini eslatib o`tamiz. Turist turistik markazga kelishi, turistik xizmat, ish va tovarni sotib olishi hamda belgilangan muddatda mamlakatdan chiqib ketishi lozim. U qanchalik ko`p pul qoldirib, qanchalik tez chiqib ketsa shunchalik yaxshi. Turist - turistik markazdan pul olib ketishi emas, balki unga pul olib kelishi, mahalliy aholining ish joyini egallab olmasdan, aynan uning uchun ish o`rni yaratishi lozim. Turistik resurslar turistik markazga pul va shuhrat olib kelmog`i lozim.

Dastlab eng umumiy maqsadlarni ko`rib chiqamiz. "Turizm asoslari" fanining barcha qoidalariga ko`ra turizmning asosiy maqsadlari dam olish, ko`ngil ocharlik, davolanish, mehmondorchilik, sport, din va ishbilarmonlik hisoblanadi. Aniq belgilanmagan maqsadlarning barchasi ham bir xil imtiyozlardan foydalanadi. (Biz mafkuraviy maqsadlarni ko`rib chiqmaymiz, garchi bunday maqsadlarni osonlik bilan madaniy maqsadlar qatoriga kiritish mumkin bo`lsada).

3.2. Dam olish va davolanish maksadlari

Turizm birinchi navbatda turistlarning dam olishi va davolanishini ko'zlaydi. Bu juda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday tejamkor xo'jayin xodimining (umuman olganda jamiyat a'zosi, mamlakat fuqarosining) mehnatini qadrlaydi, sog'lom bo'lishi va jamiyat uchun foyda keltiruvchi shaxsga aylantirishni istaydi. Sog'lom bo'lmagan fuqarolar samarali ishlay olmaydi. Ular soliqlarni samarali to'lay olmasligi va hazina to'ldirishga hissa qo'sha olmasligi mumkin. Demak, insonlarga dam olish, jismoniy va ma'naviy kuch to'plash imkonini berish lozim. O'zini hurmat qilgan davlat fuqarolari sog'lig'i haqida g'amxurlik qiladi va tegishli sharoitlarni yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi (38 - modda); har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy taminot olish huquqiga ega (39 - modda); har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega (40 - modda), - deyiladi.

Shunga o'xshash qonun va qoidalar aksariyat davlatlarning bosh qomuslarida, shuningdek, xalqaro kelishuv va Konventsionalarda ham belgilab qo'yilgan. Masalan, «Turizm hartiyasi»da (1985 y. JTT) : har bir shaxsning dam olish huquqi, jumladan, cheklangan ish vaqti va pul to'lanuvchi mehnat ta'tili, shuningdek, qonunda belgilab ko'yilganlardan tashqari barcha hollarda hech qanday cheklovsiz erkin harakatlanish huquqi butun jahonda tan olinadi, - deb belgilab qo'yilgan.

3. 3. Turistik resurslardan foydalanish maqsadi

Har bir davlat o'z tabiiy va boshqa turdagi resurslariga egalik qiladi va ulardan oqilona foydalanadi. Turli mamlakatlar iqtisodiyotida foydalaniluvchi turli xil foydali qazilmalar hamda tirik resurslar mavjud.

Fors ko'rfazi davlatlari neft hisobiga boy - badavlat kun kechiradi. Lekin, shunga qaramay Birlashgan Arab Amirliklari mintaqada eng muhim turistik markaz hisoblanadi. Turizm oltinga cho'milayotgan mamlakatlarda neft qazib olish tarmoqlari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashmokda. Bugungi kunda bu mamlakatlarni mintaqadagi yirik turizm markaziga aylantirish vazifasi turibdi. Xitoy 2010 - yilda 130 millionga yaqin turist qabul qilishni rejalashtirmokda. Biroq, ko'mir va neft, olmos va oltindan tashqari boshqa samarali tabiiy resurslar ham etarli bo'lib, ular unchalik kuch sarflamay turib katta iqtisodiy foyda keltirishi mumkin. Tabiiy - iqlim, tarixiy - madaniy resurslar turizmga asosiy ob'ektlar hisoblanadi. Toza ob - havoli joyda ekoturizm, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi shaharlarda tarixiy turizmni rivojlantirish uchun turistik resurslardan maqsadli foydalanish lozim.

3. 4. Ijtimoiy maqsadlar va siyosat

Turizm davlatlarning ijtimoiy, madaniy va ta'lim sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro aloqalarga hamda alohida shaxslar va butun jamiyatning orzu - umidlarini hurmat qilish va adolatga asoslangan tinchlikparvarlik doirasida, turizm insonlarning bir - birini o'rganishi va tushunishining ijobiy va doimiy omili, shuningdek, xalqlar o'rtasidagi hurmat va ishonchning yanada yuqori darajasiga erishishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy turizm mehnatkashlarga haq to'lanadigan yillik ta'til berilishini nazarda tutuvchi ijtimoiy siyosatning mahsuli sifatida yuzaga keldi, bu esa ayni paytda dam olishga bo'lgan huquqning e'tirofi hamdir. Turizm ijtimoiy tenglik,

kishilar va xalqlar o`rtasidagi hamjihatlik va shaxs kamolotining omiliga aylandi. Uning madaniy va ma'naviy mazmun - mohiyati ulkandir. Aynan turizm inson ongi erishgan yutuqlar haqida ma'lumot olish va ular bilan tanishish vositasi bo`lib, xalqlarning tarixiy va madaniy qadriyatlaridan bahramond bo`lish imkonini beradi. Amalda turizmning ma'naviy mohiyati iqtisodiy va moddiy mezonlardan ustun bo`lishi va inson shaxsining har tomonlama uyg`un kamol topishiga yordam berishi, ta'lim - tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lishi, turmush tarzi va hayotini belgilashida teng huquqni ta'minlashi lozim. Bu jarayonni esa uning qadri va shaxsini hurmat qilish, xalqlarning o`ziga xos madaniyati va axloqiy qadriyatlarini tan olish,- deb bilish darkor.

Shunday qilib, tarixiy, madaniy va diniy qadamjolarini har qanday vaziyatlarda, ayniqsa ziddiyatlar vujudga kelganda himoya qilish davlatlar va jahon hamjamiyatining eng muhim vazifalaridan biri bo`lmog`i lozim.

Amalda yuqorida keltirilgan maqsadlar o`zaro qo`shilib, bir - birini to`ldirishi mumkin. Chunonchi, Iso payg`ambar tavalludiga bag`ishlangan yubiley tantanalari ko`p maqsadlarni ko`zlagan. Ularning eng muhimi - konfessiya tantanasi va uning doirasida o`tkazilgan bayramdir. Bu albatta, umuman olganda dinning juda kuchli targ`ibotidir. Keyingi maqsadlar esa soddaroq. Tantanalar barcha qadamjolar, birinchi galda, xristianlar (hech bo`lmaganda, katoliklar) dunyosi poytaxti bo`lmish Rim va ushbu dindagilar tomonidan "Muqaddas Er", - deb tan olingan tomon ko`plab ziyoratchilar oqimini keltirib chiqarishi kerak bo`lgan. Buning uchun esa Vatikan tantanalar va turli martabadagi ziyoratchilarni qabul qilish maksadida Rimni obodonlashtirishga katta mablag` ajratdi. Xar yili Italiyaga, xususan, Rimga millionlab turistlarning ziyorat uchun yoki diniy, madaniy - tarixiy maqsadlarni ko`zlab kelishlari kutiladi.

Turizm xizmatlari va industriyasi sohalarini rivojlantirishning natijalaridan keyinchalik boshqa maqsadlardagi turizmni kengaytirish, shuningdek Rimni 2010 - yil Olimpiadasi yoki jahon miqyosidagi boshqa tadbirlarni o`tkazishga nomzod

sifatida tayyorlash uchun samarali foydalaniladi. 30 million ziyoratchini, albatta, joylashtirish, ovqatlantirish kerak, ularga transport xizmatlari va boshqa xizmatlar ko`rsatiladi, jumladan, ularni qo`riqlash tashkil etiladi. Mablag`larning turizm industriyasiga bunday ko`p kiritilishi, shubhasiz, mamlakatning butun turizm sohasini rivojlantirishga xizmat qiladi va bu borada Italiyani jahon miqyosidagi etakchi o`rinlarga olib chiqadi. Aytish joizki, ziyoratchilardan tashqari Italiyaga har yili 37 million turistlar tashrif buyuradi.

Bu muammoga Isroilning ham qiziqishi katta, chunki uning hududida xristianlarning "Muqaddas ziyoratgoh"lari, ibodatxonalari va boshqa sig`inadigan joylari bor. Chunonchi, EL AL milliy Isroil aviakompaniyasi Vatikan bilan yubiley tantanalari yilida 7 million ziyoratchini tashish haqida bitim imzoladi. Bu esa jiddiy iqtisodiy yutuqdir. Bu raqam 1997 - yilda Isroilga kelgan turistlar sonidan roppa - rosa ikki baravar ko`pdir. Yubiley yilida ziyoratchilarni qabo`l qilishga jiddiy tayyorgarlik ko`rildi, mehmonxonalar qurildi, turizm sohasidagi barcha korxonalar ishga shay qilindi, ularning barchasini davlat nazorat qilmoqda. Isroil uchun turizm - iqtisodiyotning eng muhim sohasidir. Ayni paytda Yaqin Sharq mintaqasi o`ta notinch bo`lib, doimo mintaqaviy ziddiyatlar kelib chiqmoqda, mahalliy urushlar esa, qisqa muddatli bo`lsada, turizm sohasidagi ulkan sa'y - harakatlar, keng miqyosli tadbirlarga sarflangan katta kapitallarni yo`qqa chiqarishi mumkin. Shu bois, siyosatchilarning vazifasi - mintaqada barqarorlikni ta'minlash, harbiy mojaro va terrorizmga yo`l qo`ymaslikdir. Aks holda soliq to`lovchilar mablag`lari zoe ketadi.

Turizm maqsadlari ijtimoiy axloq va tartib talablariga javob berishi kerak. Bu toifalarni tushunish qiyin, chunki, ko`plab davlatlar qonunchiligida adolat bilan aytganda bunday kategoriyalar yo`q. Ammo, xalqaro huquq va rivojlangan davlatlar qonunchiligida "yaxshi tartib", "aqlli kishi", "oqilona miqdor", "oqilona foyda"; "ijtimoiy ahloq" kabi tushunchalar mavjud va tushunarli bo`lishi bilan birga, ular huquq me'yorlarida muayyan o`rin ham tutadi.

Ahloqqa zid bo'lgan maqsadlar qatorida seks - turizmni keltirish mumkin. Umuman olganda ushbu masalaga ehtiyotkorlik bilan yondashmoq lozim. Rivojlangan mamlakatlardagi mutaxassislarning ayrimlari: "turizm va seks - uzviydir, chunki seks ham ko'ngilxushlikka kiradi va insonning muayyan yoshdagi tabiiy ehtiyojidir. Agar turizmning asosiy maqsadi shunday ko'ngilxushliklardan iborat bo'lsa, ya'ni shahvoniy lazzat olishni ko'zlasa, u holda bunday turizm dasturlari seks - turizm toifasiga kiritiladi. Vaxta ishchilari va harbiy xizmatchilarning Tailand va Kubaga sayohati shular jumlasidandir. Bu erda jahon seks - turizm markazlari joylashgan, - degan fikrdadirlar. Shunday maqsadlarda bolalardan foydalanish (bolalar seks - turizmi) jahon hamjamiyati g'azabini qo'zg'atmoqda. Turizmning bu turi ayniqsa Janubi - Sharqiy Osiyoda keng tarqalgan. U ta'qib ostiga olingan. Shuningdek, jangovar harakatlar xududida tirik odamlarni otib o'ldirish bo'yicha harbiy turizm, tug'ish va tug'ilgan bolani sotib yuborish maqsadida boshqa mamlakatga sayohat uyushtirish va normal inson tafakkuriga sig'maydigan, axloq qoidalariga zid bo'lgan boshqa turizm turlari ham man etilgan.

Turizm - aksariyat davlatlar iqtisodiyotining muhim hamda ustuvor tarkibiy qismi bo'lib, mahalliy aholining ish bilan bandligi, mehmonxonalar, restoran va tomoshagohlarning to'liq ishlashi, xorij valyutasining mamlakatga kirib kelishini ta'minlaydi. Shu bois, ko'plab mamlakatlar turizm soxasiga katta e'tibor bilan qaraydilar. Masalan, Frantsiyada hukumat yig'ilishlari vaqtida turizm vaziri bosh vazirning o'ng tomonidan joy oladi. Frantsiyaning Evropadagi birinchi raqamli turistik hudud ekanligi va Parij shahrini turizm hisobiga yashab, "Turistik Makka" - deb nom olishi boshqa mamlakatlar havas qilsa arzigulik holdir. Meksika prezidenti esa yirik xalqaro turistik ko'rgazmalarni shaxsan o'zi ochib beradi. Bunday misollarni yana ko'plab davom ettirish mumkin.

Turizmning ichki iqtisodiy tabiati shuni ko'zda tutadiki, turist albatta o'z pullarini mazkur davlatda qoldirishi kerak. Turizm mahalliy turistik resurslarni ekspluatatsiya qilishga va buning evaziga davlatning foyda olishiga asoslanadi.

Shuning uchun turist o'zi kelgan mamlakatdagi har qanday manbaadan foyda olishga haqli emas. Ishchi kuchi oqimining cheklanishi muammosi davlat immigratsiya (kirib keluvchilar) xizmatlarini tashvishga solgani bois odatda faqat keskin ishchi kuchi etishmasligi, mahalliy ishchi resurslarining taqchilligi va muayyan og'ir ishlarni (masalan, o'ta og'ir, zararli, iflos va shu kabi) bajara oladigan kerakli malakali mutaxassislarga talab bo'lgandagina chetdan ishchilarni yollashga ruhsat beradi. Shu sababli turistlarga foyda olish maqsadida ishlash qat'iy man etiladi, bu barcha vizalarda, ya'ni mazkur davlatga kirishga ruxsat beruvchi hujjatda ham ko'rsatilgan. Masalan, Avstraliya vizasida "Haq to'lanadigan ish yoki o'qish huquqi berilmaydi" degan qat'iy yozuv bor.

Ishchanlik turizmiga murojaat qiladigan bo'lsak, unda ham mazkur tamoyilga amal qilinadi - xizmat safariga yuborilgan mutaxassislar, shuningdek kongress, simpoziumga kelganlar o'z mamlakati yoki xizmat joyi tomonidan ta'minlanadi va demak, o'zlari bilan shu mamlakatga pul mablag'lari olib kiradilar. Aytish kerakki, bunday amaliy turizm odatda etarlicha daromadli hisoblanadi, chunki ishbilarmon - turistlar va olimlar bunday safarlarda boshqa toifadagi turistlarga nisbatan uch - to'rt baravar ko'p pul sarflaydi, chunki ular firma tomonidan ta'minlanadi va qo'shimcha tarzda o'z shaxsiy mablag'larini sarflash imkoniyatiga ham ega. Idoralar, firma va jamg'armalar qimmat mehmonxona, transport, yaxshi ovqatlanish, madaniy tadbirlar uchun mablag'ni ayamaydilar. Ishbilarmonlik turizmidan tushadigan foyda juda xam yuqoridir. Masalan, Finlyandiyadagi kongresslarga uyushtiriladigan turizm nihoyatda keng rivojlangan. Uni hattoki turizm hamjamiyatida "kongress turizmi mamlakati" deb ham ataydilar. Ekologik toza tabiat va turli xil turizm resurslari, jamiyatdagi hotirjamlik va xavfsizlik, xizmat uchrashuvlari, simpoziumlar, o'quv dasturlari va hokazolarni o'tkazishga juda yaxshi moslashtirilgan yuqori toifadagi mehmonxonalarning ko'pligi turizmning mazkur turini rivojlantirishga yordam beradi.

Urush turizmga qarama - qarshi bo`lgan holatdir. Yugoslaviya turizm sohasida Adriatikaning marjoni bo`lib kelgan edi, lekin u erda bo`lgan fuqarolik urushidan keyin uzoq vaqt davomida mazkur hudud turistik region qatoridan chiqdi. Natijada, infratuzilma izdan chiqib, er minalar bilan to`lib ketdi, odamlar uysiz qoldi, binolar buzildi. Buzilgan joylar qayg`uni eslatadi. Jonini xatarga qo`yishni hech kim xohlamaydi. Bunday joylarga borishni kim ham istardi. Abxaziya Odissey paytidan Olloh yarlaqagan maskanlardan biri bo`lib, sobiq sovet davrida butun ittifoq shifoxonasi hisoblanib kelgan, u erda oliy mansabli partiya namoyondalari - yu, oddiy kishilargacha dam olishar edi. 90 - yillardagi Gruziya - Abxaziya qarama - qarshiligi sababli, bu hudud turizm uchun yopiq bo`ldi. Dam olish maskanlari talon - taroj qilinib, tarixiy turizmga mo`ljallangan hudud aholisi ish yo`qligi sababli och qoldi.

Urush va siyosiy vaziyat notinch bo`lgan hududlarda turizm to`xtatilganligi sababli, o`sha mamlakat ham, turizm tashkilotchilari ham juda katta zarar ko`rmoqdalar. Terrorizm turizmga juda katta zarar etkazadi. Turistik oqimlarning har qanday qisqarishi iqtisodiyoti turizm bilan bog`liq bo`lgan davlatlar uchun ishsizlik va krizis olib kelishi mumkin.

Oxirgi paytlarda Turkiyada turizmning rivojlanishi Rossiya turistlariga bog`liq bo`lib qoldi. Turizm masalasi davlatning asosiy e`tiborida bo`lib, ish so`zda emas, amalda bo`ldi. Faqatgina Rossiya turistlariga xizmat ko`rsatishga Turkiyada 800 000 ishchi o`rni yaratilgan. Chernoklar olib kelgan pul miqdori esa millionlab AQSh dollaridan iborat. Turkiyada hunarmandlarning aksariyat qismi va ishlab - chiqarish korxonalari asosan Rossiya turistlari uchun ishlaydi. Katta shaharlardagi ko`pchilik aholi kiyadigan charm kurtka paltolar asosan Turkiyada ishlab chiqarilgan. Chechen ekstremistlari bilan kelishmovchiliklar bo`lgan paytda Turkiya hukumati tomonidan ularning davlat hududidagi harakatini to`xtatish uchun chegaralar mustahkamlandi, ziddiyat sanoqli soatlarda to`xtatildi va bunday holat boshqa qaytarilmadi. Chunki, Rossiyadan keladigan turistik oqimning kamayish xavfi bor edi.

Rossiya hukumati chernokchilar harakatiga soliqlarni ko'targanda, turklar o'zlarining poshlinalarini pasaytirdi. Charm kurtkalarni Turkiyadan olib chiqib ketish kerak edi, bunda Rossiya turk mahsulotlarining asosiy iste'molchisi bo'ldi. Bu nafaqat iqtisod, balki katta mamlakatning iqtisodiy siyosatidir. Hozirgi paytdagi Kavkaz mineral suvlarining, go'zal kurortlarning ahvoli, qo'shni Chechenistondagi va butun Kavkaz hududidagi nomo'tadil holat turk hukumatini mo'tlaqo qoniqtirmaydi. 1998 - yilda Kiprdagi harbiy tayyorgarliklar va yangi harbiy texnika kelishi (orolning shimoliy va janubiy hududlaridagi ziddiyatlar) tufayli Rossiya turistlarining qiziqishi hamda boshqa region turistlarining oqimi keskin pasaydi. 1998 - yil maydagi yadro portlashi Hindistonga bo'ladigan sayohatlarni - 90 % to'xtatib qo'ydi. Turistik mavsum buzildi va davlat sezilarli zarar ko'rdi. Iqtisodi ko'p jihatdan turizmga bog'liq bo'lgan davlatlar dunyo hamjamiyatiga bayonot berdilar. Shular sababli Misr, Turkiya, Kipr, Tunis Rossiyalik turistlar uchun vizasizlik tartibini o'rnatgan. 2005 - yildan Rossiya studentlari va maktab o'quvchilari bepul viza olish imtiyoziga ega bo'ldilar.

2006 - yilning 28 - avgustida Turkiyaning Antaliya shaxrida bulib utgan portlashlar tufayli albatta turistlar sayoxatiga ziyon etdi. Terroristlar tomonidan amalga oshirilayotgan bunday ishlar turizmning rivojlanishi uchun asosiy tasiklardan xisoblanadi. Bunday voqealar bizning respublikamizda xam bulib utganligi achinarli xoldir.

Xulosa

Turizmdan albatta maqsad bo'lishi lozim. Maqsadsiz turizmning bo'lishi mumkin emas. Uning keng tarqalgan turi dam olish va sog'lomlashtirishdir. Inson sog'lig'i har narsadan ustun va shu maqsadda u sayohat qiladi. Turistik maqsadda tur resurslardan oqilona foydalanish katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy maqsaddagi turizmning o'ni ham alohida. Siyosat esa turizm maqsadlarining asosini belgilaydi. Tinchlik bor bo'lgan erda turizm ham bo'ladi.

Tayanch iboralar

- Turizm maqsadlari
- Dam olish
- Sog`lomashtirish
- Ijtimoiy turizm
- Siyosat

Nazorat va mulohaza savollari

1. Turizm maqsadlari deganda nimani tushunasiz?
2. Dam olish maqsadini ifodalab bering?
3. Turizmning sog`lomashtirish maqsadi nimadan iborat?
4. Turizmning ijtimoiy maqsadi qanday?
5. Siyosatning turizmga tutgan o`rni qanday?
6. Turistik resurslardan foydalanishning ahamiyati haqida nima deya olasiz?
7. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida dam olish haqida nima deyilgan?
8. Rossiyada "chelnoklar" qaysi maqsadda turizm qiladilar?
9. Ahloqqa zid maqsadlar haqida fikringiz qanday?
10. "Turizm hartiyasi"da dam olish va erkin harakatlanish haqida nima deyilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Харис Г., Ким К. Стимулирование международного туризма в 21 век (Пер. с англ.). -М., 2000 г.
2. Основы туристской деятельности (Учеб. пособ.) Составитель Ильина Е.Н. - М.: Советский спорт, 2000 г.
3. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Санкт - Петербург, 2000 г.
4. М.А.Mirzaev. Turizm asoslari (modul). 2003 y.

5. G.Nazarova, M.Mirzaev va boshqalar. Turizm huquqi (o`quv qo`llanma). - T.: Talqin, 2003 y.
6. Tourism and Poverty Alleviation-Recommendations for Action.WTO. 2004.
7. Rural Tourism in Europe: Experiences, Development and Perspectives.WTO. 2004.

4 - bob. Turizmning tashkiliy shakllari va asosiy kategoriyalari

4. 1. Ichki va xalqaro turizm tushunchalari haqida ma'lumot

4. 2. Ichki va xalqaro turizmning rivojlanishidagi ayrim muammolar va ko'rsatkichlar

4. 1. Ichki va xalqaro turizm tushunchalari haqida ma'lumot

Turizm xizmat ko'rsatish tarkibidan qat'iy nazar, xizmatlar ko'rsatish joyiga va mazkur xizmatlarni iste'mol qiluvchi turistlar guruhiga ko'ra: ichki va xalqaro turizm kategoriyalariga bo'linadi.

Ichki turizm, - deganda ma'lum bir davlatning o'z hududi doirasida aholi tomonidan turistlarga xizmat ko'rsatish faoliyati tushuniladi. Bunday turistlar mahalliy (yoki milliy) turistlar kategoriyasiga kiradi.

Xalqaro turizm, - deganda esa, biror davlatga boshqa davlat turistlarining borishi va ularga xizmat ko'rsatilishi tushuniladi. Demak, o'z - o'zidan ravshanki, bunday turistlar xorijiy turistlar kategoriyasiga kiradi.

Boshqa davlat hududida turistlarga turizm bo'yicha xizmat ko'rsatish chiqiladigan (sayyor) turizm, - deb ataladi. Xuddi shu singari turistik xizmatlarni o'z davlat hududida xorijiy tursitlarga ko'rsatilsa, u vaqtda bunday turizm kiriladigan turizm, - deb ataladi.

Shuningdek, "turistlarni qabul qilish" va "turistlarni jo'natish", - kabi umumiy tushunchalar ham bo'lib, bular ichki va xalqaro turizm uchun ham ta'luqlidir. Turizm statistikasida "turistik kelish" atamasi ham mavjud. Aynan turistik kelish soniga qarab turistik oqim belgilanadi. Turist tushunchasining ichki tabiatidan kelib chiqib aytish mumkinki, turist biror joyga keldimi, demak, u mazkur joydan o'zining mamlakatiga yoki doimiy istiqomat joyiga ketishi ham kerak. U vaqtinchalik kelib - ketuvchidir.

Turizm statistikasida tranzit turist tushunchasi ham bo'lib, unda turistlarning o'z davlat xududidan ikkinchi davlat hududiga borayotganda oradagi davlat xududida

to`xtab o`tishi tushuniladi. Bunday davlatlararo tranzit turist bo`lish uchun maxsus tranzit vizalar ham bo`lishi lozim. Tranzit turistlarning mamlakatda bo`lish muddatlari chegaralangandir. Masalan, Evropa turistlarining Hindistonga yoki Xitoyga sayohatlarida O`zbekiston tranzit hudud (mamlakat), turistlar esa tranzit turistlar bo`ladilar. Bunday sayohatda turistlar qisqa vaqt ichida O`zbekistonda bo`ladilar. Shu davr ichida mehmonxonalarda bo`lishlari, ovqatlanishlari, mamlakatning tarixiy yodgorliklari bilan tanishishlari, bozorlardan, savdo rastalaridan yodgorlik buyumlarini sotib olishlari mumkin.

"Turistlarni qabul qilish" kategoriyasi - mazkur regionga yoki turistik markazga turistlarning kelishi va ularga ko`rsatiladigan xizmat faoliyati bo`yicha xarakterlanadi. Ushbu faoliyatdan turizmni tashkil qilish bo`yicha barcha turizm infratuzilmasi - transport yuklarini tashuvchilar, mehmonxonalar va restoranlarni ish bilan ta'minlash kelib chiqadi. Ko`rsatilgan xizmatlar natijasida milliy (xorijiy turizm orqali esa xorijiy) valyuta massasi ko`payadi. Turistlarni qabul qilishda turistik region yoki markazda ishchi o`rinlari tez tashkil etiladi, mahalliy turistik resurslardan foydalanish hisobiga regionda iqtisodiyot rivojlanadi. Ichki va xorijiy turistlarni qabul qilish balansi tarkib topadi.

Turizmning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy - siyosiy omillariga bog`liq. Shu bilan birga turizmdan tushadigan xorijiy valyuta davlat iqtisodiyotining o`sishiga ta'sir etadi. Sovet davrida xorijiy turist sayohatlari juda arzon bo`lgan. Shuningdek, sovet fuqarosi bilan xorijiy turistlarga ko`rsatiladigan xizmat turlari o`rtasida ham katta farq bo`lgan. Respublikamiz Mustaqillikka erishgach ular o`rtasidagi farq kamaydi va bir qator tarixiy sha- harlardagi turistik markazlar va firmalar uchun turizm juda katta daromad manbai bo`lib qoldi.

"Turistlarni jo`natish" ham muhim kategoriya hisoblanadi. Bunday faoliyat doimo pul massasini boshqa region yoki xorijiy davlatlarga chiqib ketishiga olib keladi. Shu boisdan, turistlarni jo`natish hech qachon mahalliy hudud uchun ham, turistik agentliklar uchun ham ustun soha bo`lmagan. Xuddi mana shuni e'tiborga

olib, davlatlar ichki turizmni rivojlantirishga va turistlarni jo`natishga to`squinlik qiluvchi qattiq iqtisodiy to`siqlarni o`ylab topishadi. Kunlardan birida Sankt - Peterburg gubernatori turistik ko`rgazmada ishtirok etib, yirik turistik kompaniya stendi oldiga keladi, shunda kompaniya rahbari faxr bilan har haftada minglab turistlarni xorijiy davlatlarga jo`natayotganligi haqida so`zlaydi. Gubernator esa g`azab bilan firma litsenziyasini bekor qilish va faoliyatini to`xtatib qo`yish haqida buyruq beradi. Kompaniya rahbari e'tiroz bildirib: "Nahotki, mahalliy byudjetga to`laydigan mening milliard rubl solig`im shahar xazinasiga kerak emas", - deydi. Natijada, yirik soliq to`lovchi firma tugatilgan va xazina mazkur soliq to`lovlarsiz qolgan.

Shularni esdan chiqarmaslik kerakki, turistlarni jo`natish ham, yoki turistlarni qabul qilish ham mahalliy xazinani soliq bilan to`ldirish imkonini beradi.

Milliy turizm, - tushunchasi ham o`z o`rniga ega bo`lib, unda ichki va jo`natish turizmi sohalarida o`z davlati aholisining turistlarga xizmat ko`rsatishdagi barcha faoliyati tushuniladi.

Bulardan tashkari, rejali va xavaskor turizm, yakka va guruxli turizm kabi tushunchalar ham borki, ularning nomlanishining o`zidan qanday turizm ekanligini bilib olish qiyin emas.

4. 2. Ichki va xalqaro turizmning rivojlanishidagi ayrim muammolar va ko`rsatkichlar

Rivojlangan mamlakatlarda turizm uyg'un holatda taraqqiy etadi, ichki va qabul qilish turizmida balans mavjud. Ichki turizm milliy turistik resurslardan unumli foydalanish va turizm industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Ammo, amaliyotda hamma mamlakatlar ham bunga qodir emaslar. Albatta, bu mamlakat iqtisodiyotining turizmga bog'liqligida, ya'ni turizmsiz yashay olmaydigan, iqtisodiyoti turizm bilan bog'liq mamlakatlarga bunga amal qiladilar. Masalan, 50 - 60 ming mahalliy andorraliklar har yili 12 mln xorijiy turistlarni qabul qiladilar. Tabiiyki, ularning o'z mamlakatlaridan chiqishlari amri maholdir. Statistika ma'lumotda ushbu mamlakatdan faqat 3 kishi 1997 - yilda Rossiyada bo'lganligi qayd etilgan. Ayrim mamlakatlar ichki davlat tuzumi bahonasida fuqarolarining xorijga chiqishini chegaralab qo'yishadi yoki turistik faoliyatni davlat tomonidan boshqarish uchun choralar kiritishadi. Ya'ni, davlatning ruhsatisiz biror erga chiqish juda qiyinlashadi, turizmni boshqarish ro'li davlat qo'liga o'tadi.

Statistik ma'lumotlarga yana e'tiboringizni havola etamiz: Vengriyalik chaqaloq va pensionerlarni hisobga olmaganda har bir fuqaro yilda ikki marta xorijiy mamlakatlarga turizm maqsadida jo'nashadi. Bu ko'rsatkich Rossiya aholisining faqat 2 % ini tashkil etadi. Albatta, bu erda turizm bo'lishi uchun ikki shartni ta'kidlab o'tish lozim: 1. Bo'sh vaqt. 2. Mablag`.

Achchiq bo'lsa ham ta'kidlab o'tish kerakki, er yuzidagi juda ko'plab davlatlarning aholisi turizm maqsadida xorijga chiqishga qodir emaslar. Asosiy sabab olinadigan maoshning kamligi yoki aholining kambag'alligidir. Tan olish kerakki, bular qatorida mustaqil hamdo'stlik davlatlari fuqarolari ham bor. O'zbekiston ulkan tabiiy va madaniy - tarixiy resurslari bilan xohlagan turistlar talabini qondirishi va kelajakda ulkan turistlar oqimini kutib olish imkoniyatiga egadir. Lekin, turizm industriyasini yanada rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yuqoriga ko'tarish,

turizmga investitsiyalarni ko`proq jalb etish, turizmga servisni zamon talablariga moslashtirish, xizmat ko`rsatuvchi sub'ektlardagi xizmat narxini pasaytirish, ularda o`zaro raqobat muhitini yaratish, xorijga chiqish va xorijdan kelish vizalarini olishdagi mexanizmni soddalashtirish, malakali kadrlarni etishtirish bilan bu ishga yanada ko`proq hissa qo`shgan bo`lamiz. To`g`ri, keyingi yillarda Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlariga hukumatimiz va xorijiy investorlar tomonidan turizm infratuzilmasi uchun mablag`lar ajratildi Yirik mehmonxonalar qurildi, modernizatsiya qilindi, yangi zamon talabidagi avtobus va avialaynerlar sotib olindi. Yirik turistik markazlar, yodgorliklar ta'mirlandi, yo`llar barpo etildi. Xususiy mehmonxonalar va milliy uylar bunyod etilib, mahalliy va xorijiy turistlarni qabul qilib borayotirlar. Rekreatsion hududlar, masalan, Chorbog` - Chimyon hududiga respublika byudjetidan katta mablag` ajratildi. Madaniy - tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash ishlari davom etmoqda. Lekin, bulardan mustasno respublikamizda ichki turizm masalasi ko`ngildagidek emas. Hatto, respublikamiz aholisining aksariyat qismi butun dunyoga mashhur Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarni biror marotaba bo`lsa ham ko`rish imkoniyatiga ega bo`lmaganlar. Xorijni qo`ya turaylik, qaysi birimiz ushbu shaharlarni tomosha qilish va madaniy dam olish maqsadida birorta turistik firmaga murojaat kilganmiz. Shu bois, ichki turizmni rivojlantirish, aholimizning turizm va dam olish ehtiyojlarini to`laroq qondirish uchun turistik resurslardan maksimal tarzda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Mustaqil respublikamizga xorijiy turistlar kelishiga ham katta e'tibor berishimiz kerak. Shundagina, davlatimiz xazinasini va turoperatorlarning banklardagi hisob - raqamlariga milliy va xorijiy valyuta kelib tushishiga erishamiz. Buning oqibati esa ravshan - iqtisodiyotimiz rivojlanishiga ko`maklashgan bo`lamiz, tadbirkorlik sub'ektlarining farovonligi ortadi, turmush tarzi ko`tariladi.

Bizni o`ylantirayotgan boshqa iqtisodiy omillar ham mavjud. Masalan, turistik xizmatlardan, ayniqsa, transport, mehmonxona, ovqatlantirish xizmatlari darajasi va narxi turistlarni umuman qanoatlantirmaydi. Mahalliy turistlar uchun ham xorijiy

turistlar uchun ham bir xil narx belgilangan. Lekin, Nyu - York va Toshkent shaharlari aholisi o`rtasidagi yashash tarzi qay darajada? Ularning daromadlari bir xil emasku?

Yana bir masala - bu turistik statistikadir. Hozirda qancha xorijiy fuqaroning respublikamizga kelganligi va respublikamizdan chiqib ketganligi haqida "O`zbekturizm" MK aniq ma'lumot bera olmaydi. Har bir tashkilot o`zining statistikasini olib boradi. Tashqi ishlar vazirligi berilgan vizalar soni bilan, Ichki ishlar vazirligi ro`yxatga olingan xorijiy fuqarolar soni bilan, Bojxona qo`mitasi iqtisodiy dekleratsiya to`ldirilgan fuqarolar soni bilan, Davlat chegaralarini muhofaza qilish qo`mitasi aeroport, temir yo`l vokzalining asosiy punktlarida keluvchilar va ketuvchilarni ro`yxatlash bilan shug`ullanadilar. "O`zbekturizm" MK xizmat ko`rsatilgan turistlar soni bilan statistika olib boradilar. Demak, bir turist bir qancha statistik ma'lumotlarda ro`yxatga olinadi. Shu boisdan, ushbu masalalarni hal qila oladigan guruh tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi, - deb o`ylaymiz.

Xalqaro turizm rivojlanishining asosiy ko`rsatkichlari

Jahon Turizm Tashkiloti tomonidan chop etilgan "Jahon Turizm Tashkilotining 2003 - yildagi rivojlanishining asosiy ko`rsatkichlari" nomli nashrda xalqaro turizm rivojlanishining asosiy ko`rsatkichlari berilib, unda jumladan quyidagi ma'lumotlar o`rin olgan:

2003 - yilda xalqaro turizm 3 % ga o`sgan. Shu yili xalqaro turizm o`zining o`rnini saqlab qolgan. Vaholanki, bu ko`rsatkich 2002 - yilda 5 % ga qisqargan edi.

Arzon avialiniyalar Shimoliy Amerika va Evropada o`sib bordi. Internetning ahamiyati nafaqat axborot manbai sifatida, shuningdek, tashishlarni tashkil etish, mehmonxona yoki sayohatlarni rezervlashtirishda ham katta bo`ldi.

2003 - yilda barcha hududlarda xalqaro turizm sohasida ijobiy siljishlar yuz berdi. Faqat Shimoliy va Janubiy Amerika bundan mustasno. Bu erda 11 - sentyabr voqealaridan so`ng, 2001 - 2002 yillarda - 10%, 2003 - yilda esa - 4% orqaga ketilgan. Evropa turoperatorlari dunyoda o`zining etakchiligini davom ettirdi. Jahon

bozorida ular 57 % ulushini qo`lga kiritib, Q 2 % o`sdilar. Osiyo va Tinch okeani hududlari turoperatorlari Q 8 % ga, Yaqin Sharq mamlakatlari Q 17 % ga (kutilmagan natija) erishdilar. Afrikada so`nggi yillardagi o`sish surati, ya'ni Q 3 % saqlanib qoldi.

Xalqaro turizmdan 474 mlrd. AQSh dollari yoki 501 mlrd. evro dunyo turoperatorlari tomonidan qabul qilindi.

2000 - yildan keyingi iqtisodiy krizis va turistlarning kelishidagi ozchilikka qaramay (2000 - yildan keyin 20 % ga qiskargan), hamon AQSh dunyoda o`z etakchiligini saqlab qoldi. 67 mlrd. AQSh dollari hisobida foyda ko`rildi. Undan keyingi o`rinlarda Ispaniya, Frantsiya, Italiya kabi mamlakatlar bo`lib, ular 34 mlrd. AQSh dollaridan 27 mlrd. AQSh dollarigacha foyda ko`rdilar. Shuningdek, Gonkong (Xitoy), Xitoy va Avstriya rekord natijalarini qo`lga kiritdilar, ularning foydalari 2002 - yilga qaraganda ikki marta ortdi.

Xulosa

Turizm ichki va xalqaro ko`rinishlarda aks etadi. Albatta, o`z mamlakati hududida olib borilgan turistik faoliyat ichki turizmga va boshqa mamlakatga borib uyushtirilgan turlar xalqaro turizmga aloqadordir. Turistik resurslarga ega bo`lgan har bir mamlakat o`z hududida, ayniqsa, xalqaro turizmni rivojlantirishga xarakat qiladi. Negaki, maqsad aniq - iqtisodiy manfaatdorlik. Bu esa o`z - o`zidan sodir bo`ladigan masala emas. Sarmoya va yana sarmoya kerak bo`ladi. Iqtisodiyoti uncha rivojlanmagan mamlakatlar esa turizmga asosiy e'tiborni qaratsalar yomon bo`lmas edi.

Tayanch iboralar

- Ichki turizm
- Xalqaro turizm
- Milliy turizm

- Turistlarni qabul qilish
- Turistlarni jo`natish

Nazorat savollari

1. Ichki turizm deganda nimani tushunasiz?
2. Xalqaro turizm tushunchasini ta'riflab bering.
3. Turistlarni qabul qilish jarayoni nimalardan iborat?
4. Turistlarni jo`natish nima?
5. Milliy turizmni rivojlantirish uchun qanday amaliy choralar zarur?
6. Rejali turizmni tushuntirib bering.
7. Havaskorlik turizmi deganda nimani tushunasiz?
8. Ijtimoiy turizm asosan xalqning qaysi qatlamiga mansub?
9. Turizm tashkilotchilari deganda nimani tushunasiz?
10. Yakka va guruhli turizm haqidagi fikringizni ifodalab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Харис Г., Ким К. Стимулирование международного туризма в 21 век (Пер. с англ.). -М., 2000 г.
2. Основы туристской деятельности (Учеб. пособ.). Составитель Ильина Е.Н. - М.: Советский спорт, 2000 г.
3. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Санкт - Петербург, 2000 г.
4. М.А. Mirzaev. Turizm asoslari (modul). 2003 y.
5. Trevel Guide Uzbekistan - Tashkent: National Company Uzbekturizm 2003.
6. Information and Documentation Resource Centres For Tourism. WTO. 2004.
7. Tourism and Poverty Alleviation-Recommendations for Action.WTO. 2004.
8. Rural Tourism in Europe: Experiences, Development and Perspectives. WTO. 2004.

5 - bob. Turizm turlari va asosiy ko`rinishlari

- 5. 1. Aktiv (faol) va passiv (nafaol) turizm haqida tushuncha
- 5. 2. Turizm turlarining ko`rinishlari
- 5. 3. Maxsus va ijtimoiy turizmning o`ziga xos xususiyatlari

5. 1. Aktiv (faol) va passiv (nafaol) turizm haqida tushuncha

Turizmning bunday nomlar bilan bo`linishining asosiy sababi, odamning turizm jarayonida harakatlanishi va jadalligi turlarini aniqlash bilan belgilanadi. Katta jismoniy kuch talab qilinadigan va hamma turistlar qatlamiga ham to`g`ri keladigan turizmning aktiv (faol) turlariga - dam olish va sayyohat vaqtichog`lik, sport kabilar kiradi. Bu ma'noda yana ham ajralib turadigani - bu ekstremal turizm turidir. Turizmning passiv (nafaol) turiga esa - turizm dasturi yoki turistik sayyohlikning tinchroq va kam kuch sarf qilinadigan, jismoniy zo`riqishlarga xos bo`lmagan turi kiradi. Ular bir maromda dam olishga moslashgan shaxslarga mo`ljallangan o`rganish turizmi bo`lib, turistlardan jismoniy kuch va zo`riqish talab etilmaydi. Bu dengizda, tog`da, suvda davolovchi xarakterdagi sog`lomlashtirish turizmidir. Masalan, kurortlarni shular qatoriga kiritish mumkin. Shunday turdagi sayyohlik - farzandli oilalarga, katta yoshdagi turistlarga va pensionerlarga tegishlidir. Passiv turizmدا turistlar bosh kiyim tikish, savatlar to`qish, shuningdek, xo`jalik ishlarini yuritish, oshxona hamda bog`bonchilik ishlari bilan shug`ullanishni ham o`rganadilar. Buyuk Britaniyada qayiq bilan kanallarda suzish turizmi keng tarqalgan. Shunga o`xshash ko`llardagi turizmда ham turistlar nafaqat o`zlari eshkak eshishadilar, balki, qayiqlarni sudrab o`tishadilar, chodirlarini o`rnatadilar. Bunda jismoniy zo`riqish talab etiladi. Mavjud ingliz turizmida qayiqlarni daryo bo`ylab otlar sudraydilar, turistlar esa qulay va shinam qishloq otellarida tunashadi.

Aktiv (faol) turizmga har - xil sarguzashtli turizmlarni ham kiritish mumkin:

- Sarguzashtli turizm deganda - ekzotik joylarga, vulqonlarga, orollarga, sharsharalarga va shu kabi joylarga borishga aytiladi. Odatda bu - ekzotik va ekologik jihatdan toza tabiiy rezervatsiyalarga noananaviy transport vositalari bilan bog`liq bo`lgan, bir qolipga tushmagan turizmdir. Ba'zi holatlarda, bu xildagi turizm jiddiy jismoniy zo`riqishlar bilan bog`liq bo`ladi, insondan bilim va dovyuraklikni talab qiladi. Masalan, Koloradaning toshqin daryolarida damlanma qayiqlarning oqizilishi, qish faslida itlar tortadigan chanalar qishqi turizmi, tog` - chang`i kurortlaridagi dam olish va boshqalar shular jumlasidandir. Ularda qatnashish uchun qatnashchilar oldindan ma'lum ustalikka va jismoniy tayyorgarlikka ega bo`lishlari kerak. Bu xildagi turizm sport turizmiga yaqin hisoblanadi, unda yo`llar yaxshi tayyorlangan, yo`l ko`rsatuvchi yordamida xavf minimum darajaga tushirilgan, turistlar maxsus asbob - anjomlar bilan ta'minlangan bo`lishlari lozim. Aktiv (faol) turizmga: falokatlar sodir bo`lgan joylarga - zilzilalar, suv toshqinlari, vulqonlarning otilishi, texnogen halokatlari (masalan, vertolyotdan Chernobil AES ni tomosha qilishlar) va ekstremal hodisalar (masalan, o`lim jazosini tomosha qilishlar va h. k.kiradi.) Evropadagi ba'zi odamlar qamoqlarda o`tirgan kishilar kameralariga kirib, 1 - 3 kun davomida jinoyatchilar boshidan kechirgan kechinmalarni xayolan boshlaridan o`tkazishni xush ko`radilar. Bu turistlarga kuniga 120 dollarga to`g`ri keladi. Sarguzashtli turizmda qilinadigan sug`urta qimmatga tushishi mumkin.

Sarguzashtli turizmga yana tabiat qo`yniga uyushtirilgan safari, ov, baliq ovlash, qishda motochanalarda uchish yoki yurish qiyin bo`lgan joylarga jiplarda sayr qilish ham kiradi. G`arbda qiziquvchilarga mistary toig - sirli sarguzashtli turizm taklif etiladi, bunda qatnashchilarga oldindan tayyorlangan dasturlar va tashkilotchilar tomonidan o`ylangan narsalarning barchasi kutilmagan sovg`a bo`lib qoladi.

Xarakatlarning turlariga bog`liq bo`lgan turizmni quyidagi turlarga ajratib o`rganish mumkin:

- Piyoda yurish yoki sayr kilish turizmi. Bunda hayvonlar bilan harakatlanadigai marshrutlar - fil, tuya, eshak, ot, qo`tos, itlarda amalga oshiriladi. Odatda

yo`nalishning uzunligi 2 - 6 km.dan hattoki 20 - 50 km.gacha cho`zilishi mumkin. Ot turizmi marshruti g`oyat keng tarqalgan. Qatnashchilar texnika vositalari bilan borish qiyin bo`lgan tabiatning diqqatga sazovor joylariga ana shu vositalar yordamida borishlari mumkin.

- Temir yo`l marshruti turizmi. Bunda turistlar safar davomida ko`pgina joy va rayonlar bilan tanishadilar, vagonlarning juda qulay kup'elarida yashaydilar, ko`chib yuruvchi restoranlarda ovqatlanadilar. Xarakatlanishning asosiy qismi kechasi amalga oshiriladi, kunduzi esa turizm dasturida ko`zda tutilgan asosiy diqqatga sazovor joylarni, muzeylarni va bohka ob'ektlarni ziyorat qilishadilar. Ba'zi turizm turlarining davomiyligi 14 va undan ko`p kunga cho`ziladi. AQSh, Kanada, JAR, Argentinaning chiroyli bog`lari bo`ylab eski tarixiy poezdlarda sayr qilish, Rossiyada katta shaharlar bo`ylab temir yo`l turizmi marshruti keng tarqalgan (Sankt - Peterburg - Novgorod - Pskov - Moskva yoki Sankt - Peterburg - Omsk - Irkutsk). Turizm poezdi tarkibiga yotoq vagonlaridan tashqari vagon - restoran, vagon -klub, vagon - dushlar kiradi. O`zbekistonda ham (Toshkent - Samarkand - Buxoro - Xiva - Toshkent yo`nalishi bo`yicha) mazkur turizm yo`lga qo`yilgan.

- Avtobusli marshrutlar. Bunda turistlar mamlakatlarni magistrallar bo`ylab bir punktdan ikkinchi punktga harakatlanib kesib o`tadilar. Umuman turistlar avtobuslarda juda oz uxlaydilar, asosan uxlash uchun qimmat bo`lmagan mehmonxona yoki motellar ko`zda tutiladi, ammo maxsus yotoq avtobuslari ham mavjud.

Shaxsiy yoki ijaradagi avtomobillarda, shuningdek, mashinasidan ajralmagan holda sayr qiladigan turistlar qatlami ham mavjud. Ular bir qancha tranzit vizalar olib, murakkab marshrutlar bo`ylab qator mamlakatlarni kesib o`tishadi, ayrim vaqtlarda ular mashinalari orqasida ko`chib yuruvchi uylarni sudrab yuradilar, unda taom tayyorlashadilar, ovqatlanishadilar va tunashadilar. Bunday turistlar uchun maxsus avtokempinglar va karvonlar uchun to`xtash joylari o`rnatiladi. Sportga yo`naltirilgan turizmda murakkab turistik marshrutlar va musobaqalar uyushtiriladi. Masalan, tgorhu

- avtomobillaridagi eng og'ir turizmdir. Yorqin misol bo'lib Samel Trophu safari xizmat qiladi. Self drive toug - turizm, bunda turist avtomobilni ijaraga olishi yoki kelishilgan marshrut bo'yicha o'zining shaxsiy mashinasida harakatlanishi mumkin. Turistik agentlik kempinglarda stoyankalar, otellar, oziq - ovqatlar buyuradilar, haritalar etkazib beradilar, bir qancha qulay va qiziqarli safar marshrutlarini taklif etadilar, transport sug'urtalarini rasmiylashtiradilar.

- Suv turizmi marshruti. Bunda qayiqlarning har - xil turlarida, yaxtalarda yoki boshqalarda suzishlarni o'z ichiga oladi.

- Havo orqali tashish. Tashishning kattagina qismini havo orqali tashishlar tashkil etib, ular uzoq masofalarga tashishga asosiy e'tiborni qaratadi. Bundan tashqari qit'alararo, okeanlar orqali tashishlar ham kiradi. Yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan yuqori tezlikka ega va xavfsiz havo laynerlarining yaratilishi bilan turistlarni qit'alararo tashish birdaniga oshib ketdi. Turistlarni tashishda qatnovli marshrutlar bilan bir qatorda charter yo'nalishlari ham ishlatiladi. Tashish tizimida mahalliy aviatsiyaning ham roli katta, unda mamlakat ichidagi ko'pgina marshrutlar va uzoq masofaga cho'zilgan hududlarda turistlarni samolyotlarda tashish ko'zda tutiladi. Shunday qilib, Janubiy Afrika turizmining asosiy qismi havo yo'llarida tashishni ko'zda tutadi. AQSh havo xabarleri etkazish sohasida oldingi o'rinlarda turadi. 1997 - yili AQSh havo yo'llari tomonidan 599 mln. yo'lovchilar tashildi. 2007 - yilga borib bu ko'rsatkich 900 mln. yo'lovchiga etadi. Turistlarni tashishda kichik aviatsiya ham faol qatnashmokka, ayniqsa turistlarni tabiat qo'yniga texnik vositalar etib borishi qiyin bo'lgan joyga etkazishda bular qo'l keladi. Shu bois, ko'pgina turizm safarlari turli - xil transport vositalaridan foydalanishni ko'zda tutadi. Turistlarni uzoq masofalarga tashishda ko'pincha havo transportlaridan foydalaniladi. Turistlar uzoq masofadagi dam olish joylariga borishda vaqtni minimallashtirishga harakat qiladilar va samolyot bu borada harakatning operativ vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ayrim hollarda safar variantlari o'z ichiga kombinatsiyalashgan turlarini oladi. Ta'til davrida o'z mashinalaridan ajrala

olmaydigan Britaniyaliklar Evropa bo`ylab safarni davom ettiradilar, lekin Evropa mamlakatlarida harakatlanish o`ng tomonlama, ammo Buyuk Britaniyada esa chap tomonlama, shuning uchun boshqarish odatini o`zgartirish qiyin, ko`cha halokatlari va tushunmovchiliklardan qochish maqsadida avtomashinalarni temir yo`l platformalarida transportirovka qilish usulidan foydalaniladi. Dastlab La Mansh bo`g`ozidan turizm avtomashinasi dengiz solida olib o`tiladi, so`ngra temir yo`l platformalariga yuklab belgilangan manzilga etkaziladi. Turistlarning o`zlari shu poezdning yotoq kup'elariga joylashadilar. Avtomashinalarni joyida ijaraga olish ham keng tarqalgan. Xizmatning shunday turistik paketlari mavjudki, ular samolyotlarda tashish va avtomashinalarni aeroportning o`zida ijaraga berishni o`z ichiga oladi, avtomobillarni ijaraga berish ko`pgina rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Rossiyada ham avtomobillarni ijaraga berish firmalari mavjud, ammo ular faqat xorijiy turistlarga beradilar. Afsuski, respublikamizda bunday ishlar xali ko`ngildagidek emas. Qaysi vositalar orqali turistlarni tashish eng qulayligini turizm safarlari predmeti va maqsadlarining iqtisodiyoti echadi. Umuman, turistlar uchun vaqt muhim ahamiyatga ega va turizmدا turistlarni tashish sayyohlikning yordamchi elementi bo`lib hisoblanadi. Bu o`rinda, 1000 kmdan ortiqroq masofalarga havo yo`llarida tashish qulaydir, bundan tashqari havo yo`llaridan foydalanish katta suv xavzalarini kesib o`tishda ham qulaydir. 300 kmdan 1000 kmgacha bo`lgan masofalarda temir yo`lidan, asosan tez yurar liniyalardan faol ravishda foydalaniladi. Qisqa masofalarda esa avtomobil transportidan foydalanish qulaydir. Ba'zi hollarda daryo va dengiz transportlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari maxsus marshrutlar ham borki, unda harakatlanish usuli turizm marshrutining asosini tashkil etadi. Masalan, kruiz marshrutlari, avtobus va temir yo`l turizmi, - bunga misol.

5.2. Turizm turlarining ko`rinishlari

Turizmning xilma - xilligi uning bosh maqsadiga bog`liq holda quyidagi ko`rinishlarga ajratiladi: 1. Dam olish, rohatlanish va ko`ngil ochish maqsadidagi

turizm. Bunday turizm sayyohlikning keng tarqalgan turidir; 2. Dam olish va sog'lomlashtirish maqsadidagi turizm. Coglomlashtirish va davolash maqsadlarida qilinadigan turizm - sanatoriylar, sog'lomlashtiruvchi - davolovchi tashkilotlar, kurortlarda, shifobaxsh suvlar, shifobaxsh balchiqlar va boshqalar yordamida (shifobaxsh mineral suvli kurortlarda) olib boriladi. Turistik prospektlarda maxsuslashtirilgan sog'lomlashtirish maqsadlariga qarab, kempinglarda mineral suvlarni ichish yoki mineralli va servodorodli vannalar qabul qilish imkoniyatlarini belgilaydilar. Kavkaz mineral suvlari dunyoga mashhurdir. Respublikamizda ham mineral suvli davolanish maskanlari ko'p. Tabiiy - iqlim sharoitlaridan har doim ham davolash va sog'lomlashtirish maqsadlarida samarali foydalaniladi. Masalan, davolash loylari, mineral suvlar va buloqlar, toza va quruq yoki buning aksi bo'lgan dengiz havosi. Bunday kurortlardagi otellarda vrachlar, davolash va sog'lomlashtirish protseduralari, massajistlar va boshqalar xizmati ko'rsatiladi. Ammo, kurort tanlash va davolash muassasalarini tanlashda vrach maslahatlari va ko'rsatmalari orqali amalga oshirilishi kerak.

Ko'ngilocharlik turizmi dasturlari ma'lum ma'noda turistlar uchun qo'shimcha xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan. Turistning yaxshi ko'ngil ochishi uchun turizmning ko'plab ko'shimcha xizmatlari orqali yordam beriladi. Bu faol o'yinlar (golf, kriket, kegli), otlarda sayr qilish, attraksionlarga borish (tematik bog'lar, masalan, disneylend, delfi kari, zooparklar), restoranlar, dangsinglar, disko klublar, magazinlar, kazino va boshqalar. Xorij mutaxassislarining fikricha, turizm amaliyotida 110 dan ortiq keng qo'llaniladigan ko'ngilocharliklar bo'lib, bu ko'ngilocharlik sarf- harajatlarining maxsus statistikasi mavjud ekan.

Tanishtiruvchi, reklama safari. Marshrutni qaytadan batafsil ishlash va uning shartlari bilan tanishish uchun reklamali sayohatlarga asosan turliderlar va turoperatorlar yoki turistik agentliklar ishchilari borishadilar. Ular butun marshrutni to'lig'icha bosib o'tishadi va yashash sharoitlarini, ekskursiya dasturlarini, ovqatlanish asosini, transferti, madaniy va ko'ngilochar dasturlarni

aniqlashadilar. Ular mahalliy sharoitlar, udumlar, meditsina va sug'urta xizmatlari, jinoiy holatlar va boshqa kritik holatlarda davlat organlari bilan birgalikda olib boriladigan ishlar haqida to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlanadilar. Qoida bo'yicha tanishtiruvchi turizmga ma'lum chegirmalar beriladi yoki bunday turizm to'laligicha qatnashuvchi kompaniya tomonidan to'lanadi. Ba'zi mamlakatlar, masalan, Isroil qabul qilish bo'yicha turistik faoliyatni faol qo'llab - quvvatlab, tanishtirish bilan bog'liq safarlarni davlat byudjetidan dotatsiyalaydi.

O'rganuvchi turizm - turizm markazlariga biror narsani o'rganish uchun borishdan iborat. Bular dunyoga mashhur Nyu - York (har yili 32 mln turist bu erga o'rganish maqsadida borishadi), Parij, Madrid, Rim, Peterburg, Qohira, Singapur, Gongkong, Rio - de - Janero va shu kabi shaharlardir. Turistlarning qiziqish ob'ekti bo'lib qadimgi joylar, muzeylar, haykallar, shaharlarning chiroyli landshaftlari xizmat qiladi. Kichik shaharlar ham qiziqish markazida bo'lib, ularga quyidagi shaharlar - Granada (Ispaniya), Sarkskoe Selo (Rossiya) va boshqa alohida hududlar kiradi. Faqatgina Sankt - Peterburg viloyatining o'zida turizm ob'ektlariga kiradigan qadimiy obidalar va joylar 3900 tadan ortiq. Hozirda bu juda ulkan turizm imkoniyatlari to'la foydalanilmayotir (117 ming turistga mo'ljallangan mehmonxonalarining 30% idan foydalaniladi).

O'rganuvchi turizm asosini quyidagilar tashkil etadi: shahar va uning e'tiborga loyiq joylari, me'morchilik majmualari, diniy va madaniy yodgorliklari, ajoyib tabiat ob'ektlari va ko'rinishlarini tomosha qilish. Ushbu dasturlarning sermazmunligidan esa bo'sh vaqtlarda do'konlarga borish yoki uning rastalaridagi mahsulotlarni tomosha qilish. Turistlarga, hududlar bo'ylab butun davlat bo'ylab har - xil iqlim sharoitlarini ko'rish, shuningdek, turli transport vositalari orqali sayohatlar ayniqsa qiziqdir.

Qishloq turizmi - ta'til yoki dam olish kunlarida yo boshqa davrlardagi sayohatdir. Juma - dam olish kuni asrlar davomida musulmonlar uchun muqaddas hisoblangan. Shanba ko'p asrlar davomida boshqa din va madaniyatlarda ham mavjud

bo`lib kelgan. Xristianlarda IV asrgacha haftasiga ikkita dam olish kuni bo`lgan. V asrdan boshlab faqat bitta dam olish kuni - yakshanba qoldirilgan. Ikki kunlik dam olish kuni ishchilarga faqat XX asr oxirida qayta tiklandi. Bu turizm firmalariga har hafta ishlashga imkon beradi. Chunki, dam olish kunlarida turizm ancha sermahsul va ko`p turistlarni qamrab oladi.

Qishloq turizmi haqida gapiradagan bo`lsak, oktyabr to`ntarishidan avvalgi vaqtlarda Sankt - Peterburg aristokratlari va ular qatoriga o`zlarini qo`yuvchi boylar ham Baden - badenda dam olishga qurbilari etmagan. Bunday kishilar o`sha vaqtlarda ko`p bo`lgan. Shunga qaramay, ular fin bo`g`ozida joylashgan va kurort rayoni hisoblangan Martishkino (Peterburgning janubiy qismi)da yoki Finlyandiya poytaxtiga 30 km.lik yo`l bo`lgan Teriokoda arzon dala hovlilarini dam olish uchun ijaraga olishgan, buning sababi u erda xorij pasportlarini rasmiylashtirish kerak bo`lmagan. To`ntarishdan avval bunday dala hovlilarini ijaraga oluvchi talabgorlar asosan ziyolilar orasida ko`p bo`lgan. Dam olish vaqti har qanday shaharlik uchun qishloqdami yoki hovlidami juda ham maroqlidir. Bu hayot talabi, me'yoridir. Har qachon ham dala hovlilarini yoki boshqa joylarni ko`p yillar davomida ishongan va tekshirilgan joylarda dam olish uchun ijaraga olingan. Qishloq turizmining o`ziga xos tomonlari hundaki, masalan, Sitsiliyaning agrar viloyatlarida ishchi kuchi keragidan ham ortiqligi kambag`al turistlar yoki studentlarni ish haqi to`lamasdan, boshpana va ovqat uchun ishga yollashi mumkin. Bunday "dam oluvchi" o`sha erga borib qaytishi uchun mablag` topsa bo`lgani. Yo`l - yo`lakay bir - ikki kun plyajlarda cho`milishi, muzeylarni, yodgorliklarni va boshqalarni ko`rishi mumkin.

Hozirgi vaqtda qishloq turizmi alohida daromad keltiradigan tur hisoblanib, dunyo turizm bozorida alohida o`rin tutadi. Sovet davrida ishlab chiqarish xodimlarini kolxoz va sovxozlarga kuzgi hosilni yig`ib olish uchun qishloq xo`jalik ishlariga majburiy yo`naltirilishini qaysi kategoriyaga qo`yilishi - umuman tushunarsiz. Ya'ni, turistmi yoki ishchi? Bir tomondan ularni mehnat qilganliklari

sababli turistlar safiga qo`shish mumkin emas, ikkinchi tomondan esa ular mehnatlari evaziga haq olishmagan.

To`g`ri, qishloq turizmi dengiz kurortlari kabi katta hajmlar bilan raqobatlasha olmasa ham, shunga qaramay turizm ishlarida alohida o`rin tutib, uni o`rganib rivojlantirish alohida e'tiborga loyiq. Qishloqlardagi aholinig kamligi, tabiatning tozaligi, ekologik jihatdan qulayligi tufayli uning kelajagi bor. Lekin, shunga qaramay, xorijiy turoperatorlarning fidoyiligi, turistlarni o`z qishloqlariga tortishi, turistlarni o`z xalqining va davlatining rivojlanishi uchun olib kelishi, ish joylarini tashkil etishlari, o`z yurtining turistik resurslarini mustahkamlab, davlatga valyuta olib kirishlari va shu daromadlaridan soliqlar to`lab xazinani to`ldirishlari tahsinga sazovor. Bu bizga o`rnak bo`larli jarayonlardir, negaki, respublikamizda qishloq turizmi yo`q darajada.

Umuman, aytish joizki, qishloqlarda turist bo`lib turish, kurort zonalarida yoki mashhur turistik markazlarga nisbatan ancha arzon. Hamma ham qimmatbaho turistik markazlarda dam ololmaydi, shu jihatdan qishloq turizmini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Huningdek, qishloq turizmi quyidagi hollarda ham amalga oshiriladi:

- qishloq joylarda alohida kategoriya odamlar uchun ularning pul mablag`lari miqdoriga qaramay, masalan, oilaning an'analari qarang;
- vrach maslahatiga binoan qishloq iqlim sharoitlarida sog`lomlashtirishni olib borishga qarang;
- tabiat bilan yaqinlik, ko`proq vaqtni toza havoda o`tkazish maqsadida;
- ekologik toza va arzon mahsulotlar bilan oziqlanishi mumkinligi uchun;
- qishloq xo`jaligi ishlari bilan band bo`lishi, ishlash uchun real imkonlar borligi uchun;
- hayot uchun zarur bo`lgan kerakli narsalarni topishi uchun minglab kilometr masofani bosib o`tirmaslik uchun;

- boshqa ijtimoiy formatsiyadagi odamlar bilan muloqatda bo'lishi, ularning madaniyati, urf - odatlari bilan tanishishi, bayramlari va o'yinlarida qatnashishi imkoniyatining mavjudligi uchun.

Xulosa qilib aytsek, qishloqda dam olish - bu tabiat qo'ynida bo'lish, yillar davomida shahar sharoitida yig'ilib qolgan charchoqlarni chiqarish, toza havo, ekologik toza bo'lgan oziq - ovqatlar, iqlim sharoitlarini o'zgartirish, aholi sonining kamligi, boshqa tartib - qoida va yashash madaniyati, qishloq xo'jalik ishlarida ishtirok etish, bog'dorchilik, chorvachilik, tabiat bergan in'omlardan bahramand bo'lish va qolaversa, dam olishning arzonligidir. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, kishlok turizmi o'z xarakteriga ko'ra ekologik turizmning bir ko'rinishidir.

Shahar aholisining yozgi issiq kunlardagi va qishqi qorli kunlardagi hordiqalarini to'g'ri tashkil etish imkoniyati mavjudligini e'tibor olib, qishloq turizmini respublikamiz hududida quyidagi tarzda tashkil etish tavsiya etiladi:

katta bo'lmagan uylarni, kvartiralarini, agar bor bo'lsa mehmonxonalardagi katta bo'lmagan xonalarni, kottejlarni, tabiat manzaralari chiroyli bo'lgan joylarni ijaraga olish yo'li bilan.

Turistlarni qishloqdagi fermerning uyida joylashtirishi maqsadga muvofiqdir, negaki bu - turistlarni qishloq hayoti va u erdagi yangi insonlar bilan yaqindan tanishtirishga, ularning urf - odatlari va qishloq xo'jalik ishlari bilan kuchi etgan darajada ishlashga imkon beradi. Shubhasiz, bu uy egalari uchun noqulayliklar yaratadi, lekin fermerlar uchun qo'shimcha pul va yangilik olib keladi. Bunda mehmonlar uchun maxsus bir yoki bir necha xona ajratilib, ular kerak darajada tozalanadi va barcha zarur narsalar etkazib beriladi. Bunday turizmdan davlat ham, tashkilotchilar ham daromad ko'radi. Shu jihatdan qishloq turizmini qulay va kamxarj turizm deyish mumkin. Dala hovlilarni egalari bilan kelishib to'g'ridan - to'g'ri shartnomalarsiz ijaraga olinsa, ular uchun hisob - kitob nakd pulda bo'ladi va bu bank orqali amalga oshirilmaydi, natijada ijara haqi summasidan soliq ham to'lanmaydi.

Albatta, bu qonunga zid holatdir. Kimni qishloqda xususiy uyi bo'lsa yoki qarindoshlari bo'lsa yanada qulay. Go'zal tog'li mavzelarga sayr - sayohat qilish, go'zal joylarni tomosha qilish maroqli. Turistlar e'tiborini quyidagi ajoyib joylar lol qoldiradi: Grand Kanon, Tosh barmoqlar vodiysi (Avstraliya), ulkan sharsharalar (Niagara, Viktoriya). Bu erlarda turistlar uchun ularni tomosha qiladigan maydonchalar, asboblarni o'rnatilgan.

Safari tur - qo'riqxonalariga hayvonlar tomosha qilish uchun sayr, ovchilik, baliq ovi maqsadidagi sayohat, fotoovchilikdir. Keniya yoki JAR qo'riqxonalariga sayr, tabiatda ajoyib hayvonlarni erkin holda ko'rish maqsadidagi sayrlar bularga misol. Tabiat qo'yniga yoki qo'riqxonadagi e'tiborga loyiq erlarga jip mashinalarida Jip - Safari ga kelsak, sayohat davomida turistlar o'tirgan jiplardan tashqari kuzatuvchi mashinalar kalonnasi ham bo'lib, ular oziq - ovqatlar, palatkalar, yoqilg'i va shu kabilar bilan yuklanadi. Turizm dasturiga nafaqat mahalliy joylarni ko'rish, balki tog'li hududda avtomobil boshqarish, to'siqlarni engib o'tish, lager hayotiga o'rganish, favqulotda vaziyatlarda yashab keta olish kabilar kiritiladi.

Ekoturizm - turizmning yangi sohasi bo'lib, ikkinchi nomi "tabiatga yumshoq teguvchi turizm", ya'ni atrof muhitga eng kam ta'sirini ta'minlovchi turizmdir. Ekoturizm dasturi odatda ekologik toza joylarga borishni nazarda tutadi va tabiat qo'riqxonalariga uyushtiriladi. Bunday turizm davomida ekologiyaga bag'ishlangan seminarlar, mahalliy aholi bilan uchrashuvlar va shu kabilar tashkil etiladi. Ekoturizmga yana botqoqlik bo'ylab sayrlar ham kiradi. Florida botqoqliklaridagi sayrlar ayniqsa mashhurdir. Bu botqoqlik ichkarisiga kirish qiyin, shu sababli u erdagi flora va fauna juda boy. Turistlar uchun botqoqlik maxsus qayiqlar yordamida qatnov dasturi asosida amalga oshiriladi, unda 2 kunlik botqoqlik bo'ylab sayr, kam uchraydigan qush va hayvonlarni rasmga olish, borish qiyin erlarni tomoshalari amalga oshiriladi.

Harbiy turizm - urushlar va tarixiy janglar bo'lgan joylarga urush ishtirokchilari va ularning avlodlari uchun uyushtiriladi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi: harbiy ob'ekt va palegonlar, harbiy texnikada sayr, tanklar, qiruvchi samolyotlar, harbiy qurollardan foydalanish, harbiy - o'quv mashqlari, kosmik kemalar uchirishni tomosha qilish kabilar. Shuningdek, bu turizmga yana kontslagerlar va qamoqxonalarga tashriflar kiradi.

Nastalgik (etnik) turizm - qadimgi yashash joylariga sayohatlar bo'lib, unda qadimda odamlar yashagan erlarga u erdagi aholi madaniyati va alohida etnik guruh hayot sharoitini o'rganish uchun uyushtiriladi. Ko'chib ketganlarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin: 1. Majburiy ko'chganlar - o'zlarining tarixiy erlarini diniy, harbiy yoki siyosiy sabablariga ko'ra tashlab ketganlar; 2. Hohishlari bo'yicha ko'chganlar - o'z yurtlarini yaxshi hayot izlab tashlab ketganlar. Majburiy ko'chganlar - sayyoramizda anchaginani tashkil qiladi. Aholi migratsiyasi iqtisodiy, siyosiy va diniy omillar ta'sirida bo'ladi. Ming yillar oldin Norvegiyaliklar va Irlandiyaliklar, Islandiya va Grilandiyaga ko'chgan edilar. Tarixda Angliyadan Amerika qit'asiga diniy qarashlari tufayli ko'chganlar haqida ham ma'lumotlar bor. Jahon urushlari sanoqsiz kulfatlar va yangi qochoqlar to'ldirini vujudga keltirdi. Bunday qochoqlar tarkibiga urushdan qochganlar va asrlar kirib, ular o'z vatanlariga qaytishdan xavfsirab boshqa erlarga qochganlardir.

Keyingi turdagi ko'chganlarga Volga bo'yi nemislarini kiritish mumkin. Bu erda ular rus shohlari tomonidan yashashga taklif qilingan, 200 yildan keyin esa kommunistlar ularni vatan xoini, - deb Qozog'istonga ko'chirishgan, qayta qurish va ittifoqning birligini yo'qolishi, ular hayotini yanada qiyinlashtirdi, faqatgina 300 yil o'tib ular o'zlarining vatani - Germaniyaga (minglab aholi) qaytib kelishdi. Nastalgik turizmga yakqol misol bo'lib Finlarning Leningrad (hozirgi Sankt - Peterburg)dagi Karel hududiga va Lodj ko'li atrofidagi erlarga 323 ommaviy sayohatlarini kiritish mumkin. Finlarning 500 mingga yaqini bu erlarni 1939 - 1945 yillardagi urush harakatlari natijasida tashlab ketishgan.

Sobiq ittifoq respublikasida 1989 - 1990 yillardagi qayta kurish tufayli finlarning bu erga turist sifatida kelishiga imkon berildi. Qarindoshlarini ko`rish, qabrlar ziyorati va shu kabilar turizmda ommaviy tus olmokda. Ishtirokchilarning ko`pchiligi oldin shu erda yashagan keksalardir. Sayrning asosiy dasturi va maqsadi yakka holda engil mashinalarda, mahalliy aholini turli qishloqlardagi hayotini, shu erdagi qarindoshlarini ziyorat qilishdan iborat. Bu turizm maxsus guruh va yoshdagilardan iborat bo`lib, ko`chib ketganlarning avlodlari esa tub aholi bilan aralashib, o`z eski vatanini ancha unitishgan, shuning uchun ularda bu xildagi turizmga xohish kam.

Qarindosh yoki do`stlarni ziyorat qilishga mo`ljallangan turizm. 1 - 2 kunlik bo`lgan bunday sayohatlar asosan shanba va yakshanba kunlari tashkil etiladi.

Diniy - ziyorat turizmi. Bular diniy maqsaddagi sayrlardan iborat bo`lib, uning ildizlari tarixga borib taqaladi. Bu kabi sayohatchilarning birinchilari o`rta asr ibodatchilaridir. Shu kabi sayrlar o`z diniga ishonch va o`zga dinlarga qiziqish asosida vujudga keladi. Dunyodagi ko`plab musulmonlar Makkai Mukarramaga va xristianlar esa Muqaddas er deb hisoblashadigan - Vatikanga, ibodatxonalar va boshqalarni ziyorat qilish uchun sayohat qilishadi. Ziyorat kasallikdan qochiy, baxtsizlik, gunoxlarini yuvish uchun ham amalga oshiriladi. Marko Polo (XIII asr) hozirgi Shrilanka hududida shu kabi ziyoratlarni ko`rganini aytadi. XI - XV asrlarda Angliya ziyoratchilari asosan Rim va Quddusga borganlar. U vaqtlarda sayohatlar ancha qiyin kechgan: 1388 - yildan boshlab qirol Richard II buyrug`i bilan inglizlar ziyorat uchun maxsus ruhsatnoma olishlari kerak bo`lgan. 11 yildan so`ng Richard II ingliz ziyoratchilari sayohat qilishi mumkin bo`lgan joylardagi portlarni qisqartirdi, ba'zi joylarga ruhsat berildi. Boshqa erdan kelish uchun esa qirolning maxsus farmoni kerak edi. Ba'zi ziyoratchilar diniy zaruriyat bilan sayohat qilishsa, boshqa ko`pchilik bunga sayohat ishtiyoqi bilan yoki hayotiy turtkilar, o`z hamroxlari bilan quvnoq muloqot qilish uchun kelishgan. Hozirda ham bir qancha qadamjolar bor. Ko`pchilik xristianlar Quddusga Iso Masih qabri ziyoratiga boradilar. Islomga e'tiqod

qiluvchilar esa Makkai Mukarrammaga xaj va umra ziyoratiga boradilar. O'zbekistonda ham ziyorat qilsa arzigulik joylar juda ko'p. Masalan, ba'zilar Toshkent shahrida saqlanayotgan "Usmon Qur'oni"ni ko'rish uchun tashrif buyurishsa (bu kitob O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi kutubxonasidagi maxsus vakumli seyfda saqlanishi tufayli va uning nechog'li tarixiy ahamiyati katta ekanligini inobatga olib hammaga ham ko'rsatish imkoniyati yo'q. Asosan, musulmon mamlakatlaridan kelgan davlat arboblari va mutaxassislar uchungina namoyish etiladi), boshqalar imom Buxoriy, imom Termiziy, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning amakivachchalari Qusam ibn Abbosning qabrini ziyorat qilish uchun yurtimizga kelishadi. O'z fuqarolarimiz ham bunday joylarga ziyoratlarini uyushtiradilar. Shuningdek, Bahovuddin Naqshband, Abu Mansur Moturudiy, Zangi ota, Anbar otin, Go'ri Amir kabi yuzlab ziyoratgohlar ham borki, bular respublikamizda diniy turizmni yanada rivojlantirish uchun asosiy resurslar vazifasini o'taydilar. Shu o'rinda bir fikrni aytib o'tishni joiz, deb bilardim. Yaxshiki mamlakatimizdan dunyoni lol qoldirgan sarkardalar, olimu allomalar, fozilu fuzalolar etishib chiqishgan. Bularning o'zlaridan qoldirib ketgan madaniy meroslari tufayli davlatimiz dunyo tarixida o'chmas iz qoldirdi. Ilk uyg'onish va sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrlarida shunday ilmiy, madaniy va bunyodkorlik ishlari qilindiki, insoniyat yana necha yillar bular bilan faxrlanadi. Shular tufayli mana oradan neche yuz, xatto ming yillar o'tsa hamki, agar ta'bir joiz bo'lsa, davlatimiz obro'si ortib, iqtisodiyotimiz rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilmoqda (hatto, bulardan xorijiy kompaniyalar ham manfaatdorlikda). Negaki, respublikamizda mavjud arxeologik va me'moriy yodgorliklarning xalqaro turizmga o'z o'ni va mavqei ulkan.

Mamlakatimizda xaj va umra ziyorati masalalari bilan Musulmonlarning diniy idorasi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi diniy ishlar qo'mitasi shug'ullanadi. Har yili 4 mingdan ortiq vatandoshlarimiz xaj ziyoratiga borib kelmoqdalar. Turistik tashkilotlar ham respublikamizda mavjud ziyoratgoh joylarga turlarni tashkil etmoqdalar.

Turistlarni diniy marosimlarni tomosha qilish qiziqtiradi. Rossiyaning ateistik kayfiyatidagi aholisi ham bunday marosimlarni qiziqish bilan tomosha qilishadi. Dini va irqidan qat'iy nazar barcha millat vakillari sayohat qilishadi. Turizm inson faoliyatining muhim bo'lagi sifatida dinlar va sig'inishlar bilan ham bog'liq. Ba'zi dinlarda turistlarni himoya qiluvchi xudolari va avliyolari bor. Bizning islom dinimizda Olloh yagona, uning hech bir sherigi yo'q. Masalan, qadimgi greklarda Apollon - qadimiy xudolardan biri, Zevs va Letoning o'g'li. Artemidning akasi, Orfey, Lina, Asklepiyaning dadasi - Quyosh, yorug'lik xudosi bo'lib, podachilar, yo'llar, dengiz yo'llari va sayohatchilar himoyachisi bo'lgan. Sayohatga aloqasi bor xudolardan yana biri Pan xudosi (Rimliklarda Favn), u ovchilar va baliq ovchilarini himoya qilgan. Gera va Afina xudolari argonavtlar (argonavtlar - yunon afsonalarida sehrli qo'yni "oltin tolasini" izlab "Argo" kemasida Kalhidaga safar qilgan qahramonlar. Jasur dengizchilar) ni himoya qilgan.

Xristian dinida (xristian konfessiyasiga insoniyatning 26 % tegishli) Avliyo Nikolay Mirlikiyskiy sayohatchilar, dengizda suzuvchilar, bizning davrda esa turistlarning ham (hamda bolalar va maktab o'quvchilarining) homiysi hisoblanadi. Nikolay Mirlikiyskiy (arxiepiskop, Kichik Osiyo, IV asr, 352 - yil 6 -dekabrda vafot etgan, avliyoning qabri Italiyada saqlangan) xristian dinining barcha konfessiyalarida, asosan, pravoslavlarda ko'p tilga olinadi. Avliyoning hayot faoliyatini, u haqdagi afsonalarni tadqiq qiluvchi tarixchilar unda boshqa bir Avliyo Nikolay (Likiyada 2 asr keyin yashagan Pinar episkopining) xarakterlari va amallari borligini ko'rishadi.

Nikolay Mirlikiyskiy Likiyadagi Patarx shahrida tug'ilgan. Ota - onasi Feofan va Nonna. Nikolay ismi qadimgi grek tilida "xalq g'olibi" ma'nosini anglatadi. O'smirligida Nikolay xristian dinini o'rganishda muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan va Patarx shahrining ruhoniysi bo'lgan. Unga boy merosning qolishi muhtojlikdan asragan. Afsonalarga ko'ra u uch marta yashirin ravishda muhtoj odamlarga sovg'a bergan, muhtoj kishi esa bu pulga qizlarni turmushga olgan. (Bu afsona keyinchalik mashhur qahramon Santa Klaus obraziga asosi bo'lib qolgan. Santa Klaus hammaga

sovg`a beradi, asosan Rojdestvo kuni bolalarga). Nikolay bir necha marta sayohatlarga chiqqan, shular jumlasiga Muqaddas erga ziyoratga borganligini aytib o`tish lozim. Dengizda suzish davrida u g`aroyib sarguzashtlarga duch kelgan: kemalar va sayohatchilarni qutqarish mo`jizasini ko`rsatgan. Ziyoratdan keyin u bir qancha vaqt mobaynida yolg`iz monastirda yashagan, so`ngra yurak va ruh amri bilan diniy kasblar bilan shug`ullangan.

U muloyim, mehri yumshoq, oqko`ngil, bo`lib, takabburlik va ta'magirlik hissiyotlari unga begona ekan. Uning eshiklari barcha uchun ochiq bo`lgan va kelgan har bir insonni u sevgi va quvonch bilan kutib olgan. Avliyo Nikolay pravoslavlarni shafqatsiz ta'qib qilishni boshidan o`tkazgan. Pasxa kuni ibodatxonada 20 ming xristian yoqib o`ldirilgan. U ochiqchasiga o`z e'tiqodidagi kishilarni qo`llab - quvvatladi va ozodlikdan mahrum etildi. Uzoq vaqt qamoqxonada bo`lsa ham o`z e'tiqodidan voz kechmadi. Xristianlarni bunday ta'qib qilish hokimiyat tepasiga imperator Konstantin kelguncha davom etdi. 323 - yil Nikolay qamoqxonadan chiqdi va yana cherkov xizmatkori bo`lib ishlay boshladi, ibodatxonalarni qurdi va qayta tikladi.

Avliyo Nikolay Birinchi Jahon Sobori (325 - yil, Nikel)da ishtirok etdi va u erda e'tiqod timsollari qabul qilingan. U pravoslaviyani faol himoya qilgan va Ariya va uning tarafdorlarini rad qilgan, mamlakatdagi ko`pgina butparastlik - ko`p xudolikka oid sajdagox - kapitellarni buzishda, jumladan Miradagi Afrodita ibodatxonasini buzishda ishtirok etgan.

Avliyo Nikolay ko`pgina yaxshi amallarni bajargan, u yordamga muhtoj bo`lganlarga, askarlarga, tinchlik tarafdorlariga, kuchsizlarga, sayohatchilarga yordam bergan. Uni xalq sevgan, u uzoq yil yashagan va 6 - dekabrda Mira shahrida soborga dafn qilingan. Lekin, uzoq asrlar davomida shaharni ko`p marta bosqinchilar bosib olgan va ibodatxona buzib tashlangan. 1087 - yil, etti asrdan keyin, avliyo Nikolayning xoki Miradan Italiyadagi Bari shahriga yashirinchalik olib kelingan va hozirgi kungacha shu erda saqlanadi. Ming yillar davomida ko`pgina sayohatchilar va

dengizda suzuvchilar va hatto uzoq Skandinaviya va Rossiyaliklar ham Bari shahriga kelish va Avliyo Nikolay hokiga sig`inishni sharaf deb bilishgan (bu bizning islom dinimizda shirk hisoblanadi).

Xristianlikda 22 - may kuni (yangi hisob bo`yicha 9 - may) ilohiyotchi va mo`jiza yaratuvchi Avliyo Nikolay (bu g`oya ham shirkdir, chunki mo`jizani faqat Olloh yaratadi) kuni bayram qilinib, Bari shahri pravoslav ziyorat markazlaridan biriga aylangan. Asrlar davomida bu erga keluvchi ziyoratchilarning mavjud. Hozirgi kunda Italiya bo`yicha mashhur turistik marshrutlar ro`yxatida Bari shahriga olib boruvchi diniy tur faol taklif qilinmoqda. Sha -harda xalqaro aeroport qurilgan, turistik infratuzilma yaratilgan.

Pravoslaviyada Avliyo Nikolay ko`pgina kartina va ikonalarda aks ettirilgan. Uning qiyofasi ishlangan ikonalar alohida hurmatga ega va u e'tiqod qiluvchilarga yordam beradi va mo`jizalar ko`rsatishda ishtirok etadi, - deb hisoblanadi (bu ham shirk). Shuningdek, u - Avliyo Nikolayni mo`jiza ko`rsatuvchi, eng yorqin quyoshning botmas yulduzi, Xudoning qo`riqchisi (shirk), Xudoning elchisi, cherkovning tasdig`i, barcha qayg`uli kishilarning yupatuvchisi, - deb atashgan. Avliyo Nikolay bo`yicha xizmat 6 - dekabrda va 9 - mayda amalga oshiriladi.

Avliyo Nikolayning Rossiyadagi o`rni. Rossiyada Avliyo Nikolay alohida o`ringa ega. U xalqda, armiyada, flotda xristian avliyolari tomonidan eng hurmatlisi hisoblanadi. Hal qiluvchi janglardan rus askarlari mo`jizaviy yordamlarga ishonib, ikonalariga, Isus Xristos, Bogomater va Avliyo Nikolayga sig`inishgan. Jangchi urushga "E'tiqod, Shoh va Vatan" uchun ketgan. Jangchi yonidagi ikona uning g`alabaga bo`lgan e'tiqodini mustahkamlab, unga kuch bag`ishlagan. Eng mard jangchilarga ikona sovg`a qilingan. Kulikovo jangida rus qo`shinlari enggan, bunda rus qurollarida Avliyo Niqolay tasviri bo`lgan. Avliyo Nikolayning tasviri oddiy odamlar uylarida, boylarning saroylarida, ibodatxona va monastirlarda, harbiy ibodatxonalarda mavjud bo`lgan. Rus floti qadimdan Nikolayni uylarining homiysi hisoblagan. Sankt - Peterburgda Avliyo Nikolay nomidagi sobor bor.

Moskva Kremlining homiysi Avliyo Nikolaydir, hatto Kreml minoralaridan birining nomi ham Avliyo Nikolaydir. Kremldagi Blagoveshenskiy soborida Nikolay hokining bir qismi bor, deyiladi. Rossiya poytaxtidagi ko`pgina ibodatxonalar Avliyo Nikolay nomi bilan bog`liq, shuningdek, avliyoning tasviri tushirilgan ikonalariga ega, har yili 21 - va 25 - maylarda Rossiyada avliyoning ikonasi bilan cherkovlarga xoch sayri o`tkaziladi.

Turizm bozorida Rojdestvo va boshqa bayramlarni nishonlash uchun Finlyandiya va boshqa Skandinaviya, G`arbiy Evropa davlatlariga sayr qilishadigan xizmatlar mavjud. Turistlar ichida ayniqsa Finlyandiyaning qutb chegarasida joylashgan Rovaniymi degan joyga, Santa Klaus vataniga sayohat mashhur bo`lib bormoqda. Bu erda bolalar va kattalar uchun tantanalar o`tkaziladi. Laplandiyada zamonaviy aeroport bo`lib, u erga hatto samolyotlar ham qatnaydi. Mehmonlar uchun Santa Klaus va gnomlar ishtirokida tomoshalar uyushtiriladi, Santa Klaus qishlog`ida supermarket, g`orlarda bolalar tomoshagoxlari qurilgan. Rossiyada bunday joy qurilmagan, shu sababli rossiyaliklar Santa Klausga borishadi.

Biz ushbu ma'lumotlarni turizm soxasida kelajakda o`zbek mutaxassislari ham shug`ullanishlarini va boshka din vakillari bilan muloqotda bo`lishlarini e'tiborga olib aytmoqdamiz. Mutlaqo mazkur ma'lumotlarni targ`ib qilmaymiz va unga amal qilmaymiz, ham. Faqat informatsiya uchungina xolos.

Marosim turizmi - odatda qarindoshlarning qabrlari yoki janglarda vafot etganlar dafn etilgan joylarga uyushtiriladi. Qarindoshlar yoki yaqinlar qabrlari va maqbaralarini ziyorat qilish marosim turizmining asosini tashkil etadi. Ko`pgina turistlar tarixiy yurtlarga aynan qarindoshlarini qabrlarini ziyorat qilishga boradilar. Shunday turizmni oldin Karel hududida yashagan, Finlyandiya va Shvetsiyaga ko`chgan finlar uyushtirishgan. Ular guruh bo`lib o`z ajdodlari qabrlarini ziyorat qilishadi. Yana bir marosim turizmi - bu yaqin orada janglar bo`lib o`tib, shu janglarda halok bo`lgan askar va zobitlar qabrini ziyorat qilish uchun uyushtiriladigan sayohatdir. Bu turdagi turizm bilan veteran tashkilotlar

shug`ullanadi. Germaniyada maxsus tashkilot bo`lib, u qabrlarni va murdalar shaxsini aniqlaydi. Respublikamizda "Nuroni", "Shahidlar xotirasi", "Oltin meros" hayriya jamg`armalari shunday ezgu ishlar bilan shug`ullanadilar.

II Jahon urushi oxirida Leningrad (hozirgi Sankt - Peterburg) shahri atrofida katta Ispan diversi tor - mor etildi. Bu hududda 43 ming odam o`lgan. Ispaniya tomonidan qabrlarni qidirish ishlari olib borildi. Novgrodda esa turistik firmalar shu maqsadda sayohatlar uyushtiradilar.

Falokatlar sodir bo`lgan erlarga, so`ngan vulqonlar, cho`kkan kemalarga turizm.

Xazina izlash turizmi. U ikki turga bo`linadi:

1. Professional ekspeditsiyalar;
2. Havaskorlar - sarguzasht nuqtai - nazaridan. Eski oltin konlaridagi metallni qayta tiklash, Hind okeani qirg`oqlaridagi qimmatli toshlarni izlash bu sayyohlik asosini tashkil etadi.

Ishqiy turizm - sex tour, asosiy maqsadni ko`ngilxushlikka qaratadi. Ular odatda harbiylar va vaxta ishchilariga uyushtiriladi. Uning birqancha turlari bor. Bular ba'zi xorijiy davlatlarda bo`lib, biz - musulmonlarning an'analarimizga qarshidir.

Katta sport musobaqalarida ishtirok etishni ko`zlovchi turizm. Ularga ommaviy o`yinlar, olimpiya o`yinlari, chempionatlar kiradi. Bu kabi tomoshalarni muvaffaqiyatini tashkilotchilar va turistik firmalar o`rtasidagi hamkorlik belgilaydi. Qaerda tashkilotchilar turistik firmalar bilan yaxshi hamkorlik qilsalar, uncha mashhur bo`lmagan tomoshalarga ham katta oqimdagi turistlarni jalb etish mumkin. Qishki Olimpiya o`yinlariga turistlar juda qiziqishadi. Bunga sabab o`sha erda har - xil suvenirler, turistlar uchun har - xil buyumlar sotilishi hamda o`yinlarga jalb qilish usullarining qiziqarligidir.

5. 3. Maxsus va ijtimoiy turizmning o`ziga xos xususiyatlari

Ijtimoiy turizm - bu davlat yoki boshqa jamoat tashkilotlari tomonidan moddiy va ma'naviy ta'minlab turiladigan turizmdir. Bunda dotatsiyalar, engilliklar va rag`batlantiruvchi imtiyozlar nafaqat qonun va nodavlat jamg`armalari belgilagan shaxslar va turistlar kategoriyasiga, shuningdek, shu turdagi turistik tashkilotchilarga ham beriladi. Eng keng tarqalgan turlarga bolalar va yoshlar turizmi kiradi. Ular turizmda alohida sayohat turlarini tashkil etadi.

Yoshlar va bolalar turizmi - odatda maktab o`quvchilariga ta'lim berish maqsadida qo`shimcha ma'lumotlarni olish uchun uyushtiriladi (gerbary yig`ish, o`z o`lkasini o`rganish va boshqalar). Asosiy o`rin o`quvchi va o`smirlar orasidagi muloqotni egallaydi. Bolalar va o`smirlar turizmi maxsus e'tibor va qobiliyat talab etadi. Tashkilotchilar yaxshi pedagogik tayyorgarlikka ega bo`lishi kerak. Bunday turizm ijtimoiy turizm asosida tashkil etilib, dotatsiya va chegirmalar bilan keng ta'minlanadi. Masalan, xalqaro studentlar bileti - ISIC, EU o`smirlarga arzonlashtirish huquqini beradi.

Yoshlar uchun turizm bu - yuksak darajada taraqqiy topgan jamiyatning hayot mazmunidir. Bunga 25 yoshgacha va oila qurmagan shaxslar kiradi. Turizm ularga hayotda to`g`ri yo`l tanlashga va hayotiy tamoyillarni shakllantirishga yordam beradi. Kunduzgi ta'lim tizimida o`qiydigan va 25 yoshgacha bo`lgan yoshlarga dunyoning barcha joylarida amal qiladigan imtiyozli ta'riflar mavjud. Bu imtiyozlar har - xil transport turlariga, maxsus yoshlar yotokxonalarida yashashga, muzeylarni, parklarni, ko`rgazmalarni tomosha qilish uchun beriladi. Eng asosiysi shuki, narxlarda chegirmalar beriladi. Ba'zi hollarda turist ota - onasiga qo`ng`iroq qilishi mumkin. Yosh turistlar o`qituvchi - kuzatuvchi yoki maxsus shu sohada ishlovchi mutaxassis tomonidan sayohatga olib chiqiladi. Ko`p hollarda talabalar 3 - 5 kishi bo`lib birlashishadi va mustaqil ravishda shaharga yoki xorijiy davlatga sayohat qiladi. Bunda talabalardan biri, yoki o`z o`qituvchisi sayohatga olib boruvchi bo`lib ishtirok etadi. Shuningdek, bunda sayohat olib boruvchi shaxsga ham chegirmalar beriladi.

Bunday turizmga imtiyoz yaratuvchi tashkilotlar - Xalqaro yoshlar tashkiloti, Xalqaro yoshlar turizmi federatsiyasi (Federation of international youth travel organization) dir. Bu federatsiya 1951 - yilda tashkil topgan bo`lib, asosiy qo`mitasi Kopengagenda joylashgan va YuNESKO rahbarligida ish olib boradi.

Xostel - yotoqxona sifatidagi, arzon yoshlar mehmonxonasidir. U odatda karidor sistemasida bo`lib, umumiy hojatxona, yuvinish xonalari, o`z muzlatgichlariga, mikroto`lqinli pechlarga ega bo`lgan oshxonalarga, umumiy televizorga ega bo`lgan dam olish xonalari va taksafonlarga ega bo`ladi. Ovqatlanish kafe yoki oshxonada tashkil etiladi. Xostellar xonalari 2 kishilikdan 6 kishilikkacha (ba'zi hollarda ko`proq) bo`ladi. Xostellar kam qulay bo`lsada, lekin doim tozadir. Nisbatan yoshroq turistlar yashaydigan xostellar shovqinliroq bo`ladi, yoshlar tez - tez sho`xlik qilishadi va bu yarim kechagacha cho`zilishi mumkin. Shunga qaramasdan ko`pgina yosh bo`lmagan turistlar ham xostellarda yashashadi. Ular yoshlar hayotiga ko`nikib qolishgan va bunda xostellar arzon xizmati ham rol o`ynaydi. Shunday xostellar borki, u erda turistning o`ziga tegishli bo`lgan o`rin - joy choyshablaridan foydalanish mumkin. Ko`p xostellar kunduzi tozalash uchun yopib ko`yiladi, bu paytda turistlar yuki va buyumlari maxsus xonalarda saqlanadi.

Xostellar xizmatiga: choyshablarni yuvish, chegirmalarga ega bo`lgan muzey, teatr, kinoteatr, avtobus, poezd chiptalarini sotish va umumiy ekskursiya tashkil etish, internet xizmati kabilar kiradi.

Xostellar butun dunyo bo`ylab tarqalgan, lekin ular Evropada ommalashgan. Katta shaharlarda bir nechta xostellar faoliyat olib boradi, yozda ular soni ko`payib studentlar yotoqxonalari sifatida foydalaniladi. Xostellar shahar markazlaridan uzoq bo`lmagan temir yo`l va avtobus vokzallari yaqinida joylashadi.

Studentlar uchun xostellar deyilganda, unda faqat talabalar yashashi mumkin,- degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu xostellarda katta yoshdagi turistlar ham joylashishi mumkin. Skandinaviya mamlakatlarida xostellarga joylashish uchun "Xalqaro xostellar uyushmasi" a'zolik kartochkasi bo`lishi kerak. Xalqaro va milliy student

yo'llanmalari bilan hamma xostellarda katta chegirmaga ega bo'lgan mehmonxona va ovqatlanish xizmatlariga ega bo'lish mumkin. Xostellar yirik mehmonxonalar tarmog'iga qo'shilgan va ular Evropaning har bir katta shaharlarida bo'lib, ular tomonidan xostellar kataloglarini chop etish va joylarni band etish xizmati tashkil qilingan.

Yoshlar xostellarining paydo bo'lishi XX asrning boshlarida Germaniyada vujudga kelgan. 1901 - yilda "Ko'chmanchi qushlar" ("wonder - vogel") jamiyati tashkil topdi va bunda boshqalar hayotini o'rganish maqsadida uzoq muddatli piyoda sayohat qilishni hohlagan shaxslar ishtirok etishgan. Ular allomalarning xalq og'zaki ijodiyotini va xalq raqslarini o'rganishgan. 1910 - yilda ushbu jamiyat tashabbusi bilan maxsus xostel ochildi. Bu oddiy va arzon yoshlar tunash joyi degan ma'noni anglatgan. Xostellarni tashkil qilish g'oyasi tez tarqaldi va ular nafaqat Germaniyada, balki boshqa davlatlarda, jumladan, Niderlandiya, Shveytsariya kabi Evropaning boshqa davlatlarida paydo bo'la boshladi. Birinchi jahon urushi xostellar barpo etilishi jarayoniga ta'sir etdi, lekin undan oldin 1930 - yilda Angliyada birinchi xostellar uyushmasi, 1932 - yilda Xalqaro xostellar federatsiyasi tashkil topdi. Yoshlar xostellari uyushmasi bu - yosh turistlarni mehmonxonalar, yotoqxonalar va turbazalarga o'rtamiyona narxlarda joylashtirish faoliyatini olib boruvchi tashkilotdir. Uyushma dunyodagi 5500 dan ortiq xostellarni o'z ichiga oladi. Avstraliyada uyushma tizimida 140 xostel mavjud. Bugungi kunda federatsiyaga 70 ta mamlakat a'zo. 1934 - yilda AQShda ham xostellar uyushmasi tashkil topdi.

Rossiya yoshlar xostellari uyushmasi 1992 - yilda tashkil topdi. Uyushma markazi Sankt - Peterburgda joylashgan bo'lib, u o'z ichiga 7 ta xostelni oladi. Uyushma 1993 - yildan boshlab Xalqaro xostellar federatsiyasi (IYHF) a'zosi hisoblanadi. Hozirgi kunda Rossiyada IYHF va RYHA a'zolari uchun chegirmalarga ega bo'lgan xostel kartochkalarini (RUHA card) joriy etish davom etmoqda. Bu kartochkalar dunyoning 3500 xostellarida chegirma olish huquqini beradi.

Rossiya yoshlar xostellari uyushmasiga qarashli Sankt - Peterburg xalkaro studentlar turizmi xosteli bor. Bu mehmonxona 1991 - yilda tashkil topgan bo`lib, u Moskva vokzali va Nevsk prospektidan uzoqda bo`lmagan shahar markazida joylashgan. U Rossiyadagi birinchi xostel nomini olib, Rossiya xostellar uyushmasiga a'zo. Mehmonxonada 56 ta joy bo`lib, ular 2 va 5 kishiliq xonalardan iborat. Xostel turistik guruhlariga arzon xizmat ko`rsatadi va har bir qavatdagi dushlar, yuvinish xonalari, hojatxonalardan tashqari internet kafelar xizmati mavjud. Yashash to`lovi 12 AQSh dollaridan 15 AQSh dollarigacha. Xona narxiga nonushta ham kiradi. Xostelda "Simbad travel" turizm idorasi xizmat ko`rsatadi va bu idorada 77 ta mamlakatdagi 5500 ta xostellarda joylarni band qilish mumkin. Bulardan tashqari, vizalar ochish, maxsus chegirmalarga ega bo`lgan aviachiptalar sotish yo`lga qo`yilgan.

International student identity card (ISIC)

Dunyoning istalgan joyiga sayohat qilish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradigan maxsus studentlar va yoshlar uchun kartochkalar (ISIC, GO 25) mavjud. ISIC - bu xalqaro studentlar guvohnomasidir. Kartochka (INTERNATIONAL YOUTH TRAVEL CARD (GO 25) studentlardan tashqari 25 yoshgacha bo`lgan yoshlarga ham berilishi mumkin. Yoshlarni olib boradigan o`qituvchilarga kartochkalar beriladi (INTERNATIONAL TEACHER IDENTITY CARD (ITIC). Bu kartochkalarga ega bo`lganlarga har - xil imtiyozlar va chegirmalar beriladi. Masalan, xostellarga joylashish va ularda ovqatlanish, transportlarda yurish uchun maxsus chiptalar (STA yoki KILBOY). ISIC kartochkalariga ega bo`lgan yoshlarga salbiy vaziyatlarda tibbiy, moliyaviy va boshqa yordamlar beriladi.

ISICConnect.

ISICConnect - bu ISIC kartochkasi yordamida aloqa xizmatidan foydalanish huquqini beruvchi kartochka. Bu kartochka orqali telefon, telefaks, elektron pochta orqali bepul yoki arzon baholarda foydalanish mumkin.

Yoshlar uchun avtobus xizmati

Evropaga sayohat qiluvchilar uchun eng qulay transport vositalari avtobus yo`nalishlaridir. Ulardan biri EVROLAYNS yo`nalishi bo`lib, Evropaning 30 ta katta shaharlarini bog`lab turadi va har bir shahardan deyarli har kuni, katta shaharlarda kuniga 5 martagacha avtobus yo`nalishlari qatnaydi. Turist avtobus yo`nalishlarini o`zi tanlaydi, masalan, 2 soatdan keyin siz Amsterdamda bo`lishingiz kerak, agar havo buzilishi ko`rilsa, siz quyoshli Ispaniyaga sayohat qilishingiz mumkin. EVROLAYNS chiptalarini 309 kunga yoki 60 kunga olish mumkin bo`lib, uning narxini chiptaning amal qilish muddati belgilab beradi. Sayohat qilish uchun joylarni bir sutka davomida EVROLAYNS idoralarida band qilish mumkin. Turizm eng avjiga chiqqan paytda joylarni ertaroq band qilish lozim. Joyni band kilgach, sizga maxsus kupon beriladi. Bu kupon siz avtobusga chiqayotgan paytingizda ko`rsatiladi. Birinchi avtobus yo`nalishini siz chipta sotib olayotgan paytingizda band qilishingiz mumkin.

Sayohat qilayotgan paytda chiptalarni va pullarni xavfsiz joylarga qo`yish taqazo etiladi. Yo`qolgan EVROLAYNS chiptalari va pullari to`lanmaydi. Sotilgan EVROLAYNS chiptalari qaytib olinmaydi.

Contici sistemasi bo`yicha Evropa bo`ylab asosiy sayohatlar

Kontiki - bu dunyo bo`ylab avtobusda sayohat qilish tizimi bo`lib, unda 18 yoshdan 35 yoshgacha bo`lgan shaxslar sayohat qilishlari mumkin. Turistlar hamma sharoitlarga ega bo`lgan maxsus avtobuslarda sayohat qilishadi va ularga malakali menejerlar yollanadi. Turistlar o`z sayohatlarini 50 kungacha davom ettirishlari mumkin. Boshqa tomondan qaraganda Kontiki tizimi bir necha kunlik turlarni taklif etadi. Bu studentlarni imtixonidan keyin sayohat qilish imkoniyatini yaratib beradi.

Kontiki va Evrolayns avtobus yo`nalishlarini band qilish to`lovlarini to`lash "Simbad travel" turizm agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Dunyoning istalgan burchagiga student chegirmalariga ega bo`lgan aviachiptalar

Dunyo bo`ylab sayohat qilish samolyotlarda boshqa transport vositalariga qaraganda ancha qulaydir. Samolyot uchish tezligi, qulayligi, ichki xizmatlari studentlar uchun qimmatga tushishi mumkin. Shu sababli, yoshlar va studentlar uyushmasi bu muammoni echishning chegirma yo`lidan foydalanishni joriy etmoqda. Sharq aviakompaniyalari studentlar va yoshlarning ichki va tashqi aviareyslari uchun har - xil turdagi imtiyozlarni yaratib bergan. Bulardan tashqari, aviareyslarda joylarni band qilish va pochta orqali aviachiptalar sotib olish xizmatlari yaratib berilgan. Studentlar chegirmasiga ega bo`lgan aviachiptalar ISIC yoki GO 25 kartochkalari orqali sotiladi.

Ijtimoiy turizm yana nogironlarga va qariyalarga, nafaqaxo`r va shu kabi toifalardagi ijtimoiy engillik va imtiyozlarga ega bo`lganlarga ham mo`ljallangan.

Tuzilishi jihatidan notijorat yoki tijorat yo`nalishli turizm ham mavjud: notijorat turizm - o`z ma'nosiga ko`ra dam olish, ko`ngilxushlik va xushchaqchaqlik uchun uyushtiriladi; tijorat va ishbilarmonlik turizmi - maqsadi kichik hajmdagi buyumlarni ulgurji sotib olishdan iborat. Tadbirkorlik maqsadidagi turizm - sayohatning keng tarqalgan turi bo`lib, biznes xizmat ko`rsatish bilan turistik firmalarga anchagina foyda keltiradi. Ularning ko`pchiligi odatda rasmiy idoralar vakillaridir. Ishchi safarlari bilan boshqa hudud yoki davlatlarga boruvchilar, tadbirkorlar - notijorat tashkilotlari vakillari bo`lib, ular business travellers toifasiga kiradi. Turizmning bu turi jahonda keng tarqalgan, ular turizm statistikasida qatnashadilar, chunki uning ishtirokchilari o`z davlatidan mablag` oladilar va uni turizm markazlariga olib kelishadi. Tadbirkorlik turizmida turistlar turistik xizmatlarning katta qismidan foydalanishadi. Eng qimmatli mehmonxonalarda turishadi, boy madaniy dasturlardan foydalanishadi, suvenir va sovg`alarni faol sotib olishadi. Bu xildagi turizm bahosi yuqoriligi, unda foydalaniladigan tovar va xizmatlar qimmatligidan kelib chiqadi. Ba'zi davlatlar bunday turizm uchun maxsus vizalar berishadi. (Estoniya, Finlyandiya va h. k.).

Kongress turizm - maxsus turizm bo`lib, unda s'ezd va seminarlar o`tkazish tashkil etiladi. U ham ishbilarmonlik turizmiga kiradi. Bu turdagi sayyohlik dunyoda mashhur bo`lib juda qulaydir. Odatda, bunda konferentsiya ishtirokchilari harajatlarini uni yuborgan tashkilot yoki firma to`laydi. Shuning uchun AQSh, Shveytsariya va Finlyandiyada bu turdagi sayohat davlat turizm dasturi asosini tashkil etadi. Katta mehmonxonalarda barcha zarur narsalar bilan ta'minlangan katta va kichik kongress - xollar, majlis zallari, biznes markazlar, banket zallar, transport xizmati va shu kabi konferentsiya va s'ezd o`tkazish uchun kerakli xizmat turlari va binolar quriladi.

Dunyoga mashhur kongress markazlari anchagina tig`iz ish tartibiga ega va har kuni 2 - 3 ta katta yig`ilishlar uyushtiriladi, shu bilan ular aholi bandligi va yuqori daromad olishni ta'minlaydi.

Kongress tashkil etishda uchrashuvdan oldin va keyin ishtirokchilarga katta miqdorda qo`shimcha xizmat turlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi (ko`rgazmalar, banketlar, kontsert va h. k.). Shuni e'tiborga olish kerakki, 55 % dan yuqori kongress va s'ezdlar ishtirokchilar soni ko`pi bilan 200 - 500 gacha bo`ladi va faqat 15 - 20 % i 100 kishilik ishtirokchiga mo`ljallanadi. Juda katta konferentsiyalar (1000 kishidan ko`p) ancha kam o`tkaziladi va umumiy sonining 10% ini tashkil etadi. Qo`shimcha qulayliklardan yana biri shundaki, kongresslar odatda turizm mavsumi orasida bo`lib, mehmonxona va restoranlardan unumli foydalanish imkonini beradi.

Konferentsiyalar anchagina oldin, uchrashuvdan 2 - 3 yil oldin rejalashtiriladi. Ba'zi s'ezdlar va uchrashuvlar doimiy o`tkazilib kelinadi. Kongress turizmida uning tashkilotchilaridan maxsus mahorat talab qilinadi. Chunki, juda ko`p tashkiliy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun bu turdagi turizm bilan maxsus firmalar shug`ullanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada 100 dan ortiq shu kabi firmalar bor. Ular ishtirokchilarga xizmat qiluvchi va o`zlari alohida uchrashuvlar uyushtiruvchi firmalardir (masalan, marketing, reklama, taklif, doklad va kuzatuvchilarni tanlash va h. k.).

Shopping turizm - harid maqsadidagi turizmdir. Unda savdo do`konlaridan, supermarket, minimarketlardan harid maqsadida tovarlar sotib olinadi.

Xulosa

Ushbu mavzuda turizm turlari va uning turli ko`rinishlari bayon qilinib, unda turizm shartli ravishda ikki turga bo`lib o`rganildi: aktiv (faol) turizm va passiv (nafaol) turizm. Aktiv turizmدا turistlardan katta jismoniy kuch talab etilishi, bunday turizm bilan asosiy turistlar qatlami shug`ullanishi, alpinizm hamda tog`ga chiqish kabi ko`p jismoniy kuch va zo`riqish bo`ladigan sayohatlar bunga misol bo`lishi ta'kidlab o`tilgan.

Passiv turizmda esa buning aksi bo`lib, bunday turizm bilan qariyalar, pensionerlar, nogironlar shug`ullanishi, bunga sog`lomlashtirish turizmi misol bo`la oladi.

Shuningdek, turizmning boshqa xillari - ko`rinishlari sifatida: sarguzashtli, temir yo`l, avtoyo`l, suv yo`li, havo yo`li turizmlariga ham alohida e'tibor berilgan, hamda dam olish, rohatlanish va ko`ngil ocharlik, sog`lomlashtirish, o`rganuvchi, qishloq, tatil kunlaridagi dam olish, go`zal tog`larga sayohat, safari tur, ekoturizm, harbiy, etnik, qarindoshlarni va do`stlarni ko`rish, tarixiy, diniy - ziyorat, marosim, falokat joylariga borish, xazina izlash, ishqiy, sport turizmlari kabi sayohatlarni batafsil yoritib berilgan.

Mavzuni o`rganish jarayonida maxsus va ijtimoiy turizmning o`ziga xos xususiyatlari haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Tayanch iboralar

- Turizm turlari
- Aktiv (faol) turizm
- Passiv (nafaol) turizm
- Turizmning turli ko`rinishlari

Nazorat va muloxaza savollari

1. Turizm turlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Aktiv turizm deganda nimani tushunasiz?
3. Passiv turizm deganda nimani tushunasiz?
4. Maxsus turizmni tashkil etish yo`llari qanday?
5. Ijtimoiy turizmning o`ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Dam olish, rohatlanish va ko`ngil ochish turizmi haqidagi fikringizni ifodalab bering?
7. Sog`lomlashtirish turizmi haqida qanday fikrga egasiz?
8. Ekoturizmni respublikamizning qaysi hududlarida tashkil etish mumkin?
9. O`zbekistondagi diniy - ziyorat turizmi ob'ektlaridan qaysilarini bilasiz?
10. Tarixiy turizmga ixtisoslashgan mamlakatlardan qaysilarini bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 - yil 27 - iyuldagi "O`zbekturizm" MKni tashkil etish to`g`risida"gi Farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo`li"ni qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora -tadbirlar to`g`risida"gi Farmoni.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to`g`risida"gi Farmoni.
4. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustdagi "Turizm to`g`risida"gi Qonuni.
5. "Основы туристской деятельности" (Учеб. пособие). Составитель Ильина Е.Н. -М.: Советский спорт, 2000 .
6. Биржаков М.Б. "Введение в туризм". Санкт - Петербург, 2000 .

7. Бгатов А.П. Туристские формальности. Учебное пособие. 2004.
8. Маринин М.М. Туристские формальности и безопасность в туризме. 2004.

6 - bob. Turist tushunchasining mohiyati

- 6. 1. Turist tushunchasining ta'rifi
- 6. 2. Turistning maqsadlari
- 6. 3. Turistning huquqi va majburiyatlari
- 6. 4. Turistning irqi, millati, jinsi, yoshi, tili, dini

6. 1. Turist tushunchasining ta'rifi

O`zbekiston Respublikasining 1999 - yil 20 - avgustda qabul qilingan "Turizm to`g`risida"gi qonunida turist tushunchasining ta'rifi berilib, unda: "turist - O`zbekiston Respublikasi hududi bo`ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo`nab ketgan) jismoniy shaxsdir", - deyiladi.

Turist - turistik mahsulot, tovar, turistik xizmat, ishning - (butun turning) iste'molchisidir. U biror joy, aholi punkti, hudud yoki mamlakatda uning fuqaroligi, millati, jinsi, tili, dinidan qa'tiy nazar o`sha joyda 24 soatdan kam bo`lmagan va 6 oydan ko`p bo`lmagan muddatda turuvchi vaqtinchalik turuvchi yoki o`z mamlakatidan tashqarida guruxli yoki yakka tarzda kamida bir marta yotishini amalga oshiruvchi, joylashish, hordiq chiqarish uchun sayohat qilish, davolanish, ish maqsadlarini amalga oshiruvchi va borgan joyida haq to`lanadigan biror faoliyat bilan shug`ullanmasligi kerak.

Avvalo, turist turistik mahsulotning iste'molchisi sifatida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda bo`lgani kabi, jumladan, O`zbekiston respublikasida mavjud bo`lgan "Iste'molchilar huquqini himoya qilish haqida"gi qonuni himoyasi ostida bo`ladilar. Turizm iste'molchisi talab qilishga haqlidir. Turist bo`lmasa - turizm ham bo`lmaydi. Ko`plab va turli jamoat tashkilotlari iste'molchilar huquqlari himoyasi masalasi bilan shug`ullanishadi. Iste'molchi dam olish sharoitlariga deyarli talabdan kelib chiqib munosabatda bo`ladi va to`langan xizmat bajarilmaganida yoki

bu xizmat sifatining va'da berilgani bilan mos tuzilmasa shikoyat qilish huquqiga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki eng norozi sayyohlar - bu nemis turistlari hisoblanadi. Germaniyada har yili turistik firmalarga kompensatsiyani talab qilib 500 dan ziyod shikoyatlar tushadi. Mamlakatda shu kabi masalalarni hal etish bilan shug'ullanuvchi maxsus vositachilar mavjuddir.

Turli mamlakat turistlarining xarakterlari va turistik mahsulotni iste'mol qilishdan maqsadlari ko'p darajada umumiy bo'lishiga qaramasdan, muhim farqlarga ham ega. Bunday farqlarning mohiyati ular uchun hayot tarzi va dam olishning odati, turistik resurslar bilan tanishligi va axborotning chuqurligi, tarixni bilishi, reallikni ob'ektiv qabul qilish qobiliyati va ushbu turistik markazda mavjud bo'lgan turistik resurslar va imkoniyatlardan foydalanishga bog'liq.

Turistlarni, ayniqsa xorij turistlarini qabul qilishda turistik resurslardan samarali foydalanish uchun ularning hayot tarzini, milliy xarakteri xususiyatlarini, tayyorgarlik darajasi va turistik qiziqish ob'ektini qabul qilish imkoniyatini batafsil o'rganish zarur.

Barcha bu ko'rsatkichlar va xarakteristikalar turistik mahsulot, xizmat hajmi va darajasi, ekskursiya matnlari va h. k. ni loyihalashda hisobga olinadi.

Hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan tadqiqot shakli - turistik markazlar va hududlarga turistlarning kelishi va ketishini rasmiy statistika to'plami bo'lib, unda turistik oqimlarni, harakat qilish usullarini, turistlar ehtiyojlari va ularning to'lovga qobilligini, xususan, turistik resurslarni qabul qilish, turistik faoliyatni boshqa tahlillari, asosan ushbu hudud uchun turizm daromadliligi bo'yicha maxsus tadqiqotlar o'tkaziladi.

Turist - moddiy va ma'naviy turistik mahsulotlarning iste'molchisidir. Moddiy turistik mahsulotlar deyilganda - turistlarni joylashtirish, tashish, ovqatlantirish, maishiy xizmatlar ko'rsatish shahobchalari, tarixiy va madaniy yodgorliklar va ularda ko'rsatiladigan barcha moddiy xizmatlar majmuyi tushuniladi. Ma'naviy turistik mahsulotlar deyilganda esa - (masalan, tarixiy turizm bo'yicha) turistlarni tarixiy va

madaniy yodgorliklar bilan tanishtirish maqsadida gid - ekskursovodlar tomonidan ularga berilgan tarixiy ma'lumotlar va axborotlar, (madaniy turizm bo'yicha) turistlarga festivallar, karnavallar, tomoshalar, kontsertlar, teatrlar, dorbozlar, sirklarda berilgan madaniy ozuqalar, ruhiy kechinmalar tushuniladi. Demak, turistlar mana shunday turistik mahsulotlarning iste'molchisidir.

Moddiy turistik mahsulotlardagi joylashtirish tizimining o'zida turistlar bevosita bir qator turistik xizmatlarning iste'molchisidirlar. Olib yurish va ovqatlantirish tizimida ham turistlarga iste'mol uchun qator xizmatlar majmuyi ko'rsatiladi.

Mazkur moddiy va ma'naviy turistik mahsulotlardan turistlar qoniqish hosil qilmasa, ushbu turistik iste'mollar yaroqsiz va qisman yaroqsiz hisoblanadi, hamda, o'z navbatida turistlar qonun talablari bilan haq - huquqlarini qondirish yuzasidan turagentlarga murojaat qilishlari mumkin. Shartnomada turistlar tomonidan ko'rsatilgan barcha shartlar to'liq bajarilishi lozim. Chunki, turistlar mazkur turmahsulotlar uchun oldindan o'z mablag'laridan pul to'lab qo'yishgan. Demak, ular magazinlardan mahsulot sotib olgan kishilar kabi iste'molchidirlar. Talab qondirilmasa, oxirgi yo'l - suddir. Bu haqda mavzuimizning keyingi (turistning huquq va erkinliklari) qismida ham to'xtalib o'tamiz.

Turist - vaqtinchalik tunovchi musofirdir. Yuqorida ko'rsatilganlardan va turizm tushunchasidan ko'rinadiki - turist hudud yoki mamlakatning vaqtinchalik kelib - ketuvchisi hisoblanadi. U bu hududga yoki mamlakatga vaktinchalik keladi, bu joy uning odatdagi yashash joyidan farq qiladi. U turizm maqsadida ma'lum muddatga keladi va bu muddat 6 oydan oshib ketmasligi lozim. Hudud yoki mamlakatga bir ishda 6 oydan ko'p muddatga keluvchi shaxs turist hisoblanmaydi va turizm statistikasida hisobga olinmaydi.

Vaqt omili bo'yicha turistik sayohatlarni quyidagilarga ajratish lozim:

1 - 3 kunlik sayohatlar. Bular dam olish kunlari tashkil etiladi. Bunday sayohatlar minimal transport harajatlarida, madaniy va turistik markazlarda

o'tkaziladi. Klub sayohatlari muhim o'rinni egallaydi, masalan, turli maydonlardagi gollf o'yinlarga yoki boshqa ko'rinishdagi dam olish va hordiq chiqarish mashg'ulotlariga;

4 - 7 kunlik sayohatlar dunyo turizm statistikasida eng ko'p tarqalgani hisoblanadi;

8 - 12 kunlik sayohatlar, ma'lum daraja turistlari uchun bu foydali va harajatlarning pasayishi bilan kuzatiladi. Ma'lum turistik hududlarga 2 haftaga bir marta borish 7 kunga 2 marta borgandan arzonroqdir;

Uzoq muddatli sayohatlar: 2 haftadan ko'p muddatga. Bular shunchalar ozki, hatto ba'zi mehmonxonalar 2 haftalik dam olishni sotib olgan turistga 3 haftani bekorga berishgan. Bunday sayohatlar maxsus turizm ko'rinishlarga xos.

Har bir turistik hududga yoki markazga turli muddatdagi turlar xosdir. Turizmning yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlari rivojlangan transport infratuzilmasiga va aloqa yo'llariga ega chegaraviy mamlakatlarga xosdir. Turist oqimlari bir vaqtda temir yo'l, suv, havo va avtomobil transporti bilan borishadi, qisqa muddatli sayohatda turist har kuni ko'p kunlikka nisbatan ko'p sarf qiladi.

Evropada qisqa muddatli sayohat bo'yicha turistik oqim oboroti Frantsiyaga 18% gacha, Avstraliyaga 12 % gacha, Germaniyaga 8 % gachadir. Agar Rossiyadan Arab Amirliklariga yoki Misrga turizmni ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda asosiy sayohat qismi 6 - 7 kunlik sayohat bo'lib chiqadi.

Albatta, turist vaqtinchalik tashrif joyida 24 soatdan ko'p bo'ladi. Inson fiziologiyasidan uni dam olishi va tunashi uchun vaqt kerak, shuning uchun u tunash joyi sotib olishi lozim. Tur - bu kamida 2 ta yoki 3 ta turistik xizmatlar paketidir. Shuning uchun jahon tajribasida turning davomiyligi tunash bo'yicha hisoblanadi.

6. 2. Turistning maqsadlari

Kishilarning uzoq vaqt pul yig'ib, keyin qisqa vaqtga uyidan sarguzasht izlab ketishi va iqtisod qilib yiqqan pullarini oz kunlar ichida ko'ngilochar tadbirlarga va

dam olishga sarflashi uchun unga qandaydir kuchli undovchi sabab kerak. Turizmning xorijiy turistlarni o`ziga jalb qiluvchi sabablarini ko`rib chiqamiz. Ekspertlar eng asosiy sabablar qatoriga quyidagilarni kiritadilar:

a) yangi madaniyat va turmush tarzi, yangicha taom turlari va an'analari bilan tanishish va ularni o`rganish;

b) ko`ngilxushliklar, tungi hayot bilan tanishish, sifatli restoran, dansinglar va boshqa ko`ngilochar muassasalarga borish imkoniyati;

v) ozroq vaqt boshqacha hayot kechirish, o`yin - kulgiga berilish, uzoq vaqt tejamkorlik bilan to`plangan pullarni erkin sarflash imkoniyati, oz bo`lsada, o`zini boshqacharoq, yuksakroq inson sifatida his etish istagi, umumiy vaziyatni o`zgartirish, zo`riqishdan halos bo`lish, dam olish;

g) teatrlar, tomoshalar, festivallar, karnavallarga borish, yangi tanishlar orttirish, qiziqarli kishilar bilan muloqotda bo`lish, mazkur mamlakatda ish yuritish uchun imkoniyatlarni o`rganish, shopping maqsadlar;

d) esdalik sovg`alarini harid qilish;

e) dengiz bo`yida dam olish, sport;

j) qishki sport va dam;

z) davolanish, sog`lomlashtirish maqsadlari;

i) diniy maqsadlar, ziyorat;

k) yaqinlar va do`stlar bilan uchrashuv.

Turli mamlakat turistlari uchun mazkur sabablar turlicha nisbiy ko`rsatkichga ega. Taajjubki, turistlar odatda bitta agentlikning xizmatlaridan foydalanadilar. Agar birinchi gal ular to`langan mablag`ga yarasha sayohatdan, ko`rsatilgan xizmatlardan qoniqish hosil qilgan bo`lsa, keyin ham ular aynan shu agentlik yoki turizm kompaniyasiga murojaat etadilar, albatta, agar kompaniya turistik safar yo`nalishida ularning xohish - istaklarini to`liq qondira olsa. Aynan shu sababga ko`ra, yirik kompaniyalar har yili yangi yo`nalishlarni ishlab chiqmoqdalar. Bu etarli darajada mijozlarning doimiyligi va agentlikning ularga birorta yangiliq

taklif qilishi, mijozlarni yo`qotmaslik istagi bilan izohlanadi. Masalan, nemis marketologlari turizm mahsulotiga bo`lgan talabni o`rganib, muhim xulosalarga ham keldilar. Ya'ni, nemis turistlari o`zlarining doimiy agentligiga murojaat etganda, ular ayniqsa quyidagilarga e'tibor berar ekanlar:

a) qaerga sayohat qilish afzal va dam olishni qanday tashkil etish ma'qul, - degan savolga jo`nli maslahat bera oladigan malakali ekspertlarning mavjudligi - 68%;

b) agentlikning manzili - 51%;

v) firma ofisidagi yoqimli muhit -51%;

g) sifatli xizmat ko`rsatish - 46%;

d) maqbul narhlar - 42%;

e) taklif etilayotgan xizmatlar va turlarning ko`pligi - 42%

Ammo, har qanday turist ham turizm firmasining ishonchliligini birinchi o`ringa qo`yadi. Turistlar beradigan an'anaviy savol: "Turizm firmasi ishonchlimi, aldanmaslik uchun qaerga murojaat etish kerak?". Bu masala hammani tashvishga soladi. Dam olishga mablag` yig`ishning mashaqqati juda yuqori, shu sababli tabiiyki, odamlar sifatsiz xizmat ko`rsatilishidan, turizmdan kutilgan ta'surot olmasligidan doimo havotirda bo`ladilar.

Turizm sohasidagi chigallashib ketgan munosabatlarning asosiy sub'ekti bo`lmish turist uchun ham, foyda olishni ko`zlaydigan tashkilotchilar uchun ham asosiy maqsad - turistning miriqib dam olishi, shuningdek, bilimlarini orttirishidir.

Statistika idoralari bu maqsadlarni alohida bo`limga ajratib, unga quyidagilarni kiritadilar: bo`sh vaqt, rekreatsiya, dam olish - diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, sport va madaniy tamosha tadbirlariga borish va ularda ishtirok etish, sport bilan shug`ullanish, piyoda va alpinistik safarga chiqish, sohilda dam olish, do`konlarga borish va tovar harid qilish, qimor o`yinlari, harbiylar uchun dam olish va rekreatsiya, maktab o`quvchilari va yoshlar uchun yozgi oromgohlar, asal oylari va boshqalar.

Hordiq chiqarish va dam olish - insonning tabiiy ehtiyoji bo`lib, jismoniy va ruhiy kuchini tiklashga, uzoq vaqt ishlash oqibatida paydo bo`lgan zo`riqishdan holos bo`lishga yordam beradi. Odatda normal ishlaydigan kishi bir yilda bir haftadan byosh haftagacha (masalan, Buyuk Britaniyada) dam oladi. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Xitoyda ta'tilning ijtimoiy - huquqiy instituti ham, aksariyat mahalliy xalq uchun turizmning o`zi ham yo`q. Ma'lum toifa kishilar, masalan, fermerlik bilan shug`ullanuvchilar uchun dam olish maqsadlarida haq to`lanadigan rejali yillik ta'til belgilanmagan. Chunki, boshqa sabablarni bir chetga qo`ysak, sigir fermerga ta'tilga chiqish imkonini bermaydi, chunki uni har kuni sog`ish kerak. Turizmning har bir ishtirokchisi, ya'ni turist o`zi uchun jismoniy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan va imkoniyatlari doirasida eng qulay va maqbul bo`lgan dam olish turini tanlaydi.

Sog`lomlashtirish va davolanish maqsadlari ahamiyati bo`yicha ikkinchi o`rinda turadi: kurort, pansionat, sanatoriy, davolash - sog`lomlashtirish muassasalarida dam olish, salomatlikka foyda bo`ladigan sayohatga chiqish, davolovchi suvlardan foydalanish, davolashning boshqa turlari. Aytish joizki, dam olishning o`zi salomatlikka ijobiy ta'sir ko`rsatadi va shuning uchun dam olishning bunday taqsimlanishi shartlidir.

Keyingi o`rinda kasbiy - xizmat maqsadlari turadi: xizmat safaridagi mutaxassislar, masalan, uskunalarni yig`ish va o`rnatish uchun yuborilgan xizmatchilar, yig`ilish, majlis, anjuman, kongress va qurultoylarda, savdo yarmarkalari va ko`rgazmalarida ishtirok etuvchilar, korxona xodimlari uchun rag`batlantiruvchi safarlar (insentiv turizm), ma'ruza va kontsertlarda qatnashuvchilar, turizm safarlari dasturlarini tayyorlash (reklama turlari), joylashtirish va transport xizmatlarini ko`rsatish bo`yicha shartnomalar tuzish, gid vazifasida va turizm sohasidagi boshqa kasblarda ishlash, professional sport tadbirlarida ishtirok etish, pullik ta'lim, o`quv va tadqiqot faoliyati, qarindosh va do`stlarnikiga mehmonga borish, vatanini ziyorat qilish, dafn marosimlarida qatnashish, nogironlarni parvarishlash, diniy maqsaddagi ziyorat safari va diniy marosimlarda ishtirok etish.

Boshqa maqsadlar: yo'lovchi, havo va suv kemalari ekipaji faoliyati, tranzit safarlar va boshqalar. Mazkur maqsadlarga erishilsa, turizmdan ko'zlangan maqsad, ya'ni foyda olish uchun imkoniyat tug'iladi. Turizm xizmatlarini tashkil etish va ko'rsatish borasida bajarilgan mashaqqatli mehnat o'zini oqlaydi.

Turli mamlakatlar turizmning qaysi turi ko'proq rivojlanganiga qarab u yoki bu toifaga kiritiladi, ular statistikada ko'rsatiladi yoki ko'rsatilmaydi. Masalan, Sankt - Peterburgda yirik port shahri sifatida dengiz safari turizmi muhim o'rin tutadi (dengiz turistlarining soni mavsum va mintaqadagi vaziyatga qarab 150 - 250 ming atrofida). Xalqaro turizmning barcha qonunlariga ko'ra dengiz turistlari ekskursantlar toifasiga kiritilsada, ular turist sifatida hisobga olinadi va statistik hisobotda alohida bo'limga ajratiladi. Bir kunda 21 % rossiyalik turistlar Finlyandiyaga tovar harid qilgani chegara yaqinidagi savdo markazlariga tashrif buyuradilar. Vaqt ko'rsatkichlari bo'yicha ular mamlakatga bir necha soatga haridor sifatida kirib kelgan ekskursantlardir. Ammo, ularning mazkur mintaqqa iqtisodiyotiga qo'shgan iqtisodiy hissasi shunday kattaki, bu mintaqqa ma'muriyati ularni bajonidil turistlar toifasiga kiritadi. Bu har tomonlama qulaydir, uning mintaqqa iqtisodiyotidagi salmoqli ulushi mamlakatdagi turizmning samaradorligi ko'rsatkichini ham orttiradi, turizm sohasini davlat darajasiga ko'taradi.

6. 3. Turistning huquqi va majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasining 1999 - yil 20 - avgustda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi Qonunining 14 -moddasi "Turistning huquqlari", - deb nomlanib, u quyidagi tarzda bayon qilinadi: turist - shartnomada nazarda tutilgan turistik xizmatlar majmuidan to'la foydalanish, sayohatga ta'luqli to'liq va ishonchli axborot olish, shaxsiy xavfsizlik, o'z huquqlarining himoya qilinishi, shuningdek, o'z mol - mulkining asralishi, shoshilinch tibbiy yordam olish, shartnoma bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda moddiy zararning to'lanishi, shuningdek, manaviy ziyonning o'rni qoplanishi, agar turning umumiy qiymati oshishi uning

shartlashilgan qiymatidan ortib ketsa, shuningdek, fors - major holatlari ro'y bergan taqdirda turistik faoliyat sub'ektiga etkazilgan zararning o'rnini qoplamasdan shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

15 - modda "Turistning majburiyatlari", - deb nomlanib, u quyidagi tarzda bayon qilinadi: turist - shartnoma shartlariga, bojxona va chegara nazrati qoidalariga, borilgan mamlakatning qonun hujjatlari talablariga rioya etishi shart.

Harakat erkinligi - turizmni aniqlovchi muhim omildir, u sayohatlarda qatnashishi uchun turizmning garmonik rivojlanishi va individual yuksalishi uchun muhimdir.

Hukumat milliy qonunchilikda turistik chegara va bojxona muammolarini engillashtirishi muhim ahamiyatga ega. Viza olishdagi qiyinchiliklar, chegaradan o'tish qiyinchiliklari murakkab bojxona va boshqa jarayonlar turizm rivojiga to'sqinlik qiladi. Boshqa tarafdin turistlarni jalb etishni xohlovchi mamlakatda soddalashtirilgan chegaraviy rejim qo'llaniladi, masalan, viza rossiyaliklar uchun Misr, Turkiya, Kipr, Arab Amirliklari kabi qator boshqa mamlakatlarga vizasiz rejim yoki tashrif aeroporti joyida viza to'g'rilash rejimi o'rnatilgan. AQSh 26 mamlakat fuqarolaridan viza to'g'rilashni talab qilmaydi. Hozirda rus turistlari jalb etuvchi kontingent hisoblanadi, chunki ular boshqa mamlakatlarga nisbatan 3 barobar ko'p harajat qiladilar. Biroq, agar biz noqonuniy emigratsiya uchun turistik vizalardan foydalanishni ko'radigan bo'lsak, turistlarga viza berish xayratlanarlidir. 1998 - yil sentyabrda turizm kanallari bo'yicha noqonuniy emigratsiya uchun Shveytsariya Rossiya turistlarga viza berish tartibini murakkablashtirdi.

Turistik prospektlarni kuzatib ko'ramizki sxemalarda qizil belgi bilan ko'rsatilgan hududlar harbiy ob'ektlar hisoblanadi, turistlarga ziyorat ta'qiqlanadi. Boshqa mamlakatlardagi kabi O'zbekistonda ham turistlarga sayohat ta'qiqlangan hududlarni aniqlovchi me'yoriy hujjatlar mavjud. Agar kerak bo'lsa, turistik firma vakillari mutasaddi tashkilotlardan maslahat, qonun - qoidalarni olishi kerak.

6. 4. Turistning irqi, millati, jinsi, tili, yoshi va dini

Turizm ishida xalqaro va milliy huquq me'yorlari bo'yicha hamda kishilar erkinligi va turistik xizmat qabul qilish bo'yicha turist irqi, millati, jinsi, yoshi, tili va dini bo'yicha chegaralarga va to'siqlarga uchramasligi kerak. Barcha me'yorlar bo'yicha - turizm umuinsoniy hodisadir va hech kim turizmni amalga oshirishda chegaralanmasligi kerak. Bu muhim tamoyil 1954 - yilda BMTning turizm bo'yicha konferentsiyasida mustahkamlanib qo'yilgan. Shu tarzda, xalqaro me'yorlar bo'yicha turist uchun umuman uning millati yoki irqi muhim emas. Muhimi - u foydalangan turistik resurslarda qonuniy pul to'lashi va mahalliy qonunlarni buzmasligi va o'z vaqtida chiqib ketishi kerak.

Turistik millat

Sivilizatsiyalashgan munosabatlarda va mehmondo'stlikda 1 - tamoyil bu: turizm maqsadlarida - turist xalqarodir.

Turist turizm maqsadlarida yuridik kategoriya kabidir, u irq, millatga ega emas va turist sifatidagi istalgan odam, fuqarolik bo'yicha qatnashadi, ya'ni O'zbekistondan chiqib ketgan turistik guruhga ta'luqli. Masalan, rus, boshqir, tatar yoki yahudiy Ispaniyada o'zbek turistlari hisoblanadi. Agar inson biror mamlakatga chiqib ketib, u erda 12 oydan kam muddat turib va yaqin 12 oy ichida unga qaytmokchi bo'lsa u ham shu mamlakat istiqomatchilari tarkibiga kiritiladi. Ammo, xalqaro turizm an'alariga ko'ra hech qachon joylashtirishda bir guruh turist ichiga boshqa guruhni qo'yilmaydi, boshqa millatli turist haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Bir necha holatlar uchun xizmat ko'rsatish tashkiloti turistning odatiy huquqini, odatini, gigiena udumlarini, ovqatlanishini bilish uchun uning millatini bilishi kerak. Masalan, iliq o'lkalar aholisi konditsionerlarga o'rganib qolishgan, evropalikni dushsiz, issiq suvsiz nomerlarga qo'yish qiyin. Braziliyalik mehmonxonaga kelgandan keyin zudlik bilan uyiga - Braziliyaga telefon qilishi va onasiga yoki qarindoshiga hammasi qandayligini aytishi kerak. Ovqatlantirishni tashkil etishda Osiyo mamlakatlari aholisi uchun muommolar mavjud, masalan yaponiya va xitoylik.

Biroq shunga qaramay, turistik formalliklarni amalga oshirish hujjatlarida, masalan, mehmonxonalarda joylashishda, chegaradan o'tishda va boshqalarda, pasport egasi pasportida ko'rsatilgan millati talab qilinadi. Ba'zi mamlakatlar irqi bo'yicha vaqtinchalik mamlakatga tashrifni chegaralashadi. Masalan, shunday misollar borki, Arab Amirliklari evreylarga va shu kabi pasportida Isroilga borganligini tasdiklovchi belgilar bo'lsa, kirishga ruxsat etishmaydi.

Pokiston, Eron, Iroq va Turkiya mamlakatlari fuqarolari uchun Shvetsariya viza olish deyarli mumkin emas. Chunki, bu mamlakatlar turistlari ko'pincha qaytib ketishmaydi va qochoq sifatida qaytib kelishmaydi. Turistik va boshqa vizalar bo'yicha AQSh eng shavqatsiz siyosatni olib bormoqda, bu Rossiya fuqarolariga ham ta'luqlidir. Biroq, bu to'g'ridir, chunki kelgan turistlar emigratsiya qonunchiligini va rejimini buzishadi. Xususan, emigratsiya yoki ish topish maqsadlaridadir.

Turist jinsi

Turizmda ayol va erkaklar tengdir. Ammo amaliyotda bunday emas. Bir qator mamlakatlar yolg'iz ayollarni emigratsiya me'yorlari bo'yicha yoki juda shafqatsiz nazorat qiladi, shu tartib turistlarga ham tarqalgan.

Jinsiy belgilar turistni joylashtirishda asosiy o'rin tutadi. Umum qabul qilingan me'yorlar bo'yicha turistlarni jinsi bo'yicha joylashtirishadi, er - xotin va oilalarning xohishi ham bunda inobatga olinadi. Xuddi shu tamoyil xalqaro temir yo'l tashishlarda qo'llaniladi. Ayol va erkak kup'elari tashkil etiladi, bola 12 yoshdan jinsda farqi borligi hisobga olinadi.

Agar turistik sayohat ko'p jismoniy faoliyat talab qilsa, dasturni qatnashuvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqib tuzish kerak.

Alohida hollarda yuqori jismoniy harakatlarni talab qiluvchi turistik sayohatlarni amalga oshirish uchun doktorlarning ko'rigi kerak bo'ladi. Bu xususan, tur yoki transportda yurishlarda qatnashish to'g'ridan - to'g'ri ta'qiqlangan yoki tavsiya etilmagan homilador ayollarga ta'luqlidir. Albatta, keksa kishilar uchun

chegaralovlar mavjud, masalan, sug`urta kompaniyalarining ko`p qismi 70 yoshdan oshgan qariyalarni sug`urta qilishmaydi.

Turistik ziyorat ob'ekti sifatida turistlar ziyorati uchun ochiq bo`lgan erkaklar ibodatxonalari ayol bo`lgan turistlar uchun yoki cheklangan yoki umuman ta'qiqlangan, shunga o`xshash erkak turistlar uchun ayollar cherkoviga ziyorat qilishda cheklovlar mavjud. Kiyimlar kiyish talabi, turistlarning o`zining tutishi, ovqatlanishi, diniy - madaniy marosimlarni amalga oshirishda diniy cheklovlar nazarda tutiladi. Masalan, Eronni ziyorat etishga borgan Evropa ayollarini xulqi va kiyimlariga talablar shunchalar kattaki, turistlar o`zlarini turizmni amalga oshirmayotgandek his etishadi. Turistlarning xulqi xudoga ishonuvchilarining his - tuyg`ulari va diniy marosimlarini kamsitmasligi kerak. Bu asosan, ayollarga nisbatan cheklovlar qattiq hisoblangan islom mamlakatlari va madaniy ob'ektlari ziyoratida muhimdir. Avstraliya va Arab Amirliklariga yolg`iz turistik sayohatga chiqqan yosh ayollarga cheklovlar mavjud. Bularning ko`p qismi noqonuniy emigratsiyani vujudga keltiradi.

Yosh

Yosh ham ba'zi belgilarga ko`ra turistik sayohat uchun to`siq bo`lib xizmat qilishi mumkin. Odatda 70 yoshdan oshganlar meditsina sug`urtasiga ta'luqli bo`lmaydi yoki bunday sug`urta juda qimmat turadi. Ma'lumki, faol harakat usullarini va yuqori jismoniy harakatni talab qiluvchi turlar qari kishilarga tavsiya etilmaydi yoki umuman ta'qiqlanadi. Ammo, shug`ullangan mutaxassislar va sport ustalari, masalan, alpinistlar yuqori yoshlarda ham jismoniy harakatlarni talab etuvchi sayohat va sayrlarda ishtirok etishadi. Masalan, 1998 - yili al'pinizm veteranlari guruhi navbatdagi an'anaviy Elbursga chiqishni amalga oshirishdi. Ishtirok etganlarning yoshlari deyarli 70, hatto undan ham yuqori edi.

Turizm maqsadlari va statistikasi uchun quyidagi yosh toifalari ajratiladi:

- | | |
|-------------|----------|
| 0 - 2 yosh | - infant |
| 3 - 12 yosh | - bola |

14 - 18 yosh	- maktab o`quvchisi
18 - 25 yosh	- o`smir
18 – 25/26/28	- student
26 - 44 yosh	- katta
45 - 64 yosh	- katta
65 yosh va undan katta	- nafaqaxo`r

Ba'zi mamlakatlarda studentlar toifasiga faqat kunduzgi oliy o`quv yurtlari bo`limlari qatnashuvchilari kiradi.

Yosh turizmni rejalashtirishda, turizm turi va usullarining faolligini baholashda va sayohat qiluvchining iqtisodiy mustaqilligi va erkinligini xarakterlovchi iqtisodiy kategoriya sifatida kerakdir. Infant va yoshi kichik bolalar oila tarkibida sayohat qilishadi, ular qaror qabul qilishda va iqtisodiy tarafdin mustaqil emas. Maktab o`quvchilari ham oila tarkibida, ham turistik guruh tarkibida sayohat kila oladilar, biroq chegeranlangan iqtisodiy mustaqillikka ega bo`ladilar. Ota - onasiz sayohat qilinganda olib borib keluvchi shaxs (turistik guruh rahbari)ga ishonch bildirishlari kerak. Olib borib keluvchi shaxs sinf guruhi rahbarlari yoki o`qituvchisi bo`lishi mumkin.

O`smirlar puldorlar sinfi hisoblanmaydi, ammo qaror qabul qilishida mustaqil va sayohatni amalga oshirishda faoldir. O`ttiz yoshdan katta odamlar oila bilan yoki bolalari bilan sayohatni amalga oshirishadi. O`rta va katta yoshdagi turistlar iqtisodiy erkin va faoldir, ko`pincha bolalarsiz dam olishadi.

Til

Mahalliy tilni bilish turistning shaxsiy ishi hisoblanadi. Hech kim uni bilishga, o`rganishga majburlamaydi. Shuning uchun turistik xizmatlar tarkibiga zarur bo`lganda gid - tarjimon xizmatlari, shuningdek, turli yuzaga keluvchi muammolarni hal etuvchi turistik guruhni etaklovchi (turlider, guruh boshligi, gid - tarjimon) xizmatini kiritish kerak. Tur qoida bo`yicha, agar uning tarkibiga boshqa tilga o`tkazish xizmatlari ko`rsatilmagan bo`lsa, aniq bir tilda amalga oshiriladi. Rossiya va

O'zbekiston turistik guruhlari uchun odatda xorijiy davlatlarda rus tilida ekskursiyalar olib boriladi. Turistik markazlarda izohlovchi axborot yozuvlari, ko'rsatkich va tablichkalar, buklet va yo'l ko'rsatuvchi ashyolar, turistlarning miqdoriga bog'liq ravishda turli tillarda sotiladi. Hozirda Rossiya turistlari doimiy ziyoratchilarga aylangan va ular uchun rus tilidagi axborot ashyolari tarqatilgan. O'zbekiston turistlari uchun ham asosan rus tilida tarqatiladi.

Din

Shuni aytishimiz kerakki, turistik ahamiyatdagi ob'ektlarning 90 % yoki din, yoki madaniyat bilan bog'liqdir. Ular hozirda o'zining o'rniga ega, yoki o'z mazmunini yo'qotgan, yoki unitilgan. Bular madaniy - tarixiy boyliklar va umuminsoniy meroslardir. Masalan, Parijda xristianlikka ta'luqli turistik ob'ektlar 45 % dan yuqori. Qandaydir diniy konfessiyaga ta'luqli bo'lishi turizmni amalaga oshirishda to'siq bo'lolmaydi. Turist qonunlar bilan tanishgan hamda qonun va odatlarni hurmat qilishi kerak. Bu holat uni biror marosimni bajarishga, u yoki bu din yoki madaniyatni agar turistning maqsadi - xohishi bo'lmasa majburlamaydi. Agar diniy qarashlar bo'yicha boshqa dinni hurmat qilishga ruhiy kuchi etmasa, unda turist o'sha joyni yoki mamlakatni ziyorat qilishni rad etishi kerak.

Xalqaro me'yorlar bo'yicha turist qarshiliqsiz diniy marosimlarni va ibodatlarni amalaga oshirish huquqiga ega, biroq, bu turistlarga halakat bermasligi va mehmonxona hamda boshqa jamoat joylarida bo'lish qoidalarini va mahalliy odatlarni buzmasligi kerak. Masalan, yirik xalqaro aeroportlarda kamida uch konfessiya vakillariga xizmat qila oladigan diniy marosimlarni - ibodatlarni bajarishi uchun mo'ljallangan maxsus joylar mavjud.

Odatda cherkovlar, ibodatxonalar va boshqa ob'ektlar turistlar ziyorati uchun qulaydir, ularga egalik qiluvchi jamiyat va sektalar turistlarni ular bunday ziyoratlarga to'lov amalga oshirganlari uchun iqtisodiy tasavvurlaridan kelib chiqib, jon deb qo'yishadi. Ular ziyoratchilarga mavjud qoidalar o'rnatishadi, xususan kiyim

borasida, tartib borasida, suratga olish bo'yicha, o'z ekskurtsiya olib boruvchisini taklif etish bo'yicha.

Islom mamlakatlarida xorijiy turistlarga diniy qonun - qoidalarga muvofiq juda katta talablar qo'yiladi. Arab Amirliklarida jamoat joylarida mast holda bo'lish, yalang'och yoki ochiq cho'milishi, kiyimlari bilan cho'milishi ta'qiqlanadi, boshqa cheklovlar ham mavjud. Qoidani buzganlar qamoqqa qamaladi, jarima undiriladi va hattoki kaltaklanadi.

Diniy cheklovlar ovqat turlariga ham ko'yilgan. Diniy cheklovlarga ko'ra, musulmonlar va yahudiylar cho'chqa go'shti va u aralashgan mahsulotlarni iste'mol qilishmaydi. Diniga qattiq amal qilgan yahudiylar diniy qoida va udumlarga rioya qilib tayyorlangan maxsus taomlarni talab qilishadi. Nafaqat taom turlari, hatto, ko'ngil ochish turlarini chegaralaydigan to'siqlar va davrlar o'rnatishadi. Bularning hammasi aholining alohida guruhleri uchun turistik mahsulotni loyihalashtirishda hisobga olinishi kerak. Aytib o'tish kerakki, ko'p millatlar cho'chqa go'shtini iste'mol qilishni istashadi, buni ham inobatga olib qo'yish kerak.

Diniy parhez (toza) taomlar alohida bahoga va oldindan kelishilgan asosda ta'minlanadi. Hamma umumiy ovqatlanish tashkilotlari ham bunday tur taomlarini ta'minlay olishmaydi. Agar bu talablarni hisobga olgan holda butun guruh tashkil etilsa, parhez taomlar tayyorlovchi musulmon va yahudiylar uchun maxsus restoranlar ochishga to'g'ri keladi. Bilib olish kerakki, yahudiyning stoliga bir vaqtning o'zida go'sht va sut mahsulotlarini yoki ularning aralashmasini qo'yib bo'lmaydi. Turistik sayohatni tashkil etishdagi bunday talablar jiddiy to'siqlar bo'lib xizmat qilishi yoki turning va ovqatlantirish xizmatining qimmat bo'lib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa

Turist turizmning yuragidir, u bo'lmasa turizm ham bo'lmaydi. Shu bois, turistlarni ko'proq jalb qilish hamon dolzarb masala hisoblanadi. Turistlarni izlab topish, ularning his - tuyg'ularini o'rganish, kerakli shart -sharoitlarni yaratib berish,

hordiqalarini ko`ngildagidek tashkil etish - bularning bari bir maqsadga qaratilishi kerak. Turistning irqi, millati, jinsi, yoshi, tili va dini o`rganilib qaralishi lozim. Uning huquqlari, burchlari va erkinliklari haqida ham puxta bilimga ega bo`lish shart.

Tayanch iboralar

- Turist tushunchasi
- Huquqlari
- Majburiyatlari
- Vazifalari va erkinliklari

Nazorat va mulohaza savollari

1. Turist tushunchasini ta'riflab bering?
2. Nima uchun u vaqtinchalik sayyoh deyiladi?
3. Vaqt omili bo'yicha turistik sayohatlarni qanday ajratiladi?
4. Turistning huquqlari nimalardan iborat?
5. Turistning majburiyatlari qaysilar?
6. Turistning millati eng zarur narsami?
7. Turistning jinsi deganda nimani tushunasiz?
8. Turist yoshining toifalarga ajratilishi qanday?
9. Turist mahalliy millat tilini bilishi zararmi?
10. Turistning diniga nima uchun e'tibor beriladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 1999 - yil 20 - avgustdagi "Turizm to'g'risida"gi Qonuni.
2. M.B. Birjakov. Vvedenie v turizm. S.P. -2000.
3. G. Nazarova, M. Mirzaev va boshqalar. Turizm huquqi, O'quv qo'llanma, -T., 2003.
4. Tourism and Poverty Alleviation-Recommendations for Action.WTO. 2004.
5. Rural Tourism in Europe: Experiences, Development and Perspectives.WTO. 2004.

7 - bob. Turistik industriya (sanoat)

- 7. 1. Turistik industriya (sanoat) haqida tushuncha
- 7. 2. Turoperatorlar va turagentliklar
- 7. 3. Tashish va joylashtirish industriyasi
- 7. 4. Ovqatlantirishni tashkil etish

7. 1. Turistik industriya (sanoat) haqida tushuncha

Turistik industriya (sanoat) - turizm jarayonida turistlar iste'moli uchun zarur bo'lgan turizm xizmatlari, ish va tovarlarni etkazib beruvchi o'zaro muvofiqlashtirilgan tizimdir. Jahonda ommaviy turizmning rivojlanishi turizm industriyasi va xo'jaliklarning bir - biriga bog'liq tarmoqlarini, din va madaniyatni, ta'lim tizimini shunday qizg'in ravishda rivojlanishini keltirib chiqardi.

Ana shu shart - sharoitlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, turizm industriyasi - bu mehmonxonalar va joylashtirishning boshqa vositalari, tashish xizmatlari, umumiy ovqatlanish ob'ektlari, ko'ngil ochish joylari va vositalari, bilim orttirish, davolash, sog'lomlashtirish, sportga doir, diniy - marosimchilik, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentliklari amalga oshiruvchi, shuningdek, turistik - ekskursiya va gid - tarjimonlik xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotlar majmuidir. O'zbekiston respublikasining " Turizm to'g'risida"gi Qonunida turistik industriya tushunchasi quyidagi tarzda tarflanadi: Turistik industriya - turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko'rsatishni taminlovchi turli subektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport korxonalari, madaniyat, sport muassasalari va boshqalar) majmui.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, ishtirokchilarning taxminan shunday tizimdagi munosabatlari o'rta asrlardayoq Evropa mamlakatlaridan muqaddas joylarni ziyorat qilinishini tashkil etishda turizm jarayoni va industriyasini ilk boshlanishi mavjud bo'lgan edi. Masalan, sayyoh ziyoratini amalga oshirishi uchun mansubligi bo'yicha

vositachiga murojaat qilgach, Rim papasidan oliy ruhsat olishi, so`ngra muqaddas erga jo`nab ketuvchi ziyoratchilar guruhini tanlab oluvchi, suzuvchi kemalarni jihozlovchi va shu guruhlarini manzilga etkazib, ularning joylashuvi, ovqatlanishi, yo`l ko`rsatuvchi va qo`riqchilar bilan ta'minlashi hamda boshqa xizmatlar ko`rsatish bilan shug`ullanuvchi ixtisoslashtirilgan kompaniyaga murojaat qilishi zarur edi. Ziyoratchi sayohatni tashkil etish uchun kompaniyaga zarur bo`lgan etarlicha miqdordagi pulni o`tkazgach, o`zi bilan katta miqdordagi pulni olib yurishdan xolos bo`lgan. (Izoh: o`sha vaqtlarda, ma'lumki, kupyuralar bo`lmagan. Yo`llardagi qaroqchilar esa o`ylab topilgan personajlar emas. Darvoqe, hozir ham biz bu borada o`tmishdoshlarimizdan uzoqlashib ketayotganimiz yo`q). Bu faoliyatda mohiyatiga ko`ra, hozirgi zamon tushunchasidagi turistik faoliyatning, uni moliyalashtirish masalalarni ham qo`shib hisoblagan holdagi barcha elementlari mavjud va ular hozirgi zamon sayohatlarini rasmiylashtirish usullaridan kam farq qiladi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatning yoki turistik markazning ijtimoiy tuzilishidan qat'iy nazar, turizm sohasida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi bir qancha turli xildagi korxonalar, chunonchi: turizmni tashkillashtiruvchi (turoperator va turistik agentlik)lar, turistlarni tashuvchi va joylashtirish tizimi korxonalari, umumiy ovqatlanish shahobchalari, attraksionlar va ko`ngilochar joylar, shuningdek, bular bilan bog`liq bo`lgan boshqa turistik va unga yaqin xizmatlar (masalan, bank sohasidagi muassasalar, sug`urta xizmati va boshqalar) mavjuddir. Turizmning maxsus turlarida davolash muassasalari, o`qitish tizimi muassasalari hamda konkret turistik mahsulotning maqsadlariga muvofiq keladigan sport va boshqa muassasalar ishtirok etishlari mumkin. Muhimi, bu tashkilotlarning barchasi bir - birlarini uyg`un ravishda to`ldirishi va iste'molchi uchun zarur bo`lgan hamda assortiment bo`yicha etarlicha darajadagi barcha xizmatlarni ko`rsata bilishda.

Turizm tashkilotchilariga turizm sohasidagi ikki xil korxona mansubdir: turoperatorlar va turistik agentliklar. Bu korxonalar turizm xizmatining o`zi bilan bevosita shug`ullanmaydilar, balki faqat iste'molchi bilan xizmat ko`rsatuvchining

o`rtasida vositachilik vazifasini bajaradilar, xolos. Bulardan mustasno, ularning faoliyati ham o`z navbatida xizmat ko`rsatishdir. Frantsiyaning turistik qonunchiligida bu korxonalarni ularning mohiyati va vazifasining xarakteriga muvofiq ravishda turizm tashkilotchilari, - deb to`g`ri nomlaydilar.

7. 2. Turoperatorlar va turagentliklar

Turoperatorlar - turistik mahsulotni shakllantirish (tuzish yoki loyihalash)ni, uni bozor tomon harakatini, shuningdek, realizatsiya qilinishini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir. (Izoh: bu erda va bundan keyin jismoniy shaxs, - deganda, yuridik shaxs ma'lumotiga zga bo`lmagan tadbirkor sifatida ro`yxatga olingan bo`lish kerakligi anglashiladi).

Mazkur qoidaga ko`ra, turoperatorlarning dastlabki ikki funktsiyasi nisbatan tushunarli: ya'ni, turistik mahsulotni shakllantirish, - deganda: tur muddatlari, maqsadni aniqlash bo`yicha tartiblashtirilgan va bir - biriga bog`langan, narxi va sifati bo`yicha, ketma - ketligiga ko`ra kelishilgan xizmat ko`rsatish va ish bajarish, ularni taklif etish bo`yicha shartnomalar tuzish, tegishli ravishda bronlashtirish va rezervlashtirish tushuniladi. Bozor tomon yo`naltirish, - deganda: shunday ishlar majmui tushuniladiki, bunda potentsial iste'molchida shu ishlarni sotib olish uchun moyil - rag`bat tug`dirish bo`yicha ishlar bajariladi yoki soddaroq aytganda tur va xizmatlar reklamasi amalga oshiriladi.

Keyingi funktsiya batafsil tushuntirib berilishini talab etadi. Ya'ni, «Realizatsiya» atamasi ikki xil ma'noga ega: a) sotish; b) bajarish.

Faoliyatning klassik (an'anaviy) sxemasi bo`yicha turoperator turistik agent - ko`tarachilarga turistik mahsulotni faqat ulgurji sotishni amalga oshiradi, agent - ko`tarachilar esa bu mahsulotni xududlar va mintaqalar bo`yicha taqsimlaydilar va ularni mahalliy turistik agentliklar orqali sotadilar.

Turlarni iste'molchining o`ziga - turistga chakanalab sotishni turistik agentlik (qisqacha turagentlik) amalga oshiradi. Ba'zan turoperator o`z xuzurida maxsus

strukturaviy bo`linma - faqat turistlarga ko`rsatishnigina emas, balki barcha agentlik ishlarini o`zaro muvofiqlashtirish bilan ham shug`ullanuvchi turlarni chakanalab sotish bo`yicha markaziy turistik agentligini tuzadi. Amaliyotda turizm sohasidagi korxonalar ichida turoperatorlarning soni 5 % dan oshmaydi, turagentliklar esa 95 % ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, turoperator turistik mahsulotni iste'molchi (turist) oldida bajarilishi uchun javob beradi va amalda turistik mahsulotni nazorat qilish va operativ kuzatib borishni (hech bo`lmaganda turistik guruhlar uchun -doimo) amalga oshiradi. Odatda turoperatorlik funksiyasini amalga oshirish uchun korxonani shundayligicha yuridik shaxs sifatida ro`yxatdan o`tkazishgina emas, balki bunday faoliyatni amalga oshirish uchun maxsus litsenziya ham olish zarur. Masalan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 - yil 11 - noyabrdagi "Turizm faoliyatini litsenziyalash to`g`risidagi Nizomni tasdiklash haqida"gi qarorida bu masalaga oydinlik kiritilgan. Rossiyada (izoh: hukumat qarori bilan 1995 - yildan boshlab xalqaro turistik faoliyatni litsenziyalashtirish tartibi joriy etilgan) litsenziya olish faqat xalqaro turistik faoliyatni amalga oshirishda talab etiladi. Ichki turizm sohasidagi faoliyatda litsenziya va maxsus ro`yxatdan o`tish talab qilinmaydi. O`zbekistonda esa ichki va xalqaro turizm uchun yagona litsenziya zarur.

Turoperator turistik mahsulot iste'molchisi oldida javobgar hisoblanadi. Iste'molchi ko`pgina turli xil korxonalar xizmatini o`z ichiga olgan xizmat ko`rsatishlar paketini aynan undan sotib oladi. Bu javobgarlik turoperatorning tegishli kafolatlarini (ma'lum summadagi mablag` depoziti yoki boshqa ta'minot uchun bank kafolati, agar litsenziyalashtirish qonunlari bo`yicha mumkin bo`lsa, professional javobgarlikni sug`urtalash (Izoh: agar bajarish funksiyasini amalga oshirilmasa, yoki ataylib, turoperator turistlarga turni pullab, ancha - muncha pul to`plab, shu zahotiyiq g`oyib bo`lishi mumkin. Buni turizm bo`yicha firibgar va tovlamachilar muntazam amalga oshirib keladilar. Buning ustiga na

litsenziyalashtirish instituti, na turli xil kafolatlar turistlarni bunday xodisalardan himoya kila olmaydi) nazarda tutgandir.

Turistik agentliklar (turagent) - bu iste'molchi (turist)ga yoki mijozlarga ayrim turistik xizmatlar va turlarni chakana sotish funksiyasini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir. Turoperator yoki turagentlik bilan uni moliya sohasiga va hattoki mas'uliyatni ma'lum darajada qayta taqsimlashga doir ko'zda tutilishi mumkin bo'lgan juda xilma - xil o'zaro ta'sir va hisob - kitob qilishlar bo'yicha agentlashtirish shartnomasi bog'lab turadi. Sotuvchi sifatida agentlashtirish shartnomasi bo'yicha uning funksiyasi agar faqat aynan shu vositachilik funksiyasidan iborat bo'lsa, turagent, turistik mahsulot uchun cheklangan mas'uliyatga ega bo'ladi. Misol uchun a) ayrim xizmat ko'rsatishlarni; b) turoperator tomonidan olingan turistik paketlarni; v) paket bilan bog'liqligi shartlanmagan, masalan, yakka turistlar uchun ko'rsatiladigan turli xizmatlar majmuini sotuvchi agentliklar mavjud.

Agentlashtirish sohasida faoliyatning bir nechta turlari farqlanadi:

a) shaxs nomidan va korxonaning topshirig'i bo'yicha turlarni sotish. Mohiyatan bu turli xildagi turoperatorlarning «turistik yo'llanmalar do'koni» dir. Turistik yo'llanmada doimo bunday sotishni amalga oshirgan turoperator va agentning barcha rekvizitlari to'liq ko'rsatiladi (Izoh: agentlik foizi tushunchasi bor bo'lgan mamlakatlarda, agentlik foizining summasi doimo turistik xizmatlarning cheki yoki vaucherida ko'rsatilgan bo'ladi. Bunday mamlakatlarda yo'llanmalar yo'q, balki vaucher bor bo'lib, unda kassa apparatidagi ma'lumotni yozib qo'yish uchun maxsus xoshiya mavjud ekanligini ta'kidlab o'tamiz. Bunday holda agentlikning o'zi barcha oqibatlarni va javobgarlikni bo'yniga olgan holda turoperatorlik funksiyasini bajaradi).

b) Turlarni o'z nomidan, lekin turistik mahsulotni muayyan turoperatorga tegishli ekanligini ko'rsatgan holda sotish;

v) Turistik mahsulotni o'z nomidan (bu mahsulotni konkret bir turoperatorga tegishli ekanligini eslatmasdan), birgalikda yaratiladigan turistik mahsulotni sotish.

O`zaro harakat qilishning qabul qilingan jadvalidan kelib chiqib, javobgarlikning aniq belgilangan darajalari, moliyaviy hisob - kitoblar va faoliyatning soliqqa tortilish jadvali yuzaga keladi.

Turistik agent turistik mahsulotni sotish jarayonida ishtirok etuvchilar zanjirining muhim xalqasi bo`lib, o`zining tabiiy xususiyati va iste'molchining xarakteridan kelib chiqqan holda, potentsial iste'molchining o`zigacha, iloji boricha uning uyiga yoki xizmat joyigacha etib borgan bo`lishi kerak. Aynan shuning uchun ham turistik agentliklar juda ko`p va umumiy hollarda ular xodimlarining soni bo`yicha ko`pchilikni tashkil qilmaydilar, lekin hamisha vitrinalik birinchi qavatda va ko`pchilik o`tadigan erlarda joylashgan bo`ladilar (Izoh: ba'zi ma'lumotlarga ko`ra, Nyu - Yorkda 324 ming turistik agentliklar mavjud), har bir agentlik qoshida muayyan joylardagi iste'mol bozorining konkret bo`g`iniga xizmat ko`rsatuvchi ko`p sonli yollanma ishchilar ishlashadi. Rivojlangan mamlakatlarda turlarning eng ko`p qismi aynan oilaviy agentliklar tomonidan sotiladi (Izoh: oilaviy mutaxassislar qatoriga tish do`xtirlari, vrachlar, huquqshunoslar va turistik agentlar kiradi.)

Agentlik telekommunikatsion kompyuter tarmoqlari xizmati turoperatorlari yoki boshqa operatorlar bilan, masalan, agentga axborotlar va turistik xizmatlarni bronlashtirish tizimining qudratli bazasiga yo`l ochib beradigan global xalqaro va milliy tarmoqlari bilan bog`liq bo`ladi.

Hozirgi paytda turlarni iste'molchiga internet tarmog`i orqali sotish shakllanmokda.

7. 3. Tashish va joylashtirish industriyasi

Tashish tizimi - hozirgi kunda turistlarni piyoda bir joydan boshqa joyga o`tkazishni istisno qilganda, texnik taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Umuman, tashish deganda quyidagi tizim nazarda tutiladi:

- hayvonlar (fillar, tuyalar, otlar, eshaklar, itlar kabi jonivorlar) bilan tashish;

- er usti mexanik harakat vositalari (velosiped, avtomobil, avtobus, temir yo`l) orqali tashish;
- havo transporti (vertalyot, samolyot, raketa, dirijabl) dan foydalanish;
- suv transporti (qayiqlar, sollar, daryo va dengiz, suv usti va osti kemalari) dan foydalanish.

Hozircha insonning texnik tafakkuri harakatlanishning boshqa vositalarini o`ylab topgan emas va bundan o`zgasini hayol qilish - ilmiy fantastik hikoyalar syujetlarining mahsulidir.

Turistlarni bir joydan - boshqa joyga olib boruvchilar ish bosqichlariga, ularning turistik mahsulot tarkibidagi o`rniga muvofiq ravishda asosiy va yordamchi tashuvchilarga bo`linadi.

Tashishni ish bosqichlariga ko`ra quyidagilarga bo`lish mumkin:

1. Transfer, ya'ni turistlarni jo`natish joyidagi asosiy tashuvchiga etkazib berish, turistlarni aeroport terminalidan, vokzaldan mehmonxonagacha eltish hamda xuddi shu operatsiyalarni turistlar vatanlariga qaytayotganlarida bajarish. Bunda asosan ko`p hollarda avtobus orqali tashiladi;

2. Turistlarni borishlari kerak bo`lgan uzoq masofalarga eltish. Bunda havo yo`li, temir yo`l va suv transportlaridan foydalanib uzoq hududlarga eltib qo`yiladi;

3. Avtobus va temir yo`l turlarida marshrut bo`yicha olib yurish, bunda tashish bosqichi aslida turning zaruriy va asosiy elementi bo`ladi, tashish vositalari esa, ko`pincha tunash joylariga aylanadi, bunga dengiz sayohatiga doir marshrutlarni ham kiritish mumkin;

4. Ekskursion yo`nalishlardagi tashish, masalan, shahar bo`yicha, tematik bog`lardagi va boshqa tashishlar;

5. Shopping turlar uchun yuk tashish.

Joylashtirish - turizmning eng muhim elementidir.

Joylashtirish (tunash) bo`lmasa - turizm ham bo`lmaydi. Bu katta daromad olishga tashna bo`lgan har qanday turistik xudud va markaz iqtisodiyotining qat'i

talabidir. Mehmonxona industriyasi (Izoh: shuni ta'kidlash kerakki, turistlarni boshqa joy va mamlakatga jo`natish ham mahalliy g`aznaga soliqlar ko`rinishida foyda keltiradi. Shu bilan birga, agar turistlarni qabul qilish uchun joylashtirish maskanlari, tashish vositalari, attraktsiyalar va boshqalarning rivojlangan industriyasi zarur bo`lsa, jo`natish mahalliy hokimiyatdan shu industriya taraqqiyoti uchun anchagina kam kapital mablag` talab qiladi) mehmondo`stlik tizimining mohiyatidir. U insoniyat tarixidagi har qanday ijtimoiy formatsiyaga xos bo`lgan mehmonni hurmat qilish, uni qabul qilib olish va xizmat ko`rsatish tantanalari kabi, eng qadimgi an'analaridan kelib chiqadi. Shuni ta'kidlash kerakki, mutlaqo tranzit turistlar va ekskursion xizmat ko`rsatish hisobiga yashaydigan turistik markaz va joylar ham mavjud. Lekin, bu holda yaxshi foyda olish uchun turistik mahsulot va tovarni sotishda ustamonlik bilan tashkil qiluvchilik xususiyatga ega bo`lish kerak.

Joylashtirish vositalari va tizimi, ya'ni asosiy vositalar - bular vaqtincha kelib ketuvchilarga (mijozlarga) turli darajada xizmat ko`rsatish bilan bog`liq holda ularni qabul qilish va tunashlarini tashkil etish bo`yicha maxsus moslashtirilgan turli xildagi va ko`rinishdagi (chayladan tortib to ulkan mehmonxonalargacha bo`lgan) binolardir.

Mehmonxona sohasidagi o`rinlarnig soni - turistlarni qabul qilish borasida turistik markaz yoki xududning imkoniyatini baholashda foydalaniladigan eng asosiy ko`rsatkichdir. Masalan, turistik markazga kelib ketuvchi turistlar sonini namoyish etuvchi nollarning soni istalgancha bo`lgan har qanday raqamni o`ylab topish mumkin va bu ishni rahbariyat oldida o`z faolliklarini isbotlashga intilgan mahalliy ma'muriyat chinovniklari doimo amalga oshirib keladilar. Lekin, mehmonxonalardagi joylarning soni mazkur turistik markazida turistlarning joylashuvi uchun mavjud bo`lgan joylashtirish vositalarining hajmi va haqiqiy imkoniyatlarini aniq belgilab beradi. Joylar (nomerlar) fondini to`liq ishlatish jadalligi esa, mahalliy ma'muriyat va turizm tashkilotchilari faoliyatidagi samaradorlikni unga muvofiq holda aniqlab beradi. Nomaqbul rejalashtirish (yoki uni yo`qligi) shunga olib keladiki, joylashtirish mavsum paytida mumkin bo`lgan imkoniyatdan oshib ketadi va hattoki tunash uchun

pulni oldindan to`lab qo`ygan turistlar ham chalkashlik tufayli ko`chada qolib ketadilar. (Izoh: bunday hollar mavsumning ayni qizigan paytlarida tez - tez bo`lib turadi).

Mehmondo`stlikning (mehmon qabul qilish) bugungi industriyasi - bu xudud yoki turistik markaz xo`jaligining eng kuchli tizmidir va turizm iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir.

Mehmon qabul qilish industriyasida kollektiv (jamoat) va individual (yakka) joylashtirishni turli xildagi otellar, mehmonxonalar, motellar, yoshlarning xostel va yotoqxonalari, appartmentlar, turistik xutorlar tashkil etishadi.

Respublikamizda zamonaviy mehmonxonalar barpo etish uchun "Mehmonxonalar klassifikatsiyasi" ishlab chiqilgan bo`lib, ushbu hujjat bilan mazkur o`quv qo`llanmamizning 1 - mavzusida atroflicha fikr bildirganmiz.

7. 4. Ovqatlantirishni tashkil etish

Ovqatlanish har qanday insonning tabiiy ehtiyojidir. Ovqatlanish, turizm odatdagi oddiy va zaruriy ehtiyojdan tashqari yana ko`ngil ochish va mahalliy madaniyatning, xususan, gastronomiyaning muhim tarkibiy qismini anglash sifatida ham qaraladi. Milliy taom - xalq madaniyatining muhim qismi bo`lib, o`zida aniq ajralib turuvchi xususiyatlarni mujassamlantiradi va huzur - halovat olishning vositasi hisoblanadi.

Umumiy ovqatlanish tizimi turistik markaz yoki xududga tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini qondiruvchi turli toifadagi restoranlar, barlar, kafe hamda oshxonalar, tez ovqatlanish va o`ziga - o`zi xizmat qilish joylaridan tashkil topadi. Ovqatlanishning turlari (ertalabki nonushta, yarim pansion, pansion) doimo turistik xizmatlar ko`rsatish tarkibida belgilangan bo`ladi. Yarim pansionda (ikki marta ovqatlanish) ertalabki nonushta va tushlik yoki kechki ovqat nazarda tutilgan bo`ladi. Pansion - bu uch martalik ovqatlanishdir. Qimmatbaho xizmat ko`rsatish variantlarida butun kun davomida va hattoki tunda istalgan vaqtda va istalgan

miqdorda ovqatlanish hamda ichimliklar (spirtli ichimliklarni ham qo`shib hisoblaganda) ichish imkoniyati nazarda tutilishi mumkin.

Shuningdek, taklif etilayotgan ovqat xillarining miqdori tashrif buyurilayotgan mamlakat yoki mintaqaning an'analariga bog`liq bo`ladi va ko`pincha kaloriyaliligi hamda xizmat ko`rsatishning turlari belgilangan bo`ladi. Masalan, (evropacha, kontinental, inglizcha, Amerikacha va h. k.). Mehmonlarga xizmat ko`rsatishning turi ham muhimdir (masalan, shvedcha dasturxon).

Umuman olganda, turist ertalab engil ovqat tanovvul qilishi, ya'ni engil nonushta qilishi qabul qilingan. Shuning uchun, odatda, mehmonxonalarning ko`p qismi ovqatlanish joylariga yoki restoranlarga ega bo`lib, mehmondo`stlikning zaruriy tarkibiy qismi hisoblangan xizmat ko`rsatishlarni taklif qiladi, bu esa ko`p hollarda joylashtirishning qiymatiga kiritilgan bo`ladi. Mehmonxona qoshidagi restoranda ovqatlantirish joylari mavjudligining ko`rsatkichi juda muhim. Agar bu ko`rsatkich (miqdor) mavjud nomerlar fondi miqdoriga mos bo`lsa (to`g`ri kelsa) yana ham yaxshi.

Nonushta masalasida eng yaxshisi shuki, turist mehmonxonadan tashqariga chiqmasligi kerak, garchi ovqatlanish joylari nazarda tutilmagan, turistlarga esa yaqinrokda joylashgan restoranda ovqatlanishi mumkinligi tavsiya qilingan joylashtirish vositalari ham mavjud bo`lsada. Bunday holda joylashtirish xizmatining qiymati keskin pasayib ketadi.

Taom har bir insonning shunchaki oddiy ehtiyoji bo`lib qolmay, balki turistlar tomonidan ko`ngil ochish va rohatlanish ham, - deb qaraladi. Turli xalqlarning va hattoki joylarning taomi o`ziga xoslikka, ko`p hollarda o`ziga jalb etuvchi xususiyatiga ega. Bundan tashqari, ardoqli mehmonni yaxshilab ziyofat qilish - barcha xalqlarga xos bo`lgan yoqimli an'anadir. Ko`pchilik turistlar uchun milliy taomlar tur dasturining juda qiziqarli elementi hisoblanadi. Ovqat shinaavandalari uchun maxsus turlar ham mavjud bo`lib, buning asosini muntazam ravishda turli xildagi milliy taomlar, restoranlarga borish, gastronomiya printsiplarini o`rganish va alohida maxsus

taomlar tayyorlash, mahsulotlarni degustatsiya qilish, vino, pivo hamda kolbasa zavodlarini borib ko`rish va boshqalar tashkil etadi. Tig`iz ekskursion dasturlarning ayrim hollarida kunduzgi ovqat turistlarga quruq payok holida beriladi. Issiq mamlakatlarda turistlarga katta miqdordagi ichimlik suvi berish nazarda tutiladi.

Ovqatlantirishni tashkil etish tibbiy sohani ham hisobga olgan bo`lishi kerak. Noto`g`ri ovqatlanish, yomon (qoidalarga rioya qilmagan holda) tayyorlangan ovqat zaxarlanishga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ko`chadagi mayda sotuvchilar qo`lidagi suv va ovqat, shuningdek, sifatsiz restoranlardagi taomlar xavflidir. Ayrim toifadagi turistlar ruhida diniy belgilar bo`yicha umum qabul qilingan cheklanishalar (cho`chqa go`shtini iste'mol qilmaslik, ro`za tutish), bolalar ovqati talablarini ham hisobga olish kerak. Ovqatlanishga bo`lgan bunday talablarning o`ziga xosligini turistlar tur sotib olayotganlarida ko`rsatishlari kerak.

Xulosa

Turistik industriya - turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko`rsatishni ta'minlovchi turli sub'ektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport, sug`urta, bank, madaniyat, sport muassasalari) majmui hisoblanishini biz yuqorida ko`rib chiqdik. Mazkur mavzuda biz shuningdek, turizmni tashkillashtiruvchilar: tur operatorlar va turistik agentliklarni o`rgandik. Tur operatorlar -turistik mahsulotni shakllantirish (tuzish yoki loyihalash)ni, uni bozor tomon xarakatini, shuningdek sotishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs ekanligini; turistik agentliklar esa - iste'molchiga ayrim turistik xizmatlar va turlarni chakana sotish funksiyasini amalga oshiruvchi korxona yoki jismoniy shaxs ekanligini, turistlarni tashish - fillar, tuyalar, otlar, eshaklar, itlar, velosiped, avtomobil, avtobus, temir yo`l, havo yo`llari, suv yo`llari orqali ekanligini bilib oldik.

Joylashtirishni turizmning eng muhim elementi, - deb hisobladik. Mehmonxonalar - mehmondo`stlik tizimining mohiyati ekanligini, ayniqsa,

mehmonni hurmat qilish, uni kutib olish va xizmat ko`rsatish odobini yanada yaxshi egallashimiz kerakligini tushundik. Joylashtirish tizimi deyilganda mijozlarga maxsus joylashtirilgan ( chayladan tortib to ulkan mehmonxonalargacha bo`lgan) binolarni tushundik.

Ovqatlanish insoning tabiiy ehtiyoji hisoblanishini, milliy taomning turistik faoliyatdagi ahamiyatini, restoran, bar, kafe, tez ovqatlanish shahobchalarini o`rgandik.

Tayanch iboralar

- Turizmni industriyasi
- Turoperatorlar
- Turagentliklar
- Transport
- Mehmonxona
- Ovqatlanish

Nazorat va mulohaza savollari

1. Turizmni tashkillashtiruvchilar kimlar?
2. Turoperator kim ?
3. Turagentliklar haqida nimalarni bilasiz?
4. Transport industriyasi nima?
5. Mehmonxona industriyasi qanday?
6. Turistlarni tashish vositalari deganda nimani tushunasiz?
7. Turistlarni ovqatlantirish nimadan iborat?
8. Turizm industriyasi deb nimani tushunasiz?
9. Tarixiy manbalardan o`zbek mehmonxonalari haqida biron - bir ma'lumot olganmisiz?
10. O`zbek milliy taomlarining turizmda tutgan o`rni qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 - yil 27 - iyuldagi “ O`zbekturizm ” Milliy Kompaniyasini tashkil etish to`g`risidagi farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to`g`risida”gi farmoni.
3. “Turizm to`g`risida ”gi Qonun. 1999 - yil 20 - avgust.
4. G. Nazarova, M. Mirzaev. Turizm huquqi. O`quv qo`llanma. - T., 2003.
5. Воронкова Л.П. История туризма и гостеприимства. Учебное пособие. ГРИФ. 2004.
6. Маринин М.М. Туристские формальности и безопасность в туризме. 2004.

8 - bob. Turizm infratuzilmasi

8.1. Turizm infratuzilmasi haqida tushuncha

8.2. O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora - tadbirlari

8. 1. Turizm infratuzilmasi haqida tushuncha

Turizm infratuzilmasi deganda - turistlarning turistik zahiralaridan bemalol foydalanishini ta'minlovchi binolar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan yo'llar, turizmning xilma - xil korxonalari va ularni kerakli darajada ishlatish, hamda turizm korxonalarining ishlatilishini ta'minlash tushuniladi. Bular - avto yo'l, temir yo'l, havo yo'llari, dengiz va daryo yo'lari harakatini tartibga soluvchi tizimlar, issiqlik, elektr va telefon aloqalari bilan ta'minlash va boshqalardir. Ma'lumki, turistik resurslarsiz turizmning o'zi bo'lmaydi. Mazkur resurslarda turizm infratuzilmasini yaratilsagina biz kutgan haqiqiy turizm bo'lishi mumkin. Masalan, tabiiy - iqlim, tarixiy - madaniy, ma'rifiy, ijtimoiy - maishiy turizm obektlari bo'lgan hududlarda kerakli infratuzilmani yaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yo'l qurilishi sohasini olib ko'raylik. Albatta turistlar oddiy yo'lovchilar emas. Ularning sayohati zamon talablariga mos ravishda bo'lishi uchun yo'llarning sifat darajasi qay ahvolda ekanligini bir o'ylab ko'raylik. Yo'llarning ravonligiga qarab ham turistlar oqimining oshishi mumkin. Yo'llar, bozorlar mamlakatning iqtisodiy va madaniy ahvoli qay darajada ekanligidan dalolatdir. Turist - eng avvalo dam oluvchidir. Yillab to'plagan pulidan harj qilib kelgan turist charchoq nima ekanligini bilmasligi kerak. Uning iste'molchi ekanligini bu erda ham zinxor unutmasligimiz lozim. Bular nafaqat avtomobil yo'llari, shuningdek, temir yo'llarga ham ta'luqlidir. Poezd relslaridan tortib, uning ichidagi kommunikatsiya va muhandislik tarmoqlarining barchasi - turizm infratuzilmasining tarkibiy bir qismi, xolos. Poezd kupelaridagi issiqlik darajasi, yozda va qishda bir xil temperaturadagi holat - turizm xizmatining

yanada ko`tarilishidagi omillardir. Turist ibtidoiy jamiyat kishisi yoki qay darajada rivoj topgan mamlakatligidan qat'iy nazar uning oddiy fuqarosi emas. U yuksak darajada xizmat ko`rsatilishini istovchi (va bunga haqli ham) iste'molchidir. Mana shuni hech qachon turizmdan katta foyda ko`raman, - degan turoperatorlar esdan chiqarmasliklari kerak. Nafaqat avtomobil yoki temir yo`llar, hatto turistlar uchun maxsus ajratilgan yo`llar ham talab darajasida bo`lishi lozim. Bunday yo`llar alohida ajralib turishi va turistlarga halal beradigan darajada bo`lmasligi lozim.

Mehmonxona va shunga tenglashtirilgan joylardagi kommunikatsiya va muhandislik tarmoqlarida ham muammolarning bo`lmasligi turizm sohasining yangi pog`onalarga ko`tarilishida o`ziga xos o`rinni egallaydi. Issiqlik tarmog`i ishlamaydigan, elektr quvvati past, kanalizatsiya tarmog`i berakib qolgan yoki ichimlik suvi talab darajada bo`lmagan mehmonxonalarda turistlarning bo`lishini bir tasavvur qilib ko`raylik.. Mana shular va boshqalar turizm ishining rivojlanishidagi kechiktirib bo`lmas va tezda hal qilinishi zarur bo`lgan muammolardir. Ayniqsa, olis, tog`li joylar, katta yo`l trassalari, qishloqlarda bu kabi muammolarni hal etish - oson ish emas, mashaqqatli vazifadir. Hozir respublikamizning avtomobillar qatnaydigan trassalari, shoh bekatlari qay darajada. Trassalardagi shoh bekatlar bo`lmagan joylarni gapirmasa ham bo`ladi. Turistlarga tez tibbiy yordam beriladigan va xojatlarini chiqaradigan ob'ektlarning o`zi yo`q hisob, borlari ham talab darajasida emas. Achchiq bo`lsa ham aytish kerak: joylarda bunday ob'ektlarning barpo etilishiga e'tibor past darajada. Bu nafaqat turistlar, hatto, katta yo`l trassarida qatnovchi vatandoshlarimiz uchun ham muhim ahamiyatga molik vazifa hisoblanadi. U umumxalk manfaati, davlatimiz manfaatidir. Shunday ko`rsatkich bilan turizm rivojlanishiga kim kafolat beradi. Bir vaqtlar ipak yo`li o`tgan joylardagi muhim maskanlarda karvonsaroylar bo`lgan. Karvonsaroylar savdo karvonlari uchun hozirgi vaqtlardagi mehmonxonalar vazifasini o`tagan. Unda karvonlar va savdogarlar tunaydigan xonalardan tortib, ichimlik suvi, ovqatlanish xizmati va boshqa xizmatlar (tabiblar, mashshoklar, qo`riqchilar) o`z joyiga qo`yilgan. Yurtimiz ko`hna tarix va

madaniyatga ega. Hozirda kanalizatsiya deb ataluvchi tarmoq bundan uch ming yil avval xizmat ko`rsatganligini isbotlovchi dalillarni arxeologik olimlarimiz tadqiqot ishlarida ko`rsatib berishgan. Ichimlik suvi sardobalarda saqlanganligi, maxsus kulolchilik quvurlari - orqali suv olib kelinganligi va chiqindi suvlar ham shunday quvurlardan chiqib ketganligini isbotlovchi manbalar etarli. Bular hakida oldingi mavzularimizda ham alohida to`xtab o`tgan edik. Mana shunday tarixiy, an'anaviy merosimizni yana tiklash, zamonaviy holatga keltirish ham bugunning asl maqsadidir. Bizning ushbu fikrlarimiz katta shaharlarimizni inkor etmagan holda qishloqlar va katta yo`l trassalari haqida ketayotir.

Turizm infratuzilmasida bank va moliyaviy tashkilotlar - xizmatlarning o`rni alohida. Turistlar sayohatda va dam olishda xilma - xil xizmat turlaridan foydalanishni hohlaydilar. Ya'ni, o`z xohishi bo`yicha biror narsa sotib olishni istashadi. Bunda ular ko`ngil ochish uchun har kuni ko`p miqdorda pul sarflashadi. Pulni ayniqsa, katta miqdordagi pulni ko`tarib yurish turistlarga noqulaylik va qiyinchiliklar tug`diradi. Turistning katta miqdorda pulni olib yurishi o`g`irlarni, qaroqchi va tovlamachilarni va har - xil turdagi jinoyatchilarni jinoiy harakat qilishlariga olib keladi. Turizm tashkil topishi bilanok, o`g`irlanishi va tortib olinishi mumkin bo`lmagan xavfsiz pul bilan ta'minlash muammosi paydo bo`ldi. Tomas Kuk turizmni tashkil etishdagi ushbu muammoni hal etish bilan shug`ullangan va turistik faoliyatni tashkil etishning hamma tomonlarini o`rganib chiqqan. Natijada, u yo`l cheklarini ixtiro qilgan. Bu xavfsiz pul turizm maqsadida yaratilgan bo`lib, uni butun dunyo banklarida bimalol mahalliy valyutaga almashtirish mumkin bo`lgan. Bir qancha vaqt o`tib, bu tashabbusni Amerikan Ekspres firmasi o`ziga qabul qildi. Turizm sohasidagi bu ikki kompaniya sug`urta moliyaviy xizmatlari bo`yicha ham gigantga aylandi. Keyinroq, plastik kartochkalar ixtiro qilindi. Viza, AmEx, Diner Club kabi dunyo miqyosidagi to`lov tizimlari yaratildi. Ushbu to`lov usullarining qo`llanilishi bilan turistlarning o`zlari bilan katta miqdorda pul olib yurishlari

cheklandi. Barcha magazinlar, restoranlar va boshqa turistik markazlarning korxonalari kartochkalar bo'yicha nakd pulsiz to'lovlar qabul qila boshladilar.

Axborot xizmati ham turizm infratuzilmasida turistlarga ham va uning tashkilotchilariga ham juda zarurdir. Turist sayohatga tayyorlanayotganda hamda sayohat vaqtida o'zi boradigan joy haqida o'sha mamlakat yoki boradigan hududning qonun - qoidalari, odatlari, mehmondo'stligi haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarga, shuningdek, o'sha joyning xaritasiga, transport magistrallari jadvaliga muhtoj bo'ladi. Bunday ma'lumotlar bundan 200 yil avval chop etilgan.

Sayohat va turistlarning sarguzashtlari haqidagi ma'lumotlar ommabop va maxsus adabiyotlar ko'rinishida chop etiladi va bu holat turistlarni sayohat qilishga chorlaydi. Zamonaviy turizmda bo'lajak turistlarga bepul tarqatiladigan axborotlarni rang - barang ko'rinishida chop etishga e'tibor qaratiladi. Turizm sohasi boshqa sohalarga qaraganda 3 - 5 marta ko'p reklama qiladi. Hamma yirik turistik markazlar turistlar va turizm xizmatlari uchun axborot CD ROM disklarini chop etadi.

Turizm infratuzilmasini zamonaviy kompyuter xizmatidagi tasavvur etish qiyin. Tezkor axborot va so'zlashuv, yangiliklardan xabardorlik turizmning yana bir jihatidir. Hozirgi turist internet, faks va boshqa zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishi turizm infratuzilmasini qay darajada ekanligidan yana bir nishonadir. Zamonaviy elektron vositalari orqali turistik xizmatlar va turistik markazlar haqidagi ma'lumotlar joylashgan millionlab saytlarga ega bo'lgan internet tarmoqlari nafaqat turizm va turistik agentliklarni tanlash, hattoki, tur sayohat chiptalari, xizmatlar uchun to'lovlarni ham oldindan tayinlab qo'yishi mumkin. Turizm tashkilotchilari axborot xizmatidan keng ko'lamda foydalanadilar. Ular ham turistik mahsulotni tashkil etayotganida maxsus yo'l ko'rsatkichlarini o'rganadilar. Columbs Press nashriyotida har ikki yilda qayta chop etiladigan dunyoga mashhur yo'l ko'rsatkich World Travel Guide da 200 ta mamlakatning jadvallari, turistik markazlarning va agentliklarning har - xil kataloglarini, mamlakat va butun dunyo bo'yicha transportning harakat jadvali chop etiladi.

Mehmonxonalardagi oddiy telefon, televizor, faks, kompyuter, muzlatgich va boshqalarning bo'lishi - bular biz hozirda istasak ham istamasak ham bo'lishi zarur bo'lgan vositalardir. Bularsiz turizm xizmati yoki mehmonxona biznesi bilan shug'ullanishning o'zi kulgili holdir. Mana shular turizm infratuzilmasidir.

8. 2. O'zbekiston respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora - tadbirlari

Keyingi yillarda respublikamizda turizm infratuzilmasini zamon talabiga moslashtirish maqsadida ko'pgina ishlar qilinmokda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo'li"ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora - tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bu ishni yuksak darajaga ko'tarish muammolarini hal qilishda o'z o'rniga ega bo'ldi. Farmon g'oyat muhim xalqaro turizm yo'nalishi - "Buyuk ipak yo'li"ni qayta tiklash, bunga xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish, shuningdek, zamonaviy turizm siyosatini vujudga keltirishga asosiy maqsadni qaratdi. Buning uchun esa quyidagi o'ta muhim va dolzarb masalalar o'z echimini topishi lozim. Masalan, "Buyuk ipak yo'li"dagi shaharlar - Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentda xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy mintaqalar tashkil etish, mazkur shaharlarning aeroportlari va temir yo'l vokzallarida turistlar uchun bojxona rasm - rusumlarining xalqaro me'yorlarga mos soddalashtirilgan tartibi, shuningdek, tranzit turistlar uchun maxsus bojxona joylari joriy qilish ko'zda tutildi. Ushbu shaharlarda yangi tashkil etiladigan turistik tashkilotlar va korxonalar barpo etilgan paytdan boshlab, dastlabki foydani olgunga qadar o'tadigan davrda, lekin ro'yxatga olingan sanadan keyin uzog'i bilan uch yil mobaynida barcha turdagi soliqlardan ozod qilish imkoniyati tug'ildi. Shu maqsadda mazkur tashkilotlar va korxonalar foyda (daromad) olgan birinchi yili foyda (daromad) solig'ining 50% ini, ikkinchi yili 75 % ini, uchinchi yildan boshlab 100 % ini to'lashlari belgilab ko'yildi.

Shuningdek, turizm sohasida qo'shma korxonalar barpo etuvchi joriy sarmoyadorlar, ilgari berilgan imtiyozlarga qo'shimcha ravishda, olib ketadigan foydadan 5 yil muddatga soliq to'lashdan ozod qilinishi bu boradagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ayniqsa, tijorat banklariga tadbirkorlar xususiy mehmonxonalarini va mehmonxona infratuzilmasi inshootlarini barpo etishlari chog'ida ularga kamida besh yil muddat ichida to'lash sharti bilan kreditlar berilishi hamda "O'zbekturizm" MK Tashqi Iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan birgalikda investitsiya banki - "O'zsayohatinvestbank"ni tashkil etishlarini belgilib qo'yilishi soha rivoji uchun olib borilayotgan davlat siyosatining nechog'li to'g'ri ekanligini yana bir bor isbot qildi.

Farmonning muhim jihatlaridan biri shuki, unda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida turizm bo'yicha Idoralararo kengash tuzilib, ushbu kengash faoliyatining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berildi:

- a) turizm sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- b) jahon andozalari darajasida kichik va o'rta mehmonxonalar, motellar va kempinglar tarmog'i shakllantirilishini muvofiqlashtirish;
- v) sayr - tomoshalar zamonaviy industriasini, madaniy va sport - sog'lomlashtirish markazlarini barpo etishga ko'maklashish;
- g) noyob turizm imkoniyatlari va tarixiy - madaniy meros keng ko'lamda targ'ib qilinishi va saqlanishini tashkil etish;
- d) turizm tizimida muvofiqlashtirilgan ilmiy - texnikaviy va investitsiya siyosatini o'tkazish;
- e) turizm sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni ta'minlash.

Shuningdek, xalqaro turizmni rivojlantirish bilan bog'liq barcha masalalarni o'z vaqtida hal etish uchun javobgarlik "O'zbekturizm" MK, "O'zbekiston havo yo'llari", "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyalarining, Ichki ishlar va Tashqi ishlar vazirliklarining, chegara va bojxona xizmatlarining rahbarlari zimmasiga yuklatildi.

Mazkur farmonni amalga oshirish yuzasidan Respublika Vazirlar Mahkamasi 1995 - yil 3 - iyunda "O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini barpo etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Qaror prezident farmonini to'ldirib, yana quyidagi muhim masalalar amalga oshirilishi takidlab o'tildi: tegishli tashkilotlar bilan birgalikda turistlarni avia va temir yo'l transporti orqali tashishda imtiyozlar berish tartibini ishlab chiqish, maxsus bojxona hududlarini tashkil etish, ularni zamonaviy nazorat texnikasi bilan jihozlash vazifasi yuklatildi. Qarorda turizm tizimidagi xususiylashtirilayotgan ob'ektlardan tushgan mablag'lar "O'zbekturizm" MK bo'linmalarini qayta kurish va texnika bilan jihozlash maqsadida "O'zsayohatinvestbank"ka o'tkazish belgilab berildi.

Valyuta operatsiyalarida imtiyozlar, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch - Xiva yo'nalishlarida yo'llarni obodonlashtirish, servis xizmatlarini tashkil etish dasturlarini ishlab chiqish, shahardan tashqarida joylashgan turistik obektlar uchun kommunikatsiya tarmoqlari to'lovi bo'yicha imtiyozlar berish, turistik inshootlar qurilishi bo'yicha tenderlar o'tkazish, turistlar bo'ladigan joylarda amaliy va tasviriy san'at, xalq ijodkorligi buyumlari, reklama mahsulotlarini tayyorlash - sotishda shahobchalar tashkil etish, xorijda turistik vakolatxonalar ochish - bular ham mazkur qarorda belgilab qo'yilgan vazifalar edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni ham bu yo'nalishga alohida e'tiborni qaratdi. Farmonda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, turizm tashkilotlari xorijdan keltiriladigan texnologiya va mehmonxona uskunalari, turizm maqsadlariga mo'ljallangan transport vositalari uchun bojxona "poshlina"lari to'lashdan uch yil muddatga ozod qilinishi ko'rsatib o'tildi.

Dasturning ikkinchi bo'limi - "O'zbekturizm" MKning 1999 - 2005 yillardagi investitsiya dasturi", - deb nomlanib, unda Samarqand shahrida "Prezident otel" mehmonxonasi qurilishi (mablag'ning 85 % xorij investori, 15 % "O'zbekturizm"

MK hisobidan), shahardagi "Samarqand" mehmonxonasini qayta tiklash (8 mln AQSh dollari. Xorijiy va mahalliy sarmoya), Xivada yangi mehmonxona qurilishi (bu ham 85% ga 15 %), Urganchda "Xorazm" mehmonxonasini qayta tiklash (7,5 mln AQSh dollari, Hindiston krediti), Toshkent shahridagi "O`zbekiston" mehmonxonasini qayta tiklash (31,5 mln AQSh dollari, xorijiy sarmoya), shuningdek, 50 - 60 o`rinli 2 - 3 yulduzli mehmonxona qurilishi (20 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya), Toshkent viloyati Chorvoq suv ombori hududida dam olish zonasi va golf klubi qurilishi (100 mln AQSh dollari, xorijiy sarmoya), Buxorodagi "Buxoro" mehmonxonasini qayta tiklash (8mln AQSh dollari, xorijiy sarmoya), Andijondagi 60 o`rinli yangi mehmonxona qurilishi (12 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya), shahardagi "Oltin vodiylar" mehmonxonasini qayta tiklash (8 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya), Jizzaxdagi "O`zbekiston" mehmonxonasini qayta tiklash (10 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya), Termizdagi mehmonxonani qayta tiklash (6 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya), Shahrisabzdagi "Shahrisabz" mehmonxonasini qayta tiklash (6 mln AQSh dollari, xorijiy va mahalliy sarmoya) kabi juda katta mablag` talab etiladigan vazifalar maqsad qilib olingandi. Shuningdek, Avtobus - avtomobil parkini modernizatsiyalashtirish (zamonaviylashtirish) uchun 12 mln AQSh dollari miqdorida sarmoya talab qilinishi belgilab berildi.

Dasturning uchinchi bo`limi - "Marketing tadbirlari", - deb nomlanib, unda O`zbekistonning diqqatga sazovor joylari haqida turistlarga informatsiya berish va turistik mahsulotlarni taklif etish maqsadida Internet, E-mail xalqaro informatsiya tarmoqlaridan foydalanishni rivojlantirish ham asosiy vazifa sifatida qaraldi.

Dasturning to`rtinchi bo`limi - "Turistlarga xizmat ko`rsatishni xalqaro andozalar darajasiga ko`tarish, turizm infratuzilmasini har tomonlama rivojlantirish", - deb nomlanib, unda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi turistlarni ijaraga avtomobil vositalari bilan ta'minlashga e'tibor qaratildi.

Dasturning beshinchi bo'limi - "Jahon merosi, madaniyati va tarixiga kiruvchi qo'riqxonalar, yodgorlik shaharlarini muhofaza etish va ulardan maqsadli foydalanish bo'yicha tadbirlar", - deb nomlanib, unda milliy bog'lar, an'anaviy choyxonalar, xalq amaliy san'ati va ko'rgazmalarini tashkil etish va ularni turizm yo'nalishlariga kiritish, turizm obektlarini va mamlakatimiz tarixi bilan bog'liq tarixiy va madaniy yodgorliklarni doimiy ravishda qayta tiklashga e'tibor qaratildi.

Dasturning oltinchi bo'limi - "Ichki turizmni tashkil etish bo'yicha tadbirlar", - deb nomlanib, unda Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari turizm markazlarida piyoda yuruvchi turistlar uchun maxsus yo'llar tashkil etilishiga e'tibor qaratildi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish turistik zahiralardan rejali foydalanish jarayonining asosiy bosqichidir. Turistik zahiralalar qancha maftunkor bo'lmasin, turistning bu tabiat in'omlaridan foydalanishi bularga bermalol eta olishiga bog'liq. Agar mazkur tabiat in'omiga yo'l yoki so'qmoq bo'lmasa ushbu ob'ektga ko'plab turistlarni jalb qilish qiyin bo'ladi. Ba'zi hollarda esa buning iloji yo'q. Misol uchun Venesueladagi Anxel sharsharasiga (dunyodagi eng katta sharshara, balandligi 140 m.) turistlar nisbatan kam boradi. Chunki, u erga borish uchun na yo'l bor, na samolyot qo'nadigan maydon. Ushbu sharsharaga katta qiyinchiliklar bilan tezoqar daryo bo'ylab qayiqda borish mumkin. O'zbekistonimizning Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi Hisor tog'i etagida joylashgan Toshqo'rg'on qishlog'i va Amir Temur g'origa olib boriladigan yo'ldagi Ho'kizburun sharsharasiga turistlar borilishini yo'lga qo'yilsa, ayni muddao bo'lur edi. Ya'ni, bu joylarda turizm infratuzilmasini barpo etish uchun katta sarmoya talab etiladi. Respublikamizda shunday maskanlar ko'p. Bulardan tashqari, turistlarni maftun qiladigan joylarga borishning qiyinchiligi bir tomondan bo'lsa, ikkinchi tomondan turistlar o'zlari uchun etarli bo'lgan qulay sharoitlarni talab qiladilar. Masalan, mehmonxonalar tizimida qabul qilingan standartlarda turistlarni ikki o'rinli, qulayliklari mavjud bo'lgan (hojatxona, dush, hammom, issiq suv) nomerlarga joylashtirish ko'zda tutilgan. Bu holat O'zbekistonning chekka hududlarida turizmni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Xulosa

Ushbu mavzuda turizm infratuzilmasi tushunchasining mohiyati, respublikamizda unga qaratilgan chora -tadbirlar haqida fikr bildirilgan. Turizm infratuzilmasi, - deb turizm bilan bog`liq binolar, ulardagi muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, yo`llar, issiqlik, elektr va telefon aloqalari tushunilishiga aytiladi. Shuningdek, mavzuda mamlakatimizda keyingi yillarda chiqqan farmon, qarorlarda turizm infratuzilmasini rivojlanishi uchun qaratilgan yo`l - yo`riqlar yoritib beriladi. Ayniqsa, "Buyuk ipak yo`li" markazida joylashgan O`zbekistonning tarixiy shaharlarida turizm infratuzilmasini rivojlanishiga e'tibor qaratiladi.

Tayanch iboralar

- Turizm infratuzilmasi
- Binolar
- Muhandislik
- Kommunikatsiya
- Elektr
- Issiqlik
- Aloqa

Nazorat va mulohaza savollari

1. Turizm infratuzilmasi deganda nimani tushunasiz?
2. Turizm inshootlarining infratuzilma tizimidagi roli qanday?
3. Turizm sohasida muhandislik tarmoqlari zarurmi?
4. Kommunikatsiya tizimi turizm ishida nima beradi?
5. Respublikamizdagi avtomobil yo`llarining turizm infratuzilmasidagi o`rni qanday?

6. Temir yo'llarning turizm infratuzilmasidan joy olishiga sabablarini tushuntirib bering.
7. Tarixiy shaharlarda turistlar uchun maxsus yo'llar joriy qilinishining zaruriyati nimada?
8. Issiqlik tarmog'ining mehmonxonalar xizmatidagi ahamiyati nimalardan iborat?
9. Aloqa tarmog'i turizm ishida qanday rol o'ynaydi?
10. Respublikamizda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun yana nimalar qilish zarur, - deb o'ylaysiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo'li"ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora - tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 - yil 3 - iyundagi "O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini barpo etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni.
5. O'zbek davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazining 1998 - yil 31 - dekabrda "Mehmonxonalar klassifikatsiyasi".
6. Воронкова Л.П. История туризма и гостеприимства. Учебное пособие. ГРИФ. 2004.
7. Маринин М.М. Туристские формальности и безопасность в туризме. 2004.

9 - bob. Turistik xizmatlar

9. 1. Turistik xizmatlar haqida tushuncha

9. 2. Turistik xizmatlar tarkibi

9. 1. Turistik xizmatlar haqida tushuncha

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunidagi ayrim moddalarda turistik xizmatlar bilan bog'liq tushunchalarning ta'rifi berilgan. Jumladan, Qonunning 3 - moddasida turistik xizmatlar tushunchasi haqida: "turistik xizmatlar - turistik faoliyat sub'ektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot - reklama xizmatlari ko'rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar", - deb ta'riflanadi. Qonunning 11 - moddasi: "turistik sayohat va turistik xizmatlar majmui", - deb nomlanib, unda quyidagi fikrlar bayon qilinadi - "turistik sayohat yakka tartibda yoki turistlar guruhi tarkibida amalga oshiriladi. Turistik xizmatlar majmui transport (tashish - M.M.) xizmati ko'rsatishni, yashash, ovqatlantirish, ekskursiya xizmati ko'rsatish, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish va boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi", - deyiladi. Qonunning 10 - moddasi: "Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish", - deb nomlanib, unda quyidagi jummalarni o'qiyviz: "Turistik xizmatlar majburiy sertifikatlashtirilishi lozim. Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va sertifikat berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Turistik faoliyat sub'ektlarining turistik xizmatlarni majburiy sertifikatlashtirishdan bosh tortishi, turistik xizmatlarni sertifikatlashtirishning natijasi salbiy bo'lishi, shuningdek, sertifikatning amal qilishini bekor qilish turistik faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilishini to'xtatib qo'yishiga yoki litsenziyadan mahrum qilishga sabab bo'ladi". Qonunning 12 - moddasi: "Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi", - deb nomlanib, quyidagi fikrlar bayon etiladi: "Turistik xizmatlar shartnoma asosida ko'rsatiladi. Shartnomada ko'rsatilgan xizmatlarning ko'lam va sifati, taraflarning huquqlari

hamda majburiyatlarini, haq to'lash va hisob - kitoblar tartibini, shartnomaning amal qilish muddatini va uni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikni, shuningdek, taraflarning kelishuviga ko'ra boshqa shartlarni belgilaydi". Qonunning 13 - moddasi: "Turistik yo'llanma (vaucher)", - deb nomlanib, unda: "Turistik yo'llanma (vaucher) - turistning yoki turistlar guruhining tur tarkibiga kiruvchi turistik xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va bunday xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat", - deyiladi.

Turist turistik mahsulotlar (turistik xizmatlar, ish va tovarlar) iste'molchisidir. Bu haqiqat - bu uch qoidadan birini yoddan chiqargan yoki etiborga olmagan turistik markaz turizmdan ko'zlangan foydani ololmaydi. Aksincha, shu qoidalarga amal qilgan turistik markaz qiyinchiliksiz rivojlanadi, yaxshi foyda ko'radi va o'z sarmoyasini turizmni rivojlantirishga sarflaydi. Bunga misol - Antaliya turizmi. Bu joy 80 - yillar oxirida ham qumli sohil edi, keyingi 10 yillikda Evropa miqyosida eng kuchli kurortlardan biriga aylandi. Bu kurortda bir mavsum davomida 1mln. rossiyaliklar dam oladi, bu ko'rsatkich umumiy turistlarning 10 % ni tashkil etadi. U erda mashinasozlik zavodlari yo'q, hamma narsa turistga xizmat qilish uchun mo'ljallangan. Kurortni rivojlantirish uchun xorijdan katta sarmoyalar kiritilmoqda. Rossiyalik turistlar uchun viza bekor qilingan, bojxona ishlari engillashtirilgan. Faqat, tashrif buyuring, dam oling va sotib oling - shioriga amal qilinadi. Antaliya sohillarida aholini ish bilan taminlash yuqori darajada, hatto xorijdan ham ishchi kuchi talab etiladi. Bu tez rivojlanayotgan Turkiya uchun juda katta ko'rsatkichdir.

Turistik mahsulotlar - turistik xizmatlar (bronlashtirish, tashish, joylashtirish, ovqatlantirish, o'yinlar), turistik ishlar (foto xizmati, sug'urta, axborot, moliya, bank xizmati), turistik tovarlar (esdalik sovg'alar, xilma -xil tur tovarlari, iste'mol tovarlari - parfyumeriya, tamaki, spirtli ichimliklar, maishiy texnika, kiyim - kechak)dan iboratdir.

Turistik xizmatlar - turist va ekskursant ehtiyojlarini qondirish va ta'minlashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlar to'plami bo'lib,

ular turizm maqsadlariga, xarakteriga va turistik xizmatning qanday yo`naltirilganligiga javob berishi hamda umuminsoniy tamoyillarga qarshi bo`lmasligi kerak. Davlat standarti ta'rifiga ko`ra, turistik xizmatlar - turistlarning ehtiyojlarini qondirish faoliyati bilan shug`ullanuvchi turizm tashkilotlarining faoliyati mahsulidir.

Umuman xizmatlar - bu ko`zga ko`rinmas tovarning o`ziga xos turidir. Xizmat bevosita iste'mol jarayonida yuzaga keladi va alohida holda bo`lmaydi. Bu xizmatning tovar bilan asosiy farqidir. Bundan tashqari, tovar iste'molchiga olib kelib beriladi, turistik xizmatda esa iste'molchi bevosita xizmatning paydo bo`ladigan eriga olib boriladi. Shuning uchun ham turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish moddiy tovarlarni sotishga aloqador bo`lgan qonunlar asosida emas, balki boshqa qonunlar majmui bilan boshqariladi.

Turizm xizmatida eksport tushunchasi va qonun - qoidasi boshqacharoqdir. Ba'zi manbalarda ko`rsatilishicha - an'anaviy variantga ko`ra, turistlar guruhi boshlig`ining xorijiy davlatlardagi xizmatlari va xorijiy davlatda ishlash uchun yuborilgan avtobus haydovchisining xizmatlari turistik xizmatlarning eksportiga ta'luqlidir. Misol uchun, Gruziyaning "Turizm to`g`risida"gi Qonuniga ko`ra mamlakat ichidagi xizmatlar turizm importi, tashqarisidagi xizmatlar esa turizm eksportiga ta'luqlidir. Rossiya va O`zbekiston hududidagi mahalliy turistik korxonalar tomonidan xorijiy turistlarga ko`rsatilgan xizmatlar eksportga aloqadordir va buning uchun firmalar ba'zi imtiyozlardan foydalanadilar.

9. 2. Turistik xizmatlar tarkibi

Turistik xizmat tarkibiga - xizmatlarni buyurtma qilish, tashish, joylashtirish va boshqa barcha rasmiylashtirish ishlari, tashib berishning barcha turlari, transfer, ovqatlantirish, ekskursiya va attraksionlar, tibbiy ko`rik va sug`urta, tarjimon xizmatlari, uchrashuvlar va boshqalar bilan ta'minlash kiradi. Xizmatlar tarkibiga yana - guruh boshlig`i xizmati bilan gid - tarjimonning xizmati ham kiritilishi mumkin.

Har bir turning xizmatlar doirasi turlicha bo`lib, dastur bilan belgilanadi va har bir xizmatning o`z ichiga kiruvchi yana boshqa juda ko`p elementlari bo`ladi.

Agar turizmni ko`rib chiqadigan bo`lsak, umumiy tamoyillarga ko`ra, har bir turistik paketda eng kamida ikkita xizmat turi bo`ladi, bular: tashish va joylashtirish xizmatlar paketidir. Bularni asosiy turistik xizmatlar (ikkita)deyiladi. Mutaxassislarning fikriga qaraganda qo`shimcha turistik xizmatlar ham bo`lib, ularning soni 400 dan ortiq hisoblanadi. Yuqorida aytib o`tilgan ikkita (asosiy) xizmat turidan tashqari qolgan barcha xizmatlar qo`shimcha turistik xizmatlardir. Hatto, ovqatlantirish va ekskursiya xizmatlari ham. Turistning xohishiga ko`ra tashkilotchi tomonidan xizmatlar kengaytirilishi mumkin, yoki bu narsa tashkilotchilar tomonidan turistning tanloviga ko`ra belgilanadi. Ikkinchisi ma'qulroq, chunki, umumiy narxlar raqobatning tamoyillar va qadriyatlarga ko`ra minimal darajaga tushmoqda. Bu esa avvalambor xizmatlar paketining ham minimallashtirishiga olib kelmoqda. Shu asnoda har qanday millatdagi turist bo`lsa ham narxlarga e'tibor berishini hisobga olish zarur.

Asosiy ruhiy omilni belgilaymiz: turist turni sotib olish va tanlash davrida har qanday yo`l bilan bo`lsa ham harajatni kamaytirishga intiladi. Lekin, bu bilan uni ochko`z deya olmaymiz, vaholanki, shundaylari ham tez - tez uchrab turadi. Pulni sarflash - dam olishda katta huzur baxsh etadi. Turist dam olish vaqtida pulni o`ziga ishlatishni yaxshi ko`radi va shuning uchun ekskursiya shaklidagi yoki ko`ngilochar harakat shaklidagi qo`shimcha haridlar - erkin pul harjlashdir. Bunday holatda

quyidagi ibora qo'llaniladi: turist sayohat davomida oddiy hayotga nisbatan ancha ko'proq pul ishlatadi. U bu pullarni yil buyi yiqqan bo'lishi mumkin, lekin hech bo'lmasa 1 - 2 haftacha tejamkorlikdan dam olish uchun pulni o'ylamay sarflaydi. Xalqaro statistikaga ko'ra turistlar borgan joylarda haftasiga 600 AQSh dollarigacha pul sarflaydi, olmonlar xasislar kategoriyasiga kirishadi, chunki ular hammadan ko'ra kam pul sarflashadilar, ruslar bo'lsa hatto shopping - turist (tijoratchi)larni hisobga olmaganda, boshqa mamlakat va millatlarning turistlariga nisbatan 2 - 3 barobar ko'proq pul sarflashadi.

Tashish (olib borish) xizmati

Tashish xizmati bir nechta bo'limdan iborat. Birinchi bo'limi - Transfer - turistni asosiy yig'ilish joyiga olib kelish (aeroport, vokzal...) va uni belgilangan joyga tashish (olib borish. masalan, kurort, otel...). Ikkinchi bo'limi juda uzoq masofaga, xorijiy elga, yoki boshqa tur markazga tashish (olib borish). Buning samarasi texnikaning rivojlanishiga bog'liq. XIX asrda temir yo'lining qurilishi turizm uchun juda qulay sayohat qilish imkoniyatini yaratdi. Uning qulayligi nisbatan narxlarining arzonligidadir. Hozirgi rivojlangan davlatlarda (Yaponiya, Frantsiya, Italiya, Germaniya...) tezyurar poezdlar (360 km. s) aviatsiya bilan raqobatlashmoqda. Birinchi yuz yillikda turizm temir yo'ldan foydalanishga asoslandi va kamroq daryo va dengiz transportidan foydalanildi. Biz bilamizki Tomas Kuk Amerika va Evropa qit'alari bo'ylab turizmni tashkil qildi. Turizmning rivojlanishiga tashish (olib borish) xizmati asosiy to'siq bo'lib qoldi. XX asr o'rtalariga kelib havo yo'llari rivojlandi. Zamonaviy avialaynerlarga (12 ming. km) 300 gacha yo'lovchilar olinib boshlandi. Bir kecha kunduz davomida zamonaviy avialaynerda er sharining hohlagan eriga, hohlagan tur markazlariga borish imkoniyati yaratildi. Uzoq shimoliy rossiyaliklar uch - to'rt soatda issiq o'lkalarda, O'rta er dengizida bo'ladilar. Tovushdan tez uchar samolyotlar imkoniyati esa juda keng. Lekin, ularning xizmati narxi juda baland.

Xizmat sifatiga qarab tashish (olib borish) xizmati sinflarga ham bo`linadi. Yirik 14 ta sinf xizmatlariga: havo yo`llarida 5 ta sinf xizmati (birinchi biznes sinfi, ekologik, turistik va boshqalar); temir yo`llarida 4 ta sinf xizmati, avtobuslarda 5 sinf xizmatlari kiradi. Otellarni va restoranlarni klassifikatsiyaga bo`linishi hammaga ma'lum. Avialaynerdagi biznes sinfi turist yoki ekologik sinfdan farq qiladi. Xizmat sinfiga qarab narxlar ham farqlanadi, tur narxlari ham xuddi shunday.

Joylashtirish xizmati (aniqrog`i, mehmonxona industriyasi) haqida mazkur o`quv qo`llanmamizning 7 - mavzusida fikr bildirganimiz bois, bu erda alohida to`xtalib o`tishni joiz, deb bilmadik.

Ovqatlantirish xizmati

Zaruriyati yuzasidan joylashtirishdan keyin ovqatlantirish turadi. Tur davomida vaqtida ovqatlanmaslik tufayli turistlar kayfiyati joyida bo`lmaydi. Ertalabgi nonushta har doim joylashtirish hisobiga kiradi. Ikkinchi ovqatlanish mehmonxona zimmasiga yoki alohida turist xohishiga bog`liq bo`ladi. Ba'zilar: "turist uxlash va ovqatlanish uchun shunday uzoq joylarga boradimi?", - deb savol berishadi. Dam olish va oziqlanish - ajratib bo`lmaydigan talab, uning sifati turistning ta'surotlarini va tur xizmatining narxini belgilaydi. Qadimgi Rimliklarning "Non va tomosha bo`lsa", - degan naqli hozirgacha o`z kuchini yo`qotgani yo`q. Odamzot shunday yaratilgan, ertalab turib ovqatlanadi va keyin madaniy hordiq chiqaradi. Ovqatlantirish xizmati dam olish va rohatlanishdan yuqori turadi. Albatta, ovqatlanish bu rohatlanishdir. Mijoz talabiga ko`ra (milliy) taom bilan ta'minlanadi. Avstraliyaga borgan evropalik hech qachon qo`ng`iz va chuvalchanglar bilan oziqlanmaydi, lekin mahalliy xalq kengru go`shtidan bifshteks yoki timsox dumidan juda mazali taomni iste'mol qiladilar. Turistlar ham bu taomlarni qiziqish bilan tatib ko`radilar. Turizm tashkilotchilari ovqatlantirishni chuqur o`rganib chiqishlari va turistning ko`nglini to`ldirishlari zarur. Frantsuzlar qizil vinosiz tushlikni qoniqarsiz qabul qilishadi. Sharqliklar esa yog`li va achchiq ovqatni hush ko`rishadi. Amerikaliklar karamni bilishmaydi va undan tayyorlangan taomni emaydilar. Evropaliklar sup - pyurega

ko`nikishgan, ular ruslarning suyuq ovqatini istemol qila olishmaydi. Ular uchun bu “birinchi va ikkinchi taom bir idishda”, - degani. Turistlarni ovqatlantirish uchun har - xil millatlar taomlari yozilgan maxsus tavsiyanomalar bor. Ovqatlantirish xilma - xil bo`lishi va turist uchun kutilmagan sovg`a bo`lishi kerak.

Ekskursiya xizmati

Turistik xizmatlar tarkibiga ekskursiyalar, poxodlar ham kiradi.

O`zbekiston Respublikasining "Turizm to`g`risida"gi Qonunida: "ekskursiya faoliyati - turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa ob'ektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo`nalishlar bo`yicha ekskursiya etakchisi (gid) hamroxligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi", - deyilgan. Gid haqida esa: "gid (ekskursiya etakchisi) - tur qatnashchilariga turistik xizmatlar ko`rsatish shartnomasi doirasida ekskursiya - axborot, tashkiliy yusindagi xizmatlar va malakali yordam ko`rsatuvchi jismoniy shaxs", - deyiladi.

Ekskursiya (excursion) - turistga va ekskursant (bir kunlik ziyoratchi)ga taklif qilinishi mumkin. Ekskursiya turistik xizmat bo`lib, turistning estetik, ruhiy, boxabarlik va boshg`a qiziquvchanlik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Ekskursiya moboynda qatnashuvchilar olamni anglash,tabiat mo`jizalarini, tarixiy obidalarini ko`rish, shahar va parklarda bo`lish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

Ekskursiyashunoslik - bu alohida, jiddiy fan hisoblanadi. Birinchi Rossiya ekskursiya olib boruvchisi Pyotr I hisoblanadi. U xorijlik mehmonlarni Sankt - Peterburg bo`ylab olib yurib, qurilishlarni ko`rsatar va o`zining muvoffaqiyatlari bilan maqtanishni yoqtirar edi.

Ekskursiyaning o`ziga xos shartlari ham bor: tematika (mavzu), rejalashtirilgan yo`nalish (marshrut), ma'lum muddatga oldindan tayyorlangan matn va tabiiyki, ishtirokchilarning, ya'ni ekskursantlarning bo`lishi. Ekskursiyaning funksional ahamiyati - dam olish, madaniy saviyaning oshishi va muloqot hisoblanadi.

Attraksionlar, o'yinlar, ko'ngilochar mashg'ulotlar va o'yin biznesi ham turistik xizmatlar qatoridan joy oladi. Yanada aniqrog'i bularni qo'shimcha turistik xizmatlar, - deyiladi.

Ko'ngil ochishning uslublari va xillari chegarasiz darajada ko'p, negaki ular tashkilotchilarning fantaziyalariga bog'liq. Ko'ngil ochish mashg'ulotlarining 110 ga yaqin eng mashhur va ko'zga ko'ringan turlari mavjud. Texnika rivojlanishi va o'yingohlarning tashkilotchilari fantaziyasi bilan yangidan - yangi dam olish imkoniyatlari ko'paymoqda.

Har kimning ta'bi har - xil, ba'zi bir turistlar Parijdagi tarixiy eksponatlarini ko'rish uchun Luvr muzeyini hohlasa, ko'pchiligi Evro Disney - Uold Disneyning kashfiyotlarini tomosha qilishni yoqtiradi. Juda ko'p markazlar, xiyobonlar atraksionlar bilan to'la. Bular - arg'imchoqlar, qiyshiq oynalarning kulgu xonalari, uchish joylari. Misol uchun, Disney bog'ining tematik davomi bo'lgan kosmik uchishlarni boshqarish pulti shaklida jihozlangan bolalarning elektron o'yinlari uchun butun bir zalni ajratilgan "Disney Magik", Amerikada esa otlarda yurish, har - xil fantastik, mexanik va elektron ko'rinishdagi tomoshalardir. Hozirgi kunda yuqori darajaga erishgan "Disney Magik" kruiz laynerini keltirish mumkin. Atraksionlar tizimida bolalarning avtomat o'yinlari katta o'rin tutadi, kattalar uchun esa yanada jiddiyroq o'yin sanoatining yangi kategoriyasiga oid ko'ngil ochish mashg'ulotlari ma'quldir. Ular billiard, karta, ruletka va boshqalardir.

O'yin biznesi ko'ngil ochish tizimida alohida o'rin tutadi. Las - Vegas dunyoda o'yinlar biznesining poytaxti hisoblanadi. Cho'l o'rtasidagi kichkina shaharcha er yuzini o'zining o'yingoxlari bilan lol qoldirgan. Aynan, Las -Vegasda dunyoning eng katta 13 ta mehmonxonasi qurilgan. O'yin zallari bir vaqtning o'zida 1000 ta stolni o'z bag'riga oladi, minglab turistlar bu erda o'z omadlarini sinab ko'rishga kelishadi.

Kontsertlar, tomoshalar va sport tadbirlari

Turizm markazlarida mavsum davomida taniqli artistlar ishtirokida kontsertlar, har - xil tomoshalar, teatr artistlari, taniqli qo'shiqchilar bilan uchrashuvlar

uyushtiriladi, xalq o'yinlari, festivallari va karnavallariga katta e'tibor beriladi. Bular ham turistik xizmat qatoridan joy oladi. Masalan, sharqiy Finlandiyadagi Savonlin qadimiy qo'rg'onida har yili opera festivali ikki oy davom etadi. Bu opera festivaliga minglab turistlar tashrif buyurishadi (bir mavsumda 50 - 60 ming kishi). Frantsiyaning Nitsta shahrida avgust oyida esa jaz musiqasi festivali uch kun moboynida uchta katta zalda bo'lib, unda 100 dan ortiq musiqiy guruhlar, 300 ta taniqli musiqachilar ishtirok etishadi. Braziliyadagi karnavallar ham bunga misol.

Ko'pchilik turistlarni sport musobaqalari va birinchiliklari, avtomobil poygalari, tennis, olimpiada, futbol musobaqalari va boshqa o'yinlar qiziqtiradi. Bunday holatlarda kontsert, teatr va sport tomoshalarining chiptalari turpaket xizmatlari tarkibiga kiradi. Bunday tadbirlarni ham qo'shimcha turistik xizmatlar tarkibiga kiritib o'rganamiz.

Ish turistik xizmat turi sifatida

Ish xizmati doirasiga hamma turdagi xizmatlar hamda turizm xizmatiga aloqasi bo'lmagan ishlar ham kiradi.

Bu ishlar: banklar, kredit kartochkalar bilan bog'liq bo'lgan ish, aloqa xizmati, avtomobil yonlash, yoqilg'i quyish xizmati, texnik yordam xizmati, sog'likni saqlashga doir xizmat, bolalarga tarbiyachi va boshqa xizmatlardir. Shuningdek, maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatining barcha turlari ham turistik xizmatlardir. Masalan, fotoplyonkani yoritish, rasmni chiqarish, fotoapparat va vidiokamerani ta'mirlash, sartaroshxona xizmati, kiyimlar va buyumlarni ijaraga berish, oyoq kiyimlarni ta'mirlashlar ham shu xizmat tarkibiga kiradi. Turizmdan ajratib bo'lmaydigan soha bu turistlarni kuzatib borish (tinchligini ta'minlash). Qo'riqchilar mehmonxonada, muzeylarda va ko'chalarda ham turistlar bilan birga yuradilar. Misrda turistlar karvon bo'lib, besh - olti avtobusda cho'l bo'ylab yurganda qurollangan militsiya bilan kuzatib boriladi. Gretsiyada mahalliy militsiya tarkibiga - tur militsiyasi ham kiradi va har bir telefon kitobchalarida ularning raqamlari mavjud.

Turistik sayohat yakuni (uyga qaytish)

Yaxshi dam olish o'z yo'liga, lekin yaxshi kayfiyat bilan uyga qaytish ham muhim. HOMEWARD - muhim turistik xizmat bo'lib, turistni uyga qaytishini ta'minlaydi. Turizm boshqaruvchi yoki tur olib boruvchi turizm yo'nalishiga va qaytish muddatiga, turizm rejasiga, ushlanib qolish muammosiga, qaytib kelish muddatini o'zgarganiga, turistik guruhni kutib oluvchi transportni tashkil qilishga va boshqa tashkiliy ishlarga javob beradi. U turistning qarindoshlari yoki do'stlari kutib olishi uchun qaytib kelish muddatini, samolyotda, poezdda yoki avtobusda ekanligini etkazishi lozim. Agar imkoni bo'lsa, qaytayotgan turistni kutib olishni va boshqa shaharlik bo'lsa uni joy bilan ta'minlash uchun mehmonxonadan bron olishi lozim bo'ladi.

Xulosa

Mazkur mavzuda turistik xizmatlar haqida ma'lumot berilib, unda O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunidan sharh keltirildi. Shuningdek, turistik mahsulotlar (turistik xizmatlar, ish va tovarlar) haqida etarli fikrlar bayon etildi.

Turistik xizmatlar sifatida hatto turli o'yinlar, tomoshalar, sport tadbirlari, maishiy xizmat, sug'urta, axborot va moliya - bank xizmatlaridan misollar keltirildi.

Tayanch iboralar

- Turistik xizmatlar tarkibi
- Turistik mahsulotlar
- Turistik ishlar
- Maishiy xizmatlar

Nazorat va mulohaza savollari

1. Turistik xizmatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Maishiy xizmatlar qaysilar?

3. Turistik ishlar nimalardan iborat?
4. Turistik mahsulotlarni sanab bering?
5. Tashish xizmati nima uchun kerak?
6. Ovqatlantirish tizimi qanday?
7. Ekskursiya xizmatini kim tomonidan va nima uchun ko`rsatiladi?
8. O`yinlarning turizm xizmatida tutgan o`rni bormi?
9. Turistik sayohat yakuni haqidagi fikringiz qanaqa?
10. Kontsertlar, tomoshalar va sport o`yinlarini tur paketga kiritish mumkinmi? Nima uchun?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 - yil 27 - iyuldagi "O`zbekturizm" MKni tashkil etish to`g`risida"gi Farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo`li"ni qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora -tadbirlar to`g`risida"gi Farmoni.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to`g`risida"gi Farmoni.
4. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustda qabul qilgan "Turizm to`g`risida"gi Qonuni .
5. Биржаков М.Б. Введение в туризм. - СПб.: Издательский Торговый Дом «Герда», 2004, - 444 с.

10 - bob. Turistik tovarlar

10. 1. Turistik tovarlar haqida tushuncha

10. 2. Davlat boji olinmaydigan tovarlar

10. 1. Turistik tovarlar haqida tushuncha

Turistik tovarlar deganda - moddiy ta'minot buyumlari, yodgorliklar, sovg`alar va turist uchun zarur bo`lgan boshqa narsalar tushuniladi. Turist juda ko`p miqdordagi buyumlarni qabul qiladi va sotib oladi. Tovarining toifasi turizmga sayohatning xarakteriga va turizmning xilma - xilligiga bog`liq. Asosiysini shaxsiy ehtiyoj talab etadigan tovarlar egallaydi. Shuningdek, sport anjomlariga bo`lgan talab undan keyinda turadi.

Pul sarflashning keng tarqalgan usuli, sayohatning asosiy mazmuni bu rohat - halovat topishdir. Hatto o`ziga to`q odamlar ham pulni sayohat uchun to`playdilar va uni sanoqli kunlarda dam olishga sarflaydilar. Turist o`zi uchun odatiy bo`lmagan joylarni, shahar va mamlakatlarni ko`rishni istaydi. Sayohat har doim turistning qanday hordiq chiqarganligi, qiziqishi, qoniqishi va ta'surotlari bilan o`lchanadi. Turist sayohatdan qoniqishi va rohatlanishi uchun tur tovarlariga juda ko`p pul sarflaydi. Masalan, o`rtacha bir turist safar davomida 200 dan 500 \$ gacha, biznes - turistlar esa ko`proq, Avstraliya kongressiga kiruvchi turistlar 1000 dan 1200 \$ gacha pul sarflaydilar. Keyingi yillarda Rossiyalik turistlar eng boy va foydali turistlar hisoblanadilar. Rossiyalik turistlar bir safar davomida 3000 \$ dan ziyod pul sarflaydilar.

Turistlar yodgorlik sovg`alari va shaxsiy talabga qarab, shu yurti yoki joyi xarakterlovchi, sayohatni eslatuvchi sovg`alarni harid qiladilar. Masalan, Xaj va umra ziyoratiga borganlar Qur'oni Karim, joynamoz, tasbeh, bosh kiyim, zam - zam suvlarini sovg`a sifatida oladilar. Boshqa turdagi sayohatlarda esa quritilgan ilon terisi yoki afrikaliklarning yog`och barabanini harid qiladilar. Bu sovg`alar turistlarni

ko`rgani kelgan qarindosh va mehmonlarga ko`rsatiladi yoki sovg`a sifatida ularga ham beriladi.

Yana shunday narsalar borki, bular sayohat davrida sotib olinadi. Masalan, kartalar, lug`atlar, sohilda kerak bo`ladigan anjomlar, sport anjomlari, foto anjomlar, vidiokameralar shular jumlasidandir.

Turistik maskanlar va markazlar turistlar ko`p yig`iladigan joylarda alohida arzon narxlarini va bojxona talablarini qo`yadilar. Tovarlarining narxlari va bojxona xizmatidagi imtiyozlarlar boshqa davlatlarga nisbatan belgilanadi.

10. 2. Davlat boji olinmaydigan tovarlar

Ba'zi mamlakatlar xorijiy turistlar sotib olgan tovarlari uchun engillik va imtiyozlar yaratib berishgan. Masalan, chegaradan o`tayotganlarida ba'zi savdo markazlaridan sotib olingan tovarlarning ma'lum qiymatdagi puli qaytarib beriladi. Bunday qaytarib berish miqdori buyum narxining 20 % tashkil qilishi mumkin. Bu imkoniyat turistlarni qiziqtiradi va ular tomonidan tovar sotib olish imkoniyatini oshiradi (kiyim - kechak, elektronika, foto - texnika va boshqalar). Aeroportlarda, chegaralarda, dengiz kruiz sayyohlik sudnalarida bojxona imtiyozlari bor magazinlar faoliyat ko`rsatadi. Bu magazinlar turistlar uchun boshqa magazinlarga nisbatan 50 % gacha arzon ma'lum tovarlarni taklif etadi. Lekin, sotib olinayotgan tovarlarning soni chegaralangan. Bular ko`pincha porfyumeriya, spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, maishiy xizmat mollari, elektronika, oziq - ovqat mahsulotlaridir. Bojxona to`lovlarisiz savdoning imkoniyatlari juda keng.

Shopping

Turistlarning shaxsiy foydalanishi uchun olingan tovarlar, ya'ni qayta oldi - sotdi qilinmaydigan mollar - yumshoq shopping deb ataladi. Mayda tovarlar oldi - sotdilar ham turizmga ta'luqli bo`ladi.

Turistlar odatda ziyorat qilingan joylarda kerak bo'lmagan buyumlarni jarayon vaqtida rohat olish uchun harid qiladilar. Hamma turistlar o'z an'analariga munosib kerakli mahsulotlarni o'z xohishiga qarab harid qilishadi.

Bunday sayoxatlarda turga kiritilgan harajatlar - aviabilet, mehmonxona, ovqatlanishlardangina iborat bo'ladi. Shopping - yumshoq shopping asosan shaxsiy iste'mol tovarlari va sovg'alarini sotib olishdir.

Yosh kelin - kuyovlar to'y sayohati davomida ko'p pul sarf qilishadi (bu pullar qarindoshlarning to'yga bergan sovg'alari yoki to'yonalaridan iborat). Eng qimmat turistlarni, biznes turistlar tashkil qilishadi. Erkaklar ayollarga nisbatan ko'tarinki kayfiyatda dam olishadi, lekin ayollar tovar harid qilishga ko'proq pul sarflashlari barchaga ma'lum..

Tur narxiga turist tovarlarini qo'shilishi tushunchasi ham bor. Unga quyidagi misolni keltirish mumkin:

Turistning kunda ishlatiladigan buyumlari mavjud. 1998 - yilda uchta yirik nemis turistik kompaniyasi Dominika haftalik plyajiga pul to'lash hisobiga turistlarni 20 xil kiyim - kechak va plyajga kirish uchun chipta bilan ta'minlanganlar. Bu hol turistlarni yo'l anjomlaridan butkul holi bo'lish imkoniyatini bergan. Bu to'lov ichiga: bir kunlik kundalik ichki kiyim, cho'milish kiyimlari, dezodrantlar, tish shyotkasi (pastasi bilan) va boshqa buyumlar kirgan. Bu yangilik turistlarga ma'qul tushgan.

Shopping turlar

Bir davlatdan ikkinchi bir davlatga tovar olib o'tib sotadigan sotuvchilar - chakana sotuvchilar bo'lib, ular doimo xorijga sayohat yoki dam olish uchun emas, balki tijorat maqsadida boradilar. Ko'p mamlakatlarda chakana sotuvchilarning hayoti sumkalarini tovarlar bilan olib yurishdan iborat. Rossiyada esa ularni "chelnok"lar deb atashadi. Shuni aytish lozimki, ular mamlakat iqtisodi uchun katta foyda keltirishadi, millionlab kishilarni ish joylari bilan ta'minlashadi, davlatga chakana

mollar olib kirishadi. Bu tarmoqda pul aylanishi shu darajada kattaki, hatto, davlatlar ulardan soliq olish uchun alohida qonun va qoidalar qabul qilgan.

Shopping turlar bilan Xitoy, Germaniya, Rossiya va O'zbekiston va boshqa davlatlar turistlari ham shug'ullanadi. Shopping turlari boshqalar turlar orasida alohida o'rin tutadi. Bu jamiyatning iqtisodiy darajasini ko'rsatadi. Shvetsiya yoki Finlyandiyada kamdan - kam turistlar bu turizm bilan shug'ullanishadi. Umuman olganda, bu davlatlarda bunday o'lchamdagi shoppinglar yo'q. Rossiyadan Finlyandiyaga qatnaydigan turistlar 21 % tashkil etib, ko'pchiligi savdo - sotiq hududiga shopping turizm maqsadida kelishadi. Rossiyalik shopping turistlar Finlyandiyaga spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari hamda supurgini olib o'tishadi.

Xulosa

Ushbu mavzuda turistik tovarlar haqida ma'lumotlar berildi. Turistik tovarlarga sharh, ularni yodgorlik va sovg'alardan iborat ekanligi, bunday tovarlarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni o'rganildi. Shuningdek, ayrim sayohatlarga ketadigan mablag'lar miqdori haqida fikrlar bayon qilindi. Ba'zi mamlakatlar turistlarining safar davomida sarf qiladigan harajat summalari hamda davlat boji undirilmaydigan tovarlariga alohida e'tibor qaratildi. Kelajakda O'zbekistonda ham turistik tovarlarga davlat boji to'lovlari undirilmasligi masalasini ko'rib chiqish kerak.

Tayanch iboralar

- Turistik tovarlar
- Turistik tovarlar summasi
- Davlat boji
- Shopping turlar

Nazorat va mulohaza savollari

1. Turistik tovarlar deganda nimani tushunasiz?
2. Yodgorlik sovg'alari qaysilar?

3. Davlat boji nima?
4. Davlat bojidan ozod qilingan tovarlar haqida nimalarni bilasiz?
5. O`zbekistonda boj masalasiga qanday qaraladi?
6. Shopping turlar deganda nimani tushunasiz?
7. Biznes turlar haqidagi fikringiz?
8. O`zbekiston turistlari qaysi mamlakatlarga biznes turlarni amalga oshiradilar?
9. Respublikamizda xorijiy turistlar uchun biznes turni amalga oshirish mumkinmi?
10. Qaysi mamlakatlarda biznes turizm rivojlangan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 - yil 27 - iyuldagi "O`zbekturizm" MK ni tashkil etish to`g`risida"gi Farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo`li"ni qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora - tadbirlar to`g`risida"gi Farmoni.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to`g`risida"gi Farmoni.
4. O`zbekiston Respublikasi oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustda qabul qilgan "Turizm to`g`risida"gi Qonuni .
5. Основы туристской деятельности (Учеб. пособие). Составитель Ильина Е.Н. -М.: Советский спорт, 2000 г.
6. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Санкт - Петербург, 2000
7. Воронкова Л.П. История туризма и гостеприимства. Учебное пособие. ГРИФ. 2004.
8. Маринин М.М. Туристские формальности и безопасность в туризме. 2004.

11 - bob. Turistik mahsulotlar

- 11. 1. Turistik mahsulotlar haqida tushuncha
- 11. 2. Xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish
- 11. 3. Tur va turist yo`nalishi (marshruti)

11. 1. Turistik mahsulotlar haqida tushuncha

Turistik mahsulot (turist uchun mahsulot) - turizm jarayonida turistning ehtiyojini qondirish uchun kamida ikkita turistik xizmatlar (ishlar, tovarlar)dan tashkil topgan xizmatlar majmuasidir. Turistik mahsulot (turpaket) barcha ko`rsatilgan xizmatlar va harajatlarni o`z ichiga olgan narx bo`yicha taklif etiladi, uning iste'mol xususiyatlari esa shartnoma shartlarida ko`rsatiladi. Agar turistik xizmatlar ko`rsatish jarayonini kuzatadigan bo`lsak, unda turizm tashkilotchilari aynan xizmat ko`rsatish bilan shug`ullanmaydilar, balki ular turistlarning ehtiyojlariga qarab turistik xizmatlarni faqat jamlaydilar va ularning kombinatsiyalarini tuzadilar, band qiladilar, buning zvariga o`z foizlarini oladilar. Shunday qilib, turizm tashkilotchilari turistlar va xizmat ko`rsatuvchilar o`rtasida vositachilik vazifasini o`taydilar. Turizm tashkilotchilari nima bilan savdo qiladilar va turistik yo`llanma yoki vaucherni harid qilgan turist bevosita nimaga ega bo`ladi?, - degan savol tug`iladi. Agar ushbu jarayonni diqqat bilan o`rganilsa, unda turist ushbu yo`llanma yoki hujjatning boshqa turi evaziga kelajakda turistik xizmatdan (o`rnatilgan muddatda) foydalanish xuquqiga ega bo`ladi.

Bu holda turistik mahsulotning yangi ta'rifi paydo bo`ladi: turistik mahsulot - turga bo`lgan huquqdir. Jarayonning tabiiyligi bo`yicha baxslashib bo`lmaydi, garchi bunday ta'rif boshqa jarayonlarni, xususan sertifikatsiyalashni boshi berk ko`chaga olib keladi. Qonun bo`yicha turistik mahsulot sertifikatsiyalanishi lozim. Huquqni sertifikatsiyalashga hali hech kim o`rganmagan, zero turistning turga bo`lgan huquqi -

uning istak - xohishi ma'nosida - turga boradimi yoki bormaydimi, paketdan to'raligicha yoki bir qismidan foydalanadimi, rad etadimi, sotadimi va hokazo.

Albatta, ba'zi transportchilar bu fikrga hali etib kelishganicha yo'q. Balki shunisi to'g'ridir, chunki huquqning barcha qonun - qoidalari bo'yicha - chipta yo'lovchi va uni tashuvchi o'rtasidagi shartnomaning majudligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, undan (chipta va shartnomadan) yo'lga chiqish huquqi kelib chiqadi. Turistik mahsulotga turga bo'lgan mavjud huquqni berish uning mazmunini toraytiradi va uning tabiiy va huquqiy tabiatiga ziddir.

Shunday qilib, «turistik mahsulot turga bo'lgan huquq» o'zining ichki tabiati bo'yicha tor ma'no kasb etadi, chunki uni tashkil etuvchi murakkab paketdagi munosabatlarning faqat ozgina qismini ta'riflaydi. Biroq Rim huquqshunosligi manbalarida qoida mavjud - qonun yomon, lekin u qonun. Qonunni hurmatlash va unga rioya qilish kerak va shu sababli rasmiy jihatdan turistik mahsulot - turga bo'lgan huquqdir. O'zining jismoniy mohiyati bo'yicha xizmatlar, ishlar va tovarlar va sertifikatsiyalash, ya'ni sifat munosibligini baholash majmuasiga huquq emas, balki aniq xizmatlar, ishlar va tovarlar lozimdir.

Tur - bu aniq tavsiflar, geografik yo'nalish va ma'lum vaqt oralig'ida uni o'tish tartibi, xizmatlar ko'rsatish muddati tarkibi va sifati, turizm tashkilotchisi tomonidan maqsadga yo'naltiriltan va tartibga solingan kerakli va etarli turistik xizmatlar, ishlar, tovarlar, turistik mahsulotlarning to'plami bo'lib, ular eng kamida turistik mahsulotning ikkita turli tarkibi (masalan, joylashtirish va tashish)ni o'z ichiga olgan bo'ladi.

11.2. Xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish

O`zbekistonda ham turistik xizmatlar standartlashtiriladi va sertifikatlashtiriladi. Bu ish O`zbekiston metrologiya va standartlashtirish markazi va "O`zbekturizm" MK tomonidan amalga oshiriladi. Bunda doimo bosh talab xavfsizlikdir. Mahsulot yoki xizmatni sertifikatlashtirish berilgan mahsulot yoki xizmat turiga bo`lgan talablar asosida amalga oshiriladi. Bular tartibga tushirilgan va keraklicha o`rnatilgan qoidalar majmuasi - standartlar, qoidalar, talablardir. Davlat, soha, idoraviy standartlar qat'iy hisoblanadi, shuningdek, qoidalar, talablar, tavsiyalar va boshqa me'yorlar uchrab turadi.

Mahsulot yoki xizmatning standartlar, talablar yoki qoidalarga mos kelishini tekshirish majburiy yoki ixtiyoriy bo`lishi mumkin. Majburiy sertifikatlashtirish qonunchilik orqali o`rnatiladi. O`zbekiston respublikasining "Turizm to`g`risida"gi qonunida turistik mahsulotni majburiy sertifikatlash yozib qo`yilgan.

Mazkur qonun bo`yicha turistik mahsulot - turga bo`lgan huquqdir. Binobarin, qonunga asosan huquqni sertifikatlashtirish zarur bo`ladi, bunga esa hali jahonda hech kim o`rganmagan. Shunday bo`lsa ham, agar xuquqni sertifikatlashtirib bo`lmaslikdan diqqatni boshqa tomonga bursak, barcha xizmatlar sifatini ham baholash etarli darajada oddiy emasligi ko`rinib qoladi.

O`z - o`zini boshqarish tizimi, masalan, uyushmalar, ittifoqlar va boshqa jamoatchilik tashkilotlari, mehmonxonalar birlashmalari o`zlarining xususiy xizmat ko`rsatish standartlarini o`rnatadilar, ular faqat mazkur birlashma qatnashchilariga tegishlidir. Xalqaro AKKOR mehmonxonalar tizimi turli mamlakatlardagi 1100 dan ortiq mehmonxonalarni birlashtiradi, lekin bu tizimdagi mehmonxonalarning barchasi mehmonlarga xizmat ko`rsatishning yagona standartiga bo`ysunadilar, yagona firma uslubini qo`llaydilar. AKKOR tizimining maxsus organi ko`rsatilayotgan xizmatlarning yagona standartga muvofiqligini tekshirib turadi.

Respublikamizda turistik xizmatlar ko`rsatuvchi turoperator va turagentliklar, mehmonxona va transport tashkilotlari, ovqatlantirish va ekskursiyalarni tashkil etuvchi korxona - tashkilotlarni majburiy sertifikatlashtirish tizimi yaratilgan.

11. 3. Tur va turist yo`nalishi (marshruti)

O`zbekiston Respublikasining "Turizm to`g`risida"gi qonunida: tur - muayyan yo`nalish bo`yicha turistik xizmatlar majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta'minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat, - deyiladi.

Turist yo`nalishi (marshruti) - geografik atama bo`lib, muayyan hudud va ob'ektlar xususiyatlariga bog`lanadi. Unda turli darajadagi tafsilotlar, poxod, sayohat trassasi tasvirlanadi. Turist yo`nalishi (marshruti) yoki sayohatning qisqacha tavsifi illyustratsiyalar, haritalar, chizmalar, ob'ektlarning matn orqali tasvirlanishida ko`rinadi. Turizm ta'surotlari, sayohat qilinayotgan paytdagi (yoki keyinroq) turist yo`nalishi (marshruti) yoki sayohatdan esdalik sifatida o`zi foydalanishi yoki shunday yo`nalish takrorlanganda qo`llash uchun, shu yo`nalishdan o`tadigan yoki shu ob'ektga tashrif buyuradigan boshqa turist va sayohatchilar uchun qisqacha yozib o`tish sayohatchi faoliyatining mazmuni hisoblanadi.

Turning joyga geografik bog`lanishi bo`yicha tizimli, radial, xalqasimon va crossing - turlarini ko`rib chiqamiz.

Turist yo`nalishi (marshruti) jo`nab ketish joyidan, etib borish joyi (turistik markaz, kurort) gacha tizimli bo`lishi mumkin, ko`p hollarda turist etib kelgandan so`ng bitta otelda yashaydi, shu hudud chegarasida ekskursiya va boshqa yurishlarni amalga oshiradi. Har kuni bir joydan ikkinchi joyga ko`chib, o`z jomadonlari yoki ryukzaklarini yig`ishtirishni yoqtirmaydigan turistlar uchun bunday marshrut qulaydir. Bir joyga kelib, narsalarni joylashtirib, kuylaklarni shkafga ilib, shu hudud chegarasida ekskursiyaga va plyajga borib, oteldagi o`z xonasida etti - o`n kun yashash bunday turistlarga xosdir.

Orqaga qaytish bilan, tashrif buyuriladigan aholi punktlarida va ob'ektlarda tunab qolishni tanlangan turist markazdan radial joy o'zgartirish varianti ham mumkin. Masalan, Misrdagi Xurgada kurortiga etib kelgan turistlar issiq, quyosh va iliq dengizdan bahra olib, ikki kundan so'ng Qohira va Gizaga ikki kunlik sayohatga jo'naydilar. Xurgada otelidagi joy shu ikki kunlik ekskursiya mobaynida ular hisobida qoldiriladi.

Tashrif buyuriladigan hudud yoki mamlakat bo'yicha xalqasimon marshrut ham bo'lishi mumkin, bunda mamlakat yoki hudud kelib tushish joyi (shartli ravishda aeroport, temir yo'l stantsiyasi) o'zgaras, ya'ni mamlakat bo'ylab sayohat o'sha punktning o'zida boshlanadi va tugaydi. So'nggi variant krossing - tur deb ataladigan mamlakatlar uchun xosdir. Masalan, turist AQSHga Ngo -Yorkka keladi, mamlakat bo'ylab sayohat qiladi va o'z vataniga Los -Andjelesdan jo'nab ketadi. Turlar tashkil qilishning boshqa ko'plab variantlarini ko'rib chiqish mumkin. Umuman barcha narsalar tur marshrut bo'ylab turistlarni olib yurishni bron qilish tartibi aniqlab beradi.

Tabiiyki, turistik marshrutlarning turli variantlaridan tashkil topgan istalgan kombinatsiyalar amalga oshirilishi mumkin. Masalan:

Poxod (turist safari)

Poxod yoki turist safari - turistga ko'rsatiladigan xizmat (turistga ko'rsatiladigan xizmatlar majmuasi, turist uchun mahsulot) bo'lib, u turistlarni sog'lomlashtirish va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydi, agar poxod ko'p kunlik bo'lsa turist yo'nalishi (marshruti) bo'ylab yurish va ko'chib o'tishning faol uslublarini tashkil etadi. Poxodlar maqsadlari bo'yicha bir - biridan farq qilishi mumkin: sog'lomlashtiruvchi, sarguzashtli, sport bilan bog'liq yo'nalishlar, o'quv - mashq va boshqalar. Davomli ekskursiya ham poxodlar turkumiga kiradi.

Turist so'qmog'i

Turist so'qmog'i - turist qiziqishining predmeti va ob'ektidir. U doimo qiziqarli. Ushbu alohida mahsulot turizmning ikki xilidan kelib chiqadi. Birinchi va eng ko'p tarqalgani sanatoriyalar, dam olish uylaridagi piyodalar so'qmog'i bo'lib, u nazorat

qilinuvchi uzunlikda jismoniy harakat bilan engil sayr qilish uchun mo'ljallangan. Odatda so'qmoqlar bir tarafli xalqa yo'lak bo'lib, bir joyning o'zida boshlanadi va tugaydi. Bunday so'qmoqlar odatda yo'lni o'zi ko'rsatib turadi. Ularda ko'rsatkichlar va axborot plakatlari o'rnatiladi. Qo'riqxonali so'qmoqlar alohida turkumni tashkil qiladi, ular aholi va turistlarning ko'rish va ixtiro qilish tamoyilidagi mustaqil poxodlari uchun mo'ljallanadi. Tayyorlangan so'qmoqlar axborot vositalari, ko'rsatkichlar, plakatlar yoki batafsil ma'lumot yozilgan maxsus broshyuralar bilan ta'minlanadi. Turist so'qmoqlarining havfsizlik tomonlarini va tomosha qilish maydonchalarining tuzilishini hisobga olib tayyorlashning maxsus uslubiyoti mavjud.

Shunday so'qmoqlar borki, ularni turist guruhlar bilan o'tishda yo'nalishni biladigan yo'l ko'rsatuvchi talab etiladi, so'qmoqni yakka turist o'tishi tavsiya etilmaydi yoki man etiladi. O'ta murakkab marshrutlar turistlarning xordiq chiqarishlari uchun boshpana va uychalar bilan, ko'tilmagan holatlarda ishlatish uchun mahsulotlar bilan ta'minlanadi.

Turist so'qmog'ining boshqa varianti sinalgan yo'nalishdir, bu bir tomondan turist uchun qiziqarli (yoki tashrif, tomosha qilish uchun qulay yaqinlikda joylashgan) bo'lsa, boshqa tomondan, uni o'tishda eng ko'p qiyinchiligi bo'lgan so'qmoq hisoblanadi. Ko'p so'qmoqlar azaldan ovchilar, birinchi o'tuvchilar, mahalliy aholi tomonidan ochilgan, keyinchalik har erda hoziru - nozir turistlar tomonidan tezlik bilan eng chiroyli va o'tish oson bo'lgan joylar o'zlashtirib olingan. Turist so'qmog'i tushunchasi, shuningdek, milliy va boshqa bog'larning tuzilishi muammolariga ham ta'luqlidir. Turistlar uchun so'qmoqlar ochilganda, bir tomondan ular havfsiz va qiziqarli bo'lishi, boshqa tomondan, ushbu so'qmoqlar ekologiya va tabiatni asrash talablarini, imkoniyati boricha o'simlik va hayvonot olamiga kamroq zarar etkazishni hisobga oladi. Chunonchi, o'tgan asrda bunyod etilgan Kryuger (JAR) milliy bog'ida 2500 km.dan ortiq turist so'qmoqlari solingan, ular hozirga kelib turistlarni olib yuruvchi mikroavtobuslar uchun maxsus qoplamali yo'llarga aylangan, turistlar mashinada borayotib hayvonlarni kuzatishlari, kamyob jonivorlarni tabiiy

holatda suratga tushirishlari mumkin. Turist so`qmog`ining alohida turini dengiz parklarida suv usti va ostida kuzatish mumkin. Dengizda yashovchi hayvonlarni kuzatish uchun qirg`oqqa yaqnn joylardagi suv ustida maxsus ko`prikchalar yoki bir butun suv osti galereyalari Isroil va Avstraliyada qurilgan.

Xulosa

Ushbu mavzu turistik mahsulotlar haqida tushuncha, xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish, O`zbekistonda unga bo`lgan e'tibor, tur va turist yo`nalish (marshruti), poxod, turist safari va boshqalar haqida fikrlar bayon etiladi. Shuningdek, bu boradagi ba'zi amaliy ishlar bilan tanishiladi.

Tayanch iboralar

- Turistik mahsulotlar
- Xizmatlarni standartlashtirish
- Xizmatlarni sertifikatlashtirish
- Tur va turist yo`nalishi (marshruti)

Nazorat va mulohaza savollari

1. Turistik mahsulot deganda nimani tushunasiz?
2. Xizmatlarni standartlashtirish mexanizmi qanaqa?
3. Xizmatlarni sertifikatlashtirishda e'tibor berilishi lozim bo`lgan tomonlar qaysilar?
4. Tur nima?
5. Yangi yoki maxsus turistik yo`nalish (marshrut) ishlay olasizmi? Qay tarzda?
6. Xorijiy davlatlarda standartlashtirish tizimi qanday?
7. "Mehmonxonalar klassifikatsiyasi" nima uchun kerak?
8. Turga bo`lgan huquq deganda nimani tushunasiz?
9. Turning turlari qaysilar?
10. Turistik yo`nalish (marshrut)ning variantlarini aytib bering?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustdagi "Turizm to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbek Davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiyalashtirish markazining 1998-yil 31-dekabrda ro'yxatga olgan "Mehmonxonalar klassifikatsiyasi".
4. G.Nazarova, M.Mirzaev va boshqalar. Turizm huquqi. Toshkent, Talkin, 2003 y.
5. Trevel Guide Uzbekistan - Tashkent: National Company Uzbekturizm. 2003.
6. Tourism and Poverty Alleviation-Recommendations for Action.WTO. 2004.

12 - bob. Turistik resurslar

12. 1. Turistik qiziqish ob'ektlari

12. 2. Turistik resurslar

12. 1. Turistik qiziqish ob'ektlari

Turizm turistik resurslardan oqilona va maqsadli foydalanishga asoslangan. Turistik resurslar - turizm jarayonida insonlarning ehtiyojlarini qondira oladigan turizmga tegishli ob'ektlardir. Turistik resurslar bo'lmagan joyda turizm ham bulmaydi. Alohida turistik resurslar inson hayoti uchun xavfli bo'lishi ham mumkin. Turistik resurslar va ob'ektlardan turizm maqsadida foydalanish asosini turistik qiziqish va ta'surotlar tashkil qiladi.

Turistik qiziqish deganda - turistning turistik ob'ektdan aniq axborot - ma'lumot olib, his - tuyg'ularining oshishi, aql bovar qilmaydigan darajada nimagadir erishishi, pirovardida esa - uning dam olishi va ko'ngilochar tomoshalar ko'rishi uchun barcha shart - sharoitlarning mavjudligi tushuniladi.

Turistik qiziqish ob'ektlari - diqqatga sazovar joylar, tabiiy - iqlim xududlari, tarixiy - madaniy yodgorliklar, ko'rgazmalar va boshqa turistik safar yoki sayohatdan foydalanish jarayonida turist ehtiyojini qondirishga qodir bo'lgan ob'ektlardir. Lekin, ushbu ob'ektlardan turizm maqsadlarida real foydalanilish uchun quyidagilarni ta'minlay oladigan turizm infratuzilmasi va industriyasi zarur:

1. Ma'lum bir turistik ob'ekt to'g'risidagi axborotni turistga to'liq darajada etkazish uchun o'sha turistik ob'ektning o'zini har tomonlama bus - butunligi, ta'mirlanganligi;

2. Ushbu joyga turistik qulay va xavfsiz olib kelish;

3. Joylashtirish industriyasining barcha talablarga javob berishi;

4. Oziq - ovqatlar bilan etarli ta'minlanganligi;

5. Ko'ngilochar tomoshalarining mavjudligi.

Avstraliya qit'asi markazida qushlar orasida o'zining ajoyib shakliga ega bo'lgan qizg'ish rangli tosh, balandligi 349 m va uzunligi 9 km blgan qoya Ayres Rock joylashgan. Ushbu tabiat mo'jizasidan bahramand bo'lish uchun qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan bepoyon cho'lning yuzlab kilometrilarini bosib o'tish zarur va bunga asrlar davomida oddiy sharoitlarda, faqat sanoqli odamlargina musharraf bo'lishgan. Mamlakat fuqarolarining ekskursiya ob'ekti bo'lib hisoblanadigan mazkur hududda avtomobil va temir yo'llari, kichik aerodrom, bir nechta yuqori darajali otellar, turli xil ko'ngilochar restoranlar ham aynan shu erda turistlar uchun qurilgan. Turistlarning yagona va sevimli ko'ngilochar mashg'uloti - qoyaga chiqishdir. Bu erda alpinizm maktabi tashkil etilgan. Butun ulkan qoya tomon mohir yoki uquvsiz alpinistlar o'rmalayotgan yagona sport ob'ektiga o'xshaydi. Turistlar alpinistik qurollarning katta mikdoridan foydalanishadi va ko'plab foto va videoplyonkalar sarflashadi. Bu joy va ushbu obekt milliy faxr hisoblanadi va qit'adagi har bir fuqaro chin ko'ngil bilan ushbu toshga intiladi, xayotda bir martda bo'lsa ham ushbu joylarda bo'lib, unga chiqqisi keladi. Shu tariqa oddiy qoya o'z joylashgan o'rni va tashqi ko'rinishi natijasida turistik qiziqishning kuchli ob'ektiga aylandi. Industriya va infratuzilmaning yuqori rivojlanishi orqali turizm maqsadiga moslashtirilgan va real foydalanish mumkin bo'lgan joy yaratildi. Agar industriya va infratuzilmani olib tashlasak unda qoya cho'l o'rtasida asrlar davomida yakka turaveradi va haqiqiy jozibador turistik biznes ob'ektidan oddiy ob'ektga aylanadi. Bundan shunday xulosa chiqarish kerakki, har qanday turistik resursni ko'z - ko'z qilish uchun avvalo infratuzilma va industriya lozim. To'g'ri, bu erda qoya turistik resurs sifatida asosiy diqqat markazda turadi, lekin shart - sharoit, servisni joy - joyiga qo'yish bilan turistlarning kelishi ortadi, garchi qoyaning ahamiyati oshmasada.

Turist tabiatiga ko'ra qiziquvchan va intiluvchandir. U o'ziga ma'lum bo'lmagan nimanidir bilishga (ko'rish, eshitish) ga intiladi yoki turli xil manbalar (kitob, kino, video va hikoyalar) dan ma'lum bo'lgan yo umuman ma'lum bo'lmagan qandaydir ob'ektlarning sifatlarini bilish, o'z ko'zi bilan ko'rishga xarakat qiladi.

Barcha ob'ekt va hodisalar bir xilda ijobiy bo'lmay, ba'zilari xavfli hisoblanadi. Sarguzashtli yoki ekstremal turizm - bularga misol. Ekstremal turizm bu - zilzila bo'lgan er, vulqon otilgan joy, suv toshgan va bo'ron bo'lgan hududlarga qilingan sayohatlardir.

Shuni aytib o'tish kerakki, kelib - ketish va xavfsizlik qoidalarini mensimaslik natijasida turistlar xavfga va salbiy oqibatlarga duch kelishadi. (Yuqumli kasallik, lat eyish, baxtsiz hodisa va h. k). Masalan, inson bilan ilon orasidagi munosabatlar xavflidir. Ma'lumki, ilon bilan muloqatda bo'lish yomon oqibatlarga olib keladi, bu erda chaqish va o'lim xavfi turadi. Shunga qaramasdan turistlar zaxarli ilonlarga to'la bo'lgan Indoneziyadagi ilonlar ibodatxonasini qiziqish bilan tomosha qilishadi. Katta kobrani qo'lida yoki bo'ynida ushlab rasmga tushishadi. Tashrif buyuruvchilarning barchasi tomosha ob'ektining xavfi bilan tanishtiriladi. Lekin, ba'zi turistlar ibodatxonaga kirish qoidalarini mensimaydilar va ilon zaxri qurboniga aylanishadi. Xavfli ob'ektlarga yuzlab va minglab misollar keltirish mumkin.

Turistik ta'surot - turistik xizmat (ish) va mahsulotni iste'mol qilish, turistik tovarni xarid qilish natijasida yuzaga keladigan va egallanadigan ijobiy, ruhiy va jismoniy hissiyotlar yig'indisidir. Turistik ta'surot ekskursiyalar, chiroyli tabiat landshaftlari, attraksionlar va restoranlarga borganda va otellarda turganda yuzaga keladi. Turistik resurslar va turlarga oid turistik ta'surot ko'pgina tarkibiy qismlardan iborat. Turizmning asosiy yo'nalishi insonning dam olish va ko'ngil ochishga bo'lgan ehtiyojini qondirish ekan, turistik xizmatlarni iste'mol qilayotgan inson ko'rish, o'rganish, sog'liqni tiklash, sarguzashtlarni kechirish jarayonida ijobiy xissiyotlarni olishi rejalashtiriladi. Turizmning ba'zi - bir ko'rinishlarida bunday maqsad bo'lmaydi. Masalan, ishga aloqador yoki ritual (marosim) turizmida ko'ngilochar vositalar yo'q, lekin turist o'z oldiga quyidagi maqsadlarni bajarishdan qoniqadi. Turist qiziqishining aniq ob'ektidan olinadigan ta'surot bilan butun turistik mahsulotni istemol qilishdan olinadigan turistik ta'surotlarni farqiga borish kerak. Xatto a'lo darajada tashkil qilingan turistik safar dasturida va hodisalar rivojida vujudga kelgan

ozginagiga chigallik ham butun safar to`risidagi ta'surotni buzib yuboradi. Xayotning ko`ngilsizliklari unutiladi va faqat yaxshi xotiralar saqlanadi, - degan fikr mavjud bo`lsa ham, turizm tashkilotchisi mehnat samaradorligi turist ko`ngilsizliklariga sabab bo`lgan hodisasining mohiyatiga bevosita bog`liqdir. Turist turistik xizmat yoki mahsulotlardan mamnun bo`lishi kerak. Chunki, u o`zining ehtiyoj va xohishlarini qondirish uchun sarf - xarajat qilgan. Umumiy xollarda u zavq olishni xohlagan, lekin unday bo`lmagan. Bunda turizm mavjud bo`lmaydi. Yomon turlar va xizmatlar haqidagi gaplar boshqa yaxshi yangiliklarga nisbatan tez tarqaladi. Bunda shuni hisobga olish kerakki, turizm shaklini yoki aniq turistik sayohatni tanlashda tanishlarning maslaxati televizoridagi reklamalarga nisbatan ahamiyatliroqdir. Rasmiy tashkilotlar va ma'muriyatlar byurosiga turistlar tomonidan beriladigan eng keng tarqalgan savol - bu turistik firmaning ishonchliligi to`grisidadir. Bu fikr bir taraflama va mohiyatiga ko`ra etarlicha to`g`ri emas. Zavqlanishni har kim har - xil tushunadi. Lekin, barcha insonlar tomonidan deyarli bir hil qabul qilingan umumiy ijobiy qadriyatlar ham mavjud.

12. 2. Turistik resurslar

O`zbekiston Respublikasining "Turizm to`g`risida"gi qonunida: turistik resurslar - tegishli hududning tabiiy - iqlim, sog`lomlashtirish, tarixiy - madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy - maishiy ob'ektlari majmui, - deyiladi. Rossiya adabiyotlarida esa turistik resurslar - turizm jarayoni va maqsadlarida inson ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ega bo`lgan tabiiy - iqlim, ijtimoiy - madaniy, tarixiy, me'moriy va arxeologik, ilmiy va sanoat, manzarali, sig`inish va boshqa ob'ektlardir, - deb yozilgan. Bir - biriga o`xshash ta'riflar.

Turistik resurslar milliy boylik hisoblanadi. Lekin, ulardan alohida muhim ahamiyatga egalari xalqaro miqyosdagi ob'ektlar va esdaliklarga kiradi. Bunday ro`yxatni YuNESKO har yili belgilab boradi. Ma'lumki, O`zbekiston tarixiy va madaniy yodgorlik resurslariga boy mamlakat (1 - ilovaga qaralsin). Mana shu bebaho

merosimizning ko'pgina qismi insoniyat mulkiga aylanganligiga ko'p vaqt bo'lgan. YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga Xivadagi Ichon Qal'a 1990 - yil, Buxoroning tarixiy markazi 1993 - yil, Shahrisabzning tarixiy markazi 2000 - yil kiritilgan. 2001 - yil 12 - 16 dekabr kunlari Finlyandiyaning Xelsinki shahrida YuNESKO Jahon merosi Qo'mitasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib, unda Samarqand shahri ham YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritildi. Demak, endiliqda mazkur to'rttala tarixiy maskan xalqaro hamjamiyat muhofazasida bo'ladi. Hozirgacha dunyodagi 721 ta madaniy va tarixiy yodgorliklar YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Xalkaro turizm markazlari ishni yanada rivojlantirishlari lozim (2 - ilovaga qaralsin).

Barcha madaniyat esdaliklari va tabiat ob'ektlari davlat himoyasidadir, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan esdaliklarni saqlash va qo'llab - quvvatlash uchun BMT mablag'lari ham ajratiladi. Masalan, Misrda Asvon to'g'onini qurishda suv bosgan Abu Simbal (bu - Nil daryosi g'arbiy sohilidagi joy bo'lib, unda qoyatoshga o'rnatilgan ikki qadimiy Misr ibodatxonasi bor. Ular miloddan avvalgi 13 - asr 1 - yarmida qurilgan. Xaykallar, bo'rtma suratlar saqlangan. Bosh ibodatxonaning old tomonida Ramses II ning o'tirgan xoldagi 4 ta ulkan haykali mavjud) ibodatxonasi va ob'ektlarini saqlash maqsadida 40 mln. AQSh dollari ajratilgan. Ushbu qimmatbaho ob'ekt qismlarga bo'linib, balandroq joylarga olib chiqilgan va qayta ta'mirlangan. Afsuski, noyob tarixiy inshootning bir qismi suv tagida qolib ketgan, endi turistlar ularni suv tubida paraxoddan kuzatishlari mumkin.

Turizmning maqsadiga qarab tabiiy resurslarni bir nechta turlarga bo'lish mumkin. Masalan, Frantsiya shimolida joylashgan Mont Sant - Mishel tabiiy turistik resursida aql bovar qilmas darajadagi (suv satxi bilan ajralib turuvchi) dengizning ko'tarilishi va pasayishi hodisasi mavjud. Yoki, Xitoydagi yirik daryolardan birining deltasi kuniga ikki marta suv ko'tarilishida dengizdan daryoning oqimiga qarshi qudratli to'liq yuzaga keladi. Bu ajoyib xolat har kuni Cheng - xu - fa daryosida bo'lib o'tadi. To'liq balandligi 7 m., tezligi soatiga 27 km. Bundan tabiiy xolat (to'liq balandligi 14 m.) Amazonka daryosida ham kuzatiladi.

Indoneziyadagi Bali orolida turistlar uchun jozibador tabiiy resurs "betakror quyosh botishi" hisoblanadi. Aniq aytish mumkinki, bunday quyosh botishi boshqa qo'shni orolda ham, ya'ni ushbu kenglikda joylashgan boshqa okeanlardagi orollarda ham kuzatiladi. Lekin, puldor turistlar eng chiroyli kun botish manzarasi deb ishonishadi va ushbu manzarani tamosha qilish uchun erning o'ndan bir qismini bosib o'tishadi. Ushbu turistik mahsulotni xarakatga keltirish uchun haddan tashqari ko'p mablag ajratilgan. Joyning o'zida esa eng yuqori darajadagi servis tashkil qilingan. Bularning barchasi puldor mijozlarning kichik turistik guruhiga xizmat qiladi. Turlar 60 kun davom etadi. Aytib o'tish kerakki, turistlar nafaqat ibodatxonalar, ehromlar va inson tomonidan yaratilgan boshqa qadimiy inshootlarni, balki er yuzining turli xududlaridagi zamonaviy yutuqlarni ham - avtomobil zavodlarining yig'uv konveyerlari, turistlar tomonidan hayrat bilan qabul qilinadigan degustatsion zallar, kolbasa zavodlari, pivo ishlab chiqarish va shaxtalar, gidrotexnik qurilmalar va hatto gospitalarni bajonu dil ko'rib ketishadi.

Er tagi shaxta va tog` qazuv ishlarini kuzatuvchi turistlar guruhi ham mavjud. Masalan, barcha turistlar Janubiy Afrika Respublikasidagi Olmos konlari, oltin shaxtalarini kelib ko'rishadi. Ba'zi shaxtalardan ekskursion maqsadlarda emas, balki er tagida tabiat tomonidan yaratilgan o'ziga xos mikro iqlimda davolanish maqsadida foydalaniladi. Masalan, Alp tog'idagi oltin ruda eski shaxtasida (yuqori temperatura va namlikda radon ingalyatsiyasi) taklif qilinadi.

Turizm va ekskursiyaning keng tarqalgan turlaridan biri g'orlarga tashrif bo'lib, faqat Gretsiyada turistlar tamosha qilishi mumkin bo'lgan 3500 dan ortiq g'orlar va undan xam ko'proq tomosha qilinmaydigan g'orlar mavjud. Juda ulkan g'orlar Meksika, AQSh, Janubiy Afrika Respublikasi, Rossiya va boshqa mamlakatlarda joylashgan, ularning katta qismiga xavfsizlikni ta'minlash maqsadida oson bo'lgan zallarga qisqa muddatli tashriflar bilan chegaralanishadi. Sportchi turistlar uzoqroq va chuqurroqqa tushadilar, lekin buning uchun tegishli tayyorgarlik, qurollanish va turistik guruh kuzatuvi bo'lishi kerak.

Akvatoriyalar - muhim turistik resurslardan hisoblanadi. Dunyoda 50 mln. suv osti turizmi ishqibozlari maska bilan uncha katta bo'lmagan chuqurliklarda va akvalang bilan 70 m.gacha bo'lgan chuqurlikda suzishadi. Bunday sarguzashtlar ishqibozlari uchun suv osti dunyosini o'rganish haqiqiy orom hisoblanadi. Masalan, Qizil dengiz suv ostida suzish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega va kurortga kelganlar uchun ko'ngil ochishining eng muhim turlaridan hisoblanadi.

Suv osti xazinalarini, qadimiy yodgorliklar va cho'kkan korablarni qidirish va tamosha qilish turizmning eng muhim turidir. Gretsiya, Kipr, Italiya, Turkiya va O'rta er dengizidagi boshqa mamlakatlar o'zining er osti xazinalaridan unumli foydalanishadi. O'tmish yodgorliklari to'plangan suv osti hududlari faoliyatini tartibga soluvchi ko'pgina o'ziga xos milliy huquqiy aktlar qabul qilingan. Milliy adliya qonunlari bo'yicha suv osti xazinalari va buyumlarini faqatgina tamosha qilishga ruxsat berilgan. Ularning joyini o'zgartirish va olib chiqish ta'qiqlanadi. Suv osti tiriklik dunyosini tomosha qilish uchun suv osti turistik kemalari hamda deyarli barcha dengiz turizmi markazlarida mavjud bo'lgan turli kemalar qo'llaniladi. Maxsus turistik suv osti kemalari Bermuda (Atlantika okeanining shimoli - g'arbidagi bir to'da (150 gacha) marjon orollardan iborat. Shimoliy Amerikadan 900 km sharqda. Buyuk Britaniya mulki. Ma'muriy markazi - Gamilton shahri (Bermuda orolida). Orollardan eng kattasi - Bermuda oroli bo'lib, u so'nggan suv osti vulqoni cho'kkisidan iborat. Cho'kkining balandligi 79 metrgacha keladi. Iqlimi tropik sernam iqlim. Eng salqin oy - martning o'rtacha temperaturasi 16,7 gradus, eng issiq oy - avgustning temperaturasi 26,7 gradus. Dam olish hududi hisoblanib turizm rivojlangan. Banan, sitrus o'simliklar, gullar eksport uchun etishtiriladi. Ispan dengizchi sayyohi X. Bermudes tomonidan 1522 - yilda kashf qilingan), Kanar, Qizil dengiz orollari, Ispan kurort qirg'og'i Kosta Bravoda bor. Umuman mutaxassislarning baholashiga ko'ra, bunday suv osti kemalari soni 30 ga yaqin.

Cho'kkan kemalarni tamosha qilish - eng mashhur sarguzasht turlaridan biri. Fin ko'rfazida vikinglar (8 - asr oxiri va 11 - asr o'rtalarida Evropa mamlakatlariga

dengiz yo`li orqali savdo - sotiq uchun borgan, qaroqchilik va bosqinchilik yurishlari qilgan skandinavlar) va shved - rus urushlari davridan ikkinchi jahon urushi davrigacha bo`lgan turli vakillarga xos 5000 ga yaqin suv osti ob'ektlari aniqlangan. Krest burni atrofidagi Viborg rayoni alohida qiziqishga ega. U erda bir vaqtning o`zida kurashda halok bo`lgan 150 dan ortiq shved kemalari topilgan. Suv harorati sovuqligi tufayli kemalar yaxshi saqlangan. Fin qo`ltig`i suvida (arxiv ma'lumotlariga qaraganda) birinchi fin avliyosi - avliyo Genrix yotibdi. U 1720 - yili keltirilgan va ibodatxonaning boshqa xazinalari bilan birga suvga butunligicha tushurilgan. Tarixiy qiymatga ega bo`lgan shunga o`xshash ob'ektlar Ladoga ko`li (Rossiya) suvida topilgan. Bu xududlarda suv tagiga tushishlarni tashkil qiluvchi maxsus turistik firmalar faoliyat ko`rsatadi. Bir mavsumda turistlar miqdori 3000 ga etadi. Narxi yuqoriligi tufayli ko`ngil ochishning bu turi turizmning foyda yuqori turiga kiradi.

Turistlarning o`zgarmas, muqarrar talablaridan biri bahaybat sharsharalar - Neagara ( Shimoliy Amerikada - 51 metr balandlikda), Anxel (er yuzidagi eng baland sharshara - 1054 metr balandlikda) va Viktoriya (Janubiy Amerikada - 120 metr balandlikda) hisoblanadi. Neagara shu darajada o`zlashtirilganki, turistlar soatlar davomida uning yonida bo`lishadi. Qolgan ikkitasiga ham borish mumkin, lekin turizm infratuzilmasi yaxshi bo`lmagani tufayli bu erga tashrif buyuruvchilvr soni kam. Finlandiya Imatra nomli joyda turistlar uchun haftasiga yoki bayramlarda ochiluvchi juda go`zal sharshara mavjud.

Muhim turistik resurslarga noyob sig`imli inshootlar - ehromlar, maqbaralar, haykallar, ibodatxonalar, me'morchilik anjomlari, parklar, muzey kolleksiyalari hamda zamonaviy inshootlarning ko`p qavatli binolari va boshqa katta gidrotexnik inshootlar kiradi.

Shuningdek, qabrlar qandaydir darajada g`alati ko`rinsa ham, barcha asrlar davomida turizm nuqtai - nazaridan o`ziga tortuvchi kuch sifatida namoyon bo`lgan. Misrda qurilgan minglab ehromlar fir'avnlr, saroy a'yonlarining qabrlaridir. Maqbaralar eng ko`p odam keladigan ob'ektlar hisoblanadi, ularning ba'zilarini

me'morchiligining ajoyibligi va hajmining bahaybatligi tufayli dunyo mo'jizalariga kiritilgan.

Qadimgi dunyoning etti mo'jizasi

Dunyo mo'jizalariga noyob me'moriy inshootlar va ulkan haykallar kiradi. Ular qadimda yaratilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu inson tafakkuri noyob durdonalarining ko'pchiligi eskirgan va bizgacha afsona yoki haroba ko'rinishida etib kelgan. E'tiboringizga ularni havola etamiz:

1. Giza ehromlari (Misr) - bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan bunday ob'ektlar ichida eng qadimiysi - Xeops (dunyodagi eng katta) ehromi bo'lib, u hozirgi kungacha o'zining monumentalligi va hajmiga ko'ra inson aqli zakovatining noyobi va ajoyiblaridan biridir. Ehrom eramizdan 2500 yil avval yaratilgan. U tamosha qilish uchun Misrga kelgan barcha turistlarning asosiy turistik ko'rgazma ob'ekti hisoblanadi. Eng katta va mashhur ehromlar Misr poytaxti Qohira atrofida Giza deb nomlanuvchi joyda joylashgan. Yana o'sha joyda afsonaviy jonzot sfinksning gigant statuyasi joylashgan. Sfinks - qadimgi Misrda gaudasi shernikiga, boshi odamnikiga o'xshatib ishlangan afsonaviy jonzod haykali, podshoh hokimiyati timsoli). U Xeops ehromi bilan birgalikda Misr timsoliga aylangan. Shuni aytib o'tish kerakki, misrliklardan bunday tuzilishni greklar olishgan va qadimiy Gretsiyada inson boshi bilan sherni ifodalovchi statuyalar mavjud.

2. Semiramidaning (osma) samoviy bog'lari - Vavilonda qurilgan va nafis me'moriy shakllarini bog'bonchilik konstruksiyalari bilan uyg'unlashtiruvchi ajoyib asar bo'lgan. Bog'lar eramizdan avvalgi 800 - 600 yillarda Bobylonia poytaxtida Babylon Kir saroyi devorlari chegaralarida Sammu - ramat malikaga atab Navuxodonosor II tomonidan qurilgan (Vaviloniya poytaxti qadimda janubiy Iroq xududida joylashgan). Chiroyli bog'lar balkonlarga, bino va ayvonlar tomi ustiga qurilib, o'simliklar daryodan nosos bilan olingan suvdan sug'orilgan. Samoviy bog'lar klassiklar tomonidan to'liq va mufassal tasvirlangan, turli xil rasmlar bo'lgan, lekin ular saqlanmagan.

3. Olimpdagi Zevs haykali (Gretsiya) - Xukmdorning taxtda o'tirgan ulug'vor haykali. U eramizdan avvalgi 430 - yilda qurilgan bo'lib, grek haykaltaroshi Phidias ning ikkita shedevidan biridir, uning salobatli - uzunligi 12 m, bir qismi oltin rangli metall bilan qoplangan fil suyagi va qimmatbaqo toshlar bilan bezalgan. Ibodatxona eramizning 426 - yili buzilgan. Xaykal butun qolmagan, hatto nusxasi ham yo'q.

4. Artemida ibodatxonasi (Gretsiya) - Artemida - Zevs va Letoning qizi. Apollonning egizak singlisidir. Boshida o'q - yoy, ba'zan yarim oy holatida tasvirlangan. Bu ibodatxonani qurgan Krez Lidiyaning eng so'nggi hukmdori edi. Lidiya esa qadimgi kichik Osiyo, zamonaviy Turkiya maydonidagi davlat bo'lgan. Krez o'zining boyligini ko'z - ko'z qilishni xush ko'rardi va miloddan avval 560 - yilda Efes shahrida buyuk ibodatxona qurdi. Efes shahri esa ibodatxonani qurilishidan 1000 yil avval barpo etilgan. Afsonalarga qaraganda, bu shaharni barpo etganlar, Amazonkalik jangchi ayollar to'dasi bo'lgan. U ayollar Efes shahrining asoschilaridir. Krez ushbu ibodatxonani oy, hayvonlar va yosh qizlar ma'budasi uchun qurmoqchi bo'ldi. Oy ma'budasini yunonlar Artemida deb atasalar, Rimliklar Diana deb nomlashgan. Ibodatxona marmar va eng mashhur toshlardan iborat bo'lib, 120 ta marmar ustunlardan qurilgan, ulkan ustunlar 20 metrgacha etgan. Marmar ustunlar bitgach, uning ustiga marmar tosh yasalgan. Ibodatxona butunlay qurib bo'lingach esa o'sha davrning mashhur ustalari unga o'z chizgilarini berishgan. Ibodatxonaning o'rtasida Artemida haykali bo'lgan. Bu ibodatxona eng yirik hisoblanib, keyinchalik Afinada qurilgan Parfenon ibodatxonasiga uning o'lchamlari o'xshab ketgan. Artemida ibodatxonasi egallagan maydonning uzunligi 131 metrni, kengligi 79 metrni tashkil etgan.

Ikki yuz yil o'tganidan so'ng, ya'ni miloddan avvalgi 356 - yilda ibodatxona yonib kul bo'lgan. Bunday yovuz ishni Gerostat nomli inson bajargan. U bu ish bilan faqat mashhur shaxs sifatida tarixda iz qoldirmoqchi bo'lgan xolos va bunga erishgan ham. Yana qiziq holatni tarix bizga hadya qiladi. Ibodatxona yoqib yuborilgan kun Iskandar Zulqarnaynning tug'ilgan kuniga to'g'ri kelar ekan. Yillar o'tgach Iskandar

Efes shahrini ziyorat qiladi, shu erda Artemida ibodatxonasi bilan qiziqib qoladi va uni qaytadan qurib ta'mirlashga farmon beradi. Farmon bajarilgach, ibodatxona asl ko'rinishini tiklamagan bo'lsada, lekin o'zining dastlabki qiyofasiga yaqin keladi.

Artemida ibodatxonasi miloddan avvalgi III asrgacha mavjud bo'lgan, keyinchalik turli to'fonlar va tabiiy ofatlar natijasida ko'plab zarar ko'rgan. Ibodatxonaning qimmatbaxo buyumlarini o'g'rilar talagan bo'lsalar, qolgan qismi sekin - astalik bilan dengiz to'fonlari tufayli buzilib ketgan. Xozirgi kunda Efes shahrida Artemida ibodatxonasidan faqatgina bir qancha marmar bo'laklari va bir dona qayta tiklangan marmar ustun bor, xolos. Qidiruv ishlarida topilgan fragmentlar va skulpturalarning asosiy qismi dunyo muzeylarida, qisman Britan muzeyida saqlanmoqda.

5. Halicarnassus mavzoleyi, Anatolain Mausolus qabri - uning singlisi va bevasi Artemisia farmoniga ko'ra qurilgan.

Mavzoley eramizdan avvalgi tahminan 353 - 351 yillar orasida me'mor Pythius yoki Pytheos tomonidan qurilgan va eng mashhur to'rt grek haykaltaroshlari tomonidan bezatilgan: Scopas, Bruaxis, Leochares va Timotheus. Kichik Pliniy tomonidan ishlangan mavzoley tavsifi ma'lum. Mavzoley tomonlari 125 m bo'lgan kvadrat shaklida bo'lgan. Bino 36 kolonna bilan o'ralgan. Bino tomi ustida 4 ta marmardan qilingan gildirakli ot arava o'rnatilgan. Mavzoley haykaltaroshlik fragmentlari Britaniya muzeyida saqlanadi. Mavzeleyning buzilish sababi ma'lum emas, Lekin eramizning X - XV asrlari davridagi er silkinishlari natijasida buzilgan, - degan tahminlar mavjud. Bino buzilishidagi uning elementlari va g'ishtlari mahalliy bino va inshootlar qurilishida ishlatilgan.

6. Rodossning ulug'vor haykali (koloss) Colossus Rhodes - quyosh xudosi Helios ga atab qurilgan bu bahaybat haykal Rhodes shahridagi dengiz bo'yida joylashgan. U eramizdan avvalgi 292 - 280 yillarda bronzadan qurilib, temir va toshlar bilan mahkamlangan. Haykalning balandligi 30 m va u 12 yil davomida qurilgan. U juda kam vaqt davomida mavjud bo'lgan, eramizdan avvalgi 225 - yilda

er silkinishidan buzilgan, uning qoldiqlari eramizning 653 - yiligacha o'sha erda yotgan. Eramizning 653 - yili shaharni bosib olishganda haykal butunlay buzib tashlangan va metall sifatida 900 tuyaga orilib olib chiqib ketilgan.

7. Aleksandriyadagi Forss mayoqi (Misr) - Ptolomey II tomonidan eramizdan avvalgi tahminan 280 - yilda Rharos orolida qurilgan. Qadimiy dunyoning eng mashhur mayoqi. Mayoq balandligi 160 m. Aleksandriya mayoqi o'z davridagi noyob texnik inshoot hisoblangan. Inshootning asosi kvadrat, qolgan qismlari qavatma - qavat sakkiz burchakli, mayoqni uchi esa aylana shaklidagi minora. Minora tepasiga aylana tokchada yoritgichga borilgan. Mayoq yoqib yuborilgan, qoldig'i esa er silkinishlarida buzilgan. Bizning kungacha esa faqat uning tavsifi, rasm va chizmalari etib kelgan. Mayoq inshootining bir qismi eramizning XII asrigacha etib kelgan, 1477 - yil mamlakat sultoni bino g'ishtlarini olib, inshootlar qurilishida ishlatishga farmon bergan. Shunday ma'lumotlar borki, uchinchi ming yillik boshlarida Misr hukumati mayoqni dastlabki yaratilgan shaklida tiklashmoqchi va uning konstruksiyasini kuchli seysmik karkas bilan o'zgartirib, undan turistik diqqatga sazovor joy qilishmoqchi.

Ba'zi dunyo mo'jizalarining qadimgi ro'yxatlarida yuqorida aytib o'tilgan ob'ektlardan bittasining o'rniga Vavilon minorasi yoki Fors shohi Syrus saroyi kiritilgan. Dunyo mo'jizalarining boshqa ro'yxatlari ham mavjud, ularga o'rta asrlarda yaratilgan ob'ektlar, hozirgi zamon inshootlari va kashfiyotlari kiritilgan.

Dunyo mo'jizalariga "Buyuk xitoy devori"ni kiritish adolatdan bo'lardi. Mustahkam qal'a devordan iborat ulkan inshoot butun mamlakat uzra Xitoyning shimoliy qismida sharqdan g'arbga cho'zilgan. Devorni qurish eramizdan avvalgi tahminan 250 - yil imperator Chuin Shin Huang Ti tomonidan boshlangan. Asosiy ishlar eramizning III asriga kelib tugagan. Muhandislik nuqtai - nazaridan, bu inshoot Misr ehromlarining barchasi qo'shib olinganda unga sarflangan ishdan yuqorida turadi. Inshootning ahamiyati g'arbiy - shimoldan keladigan dushmanlar bosqinidan saqlanish bo'lgan. Devor qurilishiga uzoq davr mobaynida yuz minglab ishchilar

ishtirok etishgan. Devorning uzunligi har bir insonni hayratda qoldiradi. Devorning haqiqiy uzunligi to'g'risidagi ma'lumotlar bir - biriga to'g'ri kelmaydi. Shunday ma'lumotlar borki, devor uzunligi 2150 mil (4500 km) deb ko'rsatiladi. Ginnes kitobida inshoot uzunligi 6200 mil deb ko'rsatilgan (qurib bitkazilmagan qismlar bilan birgalikda). Devor balandligi turlicha 5 m. dan 10 m. gacha, qalinligi 10 m. gacha. Devor ustiga yo'lak qurilgan va unda yurish mumkin bo'lgan. Xitoy sayyoxi Lin Youdia 1990 - yil birinchi bo'lib devor ustining u boshidan bu boshigacha piyoda bosib o'tgan. Devorning yaxshi saqlangan qismi Pekin (Beydjing) shimoliga 70 km joydan o'tgan va mashhur turistik ob'ekt hisoblanadi.

Shuningdek, mashhur g'orlar, qal'alar va qasrlar ham turistik resurslar tarkibiga kiradi. Mashhur g'orlar -er osti bo'shliqlari qo'riqlash ob'ekti hisoblanadi, ba'zan u er osti suvlari faoliyati natijasida engil eruvchi loyqali tuzlardan (gips, tosh tuzi, dolomit, ohak tosh) tashkil topib juda katta xajmlarda bo'ladi. Dunyodagi eng katta g'or AQShning Kentukki shtatida joylashgan Mamont g'ori hisoblanadi. U bir qator stalaktik zallar va koridorlardan iborat, umumiy uzunligi 530 km dan ortiq. Er yuzasida eng chuqur g'orlardan Frantsiyadagi Per - Sen - Marten (chuqurligi 1171 m) va Berje g'oridir. Chuqur g'orlarda, er osti dengizlarida va ko'llarda o'ziga xos fauna va flora topilgan: baliqlar, suvda va quruqlikda yashovchilar va hashoratlar bo'lib, ular butunlay qorong'ulikda yashaydilar, ko'rishga qobil emas, ularda ko'zlarning o'rniga mo'ylari, oyoqlari rivojlanadi. Ba'zi g'orlardan tarixiy odamlar turar joylari, devoriy rasmlar topilgan. Dunyodagi ko'pchilik g'orlar turizmning eng mashhur ob'ektlari hisoblanadi va davlat himoyasida bo'ladi.

Qal'alar

Mashhur turistik ob'ektlarga davlat mulki va qo'riqlanuvchi xudud, - deb e'lon qilingan o'rta asr qal'alari kiradi. O'rta asr feodallari, qirollar, sultonlar, shohlar va boshqa hukmdorlar yashagan istehkom uy - joylari ham qal'alardir. Qal'a - qasrlar odatda etib borish qiyin joylarga, tikka tepaliklarga va tog'larga qurilgan. Qal'alar atrofiga aholi to'plangan va u erda yashovchilar dushman kelgan paytda qal'aga

yashirinishgan. Qal'alar uzoq oylab qamalga chidagan va amalda ularga kirib bo'lmagan. Vaqt o'tishi bilan alohida qal'alar katta shaharlar va hatto poytaxtlar markazida joylashib kolgan.

Qal'alar arxitekturasini va ichki joylashuvi bo'yicha juda ham turfa xildir. XIV va XV asrlarda qal'alar o'zlarining harbiy ahamiyatini yo'qotishgan va borgan sari saroy ahli va aristokratlar saroylariga aylanishgan. Qal'a inshootlarining katta qismi bizgacha xaroba ko'rinishida etib kelgan, lekin Ispaniya, Germaniya va Shveytsariyadagi saqlangan va qayta tiklangan qal'alar asosan muzey ko'rinishida o'rta asrlarning jihozlar, kartinalar, idish - tovoqlar, mebel va intererning ichki elementlarining ajoyib kolleksiyalari bilan jihozlangan.

Qal'alar turistik dasturlarning ob'ektlaridan biri hisoblanadi va turistlar bajonidil ularga borishadi. Eng mashhur qal'alar Germaniyada, Shveytsariyadadir. Ispaniya va Frantsiyada esa tarixiy yodgorliklar ko'p miqdorda joylashgan. Frantsiyaning ajoyib, noyob qasrlari buyicha maxsus turistik marshrut taklif qilinadi.

Polshada 20 dan ortiq qal'a ma'lum. Keyingi vaqtlarda harbiy ahamiyatini yo'qotgan qal'alar o'rniga saroy xarakteridagi ko'rkam qasrlar qurila boshladi.

Bavariyadagi (Germaniya) Noyxshvanshtayn qasri noyob hisoblanadi. Ko'p minorali ushbu qasrning tashqi arxitekturasini Uold Disneyga, Disneylend tipidagi barcha tematik parklarga (Amerika, Evropa va Yaponiyada) emblema qilib qo'yilgan. Disneylendning afsonaviy parklari yaratishida prototip bo'lib xizmat qilgan. Mashhur qal'alar qatoriga Viborg shahridagi qal'a (Rossiya) va Finlyandiyadagi Neyshlot (Savanna) larni qo'shish mumkin.

Xulosa

Turistik resurslar turistik qiziqish bilan bog'liq. Ya'ni, turistik resurslar turistlarda qiziqish uyg'otishi kerak. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Qiziqish ob'ektlarini turizm tashkilotchilari izlab topishlari kerak.

Turistik resurslar bo'lsagina turizm amalga oshadi. Ularsiz turizmni tasavvur etish mumkin emas. Resurslar turizmning yuragidir. Turistik resurslardan unumli va maqsadli foydalanish lozim.

1 - ilova

O'zbekistonning tarixiy va madaniy yodgorlik resurslari

O'zbekiston Respublikasi turizm markazlari

Poytaxti Toshkent shahri. Iqlimi - mo'tadil, subtropik iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 447,4 ming kv. km., aholisi - 25 mln., tili - o'zbek, dini - islom, pul birligi - O'zbekiston so'mi.

O'zbekiston tarixi va kelajagi buyuk davlat. Eng qadimgi madaniyat durdonalari. IX - XV asrlardagi madaniy hayot. O'zbekistonning "Buyuk ipak yo'li"dagi markaziy hudud ekanligi.

Ko'hna madaniyat markazlari: arxeologiya - Afrosiyob, Varaxsha, Sopolli tepa, Fayoz tepa, Shosh tepa, Oq tepa, Shohruxiya yodgorliklari; davlatchilik - Xorazm, Baqtriya, So'g'd, Kushon, Qang' davlatlari; shaharsozlik - Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon, Toshkent, Karmana, Qarshi kentlari; me'morchilik - Shohizinda, Zangi ota, Bahovuddin Naqshband, Shayh Hovandi Tohur majmualari; Registon, (Ulug'bek, Tillakori, Sherdor), Ko'kaldosh, Baroqxon, Abdulqosim madrasalari; Go'ri Amir, Ruhobod, Bibixonim maqbaralari; masjidlar va boshqa inshootlar; hunarmandchilik - sang (tosh) taroshlik, zargarlik, zardo'zlik, misgarlik, yog'och o'ymakorlik, ganch o'ymakorlik; san'at - adabiyot, musiqa, raqs, haykaltaroshlik, miniatyura va rassomchilik, hattotlik, kashtachilik va boshqalar.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida bunyod etilgan me'morchilik va shaharsozlik. "Buyuk ipak yo'li"ning qayta tiklanishi. Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur Mirzo, Ahmad al - Farg'oniy, Alpomish haykallarining, Bahovuddin Naqshband, Imom al - Buxoriy, Burhonuddin al - Marg'inoniy, Abu Mansur Moturudiy yodgorlik majmualarining, temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Xotira

maydoni, Shahidlar xotirasi xiyoboni obidalarining barpo etilishi va ularning turizm markazlari sifatida namoyon bo'lishi.

Interkontinental, Sheraton, Le Meridian, Afrosiyob mehmonxonalarining, Hayvonot bog'i, Akvaparklarning ochilishi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Andijon, Namangan, Farg'ona, Marg'ilon, Jizzax, Guliston kabi shaharlarning zamonaviy qiyofaga kirishi, ulardagi me'morchilik binolarining milliylik xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 - yil 3 - noyabrda "Bahovuddin Naqshband tavalludining 675 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi, 1993 - yil 23 - aprelda "1994 - yilda o'rta asrlarning buyuk olimi Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning 600 yillik yubileyini o'tkazish to'g'risida"gi, 1994 - yil 29 - dekabrda "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, 1996 - yil 3 - yanvarda "Buxoro va Xiva shahrining 2500 yillik yubileyini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi, 1997 - yil 29 - aprelda "Imom al - Buxoriy tavalludining hijriy - qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, shu yili 27 - noyabrda "Ahmad al - Farg'oniy tavalludining 1200 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, shu yili 23 - dekabrda "Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligini nishonlash to'g'risida"gi, 1999 - yil 27 - dekabrda "Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida"gi qarorlarining tarixiy ahamiyati va ularning turizm ishiga qo'shgan ulkan hissasi.

Samarqand viloyati yodgorlik resurslari

Samarqand tarixi. Ko'hna Afrosiyob. Amir Temur va temuriylar davrida madaniy hayot. Arab sayyohi ibn Battutaning Samarqandga tashrifi. Ispan elchisi Lui Gonzales de Klavixoning Temur saroyida bo'lishi.

Samarqand me'morchiligi: Shohizinda majmuyi. Milodiy 7 - asrda yashagan payg'ambarimizning amakivachchasi bo'lmish Qusam ibn Abbos 677 - yili shu erda shahid bo'lib, dafn etilganlar. Mazkur yodgorliklar majmuyi uning sharafiga

Shohizinda (Tirik shoh), - deb ataladi. Unda asosan melodiylar 9 - asrdan turli maqbaralar qurila boshlagan. Amir Temur bu erda gozal binolar - maqbaralar bunyod ettirgan. Arab sayyohi Ibn Battuta ham Shohizinda ziyoratida bo'lgan. Majmuyda Qusam ibn Abbos maqbarasidan tashqari Qozizoda Rumiy, Shirinbeka og'a, Shodi Mulk og'a, Tuman og'a, Tug'li Tekin, Amirzoda, Usta Ali, Amir Burundiq, Xo'ja Ahmad hamda shaxsi noma'lum maqbaralar, sakkiz yoqli shaybon va boshqa inshootlar mujassam. Barcha maqbaralar 14 - 15 asrlarga oid.

Go'ri Amir maqbarasi. Maqbara asli Temurning farmoni bilan nabirasi Muhammad Sulton xotirasi uchun qurdirilgan, lekin, oradan besh oy o'tgach, Temurning o'zi ham shu erda dafn etilganligi sababli, Go'ri Amir nomini olgan. Bu erda Temur va Muhammad Sultondan tashqari, sohibqironning o'g'illari - Shohruh va Mironshoh, nabirasi Ulug'bek, ustoz Mir Sayyid Baraka hamda Shoh Xo'ja ismli shaxsi noma'lum qabrlar mujassam. 1941 - yili iyun oyida Go'ri Amir maqbarasida arxeolog komissiya qazishmalar o'tkazgan.

Ruhobod maqbarasi. Shayx Burxonuddin Sag'arjiy nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu maqbara Amir Temur tomonidan qurdirilgan va uning ma'naviy piri, - deyiladi. 19 - asr ma'lumotlarida uning oldida masjid, minora, darvozaxonalar bunyod etilganligi yozilgan.

Bibixonim masjidi. Amir Temurning Hindistonga zafarli yurishi sharafiga 1399 - yili gozal malikasi Saroy Mulkxonim masjid qurdira boshlagan va uni 1404 - yili tugallagan. Masjid ro'parasida Bibixonim maqbarasi ham mavjud. 1941 - yilgi arxeologik ekspeditsiya ushbu maqbarani ham ochgan. Unda Bibixonim jasadi Temur va Ulug'bek jasadlari kabi mo'miyolangan edi.

Registon. Bu erda uchta yodgorlik ansambli mujassam:

Mirzo Ulug'bek madrasasi. 1417 - yili Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan. O'z davrida ilm - fan markaziga aylangan. Uning me'morchiligi monumental peshtoqlar, yon gumbazlar va minoralardan iborat. Madrasa pishiq bo'lishiga qaramay

shimoli - sharqiy minora peshtoqdan qochib, ancha og`a boshlagan, 1932 - yili minora to`g`rilangan. Madrasa juda ham hashamatlidir.

Sherdor madrasasi. 1619 - 1636 yillarda Samarqand shahri hokimi Yalangto`shbiy Bahodir farmoni bilan qurdirilgan. Registondagi Mirzo Ulugbek madrasasining qarama - qarshi tomonida joylashgan va Ulug`bek madrasasining me'moriy uslubini qaytargan. Uning me'mori usta Abduljabbordir. Madrasa diniy oliy o`quv yurti vazifasini bajargan. Uning peshtoqi alohida bezaklar va koshinlar bilan bezatilgan. Peshtoqdagi sherlar tasviri juda jozibali. Sherlarning ohuga tashlanayotgan manzarasi tasvirlangan. Sherlar orqa fonida quyush aks ettirilgan. U odam qiyofasidadir.

Tillakori madrasasi. 1646 - 1647 yillarda qurilgan bu bino ham Yalangto`shbiy Bahodir tomonidan bunyod etilgan. U Registondagi me'moriy yodgorliklar kompozitsiyasini simmetrik tarzda to`ldiradi. Ichidagi masjid nihoyasiga etmagan. Masjid markaziy xonasi jozibali va damdabalidir. Barcha xusnkor jilolarga tilla suvi yurgizilgan. Shuning uchun uni Tillakori, - deb ataladi.

Ulug`bek rasadxonasi. Mashhur rasadxona Cho`pon ota tepaligi etagida, Obirahmat arig`i bo`yicha qurilgan. Bobur uni uch qavatli, usti sirli qilib bezatilgan edi, - deya yozgan. Rasadxona diametri 46,40 metr, balandligi kamida 30 metr bo`lib, ichida katta asbob o`rnatilgan. Bu erda quyosh, oy va boshqa sayyoralar kuzatilgan. Uni arxeolog V.L. Vyatkin topgan va ochgan. Buzilib ketgan rasadxonadan hozirda uning er ostidagi qoldig`i qolgan, xolos.

Abu Mansur Moturudiy maqbarasi. Uning to`liq nomi - Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al - Xanafiy al - Moturudiy as - Samarqandiydir. U Samarqandning Moturud mavzesida 10 - asrda tug`ilgan, xanafiya mashabining yaratilishida faol ishtirok etgan. Uning ta'limoti Muvarounnahr, Turkiya va Hindistonda keng yoyilgan. Qabri Chokardiza qabristonida. 2000 - yil O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov farmoni bilan yodgorlik qayta tiklandi, go`zal ziyoratgohga aylandi.

Imom al - Buxoriy maqbarasi. 9 - asrda yashab, "hadis ilmida amir al - mo`miniyn", - degan sharaflı nomga sazovor bulgan muhaddislarning eng buyugi hisoblanadilar. Bobomizdan "Al - jome' as - sahih" dek asar bunyod bo`lib, uning nomini butun islom olamiga tanitdi. Ul zot Buxoro shahrida tavallud topganlar. Ziyoratgoh esa Samarqand viloyatining Chelak tumanidagi Xartang qishlog`ida joylashgan. Prezidentimiz farmoni bilan 1998 - yil buyuk muhaddisning hijriy - qamariy taqvim bo`yicha 1225 yilligi keng nishonlanib, unga ajoyib yodgorlik majmuyi bunyod etildi.

Hazrati Hizr masjidi. Samarqandda qurilgan birinchi masjid shu ekanligi rivoyat qilinadi. 19 - asrning o`rtalarida qadimgi masjid poydevoriga hozirgi masjid o`rnatilgan. Tikkalikda joylashgan bu masjidning oldi peshayvonli bo`lib, hashamatli. Xonaqoh, darvozaxona, minoralardan iborat. Turli davrlarda qurilgan va tiklangan. Bosh me'mori usta Abdulqodir Boqievdir. Yaxshi niyatlar bilan unga yuqoridagi nom berilgan.

Buxoro viloyati yodgorlik resurslari

Buxoro tarixi. Ko`hna Varaxsha. Somoniylar davlati. Shayboniyxon asos solgan Buxoro xonligi. Savdo karvonlari, hunarmandchilik, ilm - fan va madaniyatning rivojlanishi. Rossiya, Xitoy, Hindiston kabi davlatlar bilan savdo va elchilik aloqalarining olib borilishi. Italiyalik mashhur sayyoh Marko Poloning, ingliz sayyohi Antoni Jenkinson, rus elchisi Ivan Xoxlov, Boris Pozuxin, venger sayyohi va olimi Xerman Vamberilarning Buxoroga tashrifi. Buxorodan Rossiyaga Qozi No`g`ay, Mulla Farruh, Hoji Farruh, Ernazar elchilarning elchi bo`lib borishlari. Buxoro temir yo`lining qurilishi.

Buxoro me'morchiligi:

Ark. Uning Siyovush tomonidan ilk bora qurilishi. 7 - asrda Buxoro hokimi tomonidan qayta tiklanganligi. Shayboniylar davrida hozirgi qiyofasi (ansambl ko`rinishi)ni olishi. Obida 20 metr balandlikda va 4,2 gektar maydonni egallagan ulkan inshoot bo`lib, ko`p burchakli, atroflari qo`rg`on devorlari bilan o`ralgan. Arkda

hokimlar, xonlar va amirlar istiqomat qilishgan. Unda zarbxona, xazina, zindonlar bo`lgan.

Ismoil Somoniy maqbarasi. Somoniylar sulolasining asoschisi Ismoil Somoniyni otasi qabri ustiga bunyod etilgan bu yodgorlik 9 - 10 asrlarga mansubdir. U kub shaklida va usti yarim sharsimon qubballi bo`lib, burchaklari ham to`rtta kichik qubbalardan iborat. Devorning qalinligi 1,8 metr. Pishiq g`ishtdan qurilgan. Keyinchalik Ismoil Somoniyni o`zi ham shu erga dafn etilgan.

Mahoki Attori masjidi. 9 - 16 asrlar obidasi hisoblangan ushbu masjid shahar markazidagi attorlar rastasi yonida joylashganligidan shunday nom olgan. Tosh ustunga qurilgan bu masjiddagi peshtoq va tahmonsimon eshik o`ymakor ganch, g`isht, koshin, sopol g`ishtchalar bilan bezatilgan. Juda go`zal, o`ziga xos yodgorlik hisoblanadi.

Chashmai Ayyub maqbarasi. 12 - asr yodgorligi bo`lgan mazkur obida to`rttda binodan iborat bo`lib, turli davrlarda bunyod bo`lgan. U Ayyub payg`ambar nomi bilan atalgan. Aytishlaricha, qurg`oqchilik yillarida payg`ambardan yordam so`raydilar. Ayyub esa hassasini erga sanchganda buloq otilib chiqqan. Shundan ushbu nom berilgan. Yodgorlik jarda, ya'ni buloq oqib turgan joyda turibdi. Temur bu erda ham ikkita bino bunyod etgan. To`rttala yodgorlikning hammasida o`ziga xos qubbalar mujassam.

Namozgoh masjidi. Ushbu yodgorlik 12- , 14- , 16 - asrlarga tegishli bo`lib, gumbaz, naqshinkor peshtoq, mehrob koshinlar bilan bezatilgan.

Minorai Kalon. Markaziy Osiyo hududidagi eng baland minora (46,5 metr) hisoblangan ushbu minora 1127 - yilda qoraxoniylardan Arslonxon hukmronligi yillarida qurdirilgan. Pishiq g`ishtdan terilgan, ichidagi zinapoyasi 104 tani tashkil etadi. Ustida 16 darchali mezon bor. Minoradan azon aytilib namozga chaqirilgan va undan dushmanni kuzatishda ham foydalanilgan. Poydevorining chuqurligi 10 metrdan oshadi.

Sayfuddin Bahorziy maqbarasi. Bu yodgorlik 13 - asrda yashab ijod etgan kishining nomi bilan bog`liq bo`lib, ziyoratxona va maqbaradan iborat. Keyinroq maqbaraga taqalib katta peshtoq qurilgan. Ikki tomonida ikkita mezona mujassam.

Buyon Qulixon maqbarasi. Bu yodgorlik Sayfuddin Bahorziy maqbarasi bilan bilan yonma - yon joylashgan bo`lib, 14 - asrda Samarqandda o`ldirilgan mug`ul xoni chingiziylardan Buyon Qulixon mozori ustiga bunyod etilgan, ikki xonali. Sag`ana kichik xonada. Yodgorlikning to`rtta tomonida ustunlar bor. Maqbaraning ichki va tashqi tomoni zangor, ko`k, binafsha ranglar bilan bezatilgan va naqshinkordir.

Ulug`bek madrasasi. Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug`bek ushbu madrasani 1417 - yilda qurdirgan. Ulug`bek Gijduvon va Samarqandda ham madrasalar bunyod etgan. Lekin, ilk madrasasi Buxorodadir. U to`g`ri to`rtburchak shaklida. Unda hovli, peshtoq, darsxona, masjid bo`lib ikki qavatli. Ustasi Ismoil Tohir o`g`li hisoblanadi.

Masjidi Kalon. Bu arxeologik qidiruv ma'lumotlariga qaraganda 12 - asrda qadimgi imorat qoldiqlari ustiga 14 - 15 - asrlarda qurila boshlanib, 16 - asr boshlarida ta'mirlangan. Jome masjidi hisoblanib, Bibixonim masjididan keyin kattaligi jihatdan Markaziy Osiyoda ikkinchi o`rinda turadi. Yodgorlikning qurilish an'analari temuriylar davrini eslatadi. Uning ettita eshigi bo`lib, asosiy eshigining ichki va tashqi tomonlari ayvonlar bilan bezatilgan. Masjid 127 x 78 metr bo`lib, bir gektar maydonni egallagan. Hovlining yo`lagi 208 ta ustun tepasiga qurilgan 288 ta qubba bilan qoplangan.

Mir Arab madrasasi. 1530 - yilda qurilgan bu madrasa tarxi xuddi Mirzo Ulug`bek madrasasi kabidir. Faqat darsxona o`rniga maqbara joylashgan. Maqbaraning ichiga Mir Arab dafn etilganligi bois, unga shu nom berilgan. Mir Arab asli yamanlik shayx Abdullohdir. Maqbarada uning avlodlari ham joylashgan. U turli koshinlar, ganchlar bilan bezatilgan. Obida ikki qavatli bo`lib, hujralardan iborat.

Ko`kaldosh madrasasi. Yodgorlik Abdullaxon hukmronligi yillari (1578 - yil)da qurib bitkazilgan bo`lib, Markaziy Osiyodagi yirik madrasalardan biridir.

Uning 160 ta hujrasi bor. Eshigi, peshtoq, ayvonchali bolxonalar go`zal qilib qurilgan. Peshtoq koshinlarida ko`k, yashil va oq naqshinkor bezaklar o`simliklarni tasvirlagan. Madrasada yozuvchi Sadriddin Ayniy yashagan va o`qigan.

Qo`sh madrasa. Qo`sh madrasa deyilishiga sabab, ikkita madrasadan iborat. Biri Modarixon madrasasi (1566 - yil), ikkinchisi Abdullaxon madrasasi (1588 - yil) dir. Bular ham Ko`kaldosh kabi Abdullaxon davrida qurdirilgan. Modarixonning xajmi kichikroq, bezaklari oddiy uslubdadir. Abdullaxon esa serhasham.

Bozor toqilari. Shayboniylar sulolasi davrlarida turli savdo toqilari qurilgan: Toqi sarrofon (sarroflar -bir davlatning pulini ikkinchi bir davlat puliga almashtirib beruvchi kishilar); Toqi telpakfurushon (telpak, do`ppi sotuvchilar); Toqi kitobfurushon (kitob sotuvchilar); Toqi zargaron (zargarlik buyumlari tayyorlovchilar va sotuvchilar). Bularning bari 15- asrga oid me'moriy yodgorliklarimizdir.

Labihovuz maydoni. Maydon o`rtasida 1620 - yili katta hovuz qazilib, atroflari sinchlar bilan mustahkamlangan, harsanglardan zinapoyalar, marmardan tarnovlar ishlangan. Hovuzning eni 36 metr, bo`yi 45,5 metr, chuqurligi 5 metr bo`lib, uning g`arbiy tomonida Nodir Devonbegi xonaqohi (Labihovuz masjidi), sharqiy tomonida Nodir Devonbegi madrasasi, shimoliy tomonida Ko`kaldosh va Ernazar elchi nomli madrasasi (saqlanmagan) qad ko`targan. Bari obidalar 16 - 17 asrga oiddir.

Abdulazizxon madrasasi. Ushbu yodgorlikni Buxoro xoni Abdulazizxon 1652 - yilda Ulug`bek madrasasi ro`parasida qurdirgan. Juda dabdabali peshtoqi bor. Unda Xitoy ajdari va semurg` qushining surati aks etgan. Me'mori Mimxokon ibn Xo`ja Muhammadamindir. Madrasada ikkita masjid bor.

Chor Minor. 1807 - yilda qurilgan mazkur madrasani xalifa Niyozqul madrasasi ham, deb ataladi. U me'moriy majmuydan iborat. Ya'ni, ayvonsimon masjid, bir qavatli madrasa, hovuz (hozirda ko`milgan) va maftunkor old darvoza. Ushbu darvoza zangor va ko`k koshinlar bilan bezatilgan 4 ta baland mezonali qubbka shaklida qurilgan. Mezanalar husndor va minoraga o`xshaydi, shu boisdan madrasani Chor Minor deyiladi. Unda Hindiston masjidleri me'morchiligi an'analari ko`rinadi.

Bolahovuz masjidi. Ark qarshisida 1712 - yilda qurilgan. U hujralar va 20 ta baland yog`och ustunlardan iborat, hashamatli ayvondan tashkil topgan. Ayvonlar 1917 - yilda qurilgan.

Sitorai Mohi Xosa. Mazkur saroy shahar tashqarisida, shahardan 4 km. shimolda mavjud. Amir Ahadxon 1892 - yilda eski saroyini qurdirgan. Shuningdek, bu erda evropa uslubida yangi majmua ham bunyod etilgan. 6,7 gektarga ega bog`i mavjud. 1917 - yilda Amir Sayyid Olimxon yangi saroyini rus muhandislari Sokovich va Margulislar, bezaklarini esa Usta Shirin Murodov rahbarligida qurdiradi.

Xorazm viloyati yodgorlik resurslari

Qadimgi Xorazm tarixi, arxeologiyasi, davlatchiligi, sa'nati, ilm - fani, dini, hunarmandchiligi.

Xiva "Ichan qal'a" tarixiy me'morchilik qo`riqxonasi muzeyi: 1920 - yil 26 - aprelda sobiq Xiva xoni qabulxonasi binosida ochilib, dastlab Xorazm Respublika tarix - inqilobiy muzeyi, 1924 - yilda Xorazm viloyat tarix - inqilobiy muzeyi, 1970 - yildan "Ichan qal'a" me'morchilik qo`riqxonasi bilan birlashtirilib, Xiva "Ichan qal'a" tarix -me'morchilik qo`riqxonasi - muzeyi", - deb atalgan. "Ichan qal'a"ga to`rtta darvozadan kirilgan: Bog`cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza.

Me'moriy obidalar:

Ko`hna Ark. Xivaning qadimgi qal'asi. Qal'a tarixi Xiva tarixi bilan bog`liq. Unda 19 - asrga oid xon va amaldorlarning xovlilari, aslaxaxona, o`q - dori tayyorlaydigan ustaxona, omborlar, oshxona, otxona, zindon, qo`chqor urushtiriladigan maydon bo`lgan. To`rtta hovlidan tashkil topgan.

Sayyid Alovuddin maqbarasi. 14 - asrda So`fi Amir Kulol Naqshband tomonidan ustozi shayx Alovuddin mozori ustiga qurdirgan maqbara peshtoqli, unda ziyoratxona va go`rxona mavjud. Sag`anaga Sayyid Alovuddinning vafot etgan sanasi (1303 - yil) bitilgan.

Uch avliyo maqbarasi. 16 - asrda qurilgan. Noma'lum uch kishining qabrlari mujassam. Peshtoqi baland, gumbazli katta xonasi bor. Buxorolik ustalar qurgani bois, Xiva yodgorliklaridan ajralib turadi.

Arab Muhammad madrasasi. 1616 - yilda Xiva xoni Arab Muhammadxon tomonidan qurdirilgan. Me'mori kim ekanligi noma'lum. To'rtburchak shaklida emas, trapetsiya shaklida qurilgan. Darsxonasi bostirma ustida. Gumbazli xonali.

Anushaxon hammomi. 1657 - yilda Oq masjid yonida Abdulg'ozixon tomonidan o'g'li Anusha Muhammad Sultonning Karmanadagi g'alabasi sharafiga qurdirilgan.

Xo'jamberdibek madrasasi. 1688 - yilda qurilgan. Hujralar bilan o'ralgan, dastlab bir hovlili bo'lgan. Olloqulixon madrasasi qurilgach, Xo'jamberdibek madrasasi ikki hovlili qilib qayta bunyod bo'lgan.

Sherg'ozixon madrasasi. Xiva xoni Sherg'ozixon Mashhad (Eronning shimoli - sharqiy qismidagi shahar)da qilgan g'alabasi sharafiga 1719 - 1728 yillarda qurdirgan. Uning ro'parasida Pahlavon Mahmud maqbarasi joylashgan. Madrasa hovlisi o'rtada, to'rtburchak shaklida, bezaksiz, sodda va bir va ikki qavatli, hujralar, masjid, darsxona bor. Peshtoqi katta.

Muhammad Amin Inoq madrasasi. 18 - asrda Xiva xoni Muhammad Amin Inoq (1770 - 1785) hukmronligi davrida qurilgan. Bir qavatli hovlida ikkita ayvon bo'lib, darsxona, masjid, xujralar bor.

Juma masjidi. Masjidning tashqi ko'rinishi sodda. Ichki katta xonada 212 ta ustun bor. Bezaklar 18 - 19 asrga ta'luqli. Ustunlarning to'rttasi 10 - asrga oid. Shuningdek, 14 - asrga ta'luqli ustunlar bor. 18 - asrda masjid qayta ta'mirlanib, baland minora ham qurilgan.

Bog'bonli masjid. Buni aka - uka bog'bonlar bunyod ettirgan. Uning tomi gumbazli, ikki ustunli peshayvondan iborat. Me'mori Pahlavon Quli bo'lib, 1809 - yilda qurilgan. Ba'zi bezaklar 14 - asrga oid.

Muhammad Aminxon madrasasi va minorasi. Xiva xoni Muhammad Aminxon tomonidan 19 - asrda qurdirilgan. Kalta minor uning yonida joylashgan. Xonning o`limi minora qurilishini to`xtatib qo`ygan. Shu bois, uning bo`yi 26 metrlicha qolib ketgan. Madrasa ikki qavatli bo`lib, birinchi qavatdagi xujralar dahlizli, ikkinchi qavatdagilari ayvonli.

Muhammad Rahimxon madrasasi. 19 - asrda Xiva xoni Sayyid Muhammad Rahimxon II (Feruz) tomonidan qurdirilgan. Ko`hna Ark ro`parasida bo`lib, kattaligi bo`yicha Muhammad Aminxon madrasasidan keyin ikkinchi o`rinda turadi. Unda yozgi va qishgi masjid, darsxona, kutubxona, xujralar mavjud. Old qismi ikki, qolganlari bir qavatli.

Pahlavon Mahmud majmui. U gumbazli xonaqoh, maqbara va ziyoratxonalardan iborat. 19 - 20 - asrlarga oid. Darvozaxonadan kichik hovliga o`tiladi. Qarshisida katta peshtoq, gumbazli xonaqoh, maqbara, g`arbida qorixona, sharqida ayvon, hovlida quduq mavjud.

Islom xo`ja madrasasi va minorasi. Isfandiyorxonning bosh vaziri Islom xo`ja o`z davrining taraqqiyparvar shaxslaridan biri bo`lib, 1910 - yilda mazkur obida qurilishini amalga oshirgan. Shuningdek, u mahalliy bolalar uchun madrasa va minoradan tashqari maktab, kasalxona, pochta, ko`prik va yo`llar ham barpo etgan. Uni xivalik usta Xudoybergan hoji qurgan.

Olloqulixon davridagi me'morchilik: Olloqulixon Xiva xoni bo`lib, 19 - asrda yashagan. Muhammad Rahimxonning o`g`li. Uning davrida Karvon saroy, tim, madrasa, Tosh hovli, Oq masjid, Sayyidboy masjidi kabi inshootlar qurilgan.

Olloqulixon karvon saroyi va timi. To`g`ri to`rtburchak shaklida, hovli va ikki qavatli xujrali. Karvon saroy ichkarisiga ikki gumbaz ostidan o`tiladi. Hovlida ot - aravalarga mol ortish uchun barcha qulayliklar bo`lgan. Gumbazli tim karvon saroydan keyin qurilgan.

Olloqulixon madrasasi. Xiva xoni Olloqulixon tomonidan 19 - asrda qurilgan. Uni ro`paradagi Xo`jamberdibek madrasasiga o`xshatib ishlangan va shu bois,

me'morchilikdagi usullardan qo'sh madrasa bunyod bo'lgan. Madrasa sun'iy tepalikda qurilgan. Hovlisidagi ikki qavatli xujralar soni 99 ta.

Toshhovli. Olloqulixon tomonidan 19 - asrda qurilgan. Avval haram, keyin mehmonxona, arzxonalar bunyod bo'lgan. Devorlari koshinli, ganch, yog'och, tosh o'ymakorligi mujassam 163 xonali. Unda xon oilasi yashagan, idoralar joylashgan, elchilar, arz bilan kelganlar kutib olingan.

Oq masjid. Uch tarafi ayvonli. Yassi tom ustidagi gumbaz oppoq bo'lib ko'ringani uchun shu nom bilan ataladi. Panjaralar va eshiklardagi naqshlardan tashqari bezaklari ko'p emas.

Matniyoz Devonbegi madrasasi. Ota darvoza yaqinida 19 - asrda qurilgan mazkur yodgorlik bir qavatli. To'g'ri to'rtburchak shaklida. Darsxona, masjid, xujralari bor.

Sayyid Sholikorboy majmui. Savdogar Sayyid Sholikorboy " Ichan qal'a" sharqiy darvozasi bo'lmish Polvon darvoza tashqarisida 19 - asrda qurdirgan. Majmua masjid, madrasa, ayvon, minoradan tashkil topgan.

Shuningdek, Xivada Qutlug' Murod Inoq, Musoto'ra madrasalari, Polvon qori, Shayx Qalandar bobo, Abdal bobo kabi minoralar mavjud.

Qashqadaryo viloyati yodgorlik resurslari

Qashqadaryo tarixi. Ko'hna manzilgohlar. Xo'ja Ilg'or - Amir Temur tavallud topgan qishloq. Amir Temur va temuriylar davrida ilm - fan, me'morchilik, obodonchilik. Ispaniya elchisi Lui Gonzales de Klavixoning Temur saroyiga tashrifi.

Xo'ja Ilg'or qishlog'i me'moriy obidalari. Qishloq tarixi, undagi masjid qoldiqlari va qabristoni. Amir Temurning "Polvon toshi". Tatar guzar masjidi. Toshqo'rg'on qishlog'i tarixi va undagi ikkita masjid. Amir Temur "g'ori". Tarag'ay qishlog'i. "Dunyo tepa".

Shahrisabz (Kesh) me'morchiligi: Oqsaroy. Amir Temur ushbu obidani Xorazmni egallash sharafiga bunyod etgan. Unda Xorazm ustalari katta me'morchilik ishlarini olib borishgan. U 1370 - 1404 yillarda qurilgan. Oqsaroy peshtoqining

Markaziy Osiyo yodgorliklari ichidagi eng yirik peshtoq ekanligi. Uning ravoq oraligi 22,5 metr, minorasining hozirgi vayrona holatidagi balandligi 38 metr, peshtoq kengligi 40 metrdir. U Hindistondagi Tojmahaldan ham husnkor bo'lgan. Xorij elchilari shu erda qabul qilingan. Klavixoning Oqsaroyda bo'lishi. Oqsaroy deyilishiga sabablar: onasining sharafiga qurilganligi. Oqlik va poklik ramzi. Uzoqdan oppoq bo'lib ko'rinishi.

Dorussaodat majmuyi. Buning ma'nosi baxt - saodat uyidir. Mazkur obidani davlatmandlar saroyi ham deyiladi. Chunki, unda temuriylar xilxonasi joylashgan. Amirzoda Jahongir, Umarshayx mirzo va Amir Temurning o'zi uchun bunyod etgan sag'analari, maqbaralari, Xazrati Imom masjidi va maqbarasi shular qatoriga kiradi.

Doruttilovat majmuyi. Buning ma'nosi Qur'oni Karim tilovat qilinadigan joydir. Unda shayx Shamsuddin Kulol, Gumbazi Sayyidon va Tarag'ay Bahodir (Amir Temurning otasi) maqbaralari xamda Ko'k gumbaz masjidi mujassam. Shuningdek, Chorsu, hammom, Malik Ajdar va Xo'ja Mirhamid masjidlari bor.

Qarshi (Nasaf) shahri yodgorliklari: Ko'k gumbaz masjidi. 16 - asrda Abdullaxon davrida qurilgan. Ko'k gumbaz deyilishiga sabab, o'z nomidan ko'rinish turibdiki, gumbazning ko'k rangda ekanligi. Bo'yi 38 metr. Asosiy xonaqoh 8 x 8 metr. Tuzilishi sodda. Shuningdek, Qarshida ko'prik, hammom, Shermuhammad, Sharifxo'ja, Xo'ja Qurbon, Bekmir, Abdulazizxo'ja madrasalari; Qo'rg'oncha va Zagza masjidlari mavjud.

Viloyatda yana quyidagi me'moriy obidalar mujassam: Guzorda Oqsaroy; Kitobda Xo'ja Ilim Kon xonaqohi va Bashir ota maqbarasi hamda bir masjid; Yakkabog'da Yodgor Valloma madrasasi; Chiroqchida Eski Langar masjidi, Katta va kichik xonaqohlar; Qamashida Langar ota masjidi va maqbarasi; Kosonda Bandi Kushon masjidi, Husam ota majmuyi, Qo'rg'on masjidi, Po'loti masjidi - xonaqohi; Kasbida Xo'ja Karlik, Sulton Mirhaydar majmuyilari, Pandron, To'ra masjid masjidlari, Namozgoh, Sardoba, Qo'shgumbazli maqbara; Jo'ynovdagi Ayvon masjidi; Nishonda Hazrati Imom Mo'yin va Qovchinda Hazrati Shayx majmualari.

Surxondaryo viloyati yodgorlik resurslari

Surxondaryo tarixi. Arxeologik yodgorliklari va ko`hna manzilgohlar: Teshik tosh g`ori, Machay g`ori, Zarautsoy, Sopolli tepa, Dalvarzin tepa, Xotin Rabot, Ayritom.

Surxon me'morchiligi: Imom at - Termiziy maqbarasi. Mashhur muhaddis (hadis ilmi olim) lardan biri - Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn ad - Dahhok as - Sullamiy at - Termiziy hoki ustiga bunyod etilgan. Imom Termiziy 9 - asrda yashab, uzoq yillar Iroq, Isfaxon (Erondagi shahar), Xuroson (Erondagi viloyat), Makka va Madinada bo`lgan. Ilm al - qiroat, ilm al - bayon, fiqh, tarix va eng asosiysi hadis ilmini puxta egallagan. Unga Imom al - Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Sayyid, Ishoq ibn Muso, Mahmud ibn Gayxon kabi mashhur muhaddislar ustozlik qilishgan. Uning asarlari ichida "Al - jomi" ("Jamlovchi") asari mashhurdir. Unda payg`ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyatiga oid muhim manbalar mujassam. Imom at - Termiziy maqbarasi Sherobod tumanining Bug` qishlog`ida joylashgan.

Hakim at - Termiziy majmuyi. 9 - 11 - asrlarda Shayx Abu Abdulloh ibn Muhammad hakim at - Termiziy qabri ustiga qurilgan. Ichida oq marmardan qabr toshi va mahorat bilan bezatilgan mehrob bor. Toshga o`yib o`simliklar tasviri solingan va Qur'oni Karim suralari bitilgan. Majmuada maqbaradan tashqari masjid (11 - asr), xonaqoh (15 -asr) mujassam.

Sulton Saodat majmuyi. 10 - 17 - asrlarga oid. Termizlik sayyidlar avlodlari dafn etilgan maqbaralardan iborat. Maqbaraning asosiy peshtoqi sharqqa qaratilgan. Maqbaralar peshtoq va gumbazli chorsi xonalardan iborat.

Zurmala minorasi. Termizdan 10 km. masofadagi 12 metrli minora bo`lib, shu xaroba holatida ham ulug`vordir. Xom g`ishtdan terilgan. Minora eramizning dastlabki yillarida qurilgan.

Qirqqiz qal'asi. Mazkur xaroba yodgorlik Termizdan 6 km. masofada bo`lib, ikki qavatli saroydir. Xordiq chiqarish va yozgi issiq kunlarda saqlanish uchun 9 -

asrda qurilgan. Birinchi qavatda 17 ta katta xona, 3 ta zal bor. Ikkinchi qavatda ham ushbu reja takrorlangan. Uni o'zbek xalqining 18 - asrdagi "Qirq qiz" dostoni bilan bog'liqligi haqida ham fikrlar bor.

Jarqo'rg'on minorasi. Jarqo'rg'on tumanida 18 - asrda qurilgan ushbu minora archa uslubida pishiq g'ishtlardan terilgan. Sokoli sakkiz yoqli. Sakkiz yoqning ettitasi yuzasida tokcha va g'ishtdan terilgan yozuvlar bor. Sakkizinchi yoqning eshigidan aylanma zinaga chiqiladi. Balandligi 30 metrga yaqin. Aylanasi 17 metrga yaqin, g'ishtdan turli shakllar berilgan.

Zarovutsoy qo'riqxonasi. Termizdan 100 km. masofada. Ko'hitang tog'ida joylashgan. Undagi 200 dan ortiq suratlardan 30 ga yaqini yaxshi saqlanib qolgan. Ularda ibtidoiy kishilarning ov qilish jarayoni tasvirlangan.

Toshkent shahri va viloyati yodgorlik resurslari

Toshkent (Shosh, Choch) tarixi. Qang' davlatchiligi. Arxeologik yodgorliklari, ilm - fani, hunarmandchiligi, san'ati. Savdogarlik. Toshkentning 4 dahasi va 12 darvozasi. Mustaqillik yillari qurilgan madaniy - maishiy inshootlar.

Me'morchilik: Xo'ja Alambardor maqbarasi. Xo'ja Alambardor (10 - asr) - Movaraunnahrda islomni ilk da'vatchilaridan bo'lgan - Imom Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al - Qaffol al - Shoshiyning safdoshi alambardor (bayroqdor) sharafiga qurilgan. Uning tahmin qilingan qabri shaharning eski Beshyog'och qismida, Kamolon darvozasi ortida bo'lib, ziyoratgoh memorial majmuaga asos bo'lgan. Uning er osti chillaxonasi hozirgacha saqlangan. Xo'ja Alambardor maqbarasi qabristonning markazida joylashgan.

Qaffol Shoshiy maqbarasi. Uning to'liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al Qaffol ash - Shoshiy bo'lib, yashagan davri 10 - asrdir. Toshkentning etuk olimlaridan biri hisoblanib, shofi'iya (suniylikdagi oqim) mazhabining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Qur'on, hadis, shariat ilmi bilimdoni bo'lgan. Uning "Odob ul - qozi" ("Qozo odobi") asari mashhurdir. Maqbara xalq tilida Hazrati Imom (Hastimom) deyiladi. U 0,5 grammgacha og'irlikdagi qulf - kalitlarni yasaganligi

uchun "Al - Qaffol" ("Qulfchi") nisbati berilgan. Unga atab qurilgan dastlabki maqbara saqlanib qolmagan. Gulom Husayn nomli me'mor keyinroq uni qayta qurgan. Eshikning tepasidagi kitoba saqlanib qolgan. Maqbaraning o'rtasida kattagina xona bor. 16 - asrda maqbara yonida Boboxo'ja maqbarasi ham bunyod bo'lgan.

Shayx Zayniddin bobo Orifon maqbarasi. Shayx Zayniddin bobo (13 - asr) asli Bag'dod (Iroq) lik bo'lib, u kishining otalari Shahobiddin Orifon Bag'dodning eng katta mutassavvuflaridan biri bo'lganlar. 1214 - yilda tug'ilgan Zayniddin bobo keyinchalik Toshkentga ko'chib kelganlar. Mazkur maqbaraning chillaxonasida hayot kechirib, tasavvuf tariqatini rivojlantirishga hissa qo'shganlar. Rivoyat qilishlaricha, u kishi Hasti Imomda yotgan Qaffol Shoshiyga juda ihlosmand bo'lgan ekanlar. Shu bois, ushbu maqbaradan Hasti Imomga er osti yo'li bo'lgan ekan. Maqbara sohibqiron Amir Temur farmoni bilan qurilgan, - deyiladi.

Zangi ota himmatiy yodgorlik majmui. Zangi ota (13 - asr) ning asl ismlari Oyxo'ja ibn Toj Xo'jadir. Zangi (arabcha so'z) ota deyilishiga sabab, u kishi qora tanli bo'lganlar. Shuning uchun Zangi ota nisbati berilgan. Turkiston islom olamida ulug' mutafakkir va mutasavvuf donishmandlardan hisoblanadilar. Ustozlari Hakim ota (Sulaymon Boqirg'oniy), zavjalari Anbar otindir. Ul zot qo'y boqib o'stirganlari uchun cho'ponlarning piri, - deyishgan. Amir Temur ushbu obidani bunyod etgan. Majmua darvozaxona, minora, masjid, madrasa, xonaqoh, shiypon, hovuz, Anbar otin maqbaralaridan iborat.

Cho'pon ota majmui. Mazkur majmuaning qurilishi Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq (15 - asr). Qo'ychivon cho'ponlar homiysi Cho'pon otaga atab qurilgan. U masjid, maqbara, hujralar, darvozaxonadan iborat.

Shayh Hovandi Tohur majmui. Majmuada asosan uchta maqbara bor: Shayh Hovandi Tohur, Yunusxon, Qaldirg'ochbiy.

Shayh Hovandi Tohur maqbarasi. Shayh 14 - asrda yashab o'tgan diniy arboblardan, ilohiyot va tariqat ilmi namoyondalaridan biri bo'lib, valiulloh darajasiga etgan. Otasi Shayh Umar Bog'istoniyydir. Xo'ja Ahror valiy ularning qarindoshi

boʻlgan. Shayh maqbarasi bir necha bor qurilgan va uncha katta boʻlmagan. Ikki xonadan iborat: birinchi - katta xona 12 qirrali gumbazli ziyoratxona; ikkinchi - kichik xona 8 qirrali gumbazli goʻrxonadir. Maqbarani yonida ikkita chillaxona boʻlgan. Ularni Xoʻja Ahror qurdirgan, atrofi mozar boʻlgan. Masjid ham boʻlgan. Maqbara 14 - 15 - asr obidasidir.

Yunusxon maqbarasi. Yunusxon Chingizxonning ikkinchi oʻgʻli Chigʻatoyning naslidan hisoblanadi. 15 - asrda yashab oʻtgan. U Boburning onasi Qutlugʻ Nigorxonimning otasidir. Yaʼni, Boburga buva hisoblanadi. Toshkentning 1485 - 1487 - yillaridagi hokimidir. Maqbara Yunusxonning oʻgʻli Ahmadxon tomonidan qurdirilgan. Tarxi toʻgʻri toʻrtburchak, oʻrtasida xonaqoh boʻlib, gumbazli. Zalning burchaklarida ikki qavatli hujralar bor. Gumbaz keyinchalik buzilib ketgan.

Qaldirgʻochbiy maqbarasi. Maqbara 15 - asrning birinchi yarmida bunyod boʻlib, kim tomonidan qurdirilganligi nomaʼlum. Rivoyatlarga koʻra, bu erga Qaldirgʻochbiy ismli qozoq shahzodalardan yoki biylardan biri dafn etilgan. Kubik shaklidagi maqbara 12 qirrali piramidalik gumbaz bilan yopilgan.

Baroqxon maqbarasi. Baroqxon (16 - asr) - shayboniylar sulolasidagi xon boʻlib, oʻz davrida Movaraunnahrni boshqargan. Uning nomi bilan tanga pullar zarb etilgan. Obodonchilik ishlari qilgan. Xususan, madrasa qurdirgan. Hozir ushbu binoda Oʻzbekiston musulmonlari diniy ishlari idorasi joylashgan.

Koʻkaldosh madrasasi. Ushbu madrasa 16 - asrga oid boʻlib, uni Toshkent xonlaridan birining vaziri Koʻkaldosh qurdirgan. Muqimiy, Furqat, Hamza, Hislat kabi shoirlar ushbu madrasada boʻlishgan, yashashgan, ilm olishgan. Madrasa Oʻzbekiston musulmonlari diniy ishlari idorasi tasarrufidadir.

Hofiz Koʻhakiy madrasasi. Hofiz Koʻhakiy (16 - asr) - Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy tarixchi, huquqshunos, tarjimon boʻlib, Mirzo Ulugʻbekning sevimli shogirdi Aliqushchining nabirasidir. U Hindistonga 1528 - yili Bobur Mirzo va 1569 - yili Akbarshoh huzuriga elchi boʻlib borgan. Ushbu nom bilan madrasa

qurdirgan va talabalarga ilm o`rgatgan. O`zbekiston mustaqillikka erishgach, uni qayta tiklashga erishildi. Hozir masjid vazifasini o`tamoqda.

Abdulqosim Shayh madrasasi. Abdulqosim (19 - asr) Toshkent shahrida ma'rifatparvarlik ishlari bilan nom qozongan bo`lib, ilmi toliblarga bepul ilm o`rgatgan. Ushbu madrasa ham uning tomonidan bunyod bo`lgan. Hovlida gir aylana ikki qavatli hujralar bor. " Honaqoi Mo`yi Muborak" ichidagi ravoqli mehrobi tepasida arab tilida "Bu ark kabi binoda Rasulning latif mo`yi bor", - deb yozilgan so`zlar bor.

Mustaqillik yillarida o`zbek xalqining milliy qahramoni - Amir Temur va millatimiz donishmandi - Alisher Navoiyga atab ajoyib haykallar bunyod etildi.

Farg`ona vodiysi yodgorlik resurslari

Vodiy tarixi. Arxeologiyasi, ilm fani va madaniyati. Hunarmandchilik va savdogarlik.

Farg`ona viloyatidagi me'moriy yodgorliklar.

Qo`qon shahri bo`yicha:

O`rda - Xudoyorxon saroyi. 19 - asrning ikkinchi yarmida qurilgan. 4 gektar maydonni egallagan. Darvozaxona peshtoqiga "Arki oliy Sayyid Muhammad Xudoyorxon" deb bitilgan. 100 ga yaqin xonalar bor. Asosan g`ishtdan qurilib zeb berilgan.

Jome masjidi va minorasi. 19 - asr boshlarida Qo`qon xoni Umarxon qurdirgan. Unda xonaqoh va 98 yog`och ustunli ayvon mavjud. Masjid 97,5 x 25,5 metrga teng. Uning yonidagi minora 22 metr balandlikda.

Kamol qozi madrasasi. 19 - asr o`rtalarida qurilgan. Unda darsxona, hujralar va ayvonli masjid bo`lgan.

Miyon hazrat (Miyon Ahmad) madrasasi. 18 - asr oxirida qurilgan. Madrasani xon huzurida maslahatchi lavozimida ishlagan Miyon Ahmad ismli kishi qurdirgan. Unda darvozaxona, hujra (darsxona)lar, masjid, xovli va minoralar bor. Muqimiy shu madrasada ta'lim olgan.

Dahmai Shohon va Modarixon dahmalari. Bu ikkala yodgorlik ham 19 - asrga oid. Dahmai Shohon hazirasi - Qo`qon xonlarining qabristonidir. U qubba - peshtoqli kirish yo`lak, ikki ustunli masjid va ayvondan iborat. Modarixon "Xon onasi" hazirasida esa xonzoda ayollar ko`milgan. Majmuada peshtoq, gumbaz va ikki minora saqlanib qolgan.

Norbo`tabiy madrasasi. 18 - asrning ikkinchi yarmida qurilgan. U bir qavatli hovlili binodan iborat, tarxi to`rtburchak. (52 m. x 72 m.). To`rt burchagida minoralar ishlangan. Unda masjid va darsxona bor.

Gishtli masjid. Mahalla masjidi bo`lib, 20 - asr boshlarida qurilgan. Xonaqoh va ayvondan iborat. Ixcham tarxli va go`zal qilib bezatilgan.

Shuningdek, Mulkobod masjidi (20 - asr), Ayubboy, Olimxon xoji, Abdurrahmon qozi, Sa'dixon qozi nomli 20 - asr boshlarida qurilgan uylar ham alohida tarixiy qimmatga ega.

Buvayda tumani bo`yicha:

Podshoh Pirim majmui. Uning o`zagini Shoh Jalil dahmasi tashkil etadi. Shoh Jalil avliyo sifatida tan olingan. Majmua ikki hovlidan iborat: 15 - asrga oid peshtoqli - gumbazli darvozaxona va 20 - asrga oid ochiq masjid. 15 - 16 asrga oid qabr va dahmalar.

Bo`stonbuva maqbarasi. Bu erda Shoh Jalilning otasi dafn etilgan. Obida 15 - 16 - asrlarga tegishli ekanligi aniqlangan.

Bibi Buvayda dahmasi. Bu ayollar dahmasidir. Unda shoh Jalilning onasi va xotini ko`milgan. Gumbazli ikki xonadan iborat. Buvayda tumani shu nom bilan saqlanib qolgan.

Shuningdek, Rishton tumanidagi Jahonobod masjidi, Xo`ja Ilg`or masjidi, Qorixona xonaqohi. Oltiariq tumanidagi Xalfa Tillo majmui (bularning bari 20 - asr boshlariga oid); Marg`ilondagi Pir Siddiq majmui, Xo`ja mag`iz maqbarasi (bularning ikkalasi 18 - asrga oid), Chaqar masjidi (20 - asr), Sayyid Ahmadxo`ja madrasasi (19 - asr oxiri), Turonbozor masjidi (19 - asr) ham tarixiy ahamiyatga egadir.

Andijon viloyatidagi me'moriy yodgorliklar.

Andijon shahri bo'yicha:

Jome majmui. U madrasa, masjid va minoradan iborat. Madrasa 19 - asr oxirlarida katta va hashamatli qilib qurilgan. Darsxonalari va hujralari bor. Ikki qavatli. Tarxi P shaklida. Masjid Farg'onadagi eng yirik obida hisoblanadi. Minoraning balandligi 32 metr.

Shuningdek, tumandagi savdogar Ahmadbek hoji tomonidan qurdirilgan uy, Paxtaobod tumanidagi Otaqo'zi madrasasi (bularning ikkalasi ham 20 - asr boshlarida qurilgan), Namangan shahridagi Mullo Qirg'iz madrasasi (20 - asr), Ota Valixonto'ra masjidi (20 - asr), Mavlonbuva majmui (19 - asr), Xo'ja Amin qabri (18 - asr), Namangan tumanidagi Sirli masjid (19 - asr), Yusufboy Xoji uyi (20 - asr), Kosonsoy tumanidagi jome masjid (18 - asr), Yusufxon Eshon majmui (18 - asr), To'raqo'rg'on tumanidagi Goyibnazar madrasasi (19 - asr), Chust tumanidagi Lutfullo Mavlono majmui (20 - asr), Pop tumanidagi Chodak madrasasi, Boy Hamadoniy maqbarasi (19 asr) ham alohida tarixiy, estetik va turistik e'tiborga loyiq.

Vodiyda Mustaqillik yillarda Ahmad al - Farg'oniy, Burhonuddin al - Marg'inoniy yubileylari munosabati bilan o'rnatilgan yodgorliklar, Andijondagi Bobur Mirzo xotirasiga atab qurdirilgan obidalar turizm markazlari sifatida qad rostlab turibdi.

Boshqa hududlardagi yodgorlik resurslar

Karmana tarixi.

Karmana me'moriy yodgorliklari. Qosim shayx Azizon majmuasi. 16 - asr islom dini mutafakkirlaridan biri -piri komil Qosim shayx Azizon bo'lib, Buxoro xoni Abdullaxonning ustozi bo'lgan. Uning to'rt tomonidan quduq bo'lgan. Bu erda masjid ham bor.

Mir Sayyid Bahrom maqbarasi. 10 - 11 - asrga oid bo'lib, uni samoniylar sulolasi vakillaridan birining qabri, -deb kelinadi. Maqbara pishshiq g'ishtdan, gumbazli, to'rtburchak shaklidir. O'rtada qabr, uning yonida ikkita qabr toshi bor.

Raboti Malik va Sardoba. Bularni 11 asrda qoraxoniylar davrida Shamsulmulk Nosir Ibn Ibrohim qurdirgan. Majmua "Buyuk Ipak yo`li"da karvonsaroy - mehmonxona vazifasini bajargan. Amur Temur, Alisher Navoiylar ham bu erda bo`lishgan.

Shuningdek, Kampir devoli, tarixiy chorbog` va saroylar ham Karmana tarixida alohida ahamiyatga ega. Asqarobod, Chorgarchorbog`, Xonchorbog`, Jarchorbog`, Gulcharbog`, Bog`lochin, Xayrabot, Mirza chorbog`lar shular jumlasidandir.

Buxoro amiri Abdullo Ahmadxonning 1894 - 1910 yillarda yashagan uyi - Xonchorbog`dadir. Chorgarchorbog`da esa Buxoro amirining saroyi (qarorgohi) bo`lgan.

Jizzax - Samarqand yo`lidagi "Temur darvozasi" ham turizm manzillaridandir.

2 - ilova

Xalkaro turizm markazlari

Evropa mamlakatlari turizm markazlari

Buyuk Britaniya. Poytaxti London shahri. Iqlimi - mo`tdil dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - parlamentli monarxiya (qirollik). Maydoni - 244,1 ming kv. km, aholisi- 58,5 mln. kishi (1990 - yillar oxiri), tili - ingliz, dini - xristian, pul birligi - funt sterling. Tarixan tarkib topgan va milliy jihatdan har - xil bo`lgan 4 ma'muriy - siyosiy qism (Angliya, Uels, Shotlandiya va unga yondosh orollar Shimoliy Irlandiya)dan iborat. Yirik shaharlari: London, Birmingem, Glazgo, Liverpul, Manchester, Sheffild, Lids. Milliy bayrami - Qirolicha tug`ilgan kun (iyun oyining ikkinchi yoki uchinchi shanbasi).

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: London. Bakingemsk saroyi. Parlament binosi. Avliyolar sobori. Milliy dengiz muzeyi. Britan dengiz sohili kurortlari. Biznes turizm, madaniy turizm. Xorijiy turizmning asosan ta'tillarga, biznes turizmga, qarindoshlar va do`stlar tashrifiga (turizmning 50 %, shulardan 40 % ta'tillar uchun, 26 % biznes turistlar uchun) tegishli ekanligi. Xorijiy turizm rivojlangan. Bir yilda 12

mln. turist kelib ketishadi. Ikki - besh yulduzli otellari. Masalan: ST Jomes Coust****, Holiday Inn****.

O`zbekiston - Buyuk Britaniya munosabatlari. O`zbekiston bilan Buyuk Britaniya o`rtasidagi savdo - iqtisodiy hamkorlik 1993 - yil noyabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Buyuk Britaniyaga qilgan tashrifi chog`ida imzolangan "Savdo - iqtisodiy hamkorlik to`g`risida", "Kapital qo`yilmalar sarflanishini rag`batlantirish va o`zaro himoya qilish haqida" hamda "Ikki yoqlama soliq solinishiga yo`l qo`ymaslik to`g`risida"gi shartnomalarga asoslanadi. "British Eyrvey" kompaniyasi bilan tuzilgan shartnomaga binoan 1992 - yil 31 - dekabrdan boshlab "O`zbekiston havo yo`llari" milliy aviatsiya kompaniyasining samolyotlari haftasiga 4 marta Londonga qatnab turibdi. 1994 - yilda "O`zbekiston havo yo`llari" milliy aviatsiya kompaniyasi Buyuk Britaniya transport departamenti bilan kelishib, Toshkent - Manchester - Toshkent o`rtasida muntazam reyslar bajarish huquqini olgan. O`zbekiston Respublikasi Tashki iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan "Barklayz Bank" (salkam 32 mln. AQSh dollari miqdorida) qo`shma faoliyat yo`nalishi sifatidagi kreditni "Sosete Jenerel" banki bilan birgalikda "Metropol" mehmonxonasi qurilishi uchun 10 yil muddatga ajratdi.

Frantsiya. Poytaxti Parij shahri. Iqlimi - mo``tadil dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 551,6 ming kv. km., aholisi - 60,424 mln. kishi (2004 - yil), shulardan 98 % frantsuzlar, tili - frantsuz, dini - xristian (80 %) va islom (5 %), pul birligi - frantsuz franki edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab evro. Yirik shaxarlari: Parij, Marsel, Lion, Tuluza, Nitsta, Nant, Strasburg, Bordo va boshqalar. Milliy bayrami - 14 iyul - Bastiliya ishg`ol qilingan kun (1789 - yil).

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: Parij. Luvr, Versal muzeylari. Eyfel minorasi. D'orse vokzali zallari. Pompidu markazi. Disneylend. Kurortlar: Arkashon, Biarits, Lukana, Moliets, Sarnov, Palava, Kamarg, La - Grand - Mot, Set, Meze, Marsel. Tu ko`lidagi suv sportining rivojlanganligi. Avtomobil yo`llarining yaxshi yo`lga qo`yilganligi. Doimiy rojdestvo ( Iso payg`ambarning tug`ilganiga

bag'ishlangan xristianlar bayrami, milodning boshlanishi) bayrami. Kurortlar, otel va turistik lagerlar: Riveri (yiliga 35 mln. tur. kun), Parij (yiliga 1,5 mln. tur. kun), Akvitaniya, Langedsk, Russilon (har biri yiliga 6 mln. tur. kun). Ikki - besh yulduzli otellar. Masalan, Leonard de Vincy**, Panarama***.

O'zbekiston - Frantsiya munosabatlari. Frantsiya qiroli Karl VI de Valua (14 - asr) va Amir Temur davridagi savdo - iqtisodiy va madaniy aloqalar. 1992 - yilda Frantsiyada O'zbekiston respublikasi elchixonasi, 1995 - yilda O'zbekistonda Frantsiya elchixonasining ochilishi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimovning 1993 - yilda Frantsiyaga tashrifi. Temuriylar san'ati va tarixini o'rganish hamda o'zbek - frantsuz madaniy aloqalari assotsiatsiyasining "Temurid" jurnali.

Germaniya. Poytaxti Berlin shahri. Iqlimi - mo'tadil dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni - 357 ming kv. km., aholisi - 82,160 mln. kishi (1999 -yil), tili - nemis, dini - protestant va katolik, pul birligi - Germaniya markasi edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab evro. Yirik shaharlari: Berlin, Gamburg, Kyoln, Frankfurt - Mayn, Dortmund, Gannover, Nyurnberg, Leyptsig, Drezden, Dyusseldorf, Shtutgart, Myunxen, Baden - Baden. Milliy bayrami - 3 oktyabr - Germaniya birlashgan kun (1990 - yil).

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: Shop turizm uchun asosan Polshadan, shuningdek, Angliya, Frantsiya, Shvetsariya va Yaponiyadan tashrif. Germaniya Alp tog'i, Frantsiya va O'rta dengiz sohillari yo'nalishida joylashganligi sabab, tranzit turizmning rivojlanganligi. Savdo ko'rgazmalari, konferentsiyalarning yaxshi yo'lga qo'yilganligi. Kurortlari, shifobaxsh tabiati, go'zal manzilgohlari, qadimiy tarixi va madaniyati.

O'zbekiston - Germaniya munosabatlari. 1993 - yil aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning Germaniyaga tashrifi. 1993 - yil Bonn shahrida O'zbekiston elchixonasining ochilishi. 1995 - yil Shtutgart shahrida Linden - muzeyda "O'zbekiston Buyuk ipak yuli merosi" ko'rgazmasining ochilishi.

Italiya. Poytaxti Rim shahri. Iqlimi - mo'tadil dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 301,2 ming kv. km., aholisi - 57,679 mln. kishi (2001 - yil), tili - italyan, dini - katolik, pul birligi - Italiya lirasi edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab evro. Yirik shaharlari: Rim, Milan, Neapol, Turin, Genuya, Palermo. Milliy bayrami - 2 iyun - Respublika e'lon qilingan kun (1946 - yil).

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari. Klassik turizm - Rim, Vatikan, Neapol, Pompey, Florentsiya, Piza, Venetsiya, Milan. Har yili 30 mln. atrofida turistlarning tashrifi. Tur. resurslari: tog'lar, ko'llar va tarixiy obidalar. Xalqaro turizm markazlarining asosiy qismi shimoliy hududlarda ekanligi va unda Venetto shahrining birinchi o'rinda turishi (har yili turistlarning 20 %). Keyingi o'rinlarda Toskano va Alto - Adidje (har biriga 13 %). Shop tur. Rojdestvo bayrami, plyajlar, tog' chang'isiga mo'ljallangan kurortlar, an'anaviy oshxonalar. Rimdagi me'moriy obidalar. Venetsiya shahridagi San - Marko sobori, Florentsiyadagi Santa Mariya del Fore sobori, cherkovlar. Turistlarning asosan qo'shni davlatlar - Germaniya, Frantsiya, Avstriya, Shvetsariyadan tashrifi va ularning bir kunlik yoki tranzit passajirlar ekanligi. Rim, Florentsiya va Venetsiya kabi shaharlarga asosan AQSh va Yaponiyadan tashrif buyurishligi. Har yili Italiya mehmonxonalari va boshqa turar joylarda 60 mln. atrofida turistlarning joylashuvi. Bularning 35 % xorijiy turistlar ekanligi. 1 - 5 yulduzli otellari.

O'zbekiston - Italiya munosabatlari. 1996 - yil Florentsiyada imzolangan "O'zbekiston bilan Evropa Ittifoqi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risida"gi bitim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 1996 - va 2000 - yillarda Italiyaga tashrifi. Turizm sohasida ikki tomonlama hamkorlikning yo'lga qo'yilishi.

Ispaniya. Poytaxti Madrid shahri. Iqlimi - quruq subtropik iqlim. Davlat tuzumi - qirollik. Maydoni - 504,75 ming kv. km., aholisi - 40 mln. kishi (2001 - yil), tili - ispan, dini - katolik, pul birligi - peseta edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab evro. Jahon turizm markazlaridan biri. Yirik shaharlari: Madrid, Barselona, Valensiya,

Sevilya, Saragosa, Bilbao, Malaga. Milliy bayrami - 12 oktyabr - Ispan Milliy Kuni (1492 - yil).

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: Ispaniyaga har yili 52 mln. turistlarning kelib ketishi va 20 mlrd. dollargacha daromad berishi (AQSh dan keyin 2 - o`rin). Turistlarga 6 mln. kishining xizmat qilishi. Kataloniya, Barselona, Lerida, Kosta Brava, Valensiya, Mursiya, Andalusiya, Rioxa, Kastilya - La - Mancha, Estremadura, Madrid. "Ispaniya madaniyati" mavzusidagi ekskursiya: Malaga, Granada, Sevilya, Madrid, Toledo, Kordorado, Kosta - del - Sol. O`rta dengiz sohilidagi Benidorm, Salou, Torremolinos kurortlari, Balear orollari, plyajlari, milliy istiroxat bog`lari, chang`i stantsiyalari, golf o`yinlari, ovchilik, ot sporti. Otellari. Masalan, Augusta Club***, Reyomar****.

O`zbekiston - Ispaniya munosabatlari. 15 - asrda Kastiliya qirolining elchisi Klavixoning Samarqandga Amir Temur saltanatiga tashrifi. Mustaqillik yillaridagi savdo - iqtisodiy va madaniy - ma'rifiy aloqalarning kuchayishi.

Gretsiya. Poytaxti Afina shahri. Iqlimi - subtropik iqlim. Evropaning janubi - sharqiy qismida joylashgan qadimiy davlat. Davlat tuzumi - parlamentli respublika. Maydoni - 131,9 ming kv. km., aholisi - 10,6 mln. kishi (2000 - yil), tili - grek, dini - pravoslav, pul birligi - draxma edi, 2002 -yil 1 - yanvardan boshlab evro. Yirik shaharlari: Afina, Saloniki, Patri. Milliy bayrami - 25 mart - Mustaqillik kuni (1821 - yil).

Qadimiy grek afsonalari, antik faylasuflar, teatrlar, me'moriy va haykaltaroshlik yodgorliklari.

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: tarixiy ahamiyatga ega - Afina (Attika), Peloponnes, Fessaliya, Epir, Makedoniya, Frakiya. Ko`plab orollar, plyajlar. Afinaning qadimiy madaniyati va tarixiy yodgorliklari. Afinadagi Parfenon me'morchiligi, Akropol va Likabet tarixiy tepaliklari. Perikl davri yodgorliklari, avliyo Georgiy cherkovi, Birinchi grek shohi Ottoning sobiq saroyi. Krit oroli - Zevs xudosi vatani. Tarixiy - madaniy turizm maqsadida - ispanlar va Amerikaliklarning,

orollarga esa nemislar, anglichanlar, shvedlar va gollandlarning tashrifi. Otellar: Park ***** , Titania*****.

O`zbekiston - Gretsiya munosabatlari. 1992 - yil 16 - martdan yo`lga qo`yilganligi. 1995 - yil yanvardan havo yo`llar orqali oyiga 2 marta Afinaga samolyotlarning qatnovi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 - yili Gretsiyaga tashrifi.

Turkiya. Poytaxti Anqara shahri. Iqlimi - asosan subtropik, ba'zi hududlarda O`rta dengiz va kontinental iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 814,578 kv. km., aholisi - 69,6 mln. kishi (2003 - yil), tili - turk, dini - islom, pul birligi - lira. Yirik shaharlari: Istambul, Anqara, Izmir, Adana, Bursa, Gaziantep, Eski shahar, Ko`nya, Diyorbakir, Antaliya, Edirna. Milliy bayrami - 29 oktyabr - Respublika kuni (1923 - yil).

Turkiya atrofini Qora, Marmar, Egey, Oq dengizlar bilan o`ralganligi hamda Suriya, Iroq, Eron, Armaniston, Gruziya, Bolgariya, Gretsiya bilan chegaradosh ekanligi.

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: Turkiyaning xalqaro turizm markazlaridan biri hisoblanishi. Antaliyaning "Turkiya kurortlarining poytaxti" ekanligi. Sog`lomlashtirish turizmi, tarixiy turizm (Andrian darvozasi). Bu yo`nalishda dam oluvchilarning asosan Evropa, Amerika va Yaqin Sharq mamlakatlaridan tashrifi. Plyajlarga alohida e'tibor qaratilganligi. 2002 - yil Turkiyani 13 mln. xorijiy sayyohlar ziyorat qilgani va turizmdan tushgan daromad 10 mlrd. AQSh dollariga etgani.

Pomukkale - bu olamning sakkizinchi mo`jizasi, - deyilishi. Uning sog`lomlashtirish markazi hisoblanishi. Qadimiy inshootlarning mujassamligi. Anqara - savdo markazi, muzeylari. Doguboyazit - Ishoqposha saroyi. Istambul - porti, istiroxat bog`lari, To`pkapa saroyi, Sultonahmad maydoni va majmuyi, muzeylari, Sultonmahmud ko`prigi. Trabzon monastri. Izmirdagi qushlar makoni. Dalyan qoyalaridagi qabristonlar. Shop - tur, diniy turizm, yaxta tur, madaniy - tarixiy turizm, rafting (el urilgan rezina lodka) tur, jip tur, Akva park. Otellarning ko`pligi va ularda

servisning oliy darajada yo`lga qo`yilganligi: Golden Lotus*****, Club Marko Polo*****.

O`zbekiston - Turkiya munosabatlari. 1992 - yil Turkiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1993 - yil O`zbekiston Respublikasining Anqaradagi elchixonasi vakolatxonasi va Istambulda O`zbekiston Respublikasining Bosh konsulxonasi ochilganligi. O`zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimovning 1991, 1994, 1997 - yillarda Turkiyaga borishi. Turkiya prezidentlari T. O`zal va S. Demirellarning O`zbekistonga tashrifi.

Shveytsariya. Poytaxti Bern shahri. Davlat tuzumi - federal parlamentli respublika. Markaziy Evropadagi davlat. Iqlimi - nam iqlim. Maydoni - 41,3 ming kv. km., aholisi - 7,3 mln. kishi (2002 - yil), tili - nemis, frantsuz va italyan, dini - protestant va katolik, pul birligi - Shveytsariya franki. Muhim shaharlari: Syurix, Bazel, Jeneva, Bern, Lozanna. Milliy bayrami - 1 avgust - Konfederatsiya tashkil etilgan kun (1291 - yil) bo`lib, 1899 - yildan beri nishonlanishi.

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: Sermatt, Sankt - Morits tog`li kurortlaridagi sog`lomlashtirish, alpinizm, tog` chang`i turizmi. Manzarali daryolari. 57 % turizmning asosan yoz faslida bo`lib o`tishi. Har yili turizm orqali 13 mlrd. Shveytsariya franki miqdorida daromad olinishi va bu milliy daromadning 8 % ni tashkil etishi. Mamlakat aholisining 14 % ini turizm sohasida faoliyat ko`rsatishi. Bern Universiteti va Sankt - Gallen iqtisodiyot maktabida turizm sohasining tadqiq etilishi. 60 % xorijiy turistlarning otellarda joylashishi.

Avstriya. Poytaxti Vena shahri. Iqlimi - mo`tdil iqlim. Markaziy Evropadagi mamlakat. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni - 83,8 ming kv. km., aholisi 10 mln. kishi, tili - nemis, dini - katolik, pul birligi - shilling edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab evro. Yirik shaharlari: Vena, Grats, Zaltsburg. Milliy bayrami - 26 oktyabr - betaraflik kuni (1955 - yil).

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: Mamlakatning qishki sport o`yinlari bo`yicha turizm markazi ekanligi. Xalqaro turizmning asosan mamlakat tog`li qismi (g`arb)da

olib borilishi. Har yili 70 % mehmonlar o'z ta'tillarini poytaxtdan olis, chekka provintsiyalarda - Vorarlberg, Tirol va Zaltsbergda o'tkazishlari. Asosiy turistlarning Germaniya, Niderlandiya va Angliyadan tashrifi. Jami turistlarning 80 % tur. kunlarini shu mamlakatlar hisobiga yo'lga qo'yilganligi. Turizmning qizg'in (pik) davrini yozda - avgustda va qishda - fevralda bo'lishi. Zamonaviy otellarga ega ekanligi.

Belgiya. Poytaxti Bryussel shahri. Iqlimi - dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya (qirollik). Maydoni - 30,528 ming kv. km., aholisi - 11 mln. kishi (2000 - yil), tili - frantsuz, dini - asosan katolik, ozgina qismi protestant, pul birligi - Belgiya franki edi, 2002 - yil 1- yanvardan boshlab evro. Yirik shaharlari: Bryussel, Gent, Lej. Milliy bayramlari: 21 iyul - Qirol Leopold I ning Konstitutsiyaga sodiqligi haqida qasamyod qilgan kuni (1831 - yil) va 15 noyabr - Qirol sulolasi kuni (1866 - yil). Evropa ittifoqchilarining va boshqa ko'plab transmilliy kompaniyalarning bosh ofislarini Bryussel shahrida joylashganligi. Mamlakatga asosan yuqori martabali amaldorlar, ishbilarmonlarning tashrifi.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: tarixiy - madaniy yodgorliklar bo'ylab sayohat. O'rta asrlar tarixi aks etgan Antverpen, Bryugge va Gent shaharlarida jami tur. kunlarning 85 % ini o'tkazilishi. Muzeylarga boy Antverpenda, shuningdek, olmos biznesining mashhurligi. Umuman, mamlakatda asosan tarixiy va biznes turizmning rivojlanganligi.

O'zbekiston - Belgiya munosabatlari. 1993 - yil Bryussel shahrida O'zbekiston elchixonasining ochilishi. 1996 - yil noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Belgiya qirolligida bo'lishi. Savdo - iqtisodiy va madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi.

Niderlandiya. Poytaxti Amsterdam shahri. Iqlimi - dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya (qirollik). Maydoni - 41,5 ming kv. km., aholisi - 16 mln. kishi (2002 - yil), tili - golland, dini - protestant va katolik, pul birligi - gulden edi,

2002 - yil 1 - yanvardan boshlab evro. Yirik shaharlari: Amsterdam, Rotterdam, Gaaga, Utrext. Milliy bayrami - 30 aprel (Qirolicha kuni).

Turizmi: Amsterdam, Rotterdam va Gaaga shaharlarida xalqaro turizmning biznes turi rivojlanganligi. Amsterdam tarixiy obidalari (tarixiy turizm), unda Evropaning yirik dengiz porti mavjudligi.

Lyuksemburg. Poytaxti Lyuksemburg shahri. Iqlimi - mo'tadil iqlim. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya (buyuk gertsog). Maydoni - 2586 kv. km., aholisi - yarim milliondan ortiq kishi (2001- yil), rasmiy tili - nemis va frantsuz tillari bo'lsada, aholining aksariyat qismi Lyuksemburg tilida so'zlashishi, dini - katolik, protestant, yahudiy. Pul birligi - Lyuksemburg franki edi, 2002 - yil 1 - yanvardan boshlab evro. Yirik shaharlari: Lyuksemburg, Esh. Milliy bayrami - 23 iyun - Buyuk Gertsog tug'ilgan kun (1921 - yil).

Turizmi: Lyuksemburg Belgiya va Niderlandiya singari turistlarni qabul qila olmasada, mamlakat iqtisodiy salohiyatida turizmning uchinchi o'rinda turishi. Biznes turizmning rivojlanganligi. Evropa Ittifoqi banki shtab - kvartirasi va qator xorijiy banklarning joylashganligi. Dam olish uchun turistlarning asosan Ardennaxga tashrifi.

Skandinaviya mamlakatlari: Finlyandiya, Norvegiya, Daniya va Shvetsiya da biznes turizm, eko turizm, tarixiy turizm, madaniy turizmning rivojlanganligi. Istiroxat bog'lari, o'rmonlarining ko'pligi, muzeylari faoliyatining yaxshi yo'lga qo'yilganligi.

Sharqiy Evropa mamlakatlari: Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Bolgariyada iqlimning mo'tadilligi. Balaton ko'li atrofidagi balneologik kurortlar, shifobaxsh hammomlar. Xeviz issiq suv chiqaruvchi ko'l. Saunalar, balchiqli vannalar. Muzeylar. Me'moriy obidalar. Biznes turizm, pokedj tur (plyajda dam oluvchilar uchun)larning o'ziga xosligi.

Kipr. Poytaxti Nikosiya shahri. Iqlimi - subtropik O'rta dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - respublika. Kipr orolida joylashgan davlat. Maydoni - 9251 kv. km., aholisi -

762,8 ming kishi (2001 - yil), tili - grek va turk tili, dini - pravoslav va musulmon, pul birligi - Kipr funti. Milliy bayrami - 1 oktyabr - Mustaqillik kuni (1960 - yil).

Turizmi: Kurort shaharlari - Trodos, Limakol, Larnak, Pafos. Mehmonxona xizmatining, biznes turizm, plyaj va tog` hududlarida dam olish, madaniy - ma'rifiy turizmning yaxshi yo`lga qo`yilganligi.

Amerika mamlakatlari turizm markazlari

Shimoliy Amerika mamlakatlari turizm markazlari

Amerika Qo`shma Shtatlari (AQSh). Poytaxti Vashington shahri. Iqlimi - asosan kontinental iqlim. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni - 9373000 ming kv. km., aholisi - 271,6 mln. kishi (1999 - yil), tili - ingliz, dini - xristian, pul birligi - AQSh dollari. Jahondagi eng rivojlangan davlatlardan biri. U 50 ta shtat va Kolumbiya federal okrugidan tashkil topgan. Yirik shaharlari: Nyu - York, Chikago, Los - Anjeles, Filadelfiya, Xyuston, Detroyt, San - Frantsisko, Vashington, Boston, Dallas, Klivlend, Baltimor. Milliy bayrami - 4 iyul - Mustakillik kuni (1776 - yil).

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: xalqaro turizm markazlari asosan uchta xudud (Florida, Kaliforniya va shimoli - sharqiy shtatlar)ga ta'luqli ekanligi. Qishda - sport turizmi, yozda - dengiz bo`ylari plyajlari. Nyu - Yorkning zamonaviy madaniyat va biznes bilan mashhurligi. Plyaj va kurort shaharlari - Keyp - Kod, Keyp - Xatteras, Virjiniya - Bich, Oshn - Siti, Uildud, Atlantik - Siti, Long - Aylend. Davlatmand turistlarning xususiy plyajlardagi dam olishlari. Men shtati milliy istiroxat bog`i. Florida qishki dam olish maskani. Atlantikaning Florida qirg`oqlaridagi Mayami - Bichdan to Deyton - Bichgacha bo`lgan ko`plab kurortlari, otellari. Orlandodagi disneylend, Kanaveral burnidagi Kosmik tadqiqotlar markazining mashhurligi. Mayami porti. Los - Anjeles turistik markazi. Gollivudning mashhur kino studiyalariga ekskursiya. Disneylend. San - Diego, San - Frantsisko, Las - Vegas qimor bizneslari. Gran - Kanon milliy istiroxat bog`i. Texas plyajlari, tog`li - Vayoming, Kolorado, Montano shtatlaridagi rekreatsion turizm. Kembridj, Oksford,

Sarbon madaniy turizmi. Otellar xizmatining oliy darajada rivojlanganligi. Masalan, Sheraton Aeroportda (Fladelfiya) - beysbol o'yinining yaxshi yo'lga qo'yilganligi. Nyu - York, MGM (Las - Vegas) otellari.

O'zbekiston - AQSh munosabatlari. 1996 - yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning AQSh ga rasmiy tashrifi. 1997 - yilda AQSh prezidentining rafiqasi Xillari Klintonning respublikamizga tashrifi. 1999 - yilda O'zbekiston bilan AQSh o'rtasida tovar aylanmasi 282 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Kanada. Poytaxti Ottava shahri. Iqlimi - mo'tadil kontinental iqlim. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni - 9971 ming kv. km., aholisi - 31,59 mln. kishi (2001 - yil), tili - ingliz va frantsuz, dini - xristian, pul birligi - Kanada dollari. Yirik shaharlari: Monreal, Kalgari, Toronto, Vankuver, Vinnipeg, Gamilton. Milliy bayrami - 1 - iyul - Kanada kuni (1867 - yil).

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari:

Ontario, Kvebek, Alberta provintsiyalari turizm markazlari. Angliya, Frantsiya, Germaniya va Yaponiyadagi qarindoshlar va do'stlarning qisqa ta'tillarda, yakshanba kunlari avtomobillardagi sayohati. Plyaj turizm. Otellar. Xalqaro port. Aeroportlar. O'rmonlar.

Ottava xalqaro aeroporti, muzeylari, milliy san'at markazi, Ontario orqali trans - Kanada yo'llari, Buyuk ko'llardagi kemalar qatnovi. Albertaning Edmonton markaziy maydoni, neft biznesi, temir yo'llari, Edmonton - Ferbenks avtostradasining Alyaska (AQSh) bilan bog'lanishi. Vankuver porti. Monreal Nafis san'at muzeyi. Me'moriy yodgorliklari, cherkovlar.

O'zbekiston - Kanada munosabatlari. 1996 - yildan amalga osha boshladi. 1999 - yil yakuni bo'yicha mamlakatlar o'rtasidagi tovar aylanmasi 15,68 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Meksika. Poytaxti Mexiko shahri. Iqlimi - tropik, shimolda subtropik iqlim. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni - 1958,2 ming kv. km., aholisi - 101,9

mln. kishi (2001 - yil), tili - ispan, dini - katolik, pul birligi - peso. Yirik shaharlari: Mexiko, Gvadalaxara, Monterrey, Leon, Syudad - Xuarez. Milliy bayrami - 16 sentyabr - Mustaqillik kuni (1810 - yil).

Turizm: bir kunlik ekskursiyalarning chegara shaharlarida Kaliforniya (AQSh) bilan chegaradosh Tiwana shahrida (dam oluvchilar uchun) olib borilishi. Sovg`alar savdosi, qimor biznesi. Uzoq muddatga kelgan turistlarning dengiz sohillarida, tarixiy ob'ektlarda bo`lishi. Asosiy turistlarning Amerikaliklar va evropaliklar ekanligi. Turizmning davlat g`aznasini to`ldirishda ikkinchi o`rinda turishi va mehnat bozoridagi etakchiligi.

Kosta - Rika. Poytaxti San - Xose shahri. Iqlimi - subekvatorial iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 51,1 ming kv. km., aholisi - 3,77 mln. kishi (2001 - yil), tili - ispan, dini - katolik, pul birligi - kolon. Yirik shaharlari: San - Xose, Limon, Turrialba. Milliy bayrami - 15 sentyabr - Mustaqillik kuni (1821 - yil).

Turizmi: Asosiy daromad manbai - turizm va tropik mevalar, kofe, kakao eksportidan ekanligi. Kosta - Rikaning Lotin Amerikasidagi eng boy mamlakat ekanligi. Kordilera tog`laridagi manzaralar. Orxidey manzaralari. Yog`ingarchilikning ko`pligi. Qovurilgan bananlar, ananas pechenelar. Turizmning qishda avj olishi. San - Xosedagi plyajlar, changalzorlar, milliy istiroxat bog`lari, zamonaviy otellar.

Janubiy Amerika mamlakatlari turizm markazlari

Argentina. Poytaxti Buenos - Ayres shahri. Iqlimi - tropik, subtropik, mo`tdil iqlim. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni - 2767 ming kv. km., aholisi - 37 mln. kishi (2001 - yil), tili - ispan, dini - katolik, pul birligi - peso. Yirik shaharlari: Buenos - Ayres, Rosario, Kordova, La - Plata, Santa - Fe, Tukuman.

Turizmi: mahalliy xalq - hindularning me'moriy yodgorliklarini saqlab qolganligi. Buenos - Ayresdagi Milliy Kongress binosi, ibodatxonasi va hukumat saroyi "Kasa Rosada" ("Pushti uy"), Kordovadagi Kompaniya cherkovi, muzeylari, muzeylari va xalqaro aeroporti, otellari.

Braziliya. Poytaxti Braziliya shahri. Iqlimi - ekvatorial iqlim. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni - 8512 ming kv. km., aholisi - 164 mln. kishi (2001 - yil), tili - portugal, dini - katolik, pul birligi - kruzeyro. Yirik shaharlari: San - Paulu, Rio - de - Janeyro, Belu - Orizonti, Resifi, Portu - Alegri, Salvador, Fortaleza, Kuritiba, Belen, Braziliya, Kampus, Niteroy, Manaus. Milliy bayrami - 7 sentyabr - Mustaqillik kuni (1822 - yil).

Turizmi: Rio - de - Janeyro shahrining tabiiy go`zalligi, Korkovado tog`i, plyajlar, Itamarati saroyi. Otellar va klublardagi karnavallar. Ekzotik tur, ibodatxonalar. Belen shahridagi Mira teatri. Otellar: Sheraton*****, South American****.

Osiyo mamlakatlari turizm markazlari

Birlashgan Arab Amirliklari. Poytaxti Abu - Dabi shahri. Iqlimi - quruq tropik iqlim. Davlat tuzumi - federatsiya. Maydoni - 83,6 ming kv. km., aholisi - 3 mln. kishi (2001 - yil), tili - arab, dini - islom, pul birligi - dirham. Milliy bayrami - 2 dekabr - Mustakillik kuni (1971 - yil).

Turizmi: 1971 - yili etti amirliklardan tashkil topgan davlat: Abu Dabi, Dubay, Sharja, Ajman, Umm ul - Qayvayn, Ra's ul - Xayma, Al - Fujayra turizm markazlari. Yilning xohlangan vaqtida quyoshning chiqib turishi, oliy darajadagi otellar, mo`jizaviy plyajlar, arzon bahodagi savdo, cho`l sayohati, suv sporti turlari, jinoyatchilikning ozligi - turizm uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi. Otellar: Dubaydagi - Koral Bich, Sima, Grand, Sharjadagi - Nova Park.

Yaponiya. Poytaxti Tokio shahri. Iqlimi - mo`tdil, subtropik va tropik iqlim. Tinch okeani orollarida joylashgan. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya (imperator). Maydoni - 377,8 ming kv. km., aholisi - 127,8 mln. kishi (2004 - yil), tili - yapon, dini - sintoizm va buddizm, konfutsiylik va daosizm, pul birligi - iena. Yirik orollari: Xokkaydo, Xonsyu, Sekoku, Kyusyu. Yirik shaharlari: Tokio, Osaka, Yokoxama, Nagaya. Milliy bayrami - 23 dekabr - imperator tug`ilgan kun (1933 - yil).

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari. Osiyo, AQSh va Evropadan biznes turizm, ko`plab shaharlardagi aeroportlar, mehmonxonalar. Dzyomon madaniyati, budda ibodatxonasi, Nara shahridagi Yakusidan monastiri, Xoryudzi ibodatxonasi. Nikko shahrining tabiiy go`zalligi, madaniy - tarixiy obidalari. Nantay tog`idagi qadimiy vulqon qoldiqlari. Rinno - dzi budda ibodatxonasi, avliyo Futara - san ziyoratgohi. Shaharning "Muqaddas shahar", - deb e'lon qilinganligi. Hayvonot dunyosi. Otellari. Oshxonalaridagi ajoyib taomlari. Baliq ovlash. Keron sharsharasi, tog` gullari. Kiotodagi Ryoandzi tosh bog`i, ibodatxonalari. Kasima shahridagi tabiiy go`zallik, plyajlar. Okinava shahridagi "Busana Terras Bich" kurorti, a'lo baholi otellari, aeroporti, eko turizm (Iriomote orolida), baliq ovlash, hunarmandchilik, muzeylar.

Asuka qishlog'i qadimiy budda ibodatxonalari, maqbaralar, tosh haykallar, haykaltaroshlik, velosiped turizmi.

O'zbekiston - Yaponiya munosabatlari. Yaponiyaning birinchi poytaxti Nara shahridagi Xorudzi ibodatxonasi xazinasida 8 - asrga oid Samarqand va Toshkentda tayyorlangan osori - atiqalar, 9 - 10 asrlarga oid ud musiqa asbobining saqlanishi. Afrosiyobdan topilgan (12 - asrga oid) yaponlarning nafis chinni idishlari. 1880 - yilning yozida yapon diplomati Nisi Tokudzironing o'lkamiz bo'ylab sayohat qilishi va Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlari va Farg'ona vodiysida bo'lishi. Xususan, Buxoroda amir Muzaffar bilan uchrashishi. 1886 - yilda uning "Turkiston sayohatnomasi" kitobining yapon tilida chop etilishi. 19 - asr oxiri va 20 - asr boshlarida O'rta Osiyoga Yasumasi Fukusima, Kadzuo Otani, Masaji Inoue, Zuicho Toshibina kabi yapon tadqiqotchilarining sayohat qilishi. 1992 - yilda Yaponiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1996 - yilda O'zbekistonning Yaponiyadagi elchixonasining ochilishi. O'zbekiston respublikasi prezidenti I. A. Karimovning 1994 - va 2002 - yillarda Yaponiyaga tashrifi.

Koreya respublikasi. Poytaxti Seul shahri. Iqlimi - mussonli iqlim. Davlat tuzumi - parlamentli respublika. Maydoni - 98,48 ming kv. km., aholisi - 47, 904 mln. kishi (2001 - yil), tili - koreys, dini - buddizm, konfutsiylik, qisman xristianlik, pul birligi - von. Yirik shaharlari - Seul, Pusan, Techjon, Inchxon, Kvanju, Ulsan. Milliy bayramlari: 15 avgust - Koreya ozodligi kuni (1945 - yil) va 3 oktyabr - Davlatga asos solingan kun.

Turizmi: Seuldagi Xyonmyotxal ibodatxonasi, 8 darvozali shahar devori qoldiqlari, Kyonbokkun saroyi majmuyi, Vongak ibodatxonasi pagodasi, muzeylari, Olimpiada o'yinlari qishlog'i, biznes turizm, akvarium, ta'tillarda Yaponiyadan do'stlar va qarindoshlar tashrifi. Xalqaro aeroporti va otellari.

O'zbekiston - Koreya respublikasi munosabatlari. O'zbekiston respublikasi prezidentining 1992, 1995, 1999 - yillardagi Koreya respublikasiga va Koreya respublikasi prezidentining 1994 - yildagi O'zbekistonga tashrifi.

Xitoy. Poytaxti Pekin shahri. Iqlimi - mussonli iqlim. Dunyodagi eng qadimiy millatlardan va davlatlardan biri ekanligi. Davlat tuzumi - Xalq respublikasi. Davlat hokimiyatining Oliy organi - Butun Xitoy xalq vakillari Kengashi. Maydoni - 9,6 mln. kv. km., aholisi - 1 mlrd. 292 mln. 750 ming kishi (2003 - yil), tili - xitoy, dini - buddizm, daosizm, konfutsiylik, pul birligi - yuan. Yirik shaharlari: Pekin, Shanxay, Tyan - szin, Lyuyda, Uxan, Chuntsin. Milliy bayrami - 1 oktyabr - Respublika e'lon qilingan kun (1949 - yil).

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: Xitoy insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy madaniyat beshiklaridan biri bo`lganligi sabab, asosiy turistlarning shu maqsaddagi tashrifi. Arxeologiyasi, me'morchiligi. Xetao, Yanshao, Lunshan - ibtidoiy madaniyat manzilgohlari. "Buyuk ipak yo`li" ob'ektlari, dinlari, davlatchiligi, san'ati, xunarmandchilik markazlari, chinni idishlari, ipak matolar. Pekinda Imperator saroyi, Gugun muzeyi, Tyan Tan ibodatxonasi, Buyuk Xitoy devori, Yozgi Imperator saroyi, Min sulolasi davri er osti qabrlari, Zooparki, parklari, akvarium. Shanxay porti, Yuyfoslar ibodatxonasi, "Sharq marvaridi" teleminorasi, Yuyyuan parki, muzeyi, Akvanarium, qirg`oqlari, pionerlar saroyi. Loyan tosh g`ori, Denfen shahridagi Shaolin monastiriga ekskursiya. Gunfu ta'limoti. Urumchi "Xun Shan" parki, "Nan Shan" yaylovi, 3 - 4 yulduzli otellari. Gonkong yirik porti, savdo, moliyaviy va turizm markazi. Shop tur, madaniy (opera, teatr) tur. Istirohat bog`lari, ot sporti, festivallar. Okeanarium. Makao turizm markazi. Turistlarning Gonkong orqali katerlarda tashrifi. Kazino o`yinlari.

O`zbekiston - Xitoy munosabatlari. Xitoy elchisi Chjan Syanning qadimiy Farg`ona (Davan) davlatiga kelishi (mil. av. 128 - yil). O`zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimovning 1992, 1994, 1999, 2000 - yillarda Xitoyga safari.

Hindiston. Poytaxti Dehli shahri. Iqlimi - mussonli iqlim. Davlat tuzumi - federativ respublika. Maydoni - 3,3 mln. kv. km., aholisi - 1 mlrd. 49,5 mln. kishi (2002 - yil), tili - hindi va ingliz, dini - hinduiylik (induizm), pul birligi - rupiya. Yirik shaharlari: Dehli, Kalkutta, Bombay, Ahmadobod, Jaypun va boshqalar. Milliy

bayrami - 26 yanvar - Respublika kuni (1950 - yil), 15 avgust - Mustaqillik kuni (1947 - yil).

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: Dehli Shohjahonobod me'moriy obidasi namunalari, Lal - Qila majmuyidagi boburiylardan qolgan marmar saroylar, Marvarid masjid, Juma masjid, Humoyun maqbarasi, muzeylari, amfiteatri, bayramlari, kinosi, raqsi, musiqasi, Palam xalqaro aeroporti, Agra Tojmahali, Goa taomlari, plyajlari, besh yulduzli otellari, Gang daryosidagi Varanasi (Banoras) shahri diniy an'analari, Jaypur Jal Mahal ko`l saroyi, shahar saroyi, muzeyi, fillar festivali, biznes turizm, Madras plyaji, ibodatxonalari, muzeylari, Bxubaneshvar ibodatxonasi. Shuningdek, mamlakatdagi Himolay tog`iga piyoda tur, alpinizm tur, dengiz turizmi. Tog`li shahar - kurortlar: Kulu, Manali, Simla, Nainital, Masuri. Kashmir, Panjob, Jamma shtatlari muqaddas qadamjolari, tabiiy - ekzotik turizm, tog` turizmi, rafting tur, chang`i turizmi, tuyalar bilan sayohat. 26 - yanvarda Respublika kunining nishonlanishi. Kalkutta muzeylari, golf klublari, Mumbai (Bombay) qal'asi, bog`lari, muzeylari, shuningdek, boshqa shtatlardagi g`orlar, ibodatxonalar, plyajlar, mazali taomlar, fillar.

O`zbekiston - Hindiston munosabatlari. 1992 - yil Toshkentda Hindiston konsulxonasi, 1994 - yil Dehlida O`zbekiston elchixonasining ochilishi. O`zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimovning 1991, 1994, 2000, 2005 - yillarda Hindistonga safari.

Singapur. Poytaxti Singapur shahri. Iqlimi - tropik mussonli iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 640 kv. km., aholisi - 4,45 mln. kishi (2002 - yil), tili - malayya (davlat tili), xitoy, tamil, ingliz (rasmiy til), aholisining 76 % dan ortig`i xitoylar, 15 % malayyalar, 7 % Hindiston, Bangladesh, Pokistondan kelganlar tashkil etadi. Shu bois, malayyalar islom diniga, xitoylar buddizmga, konfutsiylikka e'tiqod qiladilar, pul birligi - Singapur dollari. Yirik shaharlari: Singapur, Jurong. Milliy bayrami - 9 avgust - Milliy kun (1965 - yil).

Turizmi: Singapur Evropa mamlakatlari uchun juda qiziqarli turizm markazi ekanligi: etnik, madaniy va biznes turizm. Xorijiy turistlarning 60 % Osiyodan, 15 - 19 % Evropadan, 12 % Avstraliya va Yangi Zelandiyadan, 6 % AQSh dan.

Indoneziya. Poytaxti Jakarta shahri. Iqlimi - ekvatorial iqlim. Davlat tuzumi - unitar respublika. Maydoni - 1904,6 ming kv. km., aholisi - 228,4 mln. kishi (2001 - yil), tili - indoneziya, dini - islom, pul birligi - Indoneziya rupiyasi. Yirik shaharlari: Jakarta, Surabayya, Bandung, Semarang, Medan. Milliy bayrami - 17 avgust - Mustaqillik kuni (1945 - yil).

Turizmi: turizm - birinchidan, ishchi o`rinlarini ta'minlash va ikkinchidan, xorijiy sarmoyalarni kiritish asosida yo`lga qo`yilganli. Turizmni xorijiy valyuta tushumi bo`yicha neft, gaz, yog`och, tekstil mahsulotlaridan keyin beshinchi o`rinda turishi. Asosiy turistlarning janubiy Koreya va Tayvandan tashrifi. 82 % turistlarning dam oluvchilar ekanligi.

Tailand. Poytaxti Bangkok shahri. Iqlimi - sub ekvatorial iqlim. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya (qirollik). Maydoni - 514 ming kv. km., aholisi - 62,4 mln. kishi (2002 - yil), tili - tai, dini - buddizm, pul birligi - bat. Yirik shaharlari - Bangkok, Chiangmay, Chonburi. Milliy bayrami - 5 dekabr - qirol tug`ilgan kun (1927 - yil).

Turizmi: tarixiy, madaniy, etnik va plyaj turizmning yo`lga qo`yilganligi. Bangkokdagi shoh saroyi va budda ibodatxonasi, yuvelir fabrikasi, Safari parki. Pattayadagi "Kobra ferma" - davolash - sayyohlik markazi, akvalang bilan suzish, milliy bog`i, me'moriy yodgorliklari, fillar bilan changalzor (jungli)ga sayohat, Ko - sameg orolidagi milliy qo`riqxonasi, maymunlar bilan shou. Ekzotikasi. Otellari: Manohra*****, Palace*****.

Filippin. Poytaxti Manila shahri. Davlat tuzumi - respublika. Iqlimi - ekvatorial iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 300 ming kv. km., aholisi - 84,526 mln. kishi (2002 - yil), tili - tagal (pilipino) va ingliz, dini - xristian (90 %), islom (10 %),

pul birligi - peso. Yirik shaharlari: Manila, Keson - Siti, Sebu, Davao, San - Fernando. Milliy bayrami - 12 iyun - Mustaqillik kuni (1898 - yil).

Turizmi: Filippin Ispan mustamlakachilaridan meros bo`lib qolgan me'morchilik obidalarini tufayli tarixiy turizm manzili va ekoturizm. Asosiy talabgor turistlar davlatlari - AQSh va Yaponiya.

Malayziya. Poytaxti Kuala - Lumpur shahri. Iqlimi - ekvatorial tropik iqlim. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya. Maydoni - 332,8 ming kv. km., aholisi - 22,2 mln. kishi (2001 - yil), tili - malayya, dini - islom, pul birligi - ringgit. Yirik shaharlari: Kuala - Lumpur, Jorjtaun, Ipoh, Joxor - Baru. Milliy bayrami - 31 avgust (1957 - yil).

Turizmi: Malayziya dunyo sivilizatsiyasi va dinining barchasini mujassam etgan olgan mamlakat ekanligi. Sharq ekzotikasi, plyajlar, tropik changalzorlar, sharsharalar, sifatli otellar. Kuala - Lumpurdagi induist ibodatxonasi, islomiy masjidlar. Shoh saroyidagi milliy bayramlar. Dikson portida dam olish. Penang orolidagi ekzotika, qushlar bog`i. "Sanvey Lagun" suv parki, "Templera" parki, Pinang orolidagi "Kek Lok Si" budda ibodatxonasi, Lankavi oroli. Concoloe ***** oteli.

Maldiv Respublikasi. Poytaxti Male shahri. Iqlimi - ekvatorial iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 298 kv. km., aholisi - 310,7 ming kishi (2001 - yil), tili - maldiv, dini - islom, pul birligi - Maldiv rupiyasi. 2000 ta kichik marjon orollardan iborat ekanligi. Milliy bayrami - 26 iyul - Mustaqillik kuni (1965 - yil).

Turizmi: Sof plyajlar, kokos va banan palmasi, Hind okeanining suvlari. Orollardagi suv ostida suzuvchi havaskorlar uchun imkoniyatlarning etarli ekanligi. Turli rangdagi baliqlar. Ekzotik tabiat. Suvlardagi 4 - 5 yulduzli turli komfort otellar. Ishbilarmonlarning dam olish turizm markazi. Male yaqinidagi xalqaro aeroport.

Isroil. Poytaxti Quddus (Ierusalim) shahri. Iqlimi - subtropik iqlim. Yaqin Sharqdagi mamlakat bo`lib, g`arbiy Osiyoda, O`rta dengizning janubi - sharqiy

qirg'oqlarida joylashgan. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 14,1 ming kv. km., aholisi - 5,938 mln. kishi (2001 - yil), rasmiy tili - ivrit va arab, dini - iudaizm (yahudiylar) va islom, pul birligi - shekel. Yirik shaharlari: Tel - Aviv, Xayfo, Quddus (g'arbiy qismi), Ramat - Gan. Milliy bayrami - Mustaqillik kuni (1948 - yil) - yahudiylar taqvimiga ko'ra, bu bayram har yili har - xil kunda kelishi mumkin. Masalan, 2001 - yilda 26 aprelga to'g'ri kelgan.

Sayyohlik yo'nalishlari va turlari: diniy (islom, xristian, iudaizm), tarixiy turizmning rivojlanib, jami ziyoratchi - turistlarning 20 % ini tashkil etishi. Tur. yo'nalish: Quddus - Tveriya - Vifliem - Nazaret - Yaffa - Tel -Aviv - O'lik dengiz. Tel - Aviv mamlakatning eng katta, turizm va iqtisodi rivojlangan madaniy markazi ekanligi. Undagi Xayfa porti, muzeylari, dunyo olmos birjasi markazi. Nataniya - kurort shahri. Eylat kurortidagi plyaj turizmi. Otellari: Zion***, Kikarzion**** (Quddus).

O'zbekiston - Isroil munosabatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Isroilga 1998 - yildagi rasmiy tashrifi.

Malta. Poytaxti Valletta shahri. Iqlimi - O'rta dengiz iqlimi. O'rta dengizdagi kichik davlat. Davlat tuzumi - konstitutsion monarxiya. Maydoni - 396 kv. km., aholisi - 394 ming kishi (2001 - yil), tili - malta, ingliz, dini - katolik, pul birligi - Malta funti. Yirik shaharlari: Valletta, Birkirkara, Xamrun, Rabot, Viktoriya. Milliy bayramlari: 31 mart - Ozodlik kuni (1979 - yil), 21 sentyabr - Mustaqillik kuni (1964 - yil) va 13 dekabr - Respublika kuni (1974 - yil).

Turizmi: tarixiy va madaniy yodgorliklari, mo'jizaviy plyajlari, akvalangi, yaxta turizmi. Otellar: Patricia Hotel***, Radisson Bay Point Hotel *****.

Saudiya Arabistoni. Poytaxti Ar - Riyod shahri. Iqlimi - shimolda subtropik, janubda tropik, quruq keskin kontinental iqlim. Osiyoning janubi - g'arbidagi davlat. Islom mamlakati. Davlat tuzumi - absolyut teokratik monarxiya (qirollik). Maydoni - 2,25 mln. kv. km., aholisi - 23,5 mln. kishi (2002 - yil), tili - arab, dini - islom, pul

birliği - dinor. Yirik shaharlari: Ar - Riyod, Jidda, Makka, Madina. Milliy bayrasi - 23 - sentyabr - Podshohlik e'lon qilingan kun (1932 - yil).

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: mamlakatning ma'muriy jihatdan to`rt viloyatga bo`linishi: Xijoz (markazi Makka shahri), Asir (markazi Abxa shahri), Najd (markazi Ar - Riyod shahri), Sharqiy viloyat (markazi Dammom shahri). Musulmon dunyosidagi muqaddas ziyoratgohlar: Makka, Madina, Jidda shaharlari. Islom olamidagi 5 - rukn hisoblangan Haj amali uchun ziyorat qilinishi. Shuningdek, Umra ziyorati. Makka shahrining Ka'basi, zamzam qudug`i, masjidlari. Savdogarlik, hunarmandchilik. Hajga kelganlar uchun maxsus kiyimlar (ihrom), tasbeh, atirlar, zamzam suvi uchun idishlar, joynamozlar savdolari. Zamonaviy otellari, yuksak servis xizmatlari. Xalqaro aeroportlari. Makka avtomobil yo`llarining Ar - Riyod va Jidda shaharlari bilan bog`lanishi. Madina shahridagi shahar aholisining Makka xalqi singari savdo - sotiq bilan shug`ullanishi. Mamlakatning dunyodagi Haj va Umra ziyorati - turizmi rivojlangan yagona davlat ekanligi.

O`zbekiston - Saudiya Arabistoni munosabatlari. 1992 - yil noyabr oyida Jiddada O`zbekiston Respublikasi konsulxonasi, may oyida Ar - Riyodda elchixonasi, 1997 - yil mart oyida Toshkentda Saudiya Arabistoni elchixonasi ochilganligi. 1996 - yil yanvar oyida "O`zbekturizm" M.K.ning "Al - Marva" shirkati bilan turizm va aviachiptalarni sotish to`g`risida bitim imzolaganligi.

Afrika mamlakatlari turizm markazlari

Misr Arab Respublikasi. Poytaxti Qohira shahri. Iqlimi - tropik kontinental iqlim. Davlat tuzumi - demokratik sotsialistik respublika. Maydoni - 1001,4 ming kv. km., aholisi - 69,5 mln. kishi (2001 - yil), tili - arab, dini - islom, pul birligi - Misr funti. Yirik shaharlari: Qohira, Iskandariya, Port - Said, Ismoilিয়া, Tanta, Suvaysh, Al - Mansura, Damanhur, Al - Mahallat - ul - Kubro. Milliy bayrami - 23 iyul - Inqilob kuni (1952 - yil)

Sayyohlik yo`nalishlari va turizm: Misrning insoniyat sivilizatsiyasi qadim madaniyat markazlaridan biri ekanligi. Tarixiy, diniy turizm: Bavit, Vodiy Natrun,

So`hoj sahrolaridagi xristian monastirlari, Nil sharqiy qirg`oqlaridagi Fustat qal'asi, Giza fir'avnlari, ehromlari, Amir masjidi, Ibn Tulun masjidi, Al - Azxar masjidi, Qohira muzeyidagi Tutanxamonning oltin niqobi, Simbeldagi dunyodagi yirik ochiq osmon ostidagi muzey, madrasalar, Xatshepsit ibodatxonasi, 2 - 5 yulduzli otellari. Masalan, Intercontinental *****.

O`zbekiston - Misr Arab Respublikasi munosabatlari. 1992 - yil yanvarda Misr Arab Respublikasi delegatsiyasining O`zbekistonga, 1992 - yil dekabrda O`zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimovning Misrga tashrifi.

Tunis. Poytaxti Tunis shahri. Iqlimi - shimolda subtropik, janubda tropik iqlim. Shimoliy Afrika markazidagi kichik arab davlati. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 164,2 ming kv. km., aholisi - 9,8 mln. kishi (2002 - yil), tili - arab, dini - islom, pul birligi - Tunis dinori. Yirik shaharlari: Tunis, Sfaks, Sus, Bizerta, Qayruvan. Milliy bayrami - 20 mart - Mustaqillik kuni (1956 - yil).

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: eng shimoliy qismi (Kal Bon) dan Sitsiliyagacha (140 km) va Tunisni bimalol avtobuslarda ekskursiya qilib chiqish mumkin ekanligi. O`rta dengiz sohilidagi plyajlari. Avgust - eng issiq, yanvar - eng sovuq oylar. May - iyun, sentyabr - oktyabr eng bahmal mavsum ekanligi. Turizm: suv sporti turlari, kata maran, yaxta turizm, tuya va jipda sayr. Poytaxt markazidagi Zitun masjidi va sharq bozori, dunyodagi qadim Rim mozaika (mozaika - qadama (terma) naqsh va shunday naqsh ishlash san'ati) suratlari ekspozitsiyalari jamlangan Bardo muzeyi, mashhur sarkarda Gannibal tug`ilgan Karfagen shahri, uning salobatli binolari xarobalari, 50 ming tamoshabin sig`adigan amfiteatri, imperator Antoniyning jamoat term (hammom) lari. Rassomlar, shoir va yozuvchilar uchrashadigan tabiati go`zal Sidi Bu Said shaharchasi. Otellari: Royal azur*****, Marhaba***.

Liviya Arab Respublikasi. Poytaxtlari - Tripoli va Bing`ozi shaharlari. Iqlimi - tropik iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 1759,5 kv. km., aholisi - 5,2 mln. kishi (2001 - yil), tili - arab, dini - islom, pul birligi - Liviya dinori. Yirik shaharlari: Tripoli, Bing`ozi. Milliy bayrami - 1 sentyabr - Inqilob kuni (1969 - yil).

Turizm: asosan, tarixiy turizm rivojlangan. Tripolitaniya, Sabrit teatr binosi, otellari, xalqaro aeroporti.

Yangi mustaqil davlatlar turizm markazlari

Belorussiya. Poytaxti Minsk shahri. Iqlimi - kontinental, dengiz iqlimi. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 207,6 ming kv. km., aholisi - 11 mln. kishi (2001 - yil), tili - belorus va rus, dini - xristian. Yirik shaharlari: Minsk, Gomel, Vitebsk, Mogilyov, Grodno, Bobruysk, Brest. Milliy bayrami - Mustaqillik kuni (3 iyul).

Turizmi: asosan, tarixiy turizm rivojlangan. Polotskdagi Sofiya sobori, Spas - Efrosinevsk va Blagoveshchensk ibodatxonalari, Kamenets minorasi, Kreva, Lida, Turov, Novogudok qal'alari. Grodno, Mir, Nesbijadagi qo`rg'onlar. Mehmonxonalar va xalqaro aeroporti.

Boltiq bo`yi respublikalari. Iqlimi - dengiz iqlimi bilan kontinental iqlim o`rtasida.

Latviya. Poytaxti Riga shahri. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 64,589 ming kv. km., aholisi - 2,385 mln. kishi (2001 - yil), tili - latish, dini - xristian, pul birligi - lat. Yirik shaharlari: Riga, Daugavpils, Liepaya, Elgava, Yurmala. Milliy bayrami - 18 noyabr Latviya respublikasi e'lon qilingan kun (1918 - yil).

Turizmi: O`rta asr qo`rg'onlari, ibodatxonalari. Pyotr cherkovi, Elgavadagi parkli saroy ansambli. "Uch aka - uka" ansambli, Tarix muzeyi, metropoliteni. Turistlar uchun ertaknamo tor ko`chalari. Sigulda Milliy parki. Mashhur Yurmala. Sigulda, Liepaya, Kemeris, Baldone kurortlari. Plyaj turizm, tennis kortlari, Rundal saroyi.

Litva. Poytaxti Vilnyus shahri. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 65,2 ming kv. km., aholisi - 3610 ming kishi (2001 - yil), tili - litva, dini - xristian, pul birligi - lit. Yirik shaharlari: Vilnyus, Kaunas, Klaypeda, Shyaulay. Milliy bayrami - 16 fevral - Litva davlati qayta tiklangan kun (1918 - yil).

Turizmi: Vilnyus - Neris va Vilniya daryolarining tutashgan erida joylashgan va YuNESKO tarkibiga kiritilgan tarixiy shahar. Minoralari, o`rta asrga oid yo`l va

kichik ko`chalari. Avliyo Anna cherkovi. Trakan etnografik va tarix muzeyi, Kaunas Rim - katolik cherkovi, muzeylari, Klaypeda porti, muzeylari, Shaulyay avliyo Pyotr va Pavl cherkovlari.

Estoniya. Poytaxti Tallin shahri. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 45,1 ming kv. km., aholisi - 2,5 mln., tili - eston, dini - xristian.

Turizmi: Kichik qal'a va cherkovlari. Tarixiy "Tall Herman" minorasi.

Boltiq bo`yi respublikalariga xos tarixiy, diniy, madaniy, plyaj, sog`lomlashtirish turizmlari, mehmonxonalar, xalqaro aeroportlari.

Rossiya. Poytaxti Moskva shahri. Iqlimi - asosan mo`tdil iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - dunyodagi eng katta mamlakat. Kuruklikdagi chegarasi - 22125,3 km, dengiz chegarasi - 38807,5 km, aholisi - 145,3 mln. kishi (2002 - yil), tili - rus, dini - xristian, pul birligi - rubl. Yirik shaharlari: Moskva, Sankt - Peterburg, Nijniy Novgorod, Novosibirsk, Samara, Ekaterinburg. Milliy bayramlari: 12 iyun - Suverenitet haqida deklaratsiya qabul qilingan kun (1990 - yil), 7 noyabr - kelishuv va inoqlik kuni (1996 - yil), 12 - dekabr - Rossiya Konstitutsiyasi kuni (1993 - yil).

Sayyohlik yo`nalishlari va turlari: Moskva Kremli, Kolomenskdagi Vozneseniy cherkovi, Vasiliy Blajenniy ibodatxonasi, Orujeynaya palata, tosh ibodatxonalar, musulmon masjidleri, Moskva metropoliteni, Moskva daryosi ko`priklari, muzeylari, Pyotr saroyi, Tretyakov galareyasi, cherkovlari, monastirlari. Quyi Novgorod, Tula, Kolomna, Zaraysk, Smolensk, Serpuxov kremlari. Sankt - Peterburgning dunyodagi go`zal shaharlardan biri hisoblanishi. Petropavlovsk qal'asi majmuyi, Davlat Ermitaji. Umuman, Rossiyadagi tarixiy, diniy, madaniy va dam olish turizmi. Rojdestvo (Iso payg`ambarning tug`ilganiga bag`ishlangan xristianlar bayrami, milodning boshlanishi), paxsa bayramlari bilan bog`liq sayr - sayohat, ta'lim, sport - sog`lomlashtirish va yoshlar turizmi, dengiz, daryo turizmi, shop tur, biznes tur, avtomobil turizmi. Xalqaro aeroportlar, zamonaviy mehmonxonalar.

O`zbekiston - Rossiya munosabatlari. Sohibqiron Amir Temurning zarbalari ostida Oltin O`rda davlatining barham topishi va Rossiyaning ozod bo`lishi. 1464 -

yilda Rus davlati o'z elchisini O'rta Osiyoga yuborishi. 1490 - yilda Sulton Husayn Boyqaro elchilarining Moskvaga kelishi. Keyingi yillarda savdo - iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimovning 1999, 2001, 2004 - yillardagi Rossiyaga, Rossiya prezidenti V. Putinning 2000, 2003 - yillardagi O'zbekistonga kelishi.

Ukraina. Poytaxti Kiev shahri. Iqlimi - mo'tadil, kontinental iqlim. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 603,7 ming kv. km., aholisi - 48,4 mln. mln. kishi (2002 - yil), tili - ukrain, dini - xristian, pul birligi - grivna. Yirik shaharlari: Kiev, Xarkov, Odessa, Dnepropetrovsk, Donetsk, Zaporozhe, Krivoy Rog, Lvov.

Turizmi: Yaltaning qora dengizdagi port va kurort shahri ekanligi. Mashhur Qrim (Yalta) va Odessa kurortlari, sanatoriylari, soborlari, tosh qal'asi, saroylar, katolik cherkovlari, ibodatxonalari, haykaltaroshligi.

Kavkaz respublikalari turizm markazlari. Iqlimi - subtropik, mo'tadil iqlim.

Armaniston. Poytaxti Erevan shahri. Davlat tuzumi - demokratik respublika. Maydoni - 29,8 ming kv. km., aholisi - 3,412 mln. kishi (2002 - yil), tili - arman, dini - xristian - monofisiy, pul birligi - dram. Yirik shaharlari: Erevan, Gyumri, Vanadzor. Milliy bayrami - 24 sentyabr - Mustaqillik kuni (1991- yil).

Turizmi: Tigranet shahri Garni qal'asi. Ripsime, Avan, Evartnots Axtamar qasrlari, monastirlari va cherkovlari.

Gruziya. Poytaxti Tbilisi shahri. Maydoni - 69,7 ming kv. km., aholisi - 5411ming kishi (2002 - yil), tili - gruzin, dini - pravoslav, katolik, protestant. Muhim shaharlari: Tbilisi, Kutaisi, Suxumi, Batumi. Milliy bayrami - 26 may - Mustaqillik kuni (1991 - yil).

Turizmi: Jvari, Promi, Oshki ehromlari, ibodatxonalari. Muxeti sobori, Gelat monastiri, David Gareja g'or - monastiri. Suxumi va Batumidagi balneologik kurortlar.

Ozarbajjon. Poytaxti Boku shahri. Davlat tuzumi - respublika. Maydoni - 86,6 ming kv. km., aholisi - 8,2 mln. kishi (2002 - yil), tili - ozarbajjon, dini - islom, pul

birligi - manat. Yirik shaharlari: Boku, Sumgait, Mingeaur, Ganja, Lenkoran, Naxichevan.

Turizmi: Chirog` qal'a, Mingeaur ibodatxonasi, Shirvonshohlar saroyi, Tabrizdagi Zangori masjid.

Markaziy Osiyo respublikalari turizm markazlari. Davlat tuzumi - respublika. Iqlimi - keskin kontinental, qurg`oqchil iqlim.

Tojikiston respublikasi. Poytaxti Dushanbe shahri. Maydoni - 143,1 ming kv. km., aholisi - 6578,5 ming kishi (2002 - yil), tili - tojik, dini - islom, pul birligi - somoniy. Yirik shaharlari: Dushanbe, Xo`jand, Qo`rg`on tepa, Kulob, Xorug, Norak, Qayroqqum. Panjakent shahristoni. Milliy bayrami - 9 sentyabr - Mustaqillik kuni (1991 - yil).

Turkmaniston respublikasi. Poytaxti Ashxobod shahri. Maydoni - 488,1 ming kv. km., aholisi - 4,7 mln. kishi (2002 - yil), tili - turkman, dini - islom, pul birligi - manat. Muhim shaharlari: Ashxobod, Turkmanobod, Toshhovuz, Mari, Turkmanboshi. Milliy bayrami - 27 oktyabr - Mustaqillik kuni (1991 - yil). Qadim arxeologik yodgorliklari, Sulton Sanjar, Fahriddin Roziy, Sulton Takash maqbaralari.

Qirg`iziston respublikasi. Poytaxti Bishkek shahri. Davlat tuzumi - suveren, unitar davlat, demokratik respublika. Maydoni - 199,9 ming kv. km., aholisi - 5 mln. 12 ming kishi (2002 - yil), tili - qirg`iz, dini - islom, pul birligi - som. Muhim shaharlari: Bishkek, O`sh, Jalolobod, To`qmoq, O`zgan. Milliy bayrami - 31 avgust - Davlat mustaqilligi kuni (1991-yil). Jalolobod balneologik kurorti, O`sh, Arslonbob, Issiq ko`l tur bazalari.

Qozog`iston respublikasi. Poytaxti Ostona shahri. Davlat tuzumi - boshqaruvning prezidentlik shaklidagi unitar davlat. Maydoni - 2724,9 ming kv. km., aholisi - 15 mln. kishi (2005 - yil), tili - qozoq, dini - islom, pul birligi - tenge. Shaharlari va tarixiy yodgorliklari: Olma ota, Turkiston, Chimkent, Jambul, Qarag`anda, Sayram, O`tror, Ahmad Yassaviy, Temirlanovka bilan bog`liq

manzilgohlar. Bularning turizm uchun ahamiyati. Milliy bayrami - 16 dekabr - Mustaqillik kuni (1991 - yil).

O`zbekiston respublikasi. 1 - ilovaga qaralsin.

Tayanch iboralar

- turistik qiziqish
- turistik resurslar
- turizm ob'ektlari
- akvatoriyalar
- g`orlar, qal'a va qasrlar

Nazorat va mulohaza savollari

1. Turistik qiziqish deganda nimani tushunasiz?
2. Turistik resurslarni aytib bering.
3. Turizm ob'ektlari deganda nimani tushunasiz?
4. Akvatoriya nima?
5. Turistik resurslardan oqilona foydalanish haqida fikringiz qanday?
6. O`zbekistonda mavjud tur resurslarini sanab uting.
7. Siz bilgan turistik qiziqish ob'ektlari qaerda bor?
8. Xorijiy tur resurslaridan qaysilarini bilasiz?
9. Tur marshrutlarini tuzishda tur resurslarining ahamiyati qanday?
10. Turistik resurslar respublikamizning qaysi shaharlarida ko`proq?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo`li"ni qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasini ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora -tadbirlar to`g`risida"gi farmoni.

2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1990 - yil 23 - martdagi "Madaniy boyliklarni olib chiqish va olib kirish haqida"gi qarori.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi " 2005 - yilgacha bulgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to`g`risida"gi farmoni.
4. O`zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining 2001 - yil 30 - aprelda qabul qilgan "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to`g`risida"gi qonuni.
5. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 21 - avgustda qabul qilgan "Turizm to`g`risida"gi qonuni
6. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Санкт - Петербург, 2000
7. Trevel Guide Uzbekistan - Tashkent: National Company Uzbekturizm. 2003.
8. Tourism and Poverty Allevation-Recommendations for Action. WTO. 2004.

13 - bob. Ekologiya va turizm

- 13. 1. Ekologiya va turizmning o`zaro aloqadorligi
- 13. 2. Turizm ekologiyasi va ekologik turizmning o`ziga xos xususiyatlari
- 13. 3. Milliy park va zahiralarining ekoturizmida tutgan o`rni

13. 1. Ekologiya va turizmning o`zaro aloqadorligi

Ma'lumki, butun dunyoda "2002 - yil - ekoturizm yili", - deb e'lon qilindi. Bu albatta, bejiz emas. Negaki, hozirgi kunda ekologik muammolar etarli bo`lib, tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish dunyo hamjamiyati oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Ekologiya - ushbu tadqiqotimiz ob'ektida kishilik jamiyatining o`zaro munosabatlari, uning turizm va atrof muhitdagi faoliyati to`g`risidagi fan sifatida qaraladi.

Jamiyat rivojlanishi hozirgi bosqichining xarakterli xususiyatlaridan biri atrof - muhit ifloslanishini texnogen omillarining ortishi bo`lib, bu favqulodda holatlarda birinchi navbatda turistik resurslarning ekologik krizisiga olib keladi. Ekologik vaziyatning zo`rayishi butun dunyoda muammo darajasidagi xolatdir.

Bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri tabiiy muhitni saqlash masalalarini hal qilishga yangicha yo`nalishlarni ishlab chiqishdir. Bunday yondashuvni kompleks darajada murakkab ijtimoiy - iqtisodiy va ekologik tizim sifatida qaralishi muhimdir. Ushbu muammolarni hal qilishda etakchi o`rinni turizm egallaydi va buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1. Turizm dunyo xo`jaligida dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. U jahon milliy yalpi mahsulotida samarali o`rin egallaydi, jahon investitsiyalarining 7% ni o`ziga jalb qilgan holda katta miqdorda yangi ishchi o`rinlari yaratishi ko`p mamlakatlarda soliq tushumlarining muhim moddasi hisoblanadi.

2. Turizm zamonaviy davlat iqtisodiyotining barcha muhim bo'g'inariga, rivojlangan jamiyat hayotining barcha tomonlariga ta'sir ko'rsatadi. Turizm iqtisodiyotni tarkiban qayta qurishni va ijtimoiy taraqqiyot ustuvor almashuvining samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

3. Turizm chuqur ijtimoiy vazifalarni bajaradi. U o'zining hozirgi rivojlanish bosqichida birinchi navbatda ma'lum bir ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltiriladi.

Turizmning ijtimoiy masalalari quyidagilarda belgilanadi:

a) iste'molchilarni keng xizmat tarmoqlari orqali nomoddiy ne'matlar bilan ta'minlash;

b) aholining umumta'lim, madaniy, ijtimoiy darajasini shakllantirish;

v) millatlararo, davlatlararo etnik guruhlar, shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni kengaytirish;

g) iste'molchilarning dam olishi, hayotiy kuchlarini tiklash, salomatligini ta'minlash;

d) jamiyat uzoq muddatli manfaatlari bilan aholining alohida guruhlari manfaatlarini kelishtirish, shu jumladan yoqimli ekologik, ijtimoiy - madaniy muhitni saqlash.

13. 2. Turizm ekologiyasi va ekologik turizmning o'ziga xos xususiyatlari

Ijtimoiy hayotning ekologik jarayonida turizmning roli masalasi ko'rilganda turizm ekologiyasi va ekologik turizm tushunchalarini ajratib olish lozim. Turizmning ekologik yoki noekologik xarakteri uning atrof muhit, ya'ni atmosfera, suv resurslari, tuproq, hayvonot va o'simlik dunyosiga ta'siri darajasi bilan o'lchanadi.

Ta'sir sof narsa ko'rinishida yoki shovqin, elektromagnit, radiaktiv ko'rinishida bo'lishi mumkin. Turizm ekologiyasi tushunchasi o'z ichiga atrof - muhitni himoya qilish va tiklashning aniq chora - tadbirlarini oladi.

Shuning uchun turistik rekreatsion resurslar turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi va uning salbiy ta'siri boshqa tarmoq korxonalariga nisbatan kamroqdir.

Yuqoridagilardan ko`rinadiki, turizm ekologiyasi deganda ushbu tarmoqning atrof - muhitga keng miqyosdagi ta'siri tushuniladi.

Ekologik turizm - tabiiy turizmning insonlarni birlashtiruvchi ilmiy - tadqiqot maqsadlaridagi turlaridan biridir. Unda turistlarning qiziqishlari atrof - muhit tabiati va ularni saqlash bilan olib borilmog`i kerak. Turizmning ushbu turida qo`riqlanayotgan tabiat hududlari alohida o`rin tutadi. Shunday qilib, ekologik turizm - qat'iy maxsus turdagi, ilmiy - tadqiqot maqsadlaridagi xizmat turidir.

Ekoturizmni o`tkazish (amalga oshirish) dagi imkoniyatlar

Ekoturizmni o`tkazish imkoniyati - bu ma'lum bir turistik ob'ektni mahalliy resurslarga ortiqcha zarar keltirmagan va aholiga ijtimoiy - iqtisodiy muammolar keltirib chiqarmagan holatda maksimal miqdordagi yuklashlikdir.

Ba'zi mamlakatlar va joylar turistlarni qabul qilish va xizmat ko`rsatishga ixtisoslashgan. Masalan: Kanar orollari (Atlantika okeanidagi orollar guruhi. Ispaniya tarkibidagi muxtor viloyat), unda doimiy yashaydigan aholi soniga nisbatan 10 barobar ko`proq turistlarni qabul qiladi. Andorra (Frantsiya bilan Ispaniya oralig`idagi, evropaning janubi - g`arbidagi davlat. Pimrineylar yarim orolida joylashgan) davlatini misol qilsak, har yili u erda 12 mlndan ortiq turistlar, o`rtacha 2 - 4 kun muddat bilan dam olishadi. Aholining asosiy hayot tarzi, mehmonlarga joy berish, taom tayyorlash, ertadan kechgacha turistlarga ko`ngilochar tamoshalar uyushtirish bilan o`tadi. Bundan yigirma yil oldin ushbu tog`li Pirineylar vodiysi qashshoqlar bilan band bo`lgan bo`lsa, bugungi kunda esa (turizm hisobiga) evropaning boy mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Shulardan kelib chiqib, ekoturizmni o`tkazish imkoniyatini 3 ta asosiy turga bo`lish mumkin:

1. Ekologik o`tkazish imkoniyati - bu biror - bir ob'ekt yoki joyning qabul qilish darajasi bo`lib, undan ortib ketishi ekologik jihatdan salbiy oqibatlariga olib keladi.

2. Turistik ijtimoiy o`tkazish imkoniyati - bu turistik ob'ekt joyining qabul qilish darajasi bo`lib, undan ortig`i turistlarning safardan oladigan ta'surotlarini yomonlashuviga olib keladi.

3. Mahalliy ijtimoiy o`tkazish imkoniyati - bu turistlarni qabul qilish darajasining shunday chegarasiki, undan ortig`i mahalliy madaniyat, mahalliy aholi va turistlar ortasidagi munosabatlarni yomonlashuviga olib keladi.

Shunday qilib, o`tkazish imkoniyati hududdagi resurslarni saqlash va turistik ob'ekt yoki joyning qayta tiklanishini ta'minlaydigan chegaradir.

Hududning resurs imkoniyati - bu jamiyatning hayot faoliyatini barcha jabhalarini qamrab oluvchi tushunchadir.

Olamshumul insonparvarlik nuqtai - nazardan qaraganda, uni alohida iqtisodning ekologik va ijtimoiy jihatlarini hisobga olish zarur. Uning bir qismi to`g`ridan - to`g`ri hududning turistik resurslariga, ikkinchi qismi mintaqadagi turizmni rivojlantirish omillariga tegishlidir.

Turizm uchun turistik rekreatsion resurslar birinchi darajali ahamiyatga ega. Bular turistik biznesni rivojlantirish jarayonining poydevori hisoblanadi. Turistik rekreatsion resurslar turistik mahsulot yaratish uchun inson tomonidan yaratilgan tabiiy va sun'iy ob'ektlar majmuasidir.

Turistik resurslar mintaqada turizmni rivojlanish xususiyatlarini belgilangan hududda investitsiya siyosati yo`nalishlarini belgilashda turistik mahsulot ishlab chiqarish uchun boshlang`ich manba' hisoblanadi.

13. 3. Milliy parklar va zahiralarining ekoturizmga tutgan o`rni

Hududlarni o`zlashtirish tadbirlari jarayonida ularni tabiatan birinchi holatdagi ko`rinishini, alohida madaniy va tarixiy qiymatga ega bo`lgan yodgorliklarni ushbu mamlakat hamda butun insoniyat uchun saqlab qolish kerak. Shu maqsadda, deyarli barcha davlatlarda qo`riqlanayotgan hududlar e'lon qilinib, u erlarda barcha xo`jalik

faoliyatlari cheklangan. O`simlik va hayvonot dunyosini rivojlanishi qo`llab - quvvatlanadi, quruqlik va suv havzalaridagi joylar belgilanadi.

Milliy parklar, boshqa zahiralalar - obektlar tabiatni muhofaza qilish vositasi va uni moliyalashtirish manba'si bo`lib xizmat qilishi mumkin. Ammo, ko`p hollarda parklar va hududlar ushbu mamlakat byudjeti yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladi. Buning uchun turizmni tartibga solish va rejalashtirish, ob'ekt yoki hududdan turizm maqsadida foydalanish qoidalariga qat'iy rioya qilish zarur.

Tabiiy turizm va ekoturizm tabiatga nisbatan xo`jalik faoliyati etib bormagan ob'ektlar bilan belgilanadi.

Bunday turizmning maqsadi va uslubi - o`simlik va hayvonot dunyosini hamda ushbu hududda joylashgan har qanday madaniy yodgorliklarni, xoh eski, xoh zamonaviy bo`lsin ularni kuzatish va o`rganishdan iborat.

Tabiiy turizm turizmning boshqa turlaridan tabiiy muhitga kamroq ta'siri bilan ajralib turadi va keng tarmoqli xizmat ko`rsatishga muhtoj emas.

Ekoturizm uslubining qamrovi odatdagidan ko`ra kengroq bo`lib, o`simlik va hayvonot dunyosini o`rganishga ilmiy yondashuv, tabiat qo`yniga sayohat, masalan, dam olish kunlari hordiq chiqarish bilan o`rganishni birgalikda amalga oshiriladi.

Qo`riqlanayotgan hududlar tashqi qismining keng tarqalgan shakllaridan biri milliy parklarni yaratish bo`lib hisoblanadi. Parklar ekoturizm sezilarli darajada, insonlar xo`jalik faoliyati natijasida o`zgartirilmagan o`simlik va hayvonot dunyosi boshlang`ich ko`rinishini saqlab qolgan, geomorfologiya va atrof - muhitni o`ziga xos qiziqish uyg`otadigan chiroyli landshaft erlarda tashkil qilinadi. Parklar davlat yuqori organlari tomonidan yoki ular bilan kelishilgan holda xalqaro tashkilotlar, masalan YuNESKO qarori bilan tashkil qilinadi.

Xulosa

Hozirgi ekologik muammolar mavjud bo`lgan paytda aholining ushbu turizm turidan foydalanishlari va uni tashkil etish ham oson ish emas. Ekologik turizm

avvalo ekoresurslar mavjud hududlarda tashkil etiladi. Buning uchun tabiiy - iqlim resurslari - okean, dengiz, daryo va ko'llar, sun'iy suv havzalari, cho'l va qumliklar, tog'lar va ulardagi sharsharayu g'orlar, qir - adirlar, qo'riqxonalar va bog'lar bo'lishi lozim. Eng asosiysi, Oллоh ato etgan ushbu tabiat resurslarini avaylab - asrash, ulardan turizm va insonning boshqa ehtiyojlari uchun oqilona foydalanish kerak. Bu ishda turistik tashkilotlar zimmasiga alohida mas'uliyat yuklanadi.

Ekologiya va turizm ajralmas tushunchalardir. Negaki, insoniyat dam olish niyatida avvalo shunday tabiat bilan bog'liq joylarga boradi va o'zining xordig'ini chiqaradi. Mamlakatimizda ekologik toza hududlar ko'p. Ulardan unumli foydalanish, kerak bo'lsa biznes ham qilish kerak. Ekologiyaga ziyon etkazmay turizmni tashkil etish - bu asosiy masaladir.

Tayanch iboralar

- Ekologiya
- Turizm ekologiyasi
- Ekologik turizm
- Ekoresurslar

Nazorat va mulohaza savollari

1. Ekologiya nima?
2. Ekologiya va turizm deganda nimani tushunasiz?
3. Tabiiy - iqlim resurslari haqida nimalarni bilasiz?
4. Turizm ekologiyasi nima degani?
5. Ekologik turizm haqidagi fikringiz qanday?
6. O'zbekistonda ekoturizmni amalga oshirish mumkin bo'lgan hududlardan qaysilari sizga ma'lum?
7. Hozirda ekologik krizis holatiga kelib qolgan hududlardan namunalar keltiring?
8. Ekoturizmni amalga oshirish muammolari qaysilar?

9. Milliy park va zahiralar haqidagi fikringizni ifodalab bering?
10. Ekoturizmning qanday turlari mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo`li"ni qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora -tadbirlar to`g`risida"gi Farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 - yil 23 - martdagi "Madaniy boyliklarni olib chiqish va olib kirish haqida"gi qarori.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to`g`risida"gi Farmoni.
4. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 - yil 30 - aprelda qabul qilgan "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to`g`risida"gi Qonuni.
5. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustda qabul qilgan "Turizm to`g`risida"gi Qonuni.
6. Основы туристской деятельности (Учеб. пособие). Составитель Ильина Е.Н. -М.: Советский спорт, 2000 г.
7. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Санкт - Петербург, 2000
8. Trevel Guide Uzbekistan - Tashkent: National Company Uzbekturizm. 2003.
9. Tourism and Poverty Alleviation-Recommendations for Action.WTO. 2004.

14 - bob. Milliy park va rezervatsiyalar

14. 1. Milliy park haqida tushuncha

14. 2. Milliy park va rezervatsiyalarning o`ziga xos xususiyatlari va ularning turizmga dahldorligi

14. 1. Milliy park haqida tushuncha

Hududlarning o`zgartirilishi dastlabki tabiatning ozgina qismini bo`lsa ham saqlab qolish muammosini, hamda ma'lum bir mamlakat, jamiyat yoki butun insoniyatning madaniyatidagi madaniy - tarixiy qadriyatlarini ifodalovchi inson tomonidan yaratilgan ob'ektlarni saqlash muammosini keltirib chiqardi. Buning uchun dunyoning deyarli barcha davlatlarida quruqlik va suv maydonlarida ma'lum bir uchastkalar ajratilgan va qo`riqlanuvchi xududlar, - deb e'lon qilingan. Bu erlarda insonning xo`jalik faoliyati qat'iy cheklangan, o`simlik va hayvonot olami rivojlanishini qo`llab - quvvatlash uchun zarur bo`lgan barcha sharoitlar yaratilgan hamda inson tomonidan yaratilgan ob'ektlarni saqlashdagi faoliyatdan tashqari barchasi ta'qiqlangan.

Turizm xo`jalik faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va alohida qo`riqlanuvchi xududlarda qat'iy nazorat qilinuvchi hajmda rejali amalga oshiriladi.

Milliy parklardagi va boshqa qo`riqlanuvchi rezervatsiya va ob'ektlardagi faoliyat o`z - o`zini moliyalash vositasi va manbai, tabiatni qo`riqlash vositasi bo`lib xizmat qilishi mumkin. Lekin, ko`pincha park va xududlar ushbu mamlakat byudjetidan moliyalanadi va milliy ta'sir zonasidan tashqarida joylashgan bo`lsa xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyalanadi. Buning uchun turizmni tartibga solish va boshqarish, hudud yoki ob'ektni ro`yxatga kiritish ko`rsatkichlariga amal qilish lozim.

Tabiiy turizm yoki ekoturizm deyilganda tabiatning inson tomonidan o`zlashtirilmagan joylaridagi turizmi tushuniladi. Bunda turizmning maqsadi va usuli

- o`simlik va hayvonot olamini, ushbu hududda joylashgan barcha tarixiy, zamonaviy, madaniy qadriyatlarni kuzatish va o`rganishdan iborat. Tabiiy turizm turizmnining boshqa turlaridan tabiiy muhitga kuchsiz ta'siri bilan farqlanadi va keng rivojlangan infratuzilmaga muhtoj bo`lmaydi. Lekin, Amerikalik ekoturistlar besh yulduzli otellarda tunashni hush ko`rishadi. Ekoturizm usullari qamrovi juda keng bo`lib, ularga o`simlik va hayvonot olamidagi tabiiy holatlarni o`rganishda ilmiy yondashuvdan tortib tabiatga nomuntazam sarflargacha kirishi mumkin.

Qo`riqlanuvchi hududni tashkil etishning eng keng tarqalgan shakli milliy bog`larni yaratish hisoblanadi. Parklar shunday joylarda tashkil qilinadiki, u erlarda ekoturizm sezilarli ta'sirga uchramagan va inson xo`jalik faoliyati natijasida o`zgarmagan bo`lishi, o`simlik va hayvonot olami dastlabki ko`rinishda saqlangan va alohida qiziqish uyg`otadigan hamda o`ziga xos juda chiroyli landshaftlar mavjud bo`lgan hududlar bo`lishi kerak. Parklar davlatning yuqori organlari qarori va kelishuviga binoan xalqaro tashkilotlar, masalan, YuNESKO qaroriga binoan yaratiladi.

Bunday qarorlarga asosan ajratilgan hududlarda, ya'ni milliy park deb e'lon qilingan hududlarda xo`jalik faoliyati, tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish, foydali qazilmalar qazib olish, aholi ko`chib kelishi ta'qiqlanadi. Bir vaqtning o`zida belgilangan nazorat qilinuvchi chegaralarda ilmiy maqsadlarda parkka kirish hamda estetik rohatlanish maqsadlarida turistlarga kelib ketishiga ruxsat beriladi. Bunday hududlarga turizm juda katta miqdorlarda daromad keltiradi. Masalan, Ruanda milliy bog`ida g`orlarni tomosha qilishga kelgan turistlar yiliga 1 mln. dollargacha daromad keltirishadi. Galapagos orollaridagi (Ekvador) milliy bog` yiliga turizmdan tushuvchi bevosita daromad ko`rinishida 700 ming dollargacha oladi. Hisoblar shuni ko`rsatadiki, Keniya milliy bog`ida har bir er 27 ming AQSh dollari, fillar to`dasi 600 ming dollar turizmdan daromad keltiradi. Bu raqamlar shuni izohlamodaki, ushbu hayvonlar tirikligida, ovchilar o`ljasiga aylanishiga nisbatan bir necha marotaba ko`p

daromad keltiradi, shuning uchun ular uzoq yashaydi. Ushbu adolatli shior Afrika milliy bog'lari ishchilari orasida mashhur.

Quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- ilmiy qo'riqxonalar, qat'iy ilmiy maqsadlarda qo'llaniluvchi qo'riqlanadigan hududlar, masalan, hayvonot olamining noyob vakillari saqlangan Galapagos oroli;

- milliy parklar, fan, ma'rifat, dam olish maqsadlarida milliy yoki xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan mashhur tabiiy va landshaft hududlarini himoya qilish uchun yaratiladi. Tijorat faoliyati, foydali qazilmalar qazib olish, sanoat, qishloq xo'jaligi ishlari ta'qiqlangan. Turli mamlakatlarda joylashgan 300 dan ortiq katta milliy parklarni himoya qilish mumkin. Masalan, Kanadada Banff milliy parki mashhur bo'lib, unga 1885 - yil asos solingan, xududi 6400 kv. km., nina bargli o'rmon bilan qoplangan. Unda kiyik, tog' echkisi, keng shohli qo'y, ikki yuzga yaqin qushlar yashaydi;

- tabiat esdaliklari, tabiiy yoki inson yaratgan madaniy - tarixiy diqqatga sazovor joy va ob'ektlarni saqlash uchun yaratilgan. Bular qatoriga Giza ehromlarini va dunyoning boshqa qismlaridagi tarixiy yodgorliklarni kiritish mumkin;

- yovvoyi hayvonlar qo'riqxonasi, hayvonlarning alohida turlari, biologik jonivorlar guruhini saqlanib qolish uchun tashkil etiladi;

- qo'riqlanuvchi landshaft (manzara), alohida muhim elementlarning gormonik bir - biriga muvofiq bo'lgan va noyob holatlarni tashkil etuvchi tabiat landshaftlarini saqlab qolish uchun tashkil etiladi. Landshaftda qurilish, ya'ni yo'llar, inshootlar, sanoat ob'ektlari, elektr uzatuv liniyalari qurish ta'qiqlanadi. Bunday hududlar odatiy turmush tarzi va ushbu rayonning iqtisodiy faoliyati chegarasida turizm va dam olish shaklida ijtimoiy foydalanishga topshirilgan. Lekin, ko'pincha landshaft noyob inshootlar bilan bezaladi, masalan, ko'priklar, ular insoniyat aqlining sof mo'ljalarini o'zlarida ifoda qilishadi. Qadimiylaridan quyidagilarni aytish mumkin: Italiya, Ispaniya va Portugaliyadagi rim akveduk (osma quvur)lari, hozirgi kunda ular turistik markaz landshaftlarining ajralmas qismiga aylangan. Ular qatoriga yana The

Bay Bridge ko'prigini kiritish mumkin. San - Frantsisko ko'rfazidan o'tgan ko'pri, uni ba'zan "San - Mateo ko'prigi" - San Mateo Bridge deb ham atashadi. U 1963 - yili qurilgan va AQShda eng uzun va chiroyli ko'pri hisoblanadi, uzunligi 13 km;

- antropologiya - tabiat bilan uyg'unlikda yashovchi va uning resurslaridan an'anaviy foydalanuvchi mahalliy aholi hayotining tabiiy sharoitlarini muhofvaz qilish uchun yaratiladi;

- ko'p tomonlama foydalanuvchi boshqariladigan hudud (boshqariluv resursli hudud) tabiiy resurslar, hayvonot dunyosi, rekreatsion salohiyatini barqaror rivojlantirish va qayta ishlab chiqarish maqsadida yaratiladi. Bunday parklar qit'alarining turli qismlarida qurilgan va ba'zan juda katta hududni egallaydi.

14. 2. Milliy park va rezervatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning turizmga dahldorligi

Eng mashhur milliy parklar

Milliy parklar - ajoyib tabiat ob'ektlari (sharshara, go'zal landshaft, orol va h. k.) bo'lgan rezervatsiya, hudud yoki akvatoriyalardir. Milliy park deb e'lon qilingan ba'zi hududlar tarixiy ahamiyatga ham ega bo'ladi. Masalan, tarixiy milliy ko'riqxonalar. Bular mashhur kishilar va arboblarning vatani, harbiy to'qnashuv yoki muhim tarixiy hodisa bo'lib o'tgan joylar bo'lishi mumkin.

Dunyodagi birinchi milliy park - Yellouston parkidir, u 1672 - yili AQShda tashkil etilgan. Milliy parklarni yaratishning ikkinchi tashabbuskori - Kanada bo'lib, u erda 1885 - yil Banff milliy parki tashkil etildi. Serqoya tog'larining sharqiy yonbag'ridagi 10 kv. mil (26 kv. km) hudud milliy park, - deb e'lon qilingan. Hozirgi kunda bu park 6400 kv.km dan ortiqroq joyni egallaydi. Park xududida bir nechta muzlik va ko'llar bor.

Odatda milliy parklar davlatning yuqori organlari tomonidan tashkil etiladi. Shu kungacha er yuzida 3500 dan ortiq milliy parklar mavjud bo'lib, ulardan 2600 tasi katta parklar hisoblanadi va xalqaro ahamiyatga ega - BMT ro'yxatiga kiritilgan.

Dunyodagi eng katta parklar: Banff, Kaziranga, Corbett, Serengeti, Tsavo, Gagady, Kruger. Milliy parklar davlat yoki bir nechta davlatlar himoyasida saqlanadi.

Milliy parklarni tashkil etish va qo'llab - quvvatlash bo'yicha ko'pgina shartnomalar tuzilgan. The Yondon Convention for the Protection of African Fauna and Flora 1933 - yili qabul qilinib, Afrika va dunyoning boshqa mintaqalarida milliy parklar tashkil etilish jarayoni boshlab yuborildi. The Pan American Convention on Nature Protection 1942 - yilning may oyida kuchga kirgan va bir nechta mamlakatlarni birlashtirgan (AQSh, Gvatemala, Venesuela, Salvador, Gaiti, keyinroq esa - Dominikan respublikasi, Meksika, Ekvador, Argentina, Nikaragua, Peru va Braziliya qo'shilgan). Bu bitimdan ko'zlangan maqsad er va suv, shuningdek, tabiatning mahalliy resurslarini, ayniqsa, yo'qolib ketayotgan noyob hayvonlar va qushlarni, Peru Changalzoridagi kam sonli aholining tabiiy hayotini muhofaza qilishdan iborat. The International Union for Conservation of Nature and Natural Resources (IUCN) 1948 - yil Fontainebleau, Frantsiyada tuzilgan. Ittifoqning asosiy maqsadlari - hududdagi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishni rejalashtirish, ilmiy, ilmiy - tadqiqot va madaniy faoliyat yuritishdir. 1958 - yil bu tashkilot BMT ga milliy parklarni yaratish va qo'llab - quvvatlashni nazarat qilish haqida taklif kiritgan. Shu yili Milliy parklar bo'yicha BMTning Xalqaro Komissiyasi ham tuzilgan.

1962 - yil Sietlda milliy parklar bo'yicha birinchi Jahon konferentsiyasi o'tkazildi, unda 70 dan ortiq mamlakatlar vakillari ishtirok etdi. 1969 - yili Dehlida bo'lib o'tgan IUCN ning O'ninchi Bosh Assambleyasida Milliy parklarning umumiy kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Unga muvofiq:

- Milliy park - nisbatan katta muzofot yoki hudud bo'lib,
- bir yoki bir nechta ekotizimga inson va uning xo'jalik faoliyati ta'sirida muhim o'zgartirishlar kiritilmagan bo'lishi;
- o'simlik va hayvonot dunyosi o'ziga xos ajralib turishi, hudud esa ilmiy qiziqishga ega bo'lib, qo'riqlanishi va o'rganilishi;

- mahalliy tabiat landshaftlari o`zining tabiiy go`zalligi bilan ajralib turishi;
- mamlakatning tegishli va muhtor hukumati hududda ekologik, geomorfologik yoki estetik xususiyatlarni saqlab qolish maqsadida uni xo`jalik tomondan o`zlashtirilishini ta'qiqlovchi yoki chegaralovchi choralarni ko`rishi;
- ularga tashrif buyurish faqat tanishtiruv, ilmiy, ta'limiy va madaniy maqsadlarda bo`lishi kerakligi ko`rsatib o`tildi.

BMT va YuNESKO ga a'zo mamlakatlar 1972 - yili milliy parklar to`g`risida Ikkinchi Butunjahon Konventsiyasini qabul qilishdi. Hozirgi kunda tahminan 70 ta davlat ushbu konventsiyaga amal qiladi. Deyarli barcha milliy parklarda inson xo`jalik faoliyati qat'iy chegaralangan bo`lib, faqatgina turizm faoliyatini tashkil etish yoki tabiatni minimal qo`llab - quvvatlash, hayvonlar miqdorini tartibga solish va h. k.larga yo`lga qo`yiladi. Landshaft (manzara) lar va go`zal noyob tabiat, o`simlik va hayvonot dunyosi inson aralashuvidan himoya qilingan va tabiiy holda saqlanadi. Ba'zi qo`riqxonalariga hatto turistlar kirishi ham ta'qiqlangan. Milliy parklarning katta qismi turizmga keng qo`llaniladi, lekin turistlar qat'iy belgilangan marshrutlarda, provodnikli maxsus avtomobillarda yurishadi, kempinglarda yotib qolishligi tashkil etiladi.

Afrika milliy parklari

Afrikada milliy parklarni tuzish juda dolzarb. Brakonerlar - o`g`rincha ovchilar hayvonlarni himoya qiluvchi mahalliy qonunlarni tez - tez buzib turishadi, vaqti hushlik va foydani quvib noyob hayvon va qushlarni ayovsiz qirishadi. Afrika mamlakatlari hukumatlari tomonidan tirik tabiat muzeylari va laboratoriyalari bo`lib xizmat qiluvchi katta qo`riqxonalar va milliy parklar qurilgan. Eng katta parklar qatoriga Zair parklarini kiritish mumkin: Salonga, Upemba, Maiko va Virunga. Zambiyada begemotlar va qora karkidonlarning katta miqdoriga ega bo`lgan Kafue parki tashkil etilgan. Hwange milliy parki Zimbabve da joylashgan bo`lib, 1927 - yili rezervda turgan va faqat 1949 - yili yuridik maqomiga ega bo`lgan. Park xududining uchdan bir qismi tashrif buyuruvchilarga ochiq, qolgan qismiga tabiatning dastlabki

ko`rinishini saqlash maqsadida kiritish ta'qiqlangan. Tanzaniyadagi Serengeti milliy parki dunyoga o`zining ko`p miqdordagi wildebeests, zebras va gazelles podalari bilan mashhur. Lekin, eng katta Afrika milliy parki Keniyadagi Tsavo dir. Markaziy Keniyada Aberdare va Kruger milliy parklari yaratilgan bo`lib, ularda Afrikaning eng katta hayvonlari fillar, begemotlar, oq karkidonlarning butun to`dasi tabiiy sharoitlarda yashaydi. Milliy fillar qo`riqxonasi Addo Elephant da suvda maxsus minora qurilgan bo`lib, u erdan turistlar kechqurun fillarning suv ichishini tomosha qilishlari mumkin. Ugandaning Kabalega parki (Murchison sharsharasi yonida) ning asosiy qismini savanna egallagan. Uning ba'zi qismlari changalzor, bir qismi Nil qirg`og`ida papirus o`simliklari bilan qoplangan. Afrikaning boshqa yirik milliy parklari - Malidagi Baoule, Botsvanadagi Gemsbok, Namibiyadagi Namib Desert G` Naukluft (Janubiy - Garbiy Afrika) va Markaziy Afrika Respublikasidagi Manovo - Gounda - St. Floris.

Osiyo va Avstraliya parklari

Osiyo mamlakatlaridan Yaponiyada tabiatga juda ehtiyotkorona munosabatda bo`linadi. Yaponiyada ko`p miqdorda milliy parklar mavjud bo`lib, ular ichida eng mashhuri va tan olingani - Fudziyama tog`idagi milliy timsol hisoblanuvchi vulqon konusi - Fuji -Hakone - Izu. Dengiz akvaparki Seto - Naikoi zabt etuvchi seascapesga ega. O`chgan vulqonlar og`zini ko`ruvchilar uchun Akan parki ham mashhur. Chubu - Sangaku parki Yaponiyaning eng yuqori tog` cho`qqilari - Alps ni o`z ichiga oladi. Ko`pgina muqaddas ibodatxonalarini o`z ichiga olgan Love1y Nikko parki ham tog`li hududda joylashgan.

Hindistonda ham bir nechta milliy parklar tashkil etilgan bo`lib, ulardan eng mashhuri Himolay tog`i yaqinidagi Corbett parki hisoblanadi, Parkda noyob hayvonlardan - yo`lbars va qoplonlar yashaydi. Shri - Lankadagi Gal Oya parki katta hovuzdan iborat. Unda fillar va qoplonlardan tashqari qushlar dunyosining noyob vakillari ko`p miqdorda mavjud.

Avstraliya milliy parklarning keng tizimiga ega. Ular ichida eng mashhuri Gagadu parki bo`lib, unda yirik tumsox pitomniki (pitomnik - hayvonlar parvarish qilinadigan, ko`paytiriladigan, qo`riqlanadigan joy) mavjud. Mazkur parkda turistlarni jalb qilish uchun pitomnikning binosi tumsox shaklida qurilgan dunyoda yagona bo`lgan oteli bilan mashhur. Tosh barmoqlar mashhur Vodiysi va uzunligi bir kilometr ga yaqin bo`lgan bahaybat toshli to`lqin shaklidagi ajoyib qoya Avstraliya janubidagi Perth turistik markazi yaqinida joylashgan. Yangi Zelandiyada esa uchta park eng mashhurlari hisoblanadi: Tongariro, Egmont va Fiordland.

Evropa parklari va rezervatsiyalari

Buyuk Britaniya milliy parklari davlat mulki hisoblanadi. Ularga Lake District, Peak Distrikt va Yorkshire Dales ni kiritish mumkin. Uelsdagi Snowdoniya va Brecon Beacons parklari o`z ichiga minglab akr (akr - Angliya va Shimoliy Amerikada 0,4047 gektarga teng er o`lchovi) tepaliklar, ko`llar, o`rmonlarni oladi. Shotlandiyadagi eng katta park Cairngorm National Nature Reserve Britan orollarida joylashgan. Uning hududida noyob turdagi flora va faunaga ega bo`lgan 64000 akr (26000 gektar) er egallangan. Cairngorm Mountains - Britan orollaridagi eng baland tog` hisoblanadi.

Shveytsariyaning Alpdagi milliy parki 42000 akr (17000 gektar) hududni egallagan. Alp tog`idagi boshqa katta park Italiyaga tegishli - Gran Paradiso dir. Frantsiyaning eng katta milliy parki - La Vanoise deb nomlangan. 1969 - yil g`arbiy Germaniya 2 ta milliy parkni e`lon qilgan - Berchtesgaden va Bavarian Forest. Ushbu 2 ta yirik parkka qo`shimcha ravishda Germaniya qonun bilan himoya qilinuvchi rezervatsiya yoki qo`riqxona xarakteridagi 80 ga yaqin parklarga ega. Evropa xalqaro parklari 1969 - yil e`lon qilina boshlangan bo`lib, ulardan birinchisi Lyuksemburg va Germaniya hududida tashkil etilgan parklar hisoblanadi.

Lotin Amerikasi milliy parklari

Lotin Amerikasida parklar tabiatni dastlabki ko`rinishida saqlash va vahshiyona ekspluatatsiyadan himoya qilish maqsadida tashkil etilgan. Ulardan eng birinchilari

qatorida 1934 - yil bunyod etilgan Galapagos orollaridagi (Ekvador) parki bo`lib, unda toshbaqalarning noyob turlari, shuningdek, suvda va quruqlikda yashovchi boshqa jonivorlar mavjud. Juan Fernandez oroli Chiliga tegishli milliy parkdir. Argentina Nahuel Huapi milliy parki chiroyli ko`llar bilan bir qatorda And tog`tizmasining etagida 2 million akr hudud (800000 gektar)ni egallaydi. Dunyoda tengi yo`q Iguasu (Iguazu) sharsharasi ham Argentino - Braziliya chegarasidagi qo`riqlanuvchi hudud, - deb e'lon qilingan. Braziliyadagi Rio de Janeiro dan uncha uzoqda bo`lmagan Organ Mountains National Park 1939 - yili ishga tushirilgan. Meksikada ham juda ko`p milliy parklar mavjud, ulardan mashhurlari Guerrero shtatidagi Cacahuamilpa g`ori, Michoacan tog`i va boshqalar. Rezervatsiyalarga tarixiy qishloqlar ham kiritilgan. Masalan, Taxco va San Miguel de Allende - ispan mustamlaka me'morchiligini saqlab qolgan milliy yodgorliklar, shular jumlasidandir. Venesuela milliy parki - Canaima dunyodagi eng baland sharshara Angel Falls bilan mashhurdir.

AQSh milliy parklari

AQSh da 5000 ga yaqin milliy parklar yoki unga tenglashtirilgan hududlar mavjud. Bular qaysidir prezident tug`ilgan ferma, harbiy jang bo`lib o`tgan joy (N.B.: National Battlefield), tarixiy park yoki inshoot (N.Mem.: National Memorial - milliy memorial), tabiiy rezervatsiyalar, masalan, Grand Kanon, ko`lli o`lkalar hududi (N.L.: National Yakeshore) va boshqalar. Milliy park, - deb sohillar, ko`llar, chiroyli joylar, qadimgi temir yo`llar va boshqa juda ko`p ob'ektlar e'lon qilingan. Ularning barchasi davlat himoyasi ostida va turistik maqsadlarda faol qo`llaniladi. Shuning uchun AQShning ichki turizmi tashqi turizmdan qolishmaydi. Mamlakatda ko`rish qiziqarli bo`lgan joylar turistlarga, avvalo, o`z mamlakati fuqarolariga doimo tayyor turadi.

Parklar turlarda turistik ko`rgazma ob'ekti sifatida keng qo`llaniladi, ularda odatda maxsus turistik infratuzilma, otellar, restoranlar, transport liniyalari mavjud bo`ladi. Dunyo milliy bog`lari to`g`risidagi axborot (turizm maqsadida

foydalaniladigan) Xalqaro Turistik Tashkilotlar tomonidan chop etilgan. Guidelines; National Park and Protected Area for Touris WTO, Spain, 1992 ang.G`fr.G`isp.

Tematik parklar

Tematik parklarga attraksionlar parki yoki boshqa predmetga yo`naltirilgan parklar kiradi. Masalan, Pskov viloyatida Pushkin tog`lari nomidagi Pushkin qo`riqxonasi (Rossiya), ko`ngilochar tematik parklariga klassik misol - Disneylend (hamda Disneyworld, EvroDisney va boshqalar). Undan tashqari delfinariya, okeanarium, zooparklarning turli xillari va boshqa keng omma, turistlar, bolalar va kattalarga atalgan turli xil ko`ngilochar parklar kiradi.

Disneylend

Disneyland - Koliforniya (AQSh) da joylashgan ajoyib tematik bolalar parki. U qiziqarli multfilmlar asoschisi Uolt Disney - Walt Disney multfilmlarini motivi asosida ishlangan ko`p miqdordagi attraksionlarni o`z ichiga oladi. Dastlab Disneylend 1954 - yil Kaliforniya shtatining Akaxayma shahri (AQSh)da yirik o`yinchoq shahar, ko`ngilochar tomosha va atraksionga to`la qilib qurilgan va butun dunyoga mashhur bo`lgan. O`zining noyob stili, shakli va shtampiga ega bo`lgan hamda hajmiga ko`ra ishonib bo`lmaydigan darajada katta shou - sanoatni tashkil qiluvchi va 40 yildan uzoqroq ekspluatatsiya qiluvchi maxsus kompaniya Walt Disney Company tashkil etilgan.

1960 - yildan beri Disneylend aksiyalarining 100 % Walt Disney Production kompaniyasiga tegishli, keyinchalik uning nomi Walt Disney Co. ga o`zgartirilgan. Park xududida ko`llar, anhorlar, temir yo`llar, modellashtirilgan shahar va changalzorlar, g`orlar va tog`lar mavjud. Haqiqiy mavjud bo`lgan va fantastik hayvonlarning xarakatlanuvchi modellari o`rnatilgan, muntazam ravishda aktyorlar minglab ertak va tarixiy qahramonlar kastyumi va rolida tomosha ko`rsatishadi. Turistlarga xizmat ko`rsatuvchi butun industriya yaratilgan, otellarning o`zi 26 tadir (faqat Kaliforniyada), ko`pgina restoranlar, transport tarmoqlari, sport inshootlari, suzish basseynlari, tennis kortlari, golf va kreket maydonlari, ot, poni va

velosipedlarda uchish uchun yo`lkalar hamda qishda konkida uchish yo`lkalari qurilgan. 1971 -yilga kelib Disneylend 100 million tashrif buyuruvchilarga xizmat qilgan.

Butun dunyo bo`yicha har bir turistga narxga kirish va shouda qatnashish uchun chiroyli pasprot beruvchi, o`nlab ixtisoslashgan turlarni amalga oshiruvchi maxsus turistik agentlik mavjud. Ajoyib Disneyland Hitelgan parkka ishtirokchilarni nodir (rels) yo`l bo`ylab olib boradi.

1971 - yil Florida shtatining Orlando shahri (AQSh)da analogik tomosha markazi - Walt Disney Word (75 kv. km) qurilgan. Keyin analogik park Tokioda qurilgan (1983 - y.). Bular nihoyatda katta yutuqqa erishish natijasida amalga oshirilgan.

1992 - yil Evropa (Parij)da EvroDisney yaratilgan. U 2000 gektar hududda joylashgan (40 ta katta attraksion, 6 ta yirik otel kottejlardan iborat poselka (shahar tipidagi qishloq)ni o`z ichiga oladi). An'anaga ko`ra attratsionlar tematik yo`nalishga ega: fantaslyand - bolalar multfilmlari motiviga ko`ra, Arontierland "Yovvoyi Garb" - kovboy burchagi, adventureland zamonaviy - Gollivud filmi motiviga ko`ra sarguzashtlar, space mountains - fantastika, star war - urush (jang) va h. k. Parkda ko`pgina attraksionlar qurilgan, jumladan, Amerika tog`lari, raketada oyga uchish, kapitan Nemo er osti kemasi, vahima xonalari va boshqalar. Park atrofida 5 ta stantsiyali temir yo`l o`tadi. Yasama ko`llarda qadimiy g`ildirakli kemada hamda qayiqlarda suzish mumkin. Ko`pgina qal'alar, qasrlar, ko`priklar, sharsharalar, tonellar, g`orlar qurilgan. Indiana Jons sarguzashtlarida aravada uchish uchun maxsus attraksion mavjud. Park bo`yicha normal ekskursiya 8 - 9 soatni o`z ichiga oladi. Tashrif buyuruvchilarga ko`pgina kafelar, muzqaymoq eyish shahobchalari, milliy stildagi restoranlar qurilgan. Parkka har yili 10 - 11 mln. atrofida turist tashrif buyuradi.

Amerika parklari yaxshi qadimiy hududlarda joylashgan va turistlar unga butun yil davomida samarali kelib ketishadi. Evropa parki attraksionlarni tashkil etish va

uni to'ldirish nuqtai - nazardan qishda qiynaladi, lekin yaxshi marketing natijasida 1994 - yil foydali bo'ldi. Shuni aytib o'tish kerakki, 1993 - yil Frantsiyada park zarar bilan ishlovchi korxona bo'lgan (1993 -yil zararlar 113 mln. dollarni tashkil etgan). Shu boisdan, parkka kirish biletlarini bahosi 20 % ga pasaytirildi, bir vaqtning o'zida yangi attraksionlar ochildi. Keluvchilar oqimi 30 % ga ko'tarilishi hisobiga bir yilda parkka 9 mln. kishi tashrif buyurgan - parkka ekspluatatsiya qilishdan tushgan foyda tahminan 100 mln. dollarni tashkil etgan.

Parklar yoshlaridan qat'iy nazar butun dunyodan turistlar kelib - ketishining o'zgarmas ob'ektidir. Ularga keluvchilarning umumiy soni bir yilda 1 mlrd. kishidan ortadi. Tematik parklarda xalqaro klassdagi zamonaviy texnika yutug'idan foydalanib qurilgan va analoglarga ega bo'lmagan 55 ta yirik attraksion qurilgan. Attraksionlar texnik vositalar, hisoblash texnikasi, qo'g'irchoq - robotlar hamda aktyorlarning katta qismidan foydalanishni bir - biriga uyg'unlashtiradi.

Parklar xududi juda katta, uni bosib o'tish va har bir attraksionda ishtirok etish uchun kamida bir hafta kerak bo'ladi. Parklardagi bayram - shou kun bo'yicha uzluksiz davom etadi. An'anaga ko'ra har kuni barcha ertak kahramonlari ishtirokida bir nechta shou o'ynaladi: Disney Festival Magic va Disney All star Magic. Mashhur filmlardan original tryuklarni bajaruvchi kaskadyorlar guruhi ishlaydi. Parkda misli ko'rilmagan katta miqdorda sovg'alar va o'yinchoqlar sotiladi, ular mashhur disney qahramonlari Mikki Maus sichqoni va h. k. ga stillashtirilgan. Odatda dunyoning turli tomonidan kelgan turistlar parkda 2 - 3 kun bo'lishadi (standart tur ikki tunash), lekin 7 kun davomiylikka ega bo'lgan turlar ham bor.

Disneylendlarda bir yil oldin yozilgan o'zlarining xususiy Calendar of eventsu bor. Rejalashtirilgan, milliy bayramlarga to'g'ri keluvchi bayramlar, firma bayramlari, rodjestvo bayramlari, yangi yil, qishki, pasxa, suv, iyun karnavali, feyerverklar, avtomobillar kiradi va boshqa bayramlar o'tkaziladi. Bular turistlarning qo'shimcha miqdorini jalb qiladi. Parkda nafaqat o'yin kuni va attraksionlar mavjud, u erda tizimlashtirilgan maktablar mavjud, ta'lim dasturlari o'tkaziladi Youth Programm (10

- 15 yoshli bolalar uchun, 6 soatdan 3 ta dastur) va Adult Yarniy Advetures Programm, 8 katta yoshdagi bolalar va kattalar uchun ikkita dastur, uch kunlik seminarlar - Management Seminare (shou - biznesning nazariya va amaliyoti) va Educator Seminar - kattalar uchun. Bolalarni jalb qilish uchun imtiyozlar belgilangan 18 yoshgacha bo'lgan parkka ota - onalari bilan kelgan bolalar, Disneylend otellarida yashash uchun 100 % li skidka olishadi.

Biznes nuqtai - nazardan Disneylend o'zlarini shou - biznesga bag'ishlamoqchi bo'lgan mutaxassislar va kishilar uchun ajoyib maktab hisoblanadi. Turizmning ushbu sanoat gigantida marketing qabullari, mehmonxona ishi va turizmni tashkil etish; turistik industriya va attraksion sanoatning barcha tizimlari va vositalar yig'indisi tushuniladi. Aynan mana shu ob'ektda Disneylendga qo'shilgan barcha korxonalar va tashkilotlarning maqsadi, siyosati, servis darajasi, moliya resurslarining markazlanishida bo'ysunishning samaradorligi ko'rsatilgan va busiz super qimmat turuvchi korxona aqlga to'g'ri kelmas edi. Disneylend timsoli bilan har qanday narsa, har kaysi otel va har qanday xizmat parkka daromad keltiradi.

Shuni aytib o'tish kerakki, Disneylendning timsoli - baland minorali chiroyli afsonaviy qasrdir. Bu qasrning prototipi bo'lib, Bavariyadagi real mavjud bo'lgan va haqiqiysiga juda o'xshagan ketadigan noyob Noyshvanshteyn qasridir. Disney ushbu qasrni sotib olib, qismlarga ajratib, Amerikaga olib ketishni xohlagan, lekin mahalliy hokimiyat bunga qarshi chiqishgan va rejissiyorlar nemis oblikini takrorlanuvchi o'zlarining Amerikacha qasrini o'ylab topishga to'g'ri keldi. Parklarni ko'rish uchun narxlar nisbati o'rtacha, moderato sinfidagi otellarning ko'pchiligi guruhli va davriy skidkalarga ega. Barcha uchta narx uchun xarakterli bo'lgan faqat Disneylendga tegishli bo'lgan turistik agentliklar tomonidan tashrif buyurish uchun bir nechta dasturlar ishlab chiqilgan va faol sotiladi: All inclusive PacKades, Classik Pakades - Ciassik plan, Food'n Fin Card, Specialired - kattalar uchun barcha talablarga mos keluvchi dasturlarni tuzishda o'ziga xos xususiyatlari esa aniq ma'lumotlarni har bir park alohida va har yili nashr qiladigan Vacation Paclages kataloglaridan olish

mumkin. Turistik maxsus Tpavel Agents Reference Guide axborot to'plamlari mavjud.

Amerika hamda qisman Tokio va Parij tematik parklarining egasi, shou - sanoat supergiganti - xalqaro sinfdagi kompaniya - Walt Disney bo'lib, unga uchta yirik kinokompaniya, musiqaviy va televizion kompaniyalar, nashriyot va turistik firmalar, otellar kiradi. So'nggi kashfiyot - mashhur park attraksionlari va boshqa engil attraksionlar o'rnatilgan ikkita yirik kruiz kemasini suvga chiqarish. Bu gigantlardan bittasi - Disney Magis bolali turistlarga moslashtirilgan bo'lib, 24000 passajirga mo'ljallangan.

Xulosa

Ma'lumki, milliy parklar va rezervatsiyalardan ham turizm ishida resurs sifatida foydalaniladi. Ular hududlarining kattaligi, tabiiy sofliqi bilan muhim ahamiyatga ega. Ajoyib va mashhur parklar va g'orlarni turistlarning madaniy dam olishida o'ziga xos xususiyati mavjuddir. Turizmning katta daromad ko'rishida ularning o'ni beqiyosdir. Lekin, xorijiy mamlakatlarda bu tajriba o'rnak bo'larli bo'lsada, bizda bu ish hali yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Qo'riqxonalariga tur firmalariga ruxsat olish qiyin masala. Hatto siyosiy ahamiyatga ega, balki qandaydir ma'noda to'g'ridir. Bulardan mustasno, respublikamizda ham shunday ajoyib hududlar mavjud. Faqat kelgusida ulardan unumli va maqsadli foydalanish lozim.

Tayanch iboralar

- Milliy park
- Rezervatsiya
- Qo'riqxona
- Landshaft

Nazorat va mulohaza savollari

1. Milliy park, - deganda nimani tushunasiz?
2. Rezervatsiya nima?
3. Tabiiy qo`riqxonalarni bilasizmi?
4. Respublikamizdagi qaysi parklarni bilasiz?
5. Parklardan qanday qilib turizm maqsadlarida foydalanish mumkin?
6. Turistik yo`nalishlar ishlab chiqishda milliy park va rezervatsiyalarning roli qanday?
7. Qo`riqlanuvchi hudud, - deb nimaga aytiladi?
8. Landshaft deganda nimani tushunasiz?
9. Dunyodagi mashhur milliy parklarni bilasizmi?
10. Afrika, Osiyo, Avstraliya, Evropa, Lotin Amerikasi va AQSh milliy parklaridan namunalar keltiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo`lini qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora -tadbirlar to`g`risida"gi Farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 - yil 23 - martdagi "Madaniy boyliklarni olib chiqish va olib kirish haqida"gi qarori.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to`g`risida"gi Farmoni.
4. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 - yil 30 - aprelda qabul qilingan "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to`g`risida"gi Qonuni.
5. Tourism and Poverty Allevation-Recommendations for Action.WTO. 2004.

15 - bob. Turistik sayohatlar xavfsizligini ta'minlash

15. 1. Sayohat davomida turistlarning hayotiga ta'sir etuvchi omillar

15. 2. Turistik sayohatlar xavfsizligini ta'minlash chora - tadbirlari

15. 1. Sayohat davomida turistlarning hayotiga ta'sir etuvchi omillar

Atrof - muhit ta'siri

Atmosfera bosimining tushishi, yog`ingarchilik, havo namligi, havo haroratining yuqoriligi yoki pastligi - atrof - muhit ta'siri omillari hisoblanadi.

Turni tashkil qilishda qulay faslning tanlash, turistik tadbirlarni amalga oshirish uchun qulay kunlarni, turistik yo`nalish uchun trassani maqsadga muvofiq holda tanlash, ob - havo va shart - sharoitlarini hisobga olish, yog`ingarchilikdan bekinish uchun joy bo`lishi kerak. Binolarni konditsioner, avtomatik nazorat va signalizatsiya bilan ta'minlash, yuzaga kelishi mumkin bo`lgan hatar va qutqarish chora - tadbirlari haqida turistlarni vaqti - vaqti bilan ogohlantirish lozim.

Turistga berilgan ta'rifdan ma'lumki, u boshqa bir joyga yoki mamlakatga sayohat qiladi. Ayniqsa, eng hatarli omillar turistning boshqa iqlim mintaqasiga, ya'ni odatdagi yashash sharoitidan farqli o`laroq boshqa joyga borishidan yuzaga keladi. Turistik sayohat qisqa bo`lganligi sababli, hamma vaqt ham turistning organizmi borgan erdagi ob - havo sharoitlariga o`rgana olmaydi.

Mahalliy vaqtning to`g`ri kelmasligi sababli turist yaxshi uxlay olmaydi va o`zini yomon his qiladi, ekskursiyalarda ma'lumotlarni yaxshi esda olib qola olmaydi va unga «qizil ko`zlar» degan ta'rif ham beriladi. Ob - havosi issiq bo`lgan joyga borganda organizmga issiq havo ta'sir qiladi. Masalan, agar Isroilda yozda ma'lum bir miqdorda suv ichilmasa ( kuniga 5 litrgacha), unda organizm suvsizlanadi va og`ir oqibatlarga olib keladi.

Shuning uchun tur yaxshilab ishlab chiqilishi va turistning jismoniy holatini hisobga olishi, turistni ortiqcha zo`riqtirmaslik va unga joy sharoitlariga moslashish uchun ma'lum bir vaqt (va albatta dam) ham berish kerak.

Jismoniy toliqish, asabiy va ruxiy omillar

Turist 1000 AQSh dollariga yo`llanma sotib olib, sarflagan puliga yarasha dam olishni hohlaydi. Lekin, kundalik hayotda es - hushi joyida bo`lgan odamlar kuniga byosh marta dengizda cho`milmaydi, sakramaydi va uncha ko`p yugurmaydi, issiqda ko`p soatli ekskursiyalarga har kuni boravermaydi, ertalabgacha ashula aytib, raqsga tushmaydi, har - xil va o`rganilmagan ovqatlar iste'mol qilmaydi. Ba'zan turizmga organizm zo`riqadi, masalan, ko`p ekskursiyalar, toqqa chiqish, dengiz va uzoq muddatli avtobus ekskursiyalari. Bular jismoniy jihatdan baquvvat odamlarga mo`ljallangan, ya'ni qisqa muddatli zo`riqishlarni ko`tara oladigan odamlarga. Qarib qolgan kishilar, yosh bolalar, sog`lig`i yomon bo`lgan, surunkali kasali bor odamlar, shuningdek balanddan qo`rqadigan va dengiz chayqalishini ko`tara olmaydiganlar shifokor bilan maslahatlashishi va ehtimol bu turdagi safar va turlarga borishdan bosh tortishi kerak bo`ladi. Ayrim turlarga turistlarni qabul qilishda turistlardan sog`lomligi haqida ma'lumotnoma talab qilinishi kerak.

Yo`nalishni tashkil qilishda odamlarning ma'lumot qabul qilish qobiliyatini hisobga olish kerak, dam olish uchun ularga bo`sh vaqt berish va mustaqil o`zlari turistik resurslar bilan tanishishlarini ta'minlash kerak. Ishni, turistlarni joyga etkazish jadvalini va tadbirlarning ketma - ketligini har bir soniyagacha yaxshilab rejalashtirish kerak.

Turistlarning bir me'yordagi hayot tarzini ta'minlash uchun zarur va etarli vaqt oraliqlarini obdon hisobga olish kerak (masalan, uyqu, ovqatlanish, gigienik, maishiy va sanitar ehtiyojlar). Ekskursiya ishining og`irligini belgilashda turistlarning intellektual qobiliyatini, turistlar guruhining psixofizik tayyorgarligini, hamda ularning an'analarini, urf - odatlarini, dinini hisobga olish ham muhim o`rin tutadi.

Biologik omillar

Yuqumli kasalliklar va ovqatdan zaxarlanish - juda xavfli hisoblanadi. Tropik iqlim mintaqasida joylashgan mamlakatlarda tarqalgan yuqumli kasalliklarga qarshi boshqa iqlim mintaqasidan kelgan turistlarning bu erda tarqalgan xavfli yuqumli kasalliklarga qarshi immuniteti etarli bulmaydi. Sariq kasal, bezgak, tif va boshqa kasalliklarni yuqtirib olish xavfi vujudga keladi. Buning oldini olish uchun har - xil profilaktik tadbirlar o`tkaziladi, turistlarni emlash va maxsus shifokor ruhsatnomasini olishi zarur bo`ladi. Bunday ruhsatnomasiz mamlakatga kiritilmaydi (ba'zi hollarda ularga aviachipta ham sotilmaydi). Bunday talablar ko`proq Afrika, Janubiy Amerika va Janubiy Osiyo mamlakatlariga borilganda juda muhim hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o`tish lozimki, yuqumli hududlar xaritasida, sariq kasalligini yuqtirib olish xavfi bor davlatlar jumlasiga Gretsiya kiritilgan, xolera kasalligi bor xududlarga Povolje va Odessa hududi kiritilgan. Turistlarga umumiy ovqatlanish muassasalaridan tashqaridagi oziq - ovqat, mahalliy savdo shahobchalaridan sotib olingan, ishlov berilmagan, hom mahsulotlarni va ayniqsa ko`chada sotiladigan oziq - ovqat mahsulotlarini eyish tavsiya etilmaydi. Ovqatdan zaxarlanish oqibati - odatda juda ham og`ir bo`ladi.

Hasharotlarning, hatarli hayvonlarning chaqishi - xavfni yuzaga keltiradi. Bu xavf aholi yashash joyidan tashqariga - changalzorlar, o`rmonlarga uyushtirilgan ekskursiyalarga borilganda yanada yomon oqibatlariga olib keladi. Ob - havosi issiq mamlakatlarda suv havzalarida cho`milish mumkin emas, plyajda xatarli infektsiyani yuqtirib olish mumkin.

Shaxsiy xavfsizlik va xavfsizlik buyumlari

Turistlarga o`g`rilarning tajovuz qilish hollari tez - tez uchrab turadi. Ular firibgarlarning, ko`cha va cho`ntak o`g`rilarining diqqat markazida bo`lishadi. Shuningdek, turistlar terroristlar uchun qulay xujum qilish ob'ektlari hisoblanadilar. Rio - de - Janeyro (Braziliya)da palitsiya vakillari turistlarga ularning vazifalari ro`yxatini taqdim etadi. Bu ro`yxatda: turistlarga yolg`iz sayr etish, qo`riqlanayotgan plyaj va hududlardan ikki kvartal uzoqqa ketish, taqinchoqlar taqish (uzuklar, ziraklar,

zanjirlar), ko'p pul olib yurish, pulni mehmonxona xonasida qoldirish, sumkalarni erga qo'yish, fotoapparat va videokameralarni stolga qo'yish tavsiya etilmaydi.

1998 - yili rus turistlaridan eng zamonaviy shovqinli plyajda o'g'rilar 400 AQSh dollarini olib qo'yishgan. Boshqa bir holatni oladigan bo'lsak, mehmonxonaga kirayotgan turistning qo'lidan videokamerasini bir o'g'ri olib qo'yadi, turist qarshiliq ko'rsatganida, uni pistolyotda otib qo'yadi va ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Ispaniyada turistlar mavsumi kelganda, o'g'rilar turistlarni talashadi. Turistlar O'rta Er dengizi atrofida joylashgan kurortlarga borishganda, ular kredit karta yoki yo'l chiptalaridan foydalanishmaydi, balki o'zlari bilan katta miqdorda nakd pul olib borishadi. Shuning uchun ham bu erda mehmonxonalarni tunash keng yoyilgan.

Rossiyada ham bunday ishlar bo'lib turadi. Hatto shaharlarning markazlarida ham turistlar to'la xavfsizlikda bo'lmaydi. Butunjahon yo'l ko'rsatgichi (WORD TRAVEL GUIDE 96-97 COLUMBUS PRESS LONDON nashriyoti) da quyidagicha yozilgan:

Moskva va Sankt - Peterburgning markaziy ko'chalarida yosh o'smirlar guruhi turistlarning pulini va fotoapparatini olib qo'yishadi, poezdlarda yukni o'rindiqlik tagiga yashirish tavsiya etiladi, aks holda ular yuklarini o'g'irlatib qo'yishlari mumkin. 1998 - yil Sankt - Peterburg - Tallin yo'nalishidagi poezdda kechqurun yopilgan kup'eda yuqori sifatli fincha diplomat o'g'irlanadi. Chexiya rus turistlarining talanishi haqida ommaviy axborot vositasidan foydalanadi.

Terroristlar o'zlarining harakatlari uchun turistlar guruhini, alohida turistlarni va transport vositalari (samolyot, avtobus)ni tanlashadi. Rossiyada 1996 - yili koreys turistlaridan iborat avtobus Moskva Kreml devori yonida terroristlar tomonidan qo'lga olinadi va butun dunyo 9 soat davomida garovga olinganlarni qutqarish uchun qilingan mardlarcha harakatlar haqida reportajlarni televizorda kuzatishgan. Yahshiyamki, hamma garovga olinganlar qutqariladi.

Har bir turistga qo'riqchi yollab bo'lmaydi, lekin xavf haqida ogohlantirish, jamoat joylarida o'zini tutish qoidalari, transport vositalarida pasport, pullar va

qimmatli narsalarni saqlash qoidalarini, xatar yuz bergan hollarda qilinadigan sug'urta xizmatlarining mavjudligi ko'pgina ko'ngilbuzarliklarni oldini oladi.

Xatarli nurlanish va kimyoviy omillar

Ultrabinafsha nurlanishi, radioaktivlik darajasining yuqori bo'lishi - juda ham ko'p uchraydigan omillar hisoblanadi. Ultrabinafsha nurlanish xavfi bor hollarda (quyoshdan kuyish, issiq urishi) turistlarni ogohlantirish kerak hamda ularga xatarli hududga borishganda shaxsiy himoya vositalari (quyosh nuriga qarshi ko'z oynaklar, himoyalovchi krem, maz va kiyimlar)ni ishlatish tavsiya etiladi. Bu tog'larga uyushtirilgan safarlarda, tog' - chang'i va suv sayoxatida ham keng tarqalgan.

Radiatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarga turistik yo'nalishlarni uyushtirish mumkin emas. Yaponiyalik ko'pgina turistlar doimo o'zlari bilan radiatsiya darajasini ko'rsatuvchi maxsus datchiklar olib yurishadi va radiatsiya darajasini yuqoriligini sezishsa, turistik yo'nalishlarni to'xtatishlari ham mumkin.

Joylarning inson organizmiga ta'sir qiluvchi kimyoviy omillari ham bo'ladi (masalan, zaxarlovchi, og'riq paydo qiluvchi). Yo'nalishni tashkil qilish vaqtida bunday omillar bor yo'qligini tekshirish kerak. Suv tarkibida, ayniqsa, ichimlik suvi tarkibida, havo, tuproq, oziq - ovqat mahsulotlari tarkibidagi zararli moddalar ustidan nazorat o'rnatish kerak. Shuningdek, kimyoviy ta'siri past bo'lgan yo'nalish trassalarini, yo'lda dam olish joylarini, uxlash uchun joylarni, ovqatlanish uchun va dam olish joylarini tanlash maqsadga muvofiqdir. Joylarda dezinfektsiya ishlarini qo'llash kerak.

Yong'in xavfi

Qurilish me'yorlari va qoidalariga doimo rioya qilish kerak. Shuningdek, turistlarning himoyasi uchun ob'ekt va muassasalarda yong'in xavfining oldini oladigan qo'llanmalarga ham e'tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tashish bosqichidagi xavf va xatarlar

Sayohatda turistlarni tashish juda ham xatarli bo'lgan bosqich hisoblanadi, chunki transport vositalari juda katta xatar manbalaridir. Tashish turlarining

hammasida xavfsizlik eng asosiy masala bo'lishiga qaramasdan, noxush hodisalarning ko'pi tashish bosqichida sodir bo'ladi. Avtobuslarning avariya uchirashi, temir yo'l poezdlarini (eng zamonaviy liniyalar ham) relslardan chiqib ketishi (1998 - yili Germaniyada yuqori tezlik bilan harakat qiladigan poezd relsdan chiqib ketgan va bu og'ir oqibatlariga olib kelgan. 2006 - yilning avgust oyida Misrda bir - biriga qarama - qarshi yo'lga chiqqan poezdlarning to'qnash kelishi natijasida yuzlab odamlar vafot etdi va jaroxatlandi), dengiz kemalarining cho'kishi, hamma markadagi samolyotlarning erga yoki dengizga qulashi mumkin. Texnik yoki tabiiy nosozliklar falokatlarini keltirib chiqaradi, lekin bunday hollar terroristlarning ishi deb belgilanmaydi. Har hafta butun jahon juda ham ayanchli hodisalar bilan birga o'n va o'ndan ortiq odamlar o'limi bilan tugayotgan falokatlarini eshitib larzaga keladi. Lekin, bunday hodisalar tashish hajmining kam foizini tashkil etadi. Agar bunday bo'lmaganda hech kim biror bir erga bormasdi, xavfdan qo'rqib uyda o'tirar edi. Bundan tashqari, har bir turist sayohatga o'tlanayotganda, albatta, u bilan hech narsa sodir bo'lmaydi, - deb hisoblaydi.

Har bir transport turida yo'lovchilarni tashish qoidalari mavjud va shu bilan birga yo'lovchi va ularning yuklarini sug'urtalovchi institutlar tashkil etilgan. Havo va dengiz, avtomobil va temir yo'llarida tashish haqida Butunjahon Konventsiyasi qabul qilingan. Bunda xavfsizlik qoidalari asosiy o'rinni egallaydi.

Belgilangan qoidalarini turistlar tomonidan buzilishi

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, turistlar o'rnatilgan qoidalarini buzishadi va buning natijasida yomon vaziyatlarga tushib qolishadi. Ekskursiyalarda e'tiborsizlik tufayli guruhdan qolib ketishadi, xatarli parvozlarda ishtirok etadilar, to'lqin kuchli bo'lgan hollarda ham dengizda cho'milishadi. Turistlarga bir o'zlari yoki yo'l ko'rsatuvchisiz borish tavsiya etilmagan hududlarga, ko'ngil ochar muassasalarga borishadi, mahalliy aholi bilan muomilada bo'lishadi va turli kasalliklarni yuqtirib olishadi.

15. 2. Turistik sayohatlar xavfsizligini ta'minlash chora - tadbirlari

Turistik sayohatlar xavfsizligini ta'minlash chora - tadbirlari haqida gapirganda, avvalo, O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunida belgilab berilgan moddalarga diqqatni qaratmoq lozim. Ayniqsa, qonunning 18 va 19 moddalarida bu haqda aniq ko'rsatmalar berilgan. Jumladan, 18 - modda "Turistlarning xavfsizligi kafolati", - deb nomlanib, unda shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasi hududida turistlarning xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi. Turizm sohasidagi vakolatli davlat organi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda turistlarning himoya qilinishini hamda xavfsizligini ta'minlash dasturini ishlab chiqadi va uning bajarilishini tashkil etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari turizm sohasida barcha turistik yo'nalishlar bo'yicha turistlarning himoya qilinishini va xavfsizligini ta'minlash mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqadilar va ularning bajarilishini tashkil etadilar.

Turistik faoliyat sub'ektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash, ular jarohatlanganda, kasallanganda va boshqa hollarda tibbiy va o'zga xil yordam ko'rsatish yuzasidan aniq chora - tadbirlar ishlab chiqadilar".

Ushbu moddalarni sharhlaydigan bo'lsak, darhaqiqat, har bir davlat o'z hududida turistlarning xavfsizligini ta'minlash uchun kafolat beradi. Bunda turistlarga etkaziladigan har qanday - jismoniy, moddiy va ma'naviy zarar bo'lmasligi kerak. Turist erkin, siyosiy bo'xronlardan holi, borilgan mamlakat ichki ishlariga aralashmaydigan sayyohdir. Hozirgi vaqtda turistlarni terroristlar tomonidan garovga olish, ularni qo'rqitish va turli zararlar etkazilishini ommaviy axborot vositalari tomonidan eshitib turamiz. Bu kabi salbiy holatlarni oldini olish va ularga qarshi ko'rashish, chora - tadbirlar ishlab chiqish har bir davlatning oldida turgan muhim siyosiy vazifadir.

Fors - major holatlari ro'y berganda ham davlat kafolati eng muhim masala bo'lib qoladi. Zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar oldini olish va muhim tadbirlar ko'rish lozim.

Siyosiy ahamiyatga molik vaziyatlarda, xususan, chegara hududlaridagi turistik markazlarga turistlarni kiritish yoki kiritmaslik ham o`ta nozik masaladir. Masalan, Afg`oniston bilan chegaradosh bo`lgan Termiz shahriga arxeologik yoki me'moriy maqsadlarda uyushtiriladigan sayohatlarni ta'qiqlab qo'yish faqat O`zbekiston hukumatining vakolatiga kiradi. Chunki, bu masala siyosiy ahamiyatga egadir. Turist hayoti daxlsiz bo`lib, u albatta himoyaga muhtoj. Bunda davlat eng asosiy vazifani bajarishi kerak. Huddi shunday holatlarni har bir chegaradosh davlatlar misolida ham ko`rish mumkin.

"O`zbekturizm" MK vakolatli davlat organi sifatida aloqador davlat tashkilotlari bilan birgalikda; shuningdek, viloyat, shahar va tuman xokimliklari o`z hududlaridagi turistik yo`nalishlarda; turistik korxona va tashkilotlar esa ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turistlarni himoya qilinishi va xavfsizligini ta'minlash yuzasidan o`z dasturlarini ishlab chiqib, uning bajarilishi ustidan nazorat olib borishlari lozim.

Qonunning 19 - moddasi "Turistlarning xavfsizligini ta'minlash chora - tadbirlari", - deb nomlanib, unda "turistik faoliyat sub'ektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida:

- turistlarning safarda xavf - xatardan holi bo`lishlari uchun shart - sharoitni, safar, sayr, ekskursiya yo`llari, musobaqalar o`tkaziladigan joylarning obodligini ta'minlashlari;
- turistlarga jarohatlanish va baxtsiz hodisalardan saqlanish hamda ularning oldini olish usullarini o`rgatishlari, birinchi tibbiy yordam ko`rsatish yuzasidan yo`l - yo`riq berishlari, shuningdek, belgilangan yo`nalishning xususiyati va turistlarning xatti - harakatiga bog`liq holda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan xavf manbalari haqida ularning o`zini xabardor qilishlari;
- turistlarning sayohatlar, safarlar, musobaqalar, boshqa turistik tadbirlarga tayyorgarligi ustidan nazoratni amalga oshirishlari;
- falokatga uchragan turistlarga tezkor yordam ko`rsatishlari;

- avtomobil, tog`, chang`i, velosiped, suv, mototsikl, piyoda safar, g`or turizmi va turizmning boshqa maxsus turlarini tashkil etish va o`tkazishda xavfsizlikning alohida talablarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari shart.

Turistik sayohatlarni turistlar harakatlanishining faol shakllaridan foydalangan holda tashkil etishga ixtisoslashgan turistik faoliyat sub'ektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash, ekstremal vaziyatlarda ularga yordam ko`rsatish va ularni himoya qilish maqsadida xizmat ko`rsatishni ko`zlab qidiruv - qutqaruv xizmatlari bilan shartnomalar tuzadilar. Qidiruv - qutqaruuv xizmatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi", - deyilgan.

Tayanch iboralar

- Xavfsizlik choralari
- Atrof - muhit ta'siri
- Jismoniy toliqish
- Moddiy - ma'naviy ziyon

Nazorat va mulohaza savollari

1. Turistlarning hayotiga ta'sir etuvchi omillar deganda nimani tushunasiz?
2. Turistlar hayotiga atrof - muhit qay tarzda ta'sir etadi?
3. Jismoniy toliqish, asabiy va ruxiy omillar qaysilar?
4. Biologik omillar nima degani?
5. Shaxsiy xavfsizlik va xavfsizlik buyumlari deb nimalarni tushunasiz?
6. Nurlanish va kimyoviy omillar qanday?
7. Yong`in xavfini ta'riflab bering?
8. Turistlarni tashishdagi xavfsizlik chora - tadbirlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Turistlar tomonidan xavfsizlik qoidalari qay tarzda buziladi?
10. O`zbekiston Respublikasining "Turizm to`g`risida"gi Qonunida turistlarning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan nima deyilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 - yil 27 - iyuldagi "O`zbekturizm" MKni tashkil etish to`g`risida"gi Farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk ipak yo`li"ni qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora -tadbirlar to`g`risida"gi Farmoni.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 - yil 15 - apreldagi "2005 - yilgacha bo`lgan davrda O`zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to`g`risida"gi Farmoni.
4. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustda qabul qilgan "Turizm to`g`risida"gi Qonuni.
5. Основы туристской деятельности (Учеб.пособие). Составитель Ильина Е.Н. - М.: Советский спорт, 2000 г.
6. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Санкт - Петербург, 2000 г.
7. Бгатов А.П. Туристские формальности. Учебное пособие. 2004.
8. Воронкова Л.П. История туризма и гостеприимства. Учебное пособие. ГРИФ. 2004.

16 - bob. Turistik sug`urta

16. 1. Sug`urta haqida tushuncha

16. 2. Turistik sug`urta va uning turlari

16. 1. Sug`urta haqida tushuncha

Sug`urta o`z mohiyati jihatidan faoliyatning alohida sohasidir. Baxtsiz hodisa, tabiiy ofat, ish bilan shug`ullangan kishilarning ehtiyot choralarini ko`rmaganligi va boshqa sabablar tufayli ziyon ko`rilishi mumkin. Bu hilda ziyon ko`rilganda muhofaza qilishning ancha samarali va zarur shakli bor, bu - sug`urtadir. Sug`urta iqtisodiy munosabatlar tarkibiga kiradi hamda maxsus mablag` fondini yaratish tadbirlarini o`z ichiga oladi. Mazkur mablag` fondidan esa turli voqealar yuz berganda, agar bu voqealar xususida sug`urta shartnomasida o`zaro kelishib olingan bo`linsa, etkazilgan zararining o`rnini qoplash va ziyon ko`rgan tomonga yordam berish maqsadida foydalaniladi.

Ijtimoiy faollik va ish faoliyati g`oyatda avj olgan hozirgi sharoitda sug`urtaning zarurligiga shak - shubha yo`q, chunki sug`urta turmush va faoliyatning turli jabhalarida ro`y berayotgan zarar ko`rishlar o`rnini jadal qoplashning eng qulay vositasidir. Masalan, bunday hodisalar ishlab chiqarish jarayonida, mahsulotni tashish va undan foydalanishda, transportda baxtsiz hodisalarga duch kelishda, turli xil tabiiy ofatlar oqibatida ro`y berishi mumkin.

Sug`urta faoliyati maxsus qonunlar vositasida aniq belgilab ko`yiladi. Odatda sug`urta jarayonlari aktsiyadorlar kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi. Sug`urta shartnomaviy munosabat hisoblanib, tomonlardan biri o`ziga etkazilgan zarar uchun shartnomaga ko`ra haq undirib oladi. Sug`urta shartnomasi sug`urta qiluvchi bilan sug`urta qilinuvchi o`rtasidagi bitim bo`lib, u sug`urta qilishning mazkur turi shartlariga muvofiq har ikki tomon o`rtasidagi majburiyatni tartibga solib

turadi. Boshqa shartnomalar kabi sug`urta shartnomasida ham tomonlarning o`zaro roziligi va qonuniy huquqini ifodalovchi muayyan shartlar bo`lishi zarur.

Yuridik kuchga ega bo`lgan sug`urta shartnomasini tuzishdan avval, boshqa hamma shartnomalarda bo`lgani kabi qo`yilgan shartlarni qabul qilib, shartnoma tuzish haqidagi taklifga berilgan roziliq (ofert aktsepti) yoki sug`urta qiluvchining taklifiga sug`urta qilinuvchining roziligi bo`lishi shart. Sug`urta kompaniyasining sug`urta shartnomasida nazarda tutilgan majburiyati u vakil qilgan agentning shu xususdagi og`zaki tasdig`i bilan darhol kuchga kirishi mumkin, chunki bu agent odatda ishonch huquqiga ega. Shartnoma memorandum shaklida agent tomonidan rasmiylashtiriladi, bu vaqtinchalik hujjat hisoblanadi. Ana shu hujjatga ko`ra sug`urta kompaniyasi zimmasiga hujjat rasmiylashtirilishdan to sug`urta polisi (sug`urta qildirilganlik to`g`risidagi hujjat) berilishiga (yoki uni berishdan voz kechishga) qadar bo`lgan davr uchun sug`urta javobgarligi yuklatiladi. Bu xildagi memorandum vaqtinchalik sug`urta guvohnomasi deb atalishi mumkin. Sug`urta qilishning bu bosqichida sug`urta qilinuvchining og`zaki roziligi kifoyadir. Ammo, shunga qaramay, sug`urta qilinuvchi har holda keyinchalik biron - bir ishkal chiqmasligi uchun tegishli hujjat berilishini talab qilmog`i lozim. Sug`urta shartnomasi yozma ravishda bitilgan rasmiylashtirilgan bitim bo`lib, u sug`urta polisi deb ataladi. Sug`urta polisi ikki xil: qiymati ko`rsatilgan polis yoki ochiq polis bo`lishi mumkin. Qiymati ko`rsatilgan polisda sug`urta to`lovining hajmi va u qaysi muddatda to`lanishi aniq - ravshan ko`rsatiladi (agar shartnomada boshqa shartlar qo`yilmagan bo`lsa). Ochiq polisda esa sug`urta shartlariga ko`ra sug`urta haqi etkazilgan zarar hisob - kitob qilinganidan so`ng to`lanishi qayd etiladi. Qiymati ko`rsatilgan polisga hayotni sug`urta qilish misol bo`lsa, ochiq polisga esa avtomobillarni sug`urta qilish misol bo`la oladi.

Turli falokatli hollar sababli, sug`urtalash taklif etiladi. Sug`urtalangan shaxslarga bunday xollarda yordam ko`rsatiladi va harajatlarning hammasi yoki ayrim qismini sug`urta kompaniyasi o`z zimmasiga oladi. Rivojlangan mamlakatlarda

yashaydigan kishilar o'z hayotlarini sug'urta qiladilar. Rossiyada aholi tibbiy sug'urtaga ega. Hozirgi kunda Rossiyaliklar faqat Rossiya hududida tekin xizmatdan foydalanadilar. Bu imkoniyat faqat Rossiya fuqarosi uchundir. Xorijiy davlatlar fuqarolari tibbiy xizmat doirasidagi kelishuvlarga qarab davolanadilar. Masalan, Rossiyada Buyuk Britaniya fuqarolari uchun va xorijga chiquvchi fuqarolar uchun ham kelishuvga asosan bunday imkoniyatlar bor. Bu sug'urta tibbiy xizmat harajatlarini to'satdan kasal bo'lganda, baxtsiz xodisaga uchraganda va hayotini to'liq himoyalashda xizmat qiladi.

Shuningdek, depozit sug'urta taklif qilinadi. Bu sayohatga ma'lum sababga ko'ra chiqqa olmaslikda, viza olmaganida, yuk yo'qolganda, shaxsiy pullar yoki kredit karta yo'qolganda, guruhdan qolib ketilganda va boshqa hollarda xizmat qiladi. Turistlar uchun jarohatlanish yuqori bo'lgan hollarda, masalan, tog' sportida, cho'l turizmida, suv osti va ustidagi turizmlarda alohida sug'urta turi ishlatiladi.

Turizm sug'urtasi majburiy emas. Agar turist borayotgan joyda bu narsa qonun bilan belgilangan bo'lsa, unda bu sug'urtalar majburiy hisoblanadi. Frantsiya, Germaniya va AQShda tibbiy xizmat sug'urtasi majburiy hisoblanadi. Turistlar uchun va boshqa sug'urtalangan kishilar uchun alohida xalqaro xizmati - emergency services lar mavjud. Bu xizmatga zarurat tug'ilganda telefon orqali xabar beriladi va operator kimga va qaerga murojaat etishni aytadi yoki avariya hollarida operatorning o'zi kerakli joyga xabarni etkazadi.

Sug'urta xizmati keng tarqalgan Rossiyada birorta turist xorijga sug'urtalashsiz chiqmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda hayotni sug'urtalash oddiy holga aylangan.

16. 2. Turistik sug`urta va uning turlari

O`zbekiston Respublikasi "Turizm to`g`risida"gi Qonunining 20 - moddaci "Turistlarni sug`urta qilish", - deb nomlanib, unda: turistlarni sug`urta qilish majburiydir va u turistik faoliyat sub'ektlari tomonidan sug`urta faoliyati olib borish huquqiga ega bo`lgan tegishli sug`urta tashkilotlari bilan tuziladigan bitimlar asosida amalga oshiriladi, - deyiladi.

Biror joyga yoki mamlakatga qatnovchi turist mahalliy aholiga qaraganda ko`proq noqulay omillarga duch keladi. Shuning uchun avvalam bor turistning sog`lig`i sug`urtalanadi. Keyin esa mol - mulki sug`urtalanadi. Turistning bir kunlik turistik sug`urtasi o`rtacha bir yarim dollorga to`g`ri keladi. Dunyodagi turistlar soni tahminan yarim milliard deb olinib, sayohat 5 - 7 kun davom etsa, turizmning sug`urtalash sohasida aylanayotgan mablag`i hajmini baholash qiyin emas. Turizm rivojlangan mamlakatlarda maxsus tezkor xizmat guruhlarini tashkil etilgan bo`lib, turistga biror kor hol bo`lsa u telefon orqali o`zining shaxsiy nomerini aytadi va unga zarur bo`lgan yordam ko`rsatiladi. Turizm statistikasiga qaraganda, sug`urta to`lash holati har bir 100 ta turistning bittasiga to`g`ri keladi. Shu o`rinda ta'kidlab o`tish kerakki, turistlar bilan ro`y bergan har qanday holatlar sug`urta kompaniyasi tomonidan tan olinmaydi va unga sug`urta puli berilmaydi.

Hozirgi vaqtda turizm sohasida sug`urta tizimi 10 dan ortiq sug`urta xizmatini taklif etadi. Shulardan eng muhimlariga to`xtalib o`tamiz:

1. Shaxsiy sug`urta. Insonning hayoti, sihat - salomatligi, mehnat qobiliyati ana shu sug`urta munosabatlarining ob'ekti hisoblanadi. Bunga quyidagilar kiradi:

- hayotni sug`urta qilish;
- baxtsiz xodisalardan sug`urta qilish;
- tibbiy harajatlar va kasallik yuzasidan sug`urta qilish.

2. Mol - mulkni sug`urta qilish. Turli xil moddiy boyliklar sug`urta munosabatlari ob'ektiga kiradi. Masalan:

- dengiz sug`urtasi, shu jumladan yuklarni, kemalarni va hokazolarni sug`urta qilish;

- yong`indan va boshqa xavf - xatardan (tabiiy ofatdan) sug`urta qilish;

- buzib kirish yo`li bilan o`g`irlik qilishdan, boshqa yovuz niyat bilan yoki g`ayri qonuniy yo`l bilan uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilgan harakatlardan sug`urta qilish;

- avtomobil transporti vositalarini sug`urta qilish;

- texnikaviy xavf - xatardan (qurilish - montaj ishlaridagi va hokazo xavf - xatardan) sug`urta qilish;

- oyna sinishidan sug`urta qilish hamda sug`urtaning bu boradagi boshqa maxsus turlari;

- ijara ishlarini sug`urta qilish hamda sug`urtaning bu boradagi boshqa turlari.

3. Mas'uliyatni sug`urta qilish. Etkazilgan zarar o`rnini qoplash bo`yicha zimmaga olingan mas'uliyat bu sug`urta munosabatlarining ob'ekti hisoblanadi.

Bunga quyidagilar kiradi:

- ish bilan ta'minlovchilarning mas'uliyatini sug`urta qilish;

- umumfuqaro mas'uliyatini sug`urta qilish;

- avtomobil xo`jaligi sohasida ishlovchi fuqarolar mas'uliyatini sug`urta qilish;

- ishonch va kafillik mas'uliyatini sug`urta qilish.

Shuni ham aytish kerakki, faqat tijorat ishlarining o`zida 200 dan ortiq sug`urta turlari mavjuddir.

Xulosa

Mazkur mavzu ham alohida ahamiyatga egadir. Unda sug`urta haqida umumiy ma'lumot, sug`urta fondi, sug`urta shartnomasi, xorijiy davlatlardagi sug`urtalash tizimi, turistik sug`urta va uning turlari (shaxsiy sug`urta, mol -mulkni sug`urta qilish, mas'uliyatni sug`urta qilish), O`zbekiston respublikasining "Turizm to`g`risida"gi Qonunida turistik sug`urtalash haqidagi modda haqida fikrlar bildiriladi.

O`ylashimizcha, O`zbekistonda ham turistik sug`urta xorijiy davlatlar kabi yuksak darajaga ko`tariladi.

Tayanch iboralar

- Turistik sug`urta
- Sug`urta fondi
- Sug`urta shartnomasi
- Turistik sug`urta turlari

Nazorat va mulohaza savollari

1. Sug`urta va turistik sug`urtalash, - deganda nimani tushunasiz?
2. Sug`urta fondi nima?
3. Sug`urta shartnomasi qay tarzda tuziladi?
4. Turistik sug`urta turlarini aytib bering?
5. Shaxsiy sug`urta haqida nimalarni bilasiz?
6. Mol - mulk sug`urtasi nima uchun kerak?
7. Mas'uliyatni sug`urta qilish nima degani?
8. Xorijiy davlatlarda turizm sug`urtasining o`rni qanday?
9. O`zbekiston respublikasida turistik sug`urtalashni qanday tasavvur qilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston respublikasining "Turizm to`g`risida"gi Qonuni.
2. I. Karimov. O`zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo`lida. -T., O`zbekiston, 1995.
3. J. Ro`ziev. AQShda tadbirkorlik: ijtimoiy - iqtisodiy va huquqiy masalalar. -T., Fan, 1991.
4. М. Биржаков. Введение в туризм. С. Пб.: Издательский Торговый дом. -М., Герда, 2000.

5. Бгатов А.П. Туристские формальности. Учебное пособие. 2004.
6. Воронкова Л.П. История туризма и гостеприимства. Учебное пособие. ГРИФ. 2004.

17 - bob. Turistik hujjatlar

17. 1. Turistik firmadagi uslubiy ta'minot

17. 2. Asosiy turistik hujjatlar majmuasi

17. 1. Turistik firmadagi uslubiy ta'minot

Turoperator tomonidan tashkil qilingan turistik mahsulot (tur), uning firmadagi majburiy uslubiy ta'minotini nazarda tutadi. Uslubiy ta'minot maxsus texnologik ta'minot tayyorlov ko'rinishida bo'ladi, unda butun tur yoziladi, ya'ni, turni ishlab chiqarishda turistlarga ko'rsatiladigan barcha xizmatlar bayon etiladi. Bu esa firmadagi ishchilarni aniq, operativ va xatosiz ishlashlari uchun kerak, shu bilan birga turni har doim nazorat qilish, uni rivojlantirish, yuksaltirishga xizmat qiladi.

Turni texnologik hujjatlashtirish yig'masi va mundarijasi me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan. Tur va uning texnologik hujjatlari me'yoriy talablarga javob berishi shart va iste'molchi huquqiga qaratilgan bo'lishi kerak. U tur mahsulotni sertifikatsiyalash davomida kuzatiladi. Texnologik tur yoki yo'nalish turistik papkaning ichida bo'ladi.

Har bir turda texnologik hujjatlar to'plami bo'lishi shart va ular quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Turistik sayohatning yo'nalishi bo'yicha texnologik xarita;
2. Turistik sayohat yo'llanmasiga qisqacha axborot varaqa (blanka)si ("Tur yo'llanma" TUR - 1 shaklidagi odatiy yo'llanma varaqasi). Bu haqda 17. 2. mavzuimizda alohida to'xtalib o'tamiz;
3. Bron (bandlash) varaqasi;
4. Mijoz - turagent o'rtasidagi shartnoma varaqasi;
5. Yo'nalishning axborot - informatsion matni (avtobus turlari uchun);
6. Turning texnologik xususiyatlari yozmasi (buyurtma berish muddati, transportga buyurtma, biletlar, ekskursiyalar, mehmonxonalar va ovqatlanish joylarini bandlash;

yo`nalish bo`yicha transport qatnovi grafigi, kutish va transport almashtirish mumkinligi va hokazo);

7. Yo`nalish bo`yicha ma'lumot (spravochniy) materiallari;

8. Turist uchun mo`ljallangan reklama variantlari va bukletlari;

9. Prays list (kataloglar). 17. 2. mavzuimizda to`xtalib o`tamiz.

Avtomobil turlarida O`zbekiston transport vazirligi tasdiqlagan yo`nalish jadvali va xizmat ko`rsatish texnologiyasidan tashqari avtobusning texnik ma'lumotlari, kilometraj va avtoyo`l xususiyatlari, avtoyo`ldagi ta'qiqlash va chegaralash, yo`l yoqasida dam olish va ovqatlanish shahobchalari, santo`xtash va hokazolar to`g`risida avtomobil yo`nalishi pasporti (xorijiy turlarda yo`l harakat varaqasi) tuziladi.

17. 2. Asosiy turistik hujjatlar majmuasi

1. Turistik sayohatning yo`nalishi bo`yicha texnologik xarita - turdagi ko`rgazmali, eng kerakli ma'lumotlar va axborotlar majmuasidir. Ba'zi hollarda yo`nalishning o`ziga xos xususiyatlari va turistik xizmatga qarab ma'lum bir punktlari qoldirilishi mumkin. Shuningdek, u turistik korxonalarning yo`nalish bo`yicha haqiqiy imkoniyatini ko`rsatadi hamda nazorat qilish va uni kuzatishga imkoniyat yaratadi.

2. Turistik sayohat yo`llanmasiga qisqacha axborot varaqa (blanka)si turistik sayohat yo`llanmasi yoki vaucherning ajralmas qo`shimchasi bo`lib, u turistlarga mo`ljallangan yo`nalish bo`yicha o`zida zaruriy va qo`shimcha malumotlar bo`linmalariga ega bo`ladi.

Axborot varaqasi quyidagi ma'lumotlarni saqlaydi:

- turistik sayohat ko`rinishi va turi, sayohat paytidagi xizmat dasturining asosiy majmuasi, yo`nalishning uzunligi va vaqti, uning (poxod) bo`limi, poxod kategoriyasi va boshqa ma'lumotlar bo`yicha ko`rsatma;

- sayohat trassasi yozuvi, to`xtash shahobchasi, to`xtash vaqti va har bir xizmat shahobchasidagi joylashuv sharoitlari (bino turi, xonadagi joylar soni, uning santexnik jihozlari);

- sayohat hududining qisqa yozuvi (e'tiborga loyiq joylari, joy relefining xususiyatlari va hokazo), har bir shahobchasidagi xizmat ko`rsatish dasturi;

- qo`shimcha to`lovga ko`rsatiladigan xizmatlar majmui;

- sport inshootlari, maydonlar, avto to`xtov joylari, yo`lovchi yo`llari, suv havzalari, atraksionlar, bolalar o`ynash maydonchalari (xonasi), kutubxona, kinozal va hokazolarning mavjudligi va qisqa xarakteristikasi;

- turistik sayohat boshlanadigan turizm tashkilotining manzili va unga etib borish manzili;

Qo`shimcha ma'lumotlar majmuasiga turning yo`nalishi bo`yicha quyidagilar kiradi:

- yosh bo`yicha chegirmalar, ota - ona va bola, oilaviy qabul haqida ma'lumot;

- poxodli tur sayohat bo`yicha maxsus ma'lumot;

- ma'lum tur yoki yo`nalish spitsifikasi va xususiyatlari bo`yicha ma'lumot va tavsiyalar.

"Tur yo`llanma" TUR - 1 shaklidagi turistik yo`llanma qat'iy hisob asosidagi varaqa bo`lib, mijozga bo`lajak tur haqida to`la ma'lumot berib, ma'lum rekvezitlar majmuasi yig`malaridan iborat bo`ladi. Bu yo`llanma shakli odatiy bo`lib, u tur korxonalarga yo`llanmalarni ko`paytirganda ularni to`ldirish imkoniyatini yaratadi va boshqa zaruriy ma'lumolar bilan to`ldiriladi. Bu aniq hisob kitobli varaqa bo`lib, aholi bilan naqt pul hisob - kitobida kassa mashinalarsiz amalga oshirilishi mumkin. Yo`llanma yozilgan (berilgan) kuni va uni sotilgan kuni uni buxgalter hisob -kitob schyot(raqam)larida ko`riladi. Yo`llanma berilganda yirtilgan taloni tur mahsulotning sotilganligi haqidagi ma'lumotni va kunini tasdiqlovchi hujjat sifatida qoladi va QQS (qo`shilgan qiymat solig`i) bo`yicha engilliklar qo`llanishiga asos bo`ladi. Naqt pul

bilan hisob - kitob qilinganda yo'llanma asosi (koreshog) boshqa hujjatlar bilan saqlanadi.

Nakd pulsiz hisob - kitoblarda korxonada berilgan yo'llanma asoslari va saqlanishi tashkil qilinishi shart. Yo'llanmalarning soliq inspeksiyasida qayd qilinishi va uning nomerlanish qoidasi qonun tomonidan belgilangan.

3. Bron (bandlash) varaqasi tur operatorga turistik mahsulotni tashkillashtirish uchun turist yoki turistlar guruhining vakili bo'lgan kishining aniq buyurtmasidir. U dastlabki shartnoma sifatidagi kelishuv sifatida yozma ravishda rasmiylashtiriladi.

4. Mijoz - turagent o'rtasidagi shartnoma varaqasining asosiy majburiyatiga quyidagilar kiradi:

- tur operator (sotuvchi) haqida, turizm faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya haqida, korxonaning huquqiy manzili va bank rekvizitlari haqidagi ma'lumotlar;
- turistik mahsulotni sotish uchun zarur hamda turist (xaridor) haqida ma'lumot;
- qabuldagi tur operator (sotuvchi hamkori), shu jumladan, litsenziya, huquqiy manzili, bank rekvizitlari va aloqa telefonlari haqida ma'lumot;
- turistik mahsulotning iste'molchilar xususiyatlari, tashrif dasturi va sayohat yo'nalishi, turistlarning xavfsizlik sharoitlari va turistik mahsulotning sertifikatsiyasi;
- sayohatni boshlanish va tugash sanasi hamda vaqti, uning davomiyligi;
- turistlarni kutib olish, kuzatish va hamroxlik qilish tartiblari;
- tomonlarning huquqi, majburiyati va javobgarligi;
- turistik mahsulotning chakana narxi va uni to'lash tartibi;
- guruhdagi turistlarning eng kam (minimal) miqdori;
- guruh yig'ilmaganligi sababli, sayohat bo'lmasligini turistga etkazish vaqti;
- shartnomani o'zgartirish va tugatish shartlari, bu savollar bo'yicha kelib chiqqan nizolarni muvofiqlashtirish va zararlarni qoplash tartibi;

- turist tomonidan da'vo xati tur operator yoki tur agentga turistik mahsulotning sifati bo'yicha shartnoma muddati tugaganidan keyin 20 kun ichida yozma ravishda taqdim etilishi kerak va taqdim etilgan kundan 10 kun ichida qoniqtirilmog'i lozim.

Shartnomaning boshqa shartlari tomonlarning kelishuviga asosan aniqlanadi. Kalkulyatsiya, yoki tur narxining hisob - kitobi, bron (bandlash) varaqasida ko'rsatilgan usul bo'yicha chiqariladi. Bunda tur narxi har qaysi alohida xizmat tan narxini qo'shib va me'yoriy belgilangan foyda (u tur operator uchun umuman 15 - 20 % tur tannarxini tashkil etadi) foizi qo'shish bilan chiqariladi. Yo'nalish yozmasi erkin shaklda yozilib, yo'nalish bo'yicha menejer, mutaxassislar va gidlarning ishini engillashtirish uchun, hamda tur agent bilan qilingan shatrnomaga ilova sifatida axborot varaqasiga qo'shimcha qilinadi. Yo'nalish harakat grafigi jadval ko'rinishida tuzilib, har bir kelish va jo'nash sanasi va vaqti ko'rsatiladi.

5. Yo'nalishning axborot - informatsion matni (avtobus turlari uchun). Yo'nalish xarita - jadval yo'nalishli hamda xalqasimon bo'lib, yo'nalishlarning yo'li yakqol ko'rsatish uchun tuziladi.

6. Turning texnologik xususiyatlari yozmasi transportga buyurtma berish muddati, chipta, muzeylarga ekskursiya, mehmonxonalarda joyni bandlash, ovqatlanish hamda viza, sug'urta tuzish qoidolari va muddatlari, transport almashtirish, kutish, qabul paytidagi gidlarning yoki xorijiy namoyondalarning ishi va hokazolar haqidagi eslatmadir.

Ishni engillashtirish uchun ko'rsatiladigan xizmatalar ro'yxati bo'yicha maxsus blank (varaqa)lar tayyorlanadi. Buning hammasi shu turni o'tishini nazorat qiluvchi xizmatchilarni operativ ishlashi uchun zarur.

Turistlar uchun eslatma matni alohida zaruriy hollarda tuziladi, masalan, maxsus turlar tashkil qilishda (sayohat, sport anjomlar bo'yicha, sayohat vaqtida xavfsizlikni hamda sog'liqni saqlash va hokazolar) yoki turistlarni epidemik mamlakatlarga yo'naltirilganda tuziladi. Xavfli infektsiya (halera, vabo, bezgak, yukumli kasalliklar) xafvi bor mamlakatga borayotgan har bir turistga tur operator

imzosi va tur firmaning muhri bosilgan eslatmalar beriladi. Bunday eslatmalarni turistlarda bo'lishi aeroportlardagi bojxona nazorati paytida tekshiriladi.

7. Yo'nalish bo'yicha ma'lumot (spravochniy) materiallari - turning xususiyatlarini yorituvchi har - xil spravochniklar, bukletlar, transport harakati jadvali, muzeylar ishlashi, mehmonxonalar manzili va ularga borish yo'li va boshqa ma'lumotlardir.

8. Turistlar uchun mo'ljallangan reklama variantlari va bukletlari sayohat bo'yicha tur operator haqidagi ma'lumot va imkoniyatlar reklamasi (zaruriy rekvezitlar ko'rsatilgan harakat yo'nalishi bo'yicha tizimlashtirilgan reklama).

9. Prays list. Har qaysi tur operator va kompaniya uchun prays list eng zaruriy hujjatlardan biri hisoblanadi. Tur agentlar bilan hamkorlikdagi muvaffaqiyatlar ko'p jihatlar bilan undagi axborot qanchalik aniq va savodli yozilganligiga bog'liq bo'ladi. Prays list, varaqalar, bukletlar, kataloglar ko'rinishida bo'lishi mumkin (kengaytirilgan narxlar majmuasi). Har qanday vaziyatda ham bu turistik xizmatlar narxi haqidagi axborotdir.

Varaqlarda axborot qisqa yoziladi, narxlar esa qisqa vaqtga ko'rsatiladi.

Kengaytirilgan narx tavsiyasi hajmli nashr (kataloglar, bukletlar) ko'rinishida bo'lib, nafaqat turning taklif qilinadigan mavsumiy narxlar ro'yxati, balki tavsiya va aniqlovchi xarakterga ega axborot, turni rasmiylashtirish uchun zarur hujjatlar ro'yxati, viza va bandlash hujjatlashirish qoidalari (bandlash varag'ini qo'shimcha qilish bilan), avia uchishlar jadvali, avtomobillarning ijarasi shartlari va narxlari to'g'risida ma'lumot va otellarning xususiyatlari, ma'lumotlar yig'ilmasidir.

Xulosa

Mazkur mavzuda turistik hujjatlar masalasining ba'zi tomonlari yoritiladi. Turistik firmadagi uslubiy ta'minot maxsus texnologik hujjatlar ko'rinishida mujassamlashtirilgan bo'lib, u turning to'la yozmasi (opisanie), turistlarga ko'rsatiladigan xizmat, uning ishlash jarayonlari va xizmatlaridan iboratdir. Bu firma

xodimlarini aniq va operativ ishlashlari hamda tur majmuasini doimo nazorat qilish, uni bajarilishi va takomillashtirilishi uchun kerak. Tur texnologik hujjatlari majmuasi va tarkibi me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan bo'ladi. Hamma texnologik hujjat "tur papkasi"ga jamlanadi. Bu tur operatorning shu majmuada to'xtovsiz ishlashi uchun xizmat qiladi va turistik mahsulotning moslashuvchanlik tamoyiliga rioya qilishi uchun hamda har bir firma ishchisi qaysi bir sabab bilan yo'q bo'lganda yo'nalish menedjerini osongina va sifatli almashtirish uchun xizmat qiladi.

Tayanch iboralar

- Turistik hujjatlar
- Turistik firmadagi uslubiy taminot
- Asosiy turistik hujjatlar majmuyi
- Tur texnologik hujjatlar to'plami

Nazorat va mulohaza savollari

1. Turistik hujjatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Turistik firmadagi uslubiy taminot nimalardan iborat?
3. Asosiy turistik hujjatlar majmuyi haqidagi fikringiz qanday?
4. Tur deb nimaga aytiladi?
5. Turning texnologik hujjatlari to'plamida nimalarga e'tibor beriladi?
6. Yo'nalishning texnologik xaritasi nima?
7. Turistik sayohat yo'llanmasidagi axborot varaqasi nima?
8. Mijoz - turagent o'rtasidagi shartnoma haqidagi fikringizni ifodalab bering?
9. Turistlar uchun zaruriy hollarda (masalan, epidemiya hududlari uchun) tuziladigan eslatma matni nima uchun kerak?
10. Reklama variantlari va bukletlari haqida nimalarni bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustda qabul qilgan "Turizm to`g`risida"gi Qonuni.
2. Основы туристской деятельности (Учеб. пособие). Составитель Ильина Е.Н. -М.: Советский спорт, 2000 г.
3. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Санкт - Петербург, 2000 г.
4. Гуляев В.Г. Правовое регулирование туристической деятельности. -М.: 1998 г.
5. G.Nazarova , M.Mirzaev. Turizm huquqi. Talkin. -Toshkent, 2003 y.
6. Tourism and Poverty Alleviation - Recommendations for Action.WTO. 2004.
7. Rural Tourism in Europe: Experiences, Development and Perspectives.WTO. 2004.

XULOSA

Mazkur o`quv qo`llanmaga yakun yasab shuni aytish mumkinki, "Turizm asoslari" fani mutaxassislik fanlarining debochasi - alifbosidir. Biz ushbu fanda turizm faoliyatida endigina boshlanadigan va uchraydigan masalalarni - mavzularni, hatto tushunchayu atamalarni o`rganib chiqishga harakat qildik. Xususan, turizm tushunchasi va uning tarixi masalasi - bu juda katta va dolzarb ahamiyatli mavzudir. Insoniyat tarixi, sayohati, dam olishi - ushbu mavzuning asosini tashkil etadi. O`tmishda minglab odamlar turli maqsadlarda o`zga hududlarga borib, sayohatchi degan nomga musharraf bo`lganlar. Bunga tarix guvoh. Qanchadan - qancha sayohatlar, ekspeditsiyalar, ko`chib yurishlar, savdogarlik, ziyoratchilik tarixi manbaalari tufayli ular haqida ma'lumotga ega bo`lamiz. Xalklar o`tmishi, merosidan esa unga ajoyib javoblarni olamiz. Biron - bir adabiyot yo`qki, unda shu singari ma'lumotlar to`liq holda berilgan bo`lsin. Biz ham imkoni qadar o`rganiladigan masalalarga o`tmishdan manbaalar izlab topishga harakat qildik.

"Turizm asoslari" fanini yoritish jarayonida turizmning maqsadlariga alohida ahamiyat qaratdik. Chunki, maqsadsiz turizm bo`lmaydi. Uni o`rganish muhim masala hisoblanadi. Shuningdek, turizmning tashkiliy tuzilishi va asosiy kategoriyalari mavzusi mazkur fan nuqtai - nazaridan qaralganda lozim bo`lgan mavzular qatoriga kiritildi. Ichki va xalqaro turizm, rejali va havaskor turizm, yakka va guruhli turizm haqida mashg`ulotlar olib borishga ham e'tibor karatildi.

"Turizm asoslari" fanida turizm turlari va asosiy ko`rinishlari mavzusiga o`ziga xos tarzda yondashildi. Turizmning qanday turlari bor, - degan savolga ushbu mavzudan javob olishimiz mumkin. Unda respublikamizda turizmning asosan qaysi turlari ravnaq topganligi bayon etiladi.

O`quv qo`llanmada turist tushunchasining mohiyatini ochib berishga ham harakat qilingan.

Ma'lumki, turizm faoliyati qator sohalar bilan birgalikda tashkil etiladi. Masalan, mehmonxonalar, restoranlar, transport va boshqalar. Turistik industriya mavzusida ushbu masalalar o'rganilishiga e'tibor berilgan.

Bilamizki, respublikamizda turizm infratuzilmasi butkul yuqori darajaga erishmagan va bu jarayon doimiy jarayondir. Qo'llanmada bu ishga alohida yondashilgan.

O'quv qo'llanmada turistik xizmatlar mavzusiga alohida o'rin ajratilgan. Turizm turli xizmatlardan tashkil topadi : tashish, joylashtirish, ovqatlantirish va boshqalar. Bu eng muhim mavzularimizdan biridir.

Turist sayohati davomida borilgan joyda biron - bir sovg'a sotib oladi. Bu turistik tovarlar mavzusida aks ettirilgan.

Turizm bozorida turistik (tur) mahsulot sotiladi. Mazkur tur mahsulot tushunchasi nimani anglatadi va tur mahsulotni yangilash jarayonlari haqida nimalarni bilishimiz kerakligi ham o'quv qo'llanmadan joy olgan.

Shularni alohida tak'kidlab o'tish kerakki, turistik resurslar bo'lmasa, turizm ham bo'lmaydi. Tur resurslar - turizmning yuragi, qon tomiridir. Tabiiy iqlim, tarixiy - madaniy, maishiy resurslar shular jumlasidandir. Bular-ni e'tiborga olib turistik resurslar mavzusi kiritilgan.

Shuningdek, o'quv qo'llanmada ekologiya va turizm, milliy park va rezervatsiyalar, turistik sayohatlar xavfsizligini ta'minlash, turistik sug'urta, turistik xujatlar mavzularini ham imkoni qadar yoritib berishga harakat qilingan.

O'ylaymizki, "Turizm asoslari" o'quv qo'llanmasi mutaxassislar uchun muhim manbaa bo'lib qoladi va kelgusida yangilanishda davom etadi.

ATAMALAR LUG`ATI

1. Turizm - jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog`lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy - amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to`lanadigan faoliyat bilan shug`ullanmagan holda uzog`i bilan bir yil maddatga jo`nab ketishi.

2. Turist - O`zbekiston respublikasi hududi bo`ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo`nab ketgan) jismoniy shaxs.

3. Turistik faoliyat - sayohat va ular bilan bog`liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyat.

4. Ekskursiya faoliyati - turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa ob'ektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo`nalishlar bo`yicha ekskursiya etakchisi hamroxligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi.

5. Turistik resurslar - tegishli hududning tabiiy - iqlim, sog`lomlashtirish, tarixiy - madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy - maishiy ob'ektlari majmui.

6. Turistik faoliyat sub'ektlari - belgilangan tartibda ro`yxatga olingan va turistik xizmatlar ko`rsatish bilan bog`liq faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyasi bo`lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar.

7. Turistik industriya - turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko`rsatishni ta'minlovchi turli sub'ektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport korxonalari, madaniyat, sport muassasalari va boshqalar) majmui.

8. Tur - muayyan yo`nalish bo`yicha turistik xizmatlar majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta'minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat.

9. Turistik xizmatlar - turistik faoliyat sub'ektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot -reklama xizmatlari ko`rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xiz-matlar.

10. Turistik guruh rahbari - turistik faoliyat sub'ektining vakili bo`lgan va uning nomidan ish ko`rib, turistlarga hamroxlik qiluvchi, turistik xizmatlar ko`rsatish shartnomasi shartlarining bajarilishini ta'minlovchi jismoniy shaxs.

11. Gid (ekskursiya etakchisi) - tur qatnashchilariga turistik xizmatlar ko`rsatish shartnomasi doirasida ekskursiya -axborot, tashkiliy yo`sindagi xizmatlar va malakali yordam ko`rsatuvchi jismoniy shaxs.

12. Litsenziya - turistik faoliyatni amalga oshirishga bo`lgan huquqni tasdiqlovchi maxsus ruhsatnoma.

13. Sertifikat - turistik xizmatlar sifatini va ularning muayyan standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.

14. Turistik yo`llanma (vaucher) - turistning yoki turistlar guruhining tur tarkibiga kiruvchi turistik xizmatlarga bo`lgan huquqini belgilovchi va bunday xizmatlar ko`rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat.

15. Turistik industriya (sanoat) - turistlarga xizmat ko`rsatish bilan shug`ullanuvchi tashish, joylashtirish, ovqatlantirish sub'ektlari.

16. Turizm infratuzilmasi - inshootlar majmui, yo`llar, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, sug`urta, bank va boshqa tarmoqlar.

17. Turistik tovarlar - turistik sovg`alar, xaridlar.

18. Turistik (tur) mahsulot - turizm jarayonida amalga oshiriladigan xizmatlar va harajatlar yig`indisi.

19. Turistik sug`urta - turistlarning hayotini majburiy sug`urtalash.

20. Turistik (tur) yo`nalish - turistlarni turizm faoliyatini amalga oshirishlari uchun olib borilgan yo`nalish.

Evropa va Rossiya o`quv adabiyotlari tahlili

"Turizm asoslari" o`quv qo`llanmasini yoritish jarayonida M.B. Birjakovning "Vvedenie v turizm", I.B. Vlasova, I.V. Zorin, E.N. Ilinalarning "Osnovo` turistskoy deyatelnosti" kabi adabiyotlardagi mavzular tahlil etildi. Xususan, Rossiya turizm tizimi, turizm atamalari o`rganildi va o`rinsiz, respublikamizga to`g`ri kelmaydigan tomonlari yoritilmadi. Ijobiy tomonlaridan tarjimalar qilinib, namunalar keltirildi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

I. O`zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O`zbekiston, 2003. -36 b.
2. O`zbekiston Respublikasining "Turizm to`g`risidagi" qonuni. // O`zbekistonning yangi qonunlari. -T.: Adolat, 2000. - b.131 - 140.

II. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari

3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 - yil 2 - iyundagi "Buyuk Ipak yo`li"ni qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora - tadbirlar to`g`risida"gi farmoni. // Xalq so`zi, 1995. 3 - iyun.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekturizm" MKni tashkil etish to`g`risida"gi farmoni. // Xalq so`zi, 1992. 28 - iyul.

III. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 - yil 8 - avgustdagi "Turistik tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish to`g`risida" gi qarori. // Xalq so`zi, 1998. 9 - avgust.

IV. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

6. Karimov I. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo`lishi darkor. // Xalq so`zi, 2006. 25 - fevral.
7. Karimov I. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. // Xalq so`zi, 2006. 11 - fevral.
8. Karimov I. Inson, uning huquqi va erkinliklari hamda manfaatlari - eng oliy qadriyat. // Xalq so`zi, 2005. 9 -dekabr.
9. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O`zbekiston, 2005. - 92 b.
10. Karimov I. O`zbekiston xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo`lmaydi. - T.: O`zbekiston, 2005. - 160 b.
11. Karimov I. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. - T.: O`zbekiston, 2005. - 62 b.
12. Karimov I. Biz tanlagan yo`l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. - T.: O`zbekiston, 2003. - 318 b.
13. Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O`zbekiston, 2000. - 350 b.

V. Darsliklar

14. Alieva M.T., Umarjanov A. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. Darslik. - T.: Moliya, 2005. - 339 b.
15. Alieva M.T., Salimova B.X.. Mehmonxona menejmenti. Darslik. - T.: Moliya, 2005. - 275 b.
16. Кабушкин Н. И.. Менеджмент туризма. - М.: Новое знание, 2005. - с. 644.
17. Биржаков М.Б. Введение в туризм. - СПб.: Издательский Торговый Дом «Герда», 2004, - 444 с.
18. Елизаров Ю. Ф. Экономика организаций. Учебник - М.: Экзамен, 2005 - 496 с.
19. Одинцов А.А. Менеджмент организации. Введение в специальность. Учеб.

пособ. - М.: Экзамен, 2004, - 397 с.

20. Козырев В.М., Зорин И.В., Сурин А.И. и др. Менеджмент туризма. Экономика туризма. Учебник (серия менеджмент туризма) (ГРИФ). - М.: Финансы и статистика, 2004. - 253 с.

21. Александров А.Ю. Международный туризм. Учеб. Изд. Гриф. Мо. - М.: аспект. Пресс, 2004. - с. 400

22. Сенин В.С. Организация международного туризма. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 400 с.

23. Гуляев В.Г. Правовое регулирование туристской деятельности. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 304 с.

24. Янкевич В.С. Маркетинг в гостиничной индустрии и туризме. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 415 с.

25. Валдайцев С.В., Воробьев П.П. Инвестиции. Учебник. - М.: ТК Венби, издательство Проспект, 2003. - 300 с.

26. Бутуров И.Н. Маркетинг и менеджмент иностранного туризма. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 107 с.

27. Medlik, Dictionary of Travel, Tourism and Hospitality. Printed and bound in Great Britain by Biddles Ltd -3rd ed, 2003. - 256 p.

28. Brassington, F. and Pettit, S. Principles of Marketing. 2nd ed, Prentice-Hall, 2002. - 255 p.

29. Wright, L.T. and Crimp, M. The Marketing Research Process. 5th ed., Financial Times/Prentice-Hall, 2002. - 240 p.

30. Richard Sharpley and David J. Telfer, Tourism and Development: Concepts and Issues, Printed and bound in Great Britain by Cambrain Printers Ltd. 2002. - 300 p.

31. Middleton, Victor T.C., Marketing in travel and tourism. Printed and bound in Great Britain by MPG books Ltd, Bodmin, Cornwall -3rd ed., 2001. - 350 p.

32. Stephen J Page, Paul Brunt, Graham Busby and Jo Connell, Tourism: a modern synthesis, Printed in Italy by G. Canale & Co 2001. - 240 p.

33. Villas F., Béchamel L. International Tourism. An Economic perspective. Chippenham, 2001. - 400 p.

VI. O`quv qo`llanmalar

34. A. Bekmurodov, M. Boltaboev, B. Amonbaev, M. Toshxo`jaev. O`zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 1 - qism. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohatlar. T.: TDIU. - 2005, 59 b.

35. A. Bekmurodov, R. Xakimov, B. Safarov, G. Zaxidov. O`zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 2 - qism. Qishloq xo`jaligida iqtisodiy islohatlar va fermerlik harakati. T.: TDIU. - 2005, 66 b.

36. A. Bekmurodov, S. Sattorov, J. To`raev, Q. Soliev, S. Ro`ziev. O`zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 3 - qism. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji - davr talabi. T.: TDIU. - 2005, 66 b.

37. A. Bekmurodov, R. Tojiev, X. Qurbanov, M. Alimardonov. O`zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 4 - qism. Moliya va bank tizimidagi islohatlar samarasi. T.: TDIU. - 2005, 62 b.

38. A. Bekmurodov, Sh. Toirov, E. Maxmudov, M. Isakov, N. To`raev. O`zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. 5 - qism. Tashqi iqtisodiy siyosat savdo va investitsiyalar oqimlari. T.: TDIU. - 2005, 62 b.

39. Alieva M.T., Xo`jaev O`.X., Norchaev. A.N. Turizm rivojlanishini prognozlash. O`quv qo`llanma. - T.: TDIU. - 2006. - 214 b.

40. Irmatov M.M., Alieva M.T. va boshqalar. Turizmni rejalashtirish. - T.: Moliya, 2005. - 167 b.

41. Alieva M.T., Xo`jaev O`.X. Xalqaro turizm sarmoya siyosatni shakllantirish. - T.: Moliya, 2005. - 210 b.

42. Мирзаев. Р. Солнце путешествует по миру чтобы рассеять. - Т.: Ипак «Шарк», 2005. - 230 с.

43. Мирзаев Р. Туристические жемчужины Узбекистана. - Т.: Ипак «Шарк»,

2005. - 38 с.

44. Алиева М.Т., Мирзаев М. ва бошқалар. Туризм ҳуқуқи. Ўқув қўлланма. - Т: Талқин, 2003. - 245 б.

45. Косолонов А.Б. Теория и практика экологического туризма. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 253 с.

46. Жукова. М.Ж. Менеджемент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 288 с.

47. Жукова М.Ж. Индустрия туризма: менеджмент организации. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 200 с.

48. Ушаков Д.С. Технология выездного туризма. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 240 с.

49. Сапожникова. Е.Н. Страноведение. Теория и методика туристского изучения стран. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 240 с.

50. Александров А.Ю. Международный туризм. Учебное пособие для ВУЗов. - М.: Аспект Пресс, 2004. - 470 с.

51. Юрьев А.П. Планирование туризма. Учебное пособие. - Донецк, 2004. - 288 с.

52. Дурович А.П. Маркетинг в туризме. Учебное пособие 3 - е изд., стереотип., (ГРИФ). - М.: Финансы и статистика, 2004. 496 с.

53. Воронкова Л.П. История туризма и гостепримства. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 304 с.

54. Чудновский А.Д., Жукова М.А., Сенин В.С. Управление индустрий туризма. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 437 с.

55. Здоров А.Б. Экономика туризма. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 266 с.

56. Балабанов И.Т. Балабанов А.И. Экономика туризма. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 176 с.

57. Дурович А.П. Реклама в туризме. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 254 с.

58. Соколова М.В. История туризма. Ученое пособие. - М.: Финансы и статистика, 2002. - 352 с.
59. Travel Guide Uzbekistan - Tashkent: National Company Uzbekturizm 2003. -10p.
60. Gee Ch. Y., Makens J.C., Chey D. The Travel Industry. 3d. Wdit. - New York John Wiley Sons Ine. 2003. - 250 p.
61. Lundberg D., Krishnamurthy M. - Tourism Economics. New York: John Wiley Sons Ine. 2003. - 210 p.
62. Hospitality, Tourism and heisure Management: Issues in Streegy and Culture. London, 2003. - 265 p.
63. Opperman, Martin and Kye - Sung Chon. Successful Tourism Management: Fundamentals of Tourism - New Delhi: Sterling Publish. Private LTD., 2002. - 258 p.
64. Tourism, Crime and International Security Issues / md. By Abraham Pizam and Yoe / Mans Fold. Chichester; John Wiley Sons, 2001 - 269 p.
65. Bonifase, Priseilla. Managing Quality Cultural Tourism - London, 2001 - 223 p.

VII. Ilmiy manografiyalar, maqolalar va boshqa asarlar

66. Перспективы развития международного туризма. Материалы V - Международной научно - практический конференции студентов и молодых ученых. - Донецк. 2002.
67. Turistik faoliyatda soliq muammolari va ularni tartibga solish. Xalqaro ilmiy - amaliy anjuman. -T.: 2002.
68. Xalqaro bozorda milliy turizm. O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2001. № 1 - 2.
69. Xalqaro turizmning Ispaniya iqtisodiyotidagi ahamiyati. O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2001. № 7 - 8.
70. Xalqaro turizm iqtisodiy rivojlanish vositalaridan biri. O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2001. № 11 -12.

VII. O`zbekiston Respublikasida chop etilgan

71. Мирзаев. Р. Солнце путешествует по миру чтобы рассеять тени. - Т.: Ипак «Шарк», 2005. - 236 с.
72. Мирзаев. Р. Туристические жемчужины Узбекистана. - Т.: Ипак «Шарк», 2005. - 86 с.

VIII. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

73. Fayzieva Sh. R. O`zbekistonda turizm rivojlanishining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Nomzodlik dissertatsiyasi. - Toshkent, 2006.
74. Norchaev. A. N. Halkaro turizm rivojlantirishning iqtisodiy o`lishga ta'siri. Nomzodlik dissertatsiyasi. - TDIU, 2004. - 120 b.
76. Hakimov D. S. O`zbekistonda milliy turizm modelining shakllanishi. 2005. - 107 b.
77. Ibobekov F. B. O`zbekistonda turizm industriyasining rivojlantirish istiqbollari. 2005. - 96 b.

IX . Ilmiy - amaliy anjumanlar ma'ruzalari to`plami

78. Алиева М.Т. Развития индустрии туризма. «Международные Плехановские чтения», 19 апреля РЭА. им. Г.В. Плеханова, 2006.
79. Алиева М.Т. Развитие инфраструктуры туризма в Узбекистане. Материалы VII - Международной научно -практической конференции студентов и аспирантов. Донецк, 2004.
80. Норчаев А.Н. Tourism as a dynamic branch of the economy of Uzbekistan. Материалы VII - Международной научно -практической конференции студентов и аспирантов. Донецк, 2004.
81. Норчаев А.Н. The Uzbek model of tourism. Материалы VII - Международной научно - практической конференции студентов и аспирантов. Донецк, 2004.
82. Норчаев А.Н. Туризм индустриясини менежменти. Республика илмий - амалий

анжуман. - Т.: 2003.

83. Алиева М.Т. Тенденции развития туризма в Узбекистане. «Пятнадцатые международные Плехановские чтения», 27 апреля РЭА.им. Г.В.Плеханова. 2002.

X. Gazeta va jurnallar

84. O`zbekiston qishloq xo`jaligi. № 2, 2004.

85. «Turkiston» gazetasi. 2003.

XI. Statistik malumotlar to`plamlari

86. Tourism: 2020 vision, Madrid, 1997, 21 r.

XII. Internet saytlari

www.peugeotufa.ru <<http://www.peugeotufa.ru>> - цены услуг

www.bashepo.ru - выставки, конференции

www.interunion.ru <<http://www.interunion.ru>> - туристские ассоциации

www.world-tourism.org - Всемирная туристская организация

www.wttc.org - Всемирный Совет по путешествиям и туризму

www.interunion.ru <<http://www.interunion.ru>> - туристские ассоциации

www.world-tourism.org - Всемирная туристская организация

www.tag-group.com - Консультативная группа по вопросам туризма (TAG)

www.e-tours.ru - деловые туры, выставки, конференции

www.travel-library.com - Электронная библиотека путешествий

www.uzbektourism.uz - O`zbekturizm MK

XIII. Virtual kutubxona elektron darsliklari va o`quv qo`llanmalari

87. Alieva M., Norchaev A. Turizm menejmenti. Elektron darslik. 2005

88. Alieva M., Qutlimuratov F. Turizm iqtisodi. Elektron darslik. 2005

89. Alieva M. Turizm sarmoya siyosati. Elektron darslik. 2005.

XIV. Bitiruv malakaviy ishlari (bakalavriat uchun)

90. Aqqulov A. "Ispaniyada xalqaro turizm rivojlanishi va uning iqtisodiyotga integratsiyalashuvi". 2005 y. - 85 b.

91. Sidiqova S. "O`zbekiston Respublikasida turoperator faoliyatini rivojlantirish". 2005 y. - 97 b.

Mirzaev Murod Ahmadjonovich
Aliyeva Mahbuba To'ychiyevna

T U R I Z M A S O S L A R I

(O'quv qo'llanma)

Muharrir: **Vaxobova M.M.**

Texnik muharrir: **Pirmatov X.**

Kompyuterda sahifalovchi va dizayn: **Xaydarov N.**

TDIU bosmaxonasida bosildi.

700063, Toshkent sh., O'zbekiston ko'chasi, 49-uy.

Shartli bosma tabog'i – 20,0

Adadi 500 nusxa

320,1,318,3,316,5,314,7,312,9,310,11,308,13,306,15,304,17,302,19,300,21,298,23,296,25,294,27,292,29,290,31,288,33,286,35,284,37,282,39,280,41,278,43,276,45,274,47,272,49,270,51,268,53,266,55,264,57,262,59,260,61,258,63,256,65,254,67,252,69,250,71,248,73

246,75,244,77,242,79,240,81,238,83,236,85,234,87,232,89,230,91,228,93,226,95,224,97,222,99,220,101,218,103,216,105,214,107,212,109,210,111,208,113,206,115,204,117,202,119,200,121,198,123,196,125,194,127,192,129,190,131,188,133,186,135,184,137,182,139

180,141,178,143,176,145,174,147,172,149,170,151,168,153,166,155,164,157,162,159

2,319,4,317,6,315,8,313,10,311,12,309,14,307,16,305,18,303,20,301,22,299,24,297,26,295,28,293,30,291,32,289,34,287,36,285,38,283,40,281,42,279,44,277,46,275,48,273,50,271,52,269,54,267,56,265,58,263,60,261,62,259,64,257,66,255,68,253,70,251,72,249,74,247,

76,245,78,243,80,241,82,239,84,237,86,235,88,233,90,231,92,229,94,227,96,225,98,223,100,221,102,219,104,217,106,215,108,213,110,211,112,209,114,207,116,205,118,203,120,201,122,199,124,197,126,195,128,193,130,191,132,189,134,187,136,185,138,183,140,181,

142,179,144,177,146,175,148,173,150,171,152,169,154,167,156,165,158,163,160,161